

XALQ OG'ZAKI IJODI

GULNOR PARI



XALQ OG‘ZAKI IJODI

O‘ZBEK XALQ DOSTONLARI

(«Go ‘ro ‘g’li» dostonlari turkumidan)

GULNOR PARI



UDK: 822.625

KBK: 887.52

M 105

Xalq og'zaki ijodi. «Gulnor pari» / doston / «Go'ro'g'li» dostonlari turkumidan / T.: “Oltin qalam”, 2023. – 320 b.

Aytuvchi:

MUHAMMAD JOMUROT O'G'LI PO'LKAN SHOIR

Nashrga tayyorlovchi:

Muhammadnadir SAIDOV

Zubayda HUSAINOVA

Qayta nashrga tayyorlovchi, iqtibos va izohlarni kirituvchi:

Ergashboy MATYOQUBOV

AZIZ KITOBXONLAR!

Qo'lingizdag'i ushbu kitob, ya'ni "Gulnor pari" dostoni o'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lib ming yillar davomida xalqimiz baxshilari tomonidan kuylanib, xalqimiz tomonidan sevib tinglangan.

"Gulnor pari" dostonining ushbu nusxasi xalqimizning mashhur baxshisi Muhammad Jomurot o'g'li Po'lkan shoir (1868-1937) tomonidan kuylangan. Nashrga tayyorlash ishlari esa Muhammadnadir SAIDOV va Zubayda HUSAINOVA tomonidan amalga oshirilgan.

"Gulnor pari" dostonida o'zbek xalqining azal-azaldan imon-e'tiqod, ornomus va yurt birligi yo'lida o'zini ayamasligi yorqin aks ettirilgan. Siz dostonni o'qish davomida Go'ro'g'lining Hindistonga Gulnor parini olib kelish uchun yo'lg'a chiqishi, Safar davomida Afg'onistonda mehmon bo'lishi, Hind shohi Toy hindi bilan jang qilishi, Hind vaziri Siminning Go'ro'g'liga do'st bo'lishi, ikki tomon bahodirlarining yakkama-yakka kurashi, Go'ro'g'liga yordamga Hasan Chopson va Samandar devlarning kelishi, Go'ro'g'lining Hindistondan Gulnor parini olib qaytishi, Chambilga bostirib kelgan Bektosh, Rayhon arablarning sarguzashtlariga, Go'ro'g'lining Chambilni dushmanlardan ozod qilishi kabi taassurotlarga boy voqealarga guvoh bo'lasiz.

Shuningdek, siz ushbu dostonni o'qish davomida xalqimizning bir qancha tarixiy etnografik urf-odatlari, dehqonchilik, chorvachilik, safar, baxillik va saxyilik, iyomon va e'tiqodning muqaddasligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Dostonning ushbu nashriga hozirgi davr kitobxonalarining talab va iltimoslariga asosan qo'shimcha iqtiboslar kiritildi va asar, imkonli boricha, hozirgi o'zbek adabiy tili qoidalari asosida qayta tahrirlandi.

UDK: 822.625

KBK: 887.52

ISBN: 978-9910-750-01-4

© Xalq og'zaki ijodi.

© “Oltin qalam” nashriyoti.

«GULNOR PARI» DOSTONI HAQIDA

Muhammadqul Jomrod o‘g‘li Po‘lkandan yozib olingan «Gulnor pari» dostoni «Go‘ro‘g‘li» dostonlari turkumiga man-subdir. Dostonda o‘zbek xalqining sevimli epik qahramoni Go‘ro‘g‘lining uzoq Hindiston elidan go‘zal Gulnor parini olib kelishi kuylanadi.

Go‘ro‘g‘li bilan afsonaviy Chambil shahrida uchrashib, tanishgan Gulnor pari, o‘z eliga borib, ota-onasining roziligi bilan yana Chambilga qaytib kelishga va Go‘ro‘g‘liga xotin bo‘lishga va‘da qilib ketgan edi.

Misqol pari ham xuddi shunday va‘da qilib Eram bog‘iga ketgan va va‘dasiga vafo qilib, Chambilga kelgan («Misqol pari» dostoniga qaralsin).

Ammo Gulnor pari o‘z va‘dasi ustidan chiqmaydi va aytgan muddatida Chambilga yetib kelmaydi. Doston Go‘ro‘g‘lining shikoyat monologi bilan boshlanadi:

Ajal yetib, menday podsho o‘lmadi,
Men biluvda bizni ko‘zga ilmadi.
Misqol oyim keldi Eram bog‘idan,
Hindistondan Gulnor pari kelmadi.

safarga chiqishini bayon qilib Hindistonga borajagini, Gulnor parini oliv qaytajagini aytib Chambil bahodirlaridan madad kutadi. Ammo ulardan sado chiqmaydi. Buni ko‘rib turgan Ahmad Sardor (Go‘ro‘g‘lining tog‘asi) Go‘ro‘g‘lini quvvatlab, Go‘ro‘g‘li bilan birga safarga jo‘nayajagini aytadi va qirq yigitni ham ular bilan birga ketishga da‘vat etadi. Uning so‘zlaridan ta-sirlangan Go‘ro‘g‘lining barcha yigitlari safarga otlanadilar.

Hindiston hukmdori Toy hindi Go‘ro‘g‘lining kelgani-dan xabardor bo‘lgach, o‘z vazirlari bilan maslahatlashadi. Amin vazir Go‘ro‘g‘liga qarshi urushga chiqish tarafdori bo‘ladi. Ammo ikkinchi vazir Simin esa ishni tinchlik yo‘li bilan hal qilinishi tarafdori edi. U ixtiyorini Gulnor pariga berish kerakligini, agar Gulnor pari Go‘ro‘g‘liga tegmoqchi bo‘lsa, unga qarshilik qilmaslik kerakligini aytadi:

Hindiston elida davron surayik,
Yuring endi maslahat qib turayik.
Qiz bo'y yetsa ixtiyor o'zida,
Odam qo'yib, Gulnorjondan so'rayik.

Simin vazir bekorchi qon to'kilishiga qarshi. Shuning uchun o'z fikrlarini, ochiq aytadi.

Shunday qilib, Amin vazir bilan Simin vazir o'tasida kelishmovchilik yuzaga keladi. Bu esa Hindiston hukmdorlari o'tasida mojarob bosqlanishiga sabab bo'ladi, Hindiston ikki qarama-qarshi guruhga ajraladi: biri Go'ro'g'liga qarshi urush tarafдорлари guruhi, ikkinchisi esa Go'ro'g'li bilan do'st bo'lish uchun kurashuvchi guruh. Toy hindi birlinchi guruhga yon bosadi va Go'ro'g'lini mensimay, manmanlik bilan urush hozirligini ko'radi.

Simin vazir adolatsizlikka, manmanlikka qarshi kurashmoq maqsadida Go'ro'g'liga yordam bermoqchi bo'ladi. U Gulnor parining ko'nglini bilmoq uchun o'z qizi – Marjon parini malika oldiga yuboradi. Marjon pari Gulnor bilan uning besh yuz kanizini olib, tomosha toqqa chiqib ketadi. Ular shu yerda Go'ro'g'li bilan uchrashadilar.

Ertasiga Toy hindi lashkar tortib, Go'ro'g'liga qarshi jang boshlaydi. Bu jangda Sahmon polvon bilan Soqibulbul yarador bo'ladi. Endi Go'ro'g'li bu jangda mag'lubiyatga uchraishi mumkinligini biladi. Shunda Gulnor pari qanot bog'lab, Chambilga uchadi va u yerdan Go'ro'g'lining Hasan Chopson va Samandar degan dev-polvonlarini boshlab olib keladi. Shunday qilib, Go'ro'g'li Toy hindi qo'shinlari ustidan g'alaba qozonadi.

Qahramonlar o'z vatanlariga qaytish taraddudida bo'ladilar. Ular Afg'onistonga qaytib kelganlarida, Afg'on podshosi Abdi Otaliq ularni juda yaxshi kutib oladi va bir qancha vaqt bu yerda mehmon bo'lishga taklif qiladi. Go'ro'g'li taklifni qabul qiladi.

Bu vaqtida Go'ro'g'lining Chambilda yo'qligidan xabar topgan arablar, Chambilga hujum qiladilar.

Yunus pari boshliq Chambil elining xotin-qizlari Go'ro'g'li kelguncha yurtni chet el bosqinchilaridan matonat bi-

lan himoya qiladilar. Go'ro'g'li bosqinchilarga keskin zarba berib, ularni tor-mor keltiradi. Chambilda osoyishtalik o'matiladi.

Dostonning qisqacha mazmuni ana shulardan iborat.

Romanik dostonlarning qahramonlik turiga mansub bo'lgan bu dostonda ayni zamonda ikki mavzu ishlangan. Ular-ning biri uzoq yurtdagi go'zalni olib kelish va bunda xalq botiri-ning qahramonligini tarannum etish bo'lsa, ikkinchisi vatan mu-dofaasi mavzusidir.

Dostonning umumiy kompozitsion qurilishiga qaragan-da, asarda, albatta, birinchi mavzu yetakchi o'rinni egallaydi. Ikkinchisi esa qo'shimcha mavzu bo'lib asarning xulosa qismini boyitishga olib kelgan. Ikkinci mavzuning asardan o'rin olishi dostonda juda yaxshi ishlangan do'stlik motivining barqaror o'rin egallahiga sabab bo'lgan. Bunda Hindistonga qilinayotgan safar vaqtida va Hindistondan qaytib kelinayotganda, Chambilga bostirib kelgan chet el bosqinchilariga qarshi kurash kartinasи oldidan Afg'onistonda Go'ro'g'lining to'xtashi va Abdi Otaliq-ning unga ko'rsatgan do'stona mehribonligi hamda mehmon-do'stligi asarning umumiy g'oyaviy yo'nalishini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, Go'ro'g'li Hindistonga jo'nayotgan vaqtida, uning yo'li Afg'oniston orqali o'tadi. Katta lashkar bilan kela-yotgan Go'ro'g'lidan xabar topgan Abdi Otaliq, albatta, o'z yurtining mudofaasi to'g'risida qayg'uradi. U darhol o'z elidan askar to'playdi. Lekin shu bilan birga u Go'ro'g'lining nima maqsadda kelganini aniqlash uchun Go'ro'g'liga elchi yuboradi. Go'ro'g'lining Afg'on yurti uchun hech qanday yomon niyati yo'q ekanligini anglagandan keyin, uni o'z eliga mehmon tari-qasida taklif qiladi. Go'ro'g'li taklifni qabul qilib, Afg'onistonda bir necha kun mehmon bo'ladi. U Afg'oniston hukmdori Abdi Otaliq bilan do'st bo'lib qoladi. Bu bilan dostonda o'zbek xalqi-ning sevimli afsonaviy qahramoni Go'ro'g'lining adolatli hukmdor ekanligi, uning sevgilisini o'z yurtiga olib kelishdan o'zga niyati yo'q ekanligi ta'kidlanadi. Bunday g'oya asarning boshidan oxiriga qadar, muntazam ravishda rivojlana boradi. Masalan, Go'ro'g'li safarga chiqib, Afg'onistonga kelgunga qadar ham qancha ellar, qishloqlarni oralab o'tib boradi. Hamma yerda xalq

lashkardan xavotirlanadi. Ammo Go'ro'g'li va uning lashkari hech kimning hech narsasiga tegmay, hech kimga ziyon-zahmat yetkazmay, yo'lida davom etadi:

Yura-yura Go'ro'g'libek,
Keldi Urruqul cho'liga.

Lashkar tortib dasta-dasta,
Keldi Beshkapa eliga.

Qulog solib aytgan tiliga,
Oraladi Xitoy eliga.

Hamma yerni to'zon tutdi,
Bor yerlar qimirlab ketdi.

Viloyatni oralashib,
Odam narsasiga tegmay,
Rustamday beklar jo'nadi.

Yoki:

Qora daraxtni oralab,
Anorlar uzdi saralab,
Hech narsaga zarar qilmay,
Qishloqni oralab ketdi.

Go'ro'g'li Qong'ar tog'ida Gulnor pari bilan topish-ganidan keyin, uning maqsadi amalga oshgan edi. Ammo vaziyat uning jangga kirishini taqozo qiladi. Go'ro'g'li o'zi istamagan holda urush qilishga majbur bo'ladi. Chunki Gulnor parining otasi – Toy hindi o'z lashkari bilan Go'ro'g'li ustiga bostirib kelib qoladi. Uning maqsadi Gulnor parini Go'ro'g'liga bermaslik, uning tushunchasi bo'yicha qora xalqdan chiqqan «yetimak»ni jazolash edi. Shu narsa aniqki, muayyan maqsadni ko'z-lagan xalq qahramoniadolatsizlik qilayotgan raqibiga taslim bo'lib qolmaydigina emas, unga qaqshatg'ich zarba berishi kerak. Go'ro'g'li ham Toy hindi askariga qarshi jangga kiradi. Toy

hindi kuchli raqib. Lekin Go'ro'g'li ham undan qolishmaydi Buning ustiga Go'ro'g'li bu kurashda yolg'iz emas. Hindistonda uning adolatparvar hamfikrlari bor. Bunday hamfikrlarning boshlig'i, yetakchisi Toy hindining vaziri Simindir. U bu kurashda Go'ro'g'lini qo'llab-quvvatlaydi.

Go'ro'g'li urushda g'olib kelgach, jangda o'ldirilgan Toy hindi o'miga Siminni podsho qilib, ko'taradi. Chunki Simin Go'ro'g'lining do'sti bo'lish bilan birga adolatli va xalqparvar kishidir. U noo'rin qon to'kilishiga qarshi. U hamisha xalq manfaatlarini ko'zlaydi. Shuning uchun ham u Amin vazir Go'ro'g'liga qarshi urush boshlashni taklif qilganida unga qarshi chiqadi. U Amin vazirga qarab:

Tentaklarga sen maslahat qilasan,
O'ylagin, bu ishing bejoy ko'p yomon;
Yovgarchilik bo'lib, odamlar o'lsa,
Odamning qoniga zomin bo'lasan, –

deydi:

Ammo Simin vazir bu gaplarni dushmanidan yoki urushdan qo'rkanidan gapirmaydi. U kezi kelganda qahramonona jang qila oladigan odam. Shuning uchun u adolat yuzasidan, Hindistonda tinchlik va yaxshilik hukmron bo'lsin uchun Go'ro'g'li tarafiga o'tib, katta harbiy va jismoniy kuchga ega bo'lgan Toy hindiga qarshi urushga kiradi.

Dostonda Go'ro'g'li va uning atrofidagi yigitlarning bahodirliklarini tarannum etish har qancha o'rin egallamasin, jang tasvirlari har qancha jonlantirilmasin, baribir bu bahodirlik va jang ko'rinishlarida xalq ongiga begona bo'lgan bosqinchilik siyosati dostondan o'rin ololgan emas. Masalan, Go'ro'g'li urushda yengib chiqqanidan keyin, Simin unga zar va qimmataho buyumlardan keragicha olishni taklif etadi. Ammo Go'ro'g'li bunday tovon olishni istamaydi va «ol desang ham olmayman» deb, bu taklifni rad etadi.

Dostonda qator obrazlar tasvir manzarasi berilgan. Bu obrazlar ikki qarama-qarshi guruhg'a ajraladi. Go'ro'g'li, Ahmad sardor, Sahmon polvon, Soqibulbul, Shodmon mergan, Hasan-

xon, Hasan Chopson, Gulnor pari, Marjon pari, Simin vazir, Abdi Otaliq, Yunus pari va boshqa bir qator personajlar ijobiy obrazlar guruhini tashkil etsa, Toy hindi, Amin vazir, Bektosh arab, Rayhon arab, Alman qizil kabilar salbiy obrazlar guruhini tashkil etadi. Butun dostonda mana shu ijobiy guruhni tashkil etuvchi kuchlar bilan salbiy kuchlar o'rtasidagi kurash tasvirlanadi va bu kurashda yaxshilik timsoli bo'lgan ijobiy kuchlar g'alaba qozonadi. Demak, folklor asarlarining juda ko'pchiligidagi bo'lgani kabi bu asarda ham yomonlik ustidan yaxshilikning, razolat ustidan adolatning g'alaba qilishi kuylangan va xalqimizning ezgu orzu-armonlari o'z aksini topgan.

* * *

«Gulnor pari» dostonida xalq og'zaki poetik ijodiyotiga xos turli usullar, xilma-xil badiiy ifoda vositalari katta mahorat bilan ishlatilgan. Bunday usullardan biri obrazlarni qo'shaloqlashtirish usulidir. Dostonda bir necha «Hasan» nomlarining zikr etilishi mana shu qo'shaloqlashtirish usulining mahsulidir. Dostonda aytishicha, Go'ro'g'lining Hasan Chopson, Hasan ko'lbar. Hasan yakdasta degan polvonlari bo'lgan. Ammo doston voqealari davomida faqat Hasan Chopsongina ishtirot etadi. Hasan ko'lbar bilan Hasan yakdasta esa asar voqealaridan chetda turadilar. Ularning bu voqealarda ishtirot etmasligi ham dostonchi tomonidan ishonarli tarzda izoxlanadi. Masalan, Gulnor pari Chambilga kelib, Go'ro'g'lining jangda mag'lubiyatga uchrashi mumkinligi haqida xabar yetkazganida Yunus pari dev-polvonlarni o'z huzuriga chaqiradi. Bu chaqiriqqa Hasan ko'lbar, Hasan yakdasta, Hasan Chopson va Samandarlar yetib kelishadi. Yunus pari ularga voqeani bayon etib, vazifa topshiradi. Shunda Hasan Chopson bilan Samandar Go'ro'g'liga ko'mak berish maqsadida Gulnor pari bilan Hindistonga qarab yo'l oladilar. Dostonchi Hasan ko'lbar bilan Hasan yakdastanining jangga bormasligini quydigicha izohlaydi:

«Ana endi shunda, shu bechora Yunus pari yetti yashar Samandar bilan Hasan Chopsonga (bular G'irotdan ildam edi,

Hasan ko'lbar bilan Hasan yakdasta ko'p og'ir edi) qarab, bir so'z aytayapti:

Hasan aka, jonne soting,
Kaltakni osmonga oting.
Borgancha o'zing Sovuting,
Kelgan mehmonman iyarib¹,
Hindistonga billa² keting!»

Biroq yana bir manzarani nazarimizdan qochmasligi kerak. Yuqoridagi misoldan ko'rinishicha, xalq dostonchisi Hasan ko'lbar bilan Hasan yakdastaning Hindistonga bormasligini ularning «ko'p og'ir» ekanligi bilan izohlayapti.

Lekin, Yunus pari ularni chaqirganda, ularning hammasi bir zumda yetib kelgan edilar-ku. Demak, izoh Hasan ko'lbar bilan Hasan yakdastani umuman Hindiston voqealaridan chet-lashdirish uchun berilgan.

Dostonning oxirgi qismida Go'ro'g'lining yo'qligidan foydalanib arablarning Chambilga hujum qilishi tasvirlanadi. Agar Chambilda Hasan ko'lbar bilan Hasan yakdasta bo'lsa, u holda hech qanday dushman bu yurtga xatar sololmaydi. Ammo shu zarur paytda Hasan Chopson bilan Samandar ham, Hasan ko'lbar bilan Hasan yakdasta ham Chambilda yo'q edi.

So'ldirar bo'ldi bog'da gulimni,
Arab bosib el sorining cho'lini.
Hasan Chopson, Samandarim bo'lmasa,
Qallobi arablar qistab yetishib,
Voy xarobot qildi Chambil elini...

Qaytayin, polvonlar menda bo'lmasa,
Jun bosgan arablar kelgan o'xshadi.
Hech bo'lmasa Hasan ko'lbar bo'lmadni,
Arablarga bir ko'rinish bermadi.

¹ Iyarmoq – ergashmoq.

² Billa – birga.

Ma'lumki, Hasan Chopson bilan Samandar Hindistonga ketishgan edi. Hasan Chopson Gulnor paridan arazlab Hindiston dan ketib qolgan va hozir Balo tog'ida yotar edi. U urushga kiradi, biroq yolg'izlik qilib, qo'lidan hech ish kelmaydi. Endi u Go'ro'g'liga xabar berish uchun Hindistonga ketadi. Xo'sh, endi Chambilda qolgan Hasan ko'lbar bilan Hasan yakdastani qayerdan axtarish kerak? Nega ular bu voqealarda qatnashmaydilar? Buni xalq dostonchisi quyidagicha izohlaydi: «Xonang kuygur Hasan yakdasta bilan Hasan ko'lbar Ko'yiqofga ketib qolgan ekan: «Qarindoshlab kelamiz», – deb.

Masala shunday ekan, ular zarur bo'lib qolgan paytlarda Yunus pari ularning «junini tutatib» chaqirib olar edi-ku... Nega endilikda shunday qilmadi? Gap shundaki, ularning bu jangda qatnashmasligi kerak. Chunki, bizning fikrimizcha, Hasan ko'lbar, Hasan yakdasta, Hasan Chopson – bular uch nom bilan atalsa ham, uchalasi bir obraz. Shuning uchun voqealarning barida birgina Hasan Chopson qatnashadi.

«Go'ro'g'li» dostonlariga kirgan boshqa bir dostonda Hasan ko'lbar haqida so'z ketadi va u tez yugurar shaxs bo'lgani uchun uni Chopson deb ham ataydilar, deyiladi. Bu esa biz yuqorida aytib o'tganlarimizning qo'shimcha dalilidir.

«Gulnor pari» dostoni, bizning fikrimizcha, «Misqol pari» dostonining uzviy davomidir.

Agar biz «Misqol pari» bilan «Gulnor pari» dostonlarini bir butunlikda olib qarasak, unda Misqol pari bilan Gulnor pari obrazlari birgina obrazdan iborat ekanligi ko'zga yaqqol tashlanib qoladi. Aslida shunday bo'lgan bo'lsa ham ajab emas, chunki Gulnor parining nomi o'zbek dostonchiligidagi juda kam uchraydi va hamisha Go'ro'g'li to'g'risida gap ketganida uning Yunus va Misqol pari – ikki xotini borligi qayd etiladi. Bunda ham voqealar davomida shu ikki paridan biri ishtirok etadi, ikkinchisining nomi faqat qayd etiladi, xolos. Bu dostonchilikda muhim ahamiyatga ega.

Dostonning badiiy xususiyatlardan yana biri kulgili holatlarni yuzaga keltirishdadir. Bunda yana Hasan Chopsonning humoristik obrazi katta o'rinnegallaydi. Voqealar maydoniga ki-

rib kelishidan tortib, to asar oxirigacha Hasan Chopson qayerda bo'lsa, shu yerda kulgili holatlar yuzaga kelaveradi. Masalan, u Qong'ar tog'ida Gulnor paridan tashqari, Marjon pari va yana ko'pchilik qizlarni ko'rgach: «U, bachchag'arlar... qay shaharga borsa, darrov shu, qizning suluvini oladi. Bizlarga hech qursa yesir-pesir, bir katta bo'p qolgan xotinni ham bermaydilar», – deydi. Gulnor pari uning fikrlarini quvvatlab, oldin jangga kirish kerakligini, so'ngra Hindistondan o'ziga munosib bir xotin olib qaytishini aytadi. Hasan Chopson bilan Gulnor pari o'rtasida bo'-lib o'tgan suhbatdan parcha keltirmoqchimiz.

«Hasan Chopson:

– Bo'ldi, bo'ldi, Gulnor. U yoqdan ko'ngil to'ladigan xotin topilmasa, shuncha xotin bor ekan bu yerda; birovini olarmiz, – dedi.

Gulnor pari aytди:

– Bularning hammasi shudring tushmagan qiz, – dedi.

– Gulnorjon, sening ajab ishing bor. Bularni olib ketamiz. Balo toqqa yetamiz. Olqorning semizini, govvosning semizini ushlab olib kelamiz. Tuz qoqi, qarta go'sht qilamiz. Murch-labgina kulchatoya solamiz. Semirtibgina yaxshi xotin qilib olamiz, – dedi.

Qizlar qah-qah urib kuldi.

Hasan Chopson xez qilib¹ borib, Qizbulloqning boshidagi chinorni tomiri bilan sug'urib oldi. Uloqday o'ynab, tog'ning bo-shiga chiqib, «Voh bolangning kafshini kiygur Toy hindi... Otangning yonboshiga kaltagim. Hay hay men keldim», – deb shu bir bo'kirdi... osmon yerga tushganday bo'lib qoldi»,

Hasan Chopson jangga kirib, dushmanlarni tor-mor etishda juda katta ish ko'rsatadi. Aniqrog'i, bu urushda Hasan Chopson bilan Samandar ikkovi hal qiluvchi rol o'ynaydilar. Urush tugagach:

Hasan Chopson jafo qildi,
Go'ro'g'liga vafo qildi.
O'zi semiz, bo'ksasi keng,

¹ Xez – ko'tarilish, sakrash. Xez qilmoq – sapchimoq.

To‘ladan kelgan kampirni,
O‘x-o‘x, deya topib oldi.

Samandar ham o‘ziga bir qizni topib oladi. Ana shu o‘rinda Gulnor pari Hasan Chopsonga hazil qilib:

O‘ynab-kulib ketar endi cheringiz,
Bir shaharga yetadakan zo‘ringiz.
Tishi tushgan qizdan topib olibsiz,
Qutli bo‘lsin sochi oppoq paringiz!...

Kallalari xuddi gov savatday,
Tishi so‘yloq, xo‘p qopg‘ir boytevatday.
Olgan yoring o‘zi xuddi ko‘k itday,
Qutli bo‘lsin, jezna, suluv boybichcha!..

Chakkalari qorinday bo‘p tirishgan,
O‘zi ko‘rkam, iyaklari burishgan,
Sizni ko‘rsa qoshin qoqib kerishgan,
Qutli bo‘lsin to‘shli, go‘shtli paringiz!
Ko‘p ekandi manglayingda sho‘ringiz, –

deydi.

Javobiga Hasan Chopson Gulnor parini so‘kadi. Gulnor pari Samandarning xotinini maqtaydi, shuningdek Shodmon merganni qutluqlaydi. Hasan Chopson Gulnor paridan xafa bo‘ladi.

U: «Tirraymay o‘lgur Gulnor, esa mening xotinim hammasidan suluv. O‘zining sochi oqqina, dimoqqinasi choqqina. O‘zi sergo‘shtgina, bo‘ksali, quymuchligina. «Iyagi burushgan, chakkasi tirishgan», – deb aytadi. Yo shu to‘yini azaga qaytarib qo‘ysammi? Men arazlab ketaman. Borib bu gaplarni Yunus-jonga aytaman, – dedi.

Haligi kampir xotiniga aytadi:

– Kel boybichcha, bo‘ynima mingin! Qo‘rqma, qo‘rqma! Bir tovuq olgan ham kunda bir changal don beradi. Biz seni asvallab boqamiz, – dedi.

Bo‘yniga mindirib oldi. Gulnor pariga aytdi:

— O‘zingning tirishganiningni mening xotinimning bo‘yniga qo‘ydingmi? Oyna olib qaraganingda mening xotinim sergo‘sht sendan, — dedi. Hayt deb, Chambilga qarab, quyinib, ya-shinday oqib soldi-da, kavak bachchag‘ar».

Hasan Chopsonning bunday holatlarda ko‘rinishi sog‘lom, beg‘araz kulgi tug‘diradi, xolos. Hasan Chopson Go‘ro‘g‘liga sodiq pahlavon. U aslida dev zotidan. Ammo Yunus pari va Go‘ro‘g‘liga do‘stligi boisidan Chambilda yuradi va zarur holatlarda dushmanlarga qarshi jangga kiradi va ularni tor-mor etishda katta rol o‘ynaydi. Uning kulgili holatlarga tushishi o‘zining, epos va umuman folklor asarlaridagi tushunchalarga ko‘ra, pahlavonlarga xos soddaligi natijasida yuz beradi. U sofdil, Go‘ro‘g‘li hamda Chambil eliga sodiq, vafodor shaxs. Shuning uchun ham u Hindistondan arazlab ketganidan keyin ham Chambil yaqinidagi Balo tog‘ida istiqomat qilaveradi. Chambilga dushman bostirib kelganida o‘zining chambilliklardan xafa bo‘lganini unutib qo‘yadi va yovga qarshi yolg‘iz o‘zi tashlanadi. Ammo, nachora, yolg‘iz o‘zi yovni daf qilolmaydi. Jang maydonini tashlab chiqishga majbur bo‘ladi. Xotinini yelkasiga mindirib olib, Go‘ro‘g‘lini bu hodisalardan xabardor qilmoq uchun Hindistonga yo‘l oladi. U Go‘ro‘g‘lini faqat Afg‘onistondagina uchrata oladi. Hodisalardan xabardor bo‘lgan Go‘ro‘g‘li Hasan Chopsonni darhol Chambilga qaytishga da‘vat etadi. Go‘ro‘g‘li Hasan Chopsonga, xotinini tashlab, o‘zi tezroq ketishi kerakligini aytadi. Shunda Hasan Chopson; «O‘zbekchilikning ota-bobosidan qolgan bir xil taomili, qoidasi, rasmi odamning cho‘rtta¹ ko‘ngliga urib qoldi. Men xotinimni tashlab ketsam, hali o‘zi to‘qson oltiga kirgan tumsagina qiz bo‘lsa... beklaring, bo‘z bolalaring tegishib qoladi. Xotinning esi bormi? Ko‘ngli qiyshaysa birovga andarmon bo‘ladi. Andan kay eriga ko‘ngilsiz bo‘p qoladi. Ro‘zg‘orda sovuqchilik paydo bo‘ladi. Boyana, begonani ko‘rgandan kay: «Boshqa odam, qashqa odam», — deydi. O‘zining eridan boshqa odam ko‘p xushomad qiladi. Tentaknamo xotin, ko‘ngilsiz bo‘lib qoladi.

¹ Cho‘rtta – shartta, butunlay, darrov.

Urushda ajali yetgan o'ladi,
Mard yigit dushmanga savdo soladi.

Misqol pari keldi Eram bog'idan,
Xaloyiq, maslahat qanday bo'ladi?

Otni mingan necha tog'dan o'tibdi,
Suyungan qul murodiga yetibdi.
Yunus jonin oldim Qo'yiqofdan,
Misqoljonim keldi Eram bog'idan.

Gulnorjonga bejoy ko'nglim ketibdi,
Toy hindining, qaytay¹, erka bolasi,
«Kelaman» deb bizni aldab ketibdi.

Kelariga ko'p muddatlar o'tibdi;
Yo bilmayman mening vaqtim yetibdi,
Va'dasidan necha kunlar o'tibdi,
Gulnor desam quloq chippa bitibdi.

Misqol oyim keldi Eram bog'idan,
Gulnor oyim cho'rtta kelmay ketibdi.
Xaloyiq, maslahat qanday bo'ladi?

Gulnorjonne olib kelmasam bo'lmas,
Axir bir kun shundaycha² gap bo'ladi.
Olib kelay borib Gulnor parini,
Qarindosh, maslahat qanday bo'ladi?

Ketkarayin yuragimning cherini³,
Issiq eritadi tog'ning qorini.
Qarindosh el, maslahat qanday bo'ladi,
Borib olib kelsam Gulnor parini?

¹ Nima qilay.

² Shunaqa.

³ Cher - dard, qayg'u, alam.

Qutulgaymiz ishqibozlik hilidan¹,
Oshib ketsak Langar tog‘ning belidan².
Xaloyiq, maslahat qanday bo‘ladi?

Borib turib Gulnorjonni op³ kelay,
Olib kelay Hindistonning elidan.
Turkman el, maslahat qanday bo‘ladi?

Ana endi hamma odam mulzam bo‘ldi. Bir xillar jilxurisning⁴ junini tortib, yulib olaverdi. Ahmad sardor bildi, endi Go‘ro‘g‘lining gapi yerda qoldi. Hech birovdan sado chiqmadi. Ahmadbek – Ahmad sardor g‘ayrati jo‘sh urib, Go‘ro‘g‘libekka qarab, bir so‘z aytaverdi:

Ochilar ko‘klamda tog‘larning guli,
Senga tushdi bildim, yaxshining hili.
Yonboshingda o‘zim birga ketayin,
Dunyoda bearmon bo‘lgan, Go‘ro‘g‘li!

Yor ketkazar yuraklarning cherini,
Olloh to‘kkay peshonaning sho‘rini.
Xudoyim qarashib, pirlar yor bo‘lsa,
Borib op keng Gulnorjonday parini.

Endi yig‘ay turkmanlarning zo‘rini,
Olib kelay Gulnorjonday parini,
Og‘ayin, maslahat qanday bo‘ladi?

Sening bilan birgalashib ketayin,.
Necha tog‘dan, necha cho‘ldan o‘tayin.
Gapginangdan qora kallam sadag‘a,
Hindistonga o‘zim birga ketayin.

¹ Hil – 1) alam (*ko‘chma ma‘noda*); 2) issiqlik, harorat, taft, o‘t, alanga; 3) ishq o‘ti (*ko‘chma ma‘noda*).

² Bel – 1) tog‘, adir; 2) tepalik, balandlik.

³ Olib.

⁴ Teridan bo‘lgan po‘stin.

Yo'l yuramiz zanglab¹ yotgan cho'liga,
Bu dunyoda bearmon bo'l, chirog'im,
Birga boray Hindistonning eliga!
U gap uchun xafa bo'lmang, chirog'im.

Op borayin suluv qizning mo'liga!
Borib chiqsak Do'nан tog'ning beliga,
Bu dunyoda bearmon bo'l, chirog'im,
G'am yema, yur, Toy hindining eliga.

Gulnor pari seni ko'zga ilmadi,
Turkman eli qadringni [hech] bilmadi.
Gulnorjonnı op bermasam bo'lmadi,
G'am yema, kilayin seni bearmon!

Hay attang-a, jonni sotmog'i bordir,
Bu dunyoda zaxob² yutmog'i bordir.
Qarindoshlar, hammang yerga qaraysan,
Ketmoqning bir kuni kelmog'i bordir.

Ajal yetsa har joyda [ham] o'larmiz,
Hindistondan Gulnorjonnı olarmiz!
Ko'ngillarnı aslo bo'lmang, qarindosh
Omon-eson obro' topib kelarmiz.

O'laman deb aslo xafa bo'lmanglar,
Eson-omon Chambilbelga kelarmiz!
Go'ro'g'libek xushvaqt bo'lsa hammamiz,
Hammamiz ham shod-u xurram bo'larmiz.

Ana endi Soqibulbul, Sahmon polvon, Doniyorxo'ja,
Berdiyorxo'ja [bir yodda], Go'ro'g'libek Soqi bekka qarab bir
so'z aytaverdi:

¹ Zang – qora. Zanglamoq – qoramymoq.

² Zardob.

Izlar bo‘ldim Gulnordayin parimni,
Eldan yig‘dim men jami beklarimni.
Soqibulbul, quloq solgin so‘zima¹,
Soqiyo, egarla, layli G‘irimni!

Izlar bo‘ldim Gulnor parizotimni,
Qaddingdan ketayin, Soqi miroxo²r,
Egarlab ber, chilton³ boqqan otimni.

Belga boylay men keskir po‘lotimni⁴,
Tilingdan aylanay, Soqi miroxo⁵r,
Egarlab ber, Xizir boqqan otimni!

Eram bog‘dan oldim ahdi-poyimni,
Hamma yeri qattiq emas mayindi.
Qaddingdan ketayin, Soqibulbulim,
Egarlab ber, pirlar boqqan toyimni!

Ko‘p gap chiqar esli odam o‘yidan,
Hech kim ayrilmasin o‘sgan joyidan.
Yomon odam qaytib tursin ra‘yidan.

«Qulluq, taqsir», – dedi endi jayranglab⁵,
Soqibek xushvaqt bo‘p⁶ turdi joyidan.
Qurbon bo‘lsang esli odamning bo‘yidan,
Xizmat chiqdi Go‘ro‘g‘lining to‘yidan.

Ko‘ring endi g‘ayrat qilib bek Soqi,
Jo‘nab ketaverdi turgan joyidan.

¹ So‘zimga.

² Miroxo⁷r (miroxur) – podsholik otxonasiga qarovchi amaldor.

³ Chilton – afsonaviy kuch-qudratga ega, ko‘zga ko‘rinmas qirq ilohiy ruh. Afsonaviy tasavvurga ko‘ra qahramonning homiyları.

⁴ Qilich.

⁵ Jayranglamoq – xursand bo‘lmoq.

⁶ Bo‘lib.

Aytmay sirni yomonlardan yashirdi,
Bir nechaning aql [hushin] shoshirdi.

Ikovi ham bo‘lgan asil tilladan,
Yashinday qip [uzangini¹] tushirdi.

Bir necha suluvning tishlari durdi²,
Ot beliga shildiratib op qo‘ydi,
Qimmatbaho zar chochoqli³ dovurdi⁴.

Qistasa qolmaydi ham uchar qushdan,
Yaxshi tortqi taqib tortdi beliga,
Satta paydan bo‘lgan chag‘atoj pushtan⁵.

Shildiratib yugan⁶ soldi boshiga,
Odam navi o‘ynar tog‘ning boshida.

Po‘lat dobil⁷ ildi egar qoshiga,
Qatag‘on peshvotni⁸ urdi to‘sriga⁹.

Qizday qilib G‘irko‘k otni shayladi,
Qulog‘ini qaychilatib¹⁰ o‘ynadi
Olib chiqib pirlar boqqan G‘irotni,

¹ **Uzangi** – egarning ikki tomoniga qayish bilan bog‘lab, osib qo‘yiladigan, otga minish va egarda oyoqlarni tirab o‘tirish uchun xizmat qiladigan, metalldan yasalgan ot abzali.

² Durdir.

³ Chochoq – popuk. Chochoqli – popukli.

⁴ Dovur (dovir, davir) – egarning ustidan yopiladigan ot anjomni.

⁵ Pushtan – egarning ot qornidan aylantirib o‘tqizib bog‘lab qo‘yiladigan tasmasi; qorinbob‘.

⁶ Yugan – ot, eshak kabi uy hayvonlarini boshqarish uchun ular boshiga solinadigan, suvliq, tizgin va qayish tasmalardan yasalgan abzal.

⁷ Dobil (dovul) – ovchilarning va jangchilarning maxsus nog‘orasi.

⁸ Peshvot (peshband) – o‘muldirik – otning ko‘kragidan o‘tkazilib, ikki uchi egarning oldiga, uchinchi uchi otning o‘mrovi orqali ayliga o‘tkaziladigan ot anjomni. Qatag‘an peshband – qatag‘aniy o‘mildirik. Qatag‘an urug‘ining sarkardalari otlariga taqadigan o‘mildirik; hashamatli o‘mildiriq.

⁹ To‘sh – ko‘krak, gavdaning yuqori qismi.

¹⁰ Qaychilatmoq – qulogni tikraytirmoq.

Kiyikday o'ynatib jonvor bedovni¹,
Qiliqsitib yakka mixga² boyladi.

Qimmatbaho urush anjomdan endi
O'rgaliqqa yarqillatib tayladi³.

Taraf⁴ odam bir-birini poyladi,
Yomon odam firib gapni o'yladi.

Mana, kiying Go'ro'g'li podshohim, deb,
Taqsirlashib⁵ yaxshi-yaxshi so'yladi.

Har tarafga Go'ro'g'libek qaradi,
Necha damga, yaxshi kunga yaradi.
Talab qilib Hindistonning shahriga,
[Zarrin po'tasini⁶ belga] o'radi.

Bir nechaning qovoqlarin uydirdi,
Ko'lga borsa po'lat dobil tuydirdi⁷.

Podsholik kiyim[i] yaxshi to'nlarни,
Go'ro'g'liga oyday qilib kiydirdi.

Har tarafga mard Go'ro'g'li so'yladi,
Ilon tilli⁸ olmosvor xanjarni,
Ching'illatib mard Go'ro'g'li boyladi.

Kuygan odam ko'zlaridan yosh to'kdi,
Yosh ellikdan oshsa, qaddini bukdi.

¹ Bedov – tezyurar, naslli, yaxshi ot.

² Yakka mix – ot bog'lash uchun yerga ko'milgan katta qoziq.

³ Taylamoq – tashlamoq.

⁴ Taraf – dushman.

⁵ Taqsirlashmoq – hurmat qilmoq.

⁶ Po'ta – belga aylantirib bog'lanadigan qimmatbaho uzun belbag'.

⁷ Tuymoq – qoqmoq.

⁸ Ilon tilli – uchi ilon tiliga o'xhash dudama qilich (*ko'chma ma'noda*).

Chor oynak¹ boshiga qo'yib Go'ro'g'li,
Kark teri qalqonne yelkaga taqdi.

Ot anjomin binoyi qip shayladi,
Har yerda dushmanning suvin loyladi.
Qalqonne to'ntarib qo'yib jovrinnan²
Gudari bog'ni kindiqdan boyladi.

Har tarafga polvon tiklab qaradi,
Fuqarosin holin yaxshi so'radi.
Xitoyi kosaga maylar quydirdi,
Tarafining ko'kayini qiydirdi³.

Mahramlari⁴, endi gala sardorlar,
Yarashgan to'n Go'ro'g'liga kiydirdi.
O'lim kelmas botirlarning o'yiga,
Yaxshi-yomon kelgan podsho to'yiga.

Yarashiqqa kiygan edi G'o'ro'g'li,
Har rang to'n yarashdi mardning bo'yiga.
Oldin kelar qiyomatni o'yladi,
Er⁵ yigit tarafin doim poyladi.

Ilon tilli, olmos suvi yogurtgan⁶,
O'tkir qilichini belga boyladi.
Tomosha aylang⁷ bek Soqining ishiga,
Davlat turmas badfe'lning boshida.

¹ Chor oynak (choroyna) – jangda o'q, tig' zarbidan saqlanish uchun badanni o'rab bog'lanadigan harbiy aslaha. To'rt parcha yassi metallni bir biriga birlashtirib ishlangan.

² Yag'rinishan.

³ Ko'kay – dil, kasb, ko'ngil. Ko'kay qiydirmoq – dil og'ritmoq, jonga tegmoq. Ko'ngilni cho'ktirmoq.

⁴ Mahram – xizmatkor, xos odam.

⁵ Er – mard. Erlik – mardlik.

⁶ Yugurtirgan.

⁷ Qo'lyozmada: «Tomoshaylang».

G‘ajirlar¹ uchadi tog‘ning toshiga,
Egniga sovutni kiyib Go‘ro‘g‘li,
Chor oyna, dubulg‘a oldi boshiga,
Hamma qoyil bo‘ldi [mardning] ishiga.

Go‘ro‘g‘lining bilmaganin bildirdi,
Xushvaqt qilib podshosini kuldirdi.
Qo‘ltig‘idan suyab turib podshosin,
Go‘ro‘g‘lini G‘irotiga mindirdi.

Go‘ro‘g‘libek mindi G‘irot beliga,
O‘n ikki po‘pakli po‘lat nayzani,
Yashinday qip suyab berdi qo‘liga,
Tala-to‘plar qilib Chambil beliga.

Ana endi Go‘ro‘g‘libek uzangiga oyoqni tirab, yig‘ilgan qorako‘z xaloyiqqa qarab, [turdi]. Chambilbelning qiz-u juvonlari, satta kelinchaklari, Yunus pari, Misqol pari balandlikka chiqib, panjaradan qarashib, birov-biroviga suykashib, kaptarday bo‘ylashib:

«Bu qanday bo‘lyapti», – deb o‘ylashib, bog‘ gul ochilganday yashnab, vaqtini xushlab, har rang gul ochilganday bo‘p, tomlarning boshi, devorlarning boshi odamga to‘lib ketdi. Ana Go‘ro‘g‘li xaloyiqqa qarab, bir so‘z aytaverdi:

Otlarga taqilgan po‘latdan ovsar²,
Huy tortaman yuragimda cherim bor.
Omin denglar tag‘in qaytib ko‘rgancha,
O‘ng otaliq³, satta dono vazirlar.

Har savdoga ko‘nar odamning boshi,
Kaj⁴ bo‘lmasin manov dunyo gardishi.

¹ G‘ajir, g‘ojir – 1) o‘limtikka o‘ch, o‘laksaxo‘r yirtqich qush; 2) qoraqush.

² Ovsar – ro‘mol.

³ Otaliq – podshoga maslahatgo‘y ishonchli mansabdor.

⁴ Kaj – egri, teskari, ters, chappa.

Omon bo‘nglar¹ yana qaytib ko‘rgancha,
Duo qinglar² satta yasovulboshi³.

Yurakdan ketgay-da qayg‘i-vahmlar,
Dono odam so‘zga tushib fahmlar.
Ketar bo‘ldim Hindistonning shahriga,
Omin denglar, ko‘shk ustida oyimlar.

Daryoda g‘alt urgan⁴ kemaman⁵ qayiq,
Yunus pari bo‘ldi xizmatga loyiq.
O‘lmasak bir kun kelarmiz Chambilga,
Omin denglar, jami turgan xaloyiq!

Qochirganman ham aqlimni, hushimni,
Qaytayin, to‘kkanman ko‘zdan yoshimni.
Misqol keldi, Gulnor pari kelmadni,
Qaytayin, moy tikdim qora boshimni.

Olisdan ko‘rinar yilqining bo‘zi,
Yigitni o‘rtaydi qizlarning nozi.
Talab qildim Gulnordayin pariga,
Kelardan kelmagim endi gumondir,
Misqol-Yunus, bo‘lgan o‘zimdan rozi!

Ko‘ngillarim qaynab-qaynab jo‘shindi,
Hay attang, baloga qolgan bosh endi.
Yaxshi-yomon gaplashganmiz Chambilda,
To ko‘rgancha, qarindoshlar, xush endi.

Ana endi Sahmon polvon shu so‘zlarni eshitib, yuragi
jo‘sh urib, Hasanxonga qarab bir so‘z aytaverdi:

¹ Bo‘linglar.

² Qilinglar.

³ Yasovul – O‘rta Osijo xonliklari davrida yuqori mansabdagi amaldorlarga xizmat qiluvchi qurolli soqchi, posbon. Yasovul boshliq (yasovulboshi) – yasovullar boshlig‘i.

⁴ G‘alt urmoq – mavj urmoq, mavjlanmoq.

⁵ Kema bilan.

Eshitgin, Hasanjon dodni,
Qattiq qilmagin qismatni.

Go'ro'g'liman¹ yurgin birga,
Hasanjon, mingin to'r otni!

Dunyosi tushsin, bepoyon,
Bo'layik cho'lda sargardon.
Mingin jonivor bedovni,
Hindistonga yur, Hasanjon!

Bog'da gulni tergin endi,
Davr-u davron surgin endi!

Nomus kuchli, xon Hasanjon,
Hindistonga yurgin endi!

Bunda kelib bo'lging sirdosh,
Yurgin Hindiston eliga,
Go'ro'g'liman bo'lgin yo'ldosh!

Mingin otingning beliga,
Rahm ayla otang holiga!
G'oz qo'nar o'tli cho'liga.

Go'ro'g'li yolg'iz ketmasin,
Yurgin Hindiston eliga!

Yo'liqma yomon qahriga,
Yigitlar qizning bahriga,
Go'ro'g'liga tug'boshi² bo'p,
Yurgin Hindiston yurtiga!

¹ Go'ro'g'li bilan.

² Tug' – bayrog, qo'shin bayrog'i. Tug'boshi (tug'dor, tug'begi) – podsholikning tug'-bayroqlarini nazorat qiluvchi mansabдор.

Hasanjon vaqting xushlagin,
Kulib lablaring tishlagin,
Xon otang yolg'iz ketmasin,
So'lqillatib¹ tug' ushlagin!

Go'ro'g'liga hamdam bo'lib,
Olib kelgin Gulnorxonni!

Hindistonga yurgin endi,
Go'ro'g'liman sening o'zing,
Doim birga turgin endi,
Joyginangdan turgin endi!

Boramiz tog'lardan osha,
Kokiling yelkanga tusha,
Ko'rgan hisobdan adasha,
Necha tog'dan qistab osha,
Hindistonga borganimda,
Toy hindi qilsin tomosha.

Go'ro'g'liga xon Hasanjon,
Doim xizmat qilgin endi!

Ajal yetib o'lganingcha,
Birgalashib turgin endi!

Egarlagin bedovingni,
Darrov otga mingin endi!

Oshib borib Qora tog'dan,
Hindistonga do'ngin² endi!

Har jabri jafo, zulmga,
Chiroqqinam, ko'ngin endi!

¹ So'lqillamoq – silkinmoq, tebrannoq.

² Do'nmooq – jo'namoq.

Ochilgan gulday bo'lib,
Xizmat qilgin qulday bo'lib,
So'ylaydigan tilday bo'lib,
Obod, yaxshi elday bo'lib,
Har savdoga ko'ngin endi!

«Qulluq», – deb turgin joyingdan,
Darrov otga mingin endi!
Har xizmatga ko'ngin endi!

Ko'ring Sahmon g'ayratini,
Yig'ib qo'ydi uyatini.

Xon Hasanjon g'ayrat qilib,
Gul tabлага chopib borib,
Egarlab mindi otini.

Sahmon polvon g'ayrat qilib,
Bu ham mindi ko'k otini.

Mast otlar o'ynar har alvon¹,
Otin egarlab choq² bo'ldi,
Taraddi qib³ Sahmon polvon.

Qilib mard Sahmon g'ayratni,
Chambilni g'ayrati tutdi.

G'ayrat qilib mast tuyaday,
Sahmon zo'r ham mindi otni.

Non-nasiba ham yoronlar,
Qandayin shaharga tortdi.

¹ Alvon – turli-tuman.

² Choq – tayyor, shay. Choqlamoq – 1) tayyor, shay bo'lmoq; 2) tayyorlamoq, shaylamoq.

³ Qilib.

Yubormay elga darakni,
Yurakdan ketkarib kekni,
Sahmon polvon, xon Hasanjon,
Yashinday qip yarqiratib,
Taqinib oldi yaroqni.

Odam degan duvullab ketdi,
Ik¹ qulog[‘]i chuvullab ketdi.
Turkman eli ko[‘]tarilib,
Yoppa-yovlik² chuvlab³ ketdi.

Ahmadbek turknan elning egasi, boshida bor jig[‘]asi⁴,
Go[‘]ro[‘]g[‘]libekning tog[‘]asi xalqqa qarab, bir so[‘]z aytaverdi:

Nima bo[‘]lsang, baring bo[‘]lsang bo[‘]lmaymi⁵?
Birov aytgan gapni qilsang bo[‘]lmaymi?
Ishorat esliga, ahmoqqa kaltak,
Bu kuningdan baring o[‘]lsang bo[‘]lmaymi?

Hech kimga tushmasin ayroliq hili,
Sovurda⁶ yashnaydi tog[‘]larning guli.

Sahmon polvon, Hasan minibdi otni,
Uyat bo[‘]ldi, o[‘]ling, turkmanning eli!

Tog[‘]larda yuradi Layli,
Yigit kishin beli boyli.
Hindistonda o[‘]lib ketsang,
Xotin yesir qolsa mayli.

¹ Ikki.

² Yoppa-yovlik – yalpisiga, hamma birdaniga.

³ Chuvlamoq – chuvullamoq.

⁴ Jig[‘]a – qimmatbaho toshlar va ukpar bilan bezatilgan, bosh kiyimga taqiladigan qimmatbaho taqinchoq, buyum.

⁵ Bo[‘]imasmi.

⁶ Sovur – 1) ko[‘]klam; 2) bahor.

Yoppa otlan, yuring, Chambilning eli
Har tarafga otni yelsang bo'lmaymi?

Go'ro'g'lini bir tanho yuborgandan,
Bitta qolmay baring o'lsang bo'lmaymi?

G'animlarga savdo solsang bo'lmaymi?
Gulnorjonne olib kelsang bo'lmaymi?
Yunusga xizmatkor qilsang bo'lmaymi?

Ko'kmak¹ bo'lar tog' archasi, bodomi,
Xudoyo ketgay-da, yurakning g'ami.

Sahmon polvon mindi bedov otiga,
Yoppa yuring, turkman elning odami!

Ot kokilin birday qilib o'rayik,
Ish tavakkal, peshonadan ko'rayik!
Hech qolmasdan yoppa mining bedovga,
Yuring beklar, Hindistonga borayik!

Minib oling satta turkmani otni,
Yoppa yuring Hindistonga borayik!
Borib Gulnorjonne olib kelayik.
Yuring, Hindistonga borib kelayik!

Ne savdolar borib boshga solayik,
Gulnorjonne olib kelib Chambilga,
Go'ro'g'lining xizmatiga solayik.

Nikoh qiyib Gulnorjonne,
Gulrang parini ham olib kelayik.
Yoppa yuring, turkman elning beklari!

¹ Ko'kmak – ko'm-ko'k, tim ko'k.

Qulq song¹, xaloyiq, etgan sazoga,
Fitir² deb mulla ixlosmand ro'zaga.
Yoppa yuring, turkman elning beklari,
Yuring endi Hindistonga!

Ana endi yoppa-yovlik oti bori otini minib, toyli-tayoqli
Hindistonga yuringlar deb, Ahmad Sardor bo'z otini³ minib,
tug'ni qo'liga ushlab, vaqtini xushlab, ana shu otlarni o'ynatib,
suqliqnii⁴ chaynatib, gurri-gurri⁵, dasta-dasta⁶ bo'lib jo'nay berdi.

Ana endi Hasanxonning singlisi Gulchehra pari Turkman sardorining suluv qizi bilan chorvoq tomoshaga chiqib ketgan ekan. Shunday kelayotsa, to'p-to'p bo'lib odamlar ko'rindi. Shunday Gulchehra pari qarasa, to'qmoq go'r yolli otini minib, Hasanxon o'n besh kunlik oyday bo'lib, taraqqos-taraqqos boylab⁷, ostidagi oti o'ynab, suqsurday⁸ bo'ylab [kelyapti]. Hasanxon akasini ko'rib, Gulchehra pari devordan qarab, ro'molini yozib tashlab, «dod» deb akasiga qarab bir so'z aytaverdi:

Gulchehrajon to'kkani ko'zning yoshini,
Haq o'ngarsin⁹ mard odamning ishini!
Yo'l bo'lsin bo'ladi gapning enasi,
Akajon, to'xtatgin otning boshini!

Ayil qirqar otingizning to'shini,
Dobil qirqar egaringning qoshini,
Yo'l bo'lsin bo'ladi gapning otasi,
Og'ajon, saqlagin otning boshini!

¹ Soling.

² Fitir (fitr) – ro'za oxirida kambag'allarga, mullalarga beriladigan sadaqa, ehson.

³ Bo'z ot (bo'zot, bo'z tulpor) – ko'kka moyil oq rangli ot.

⁴ Suqliq (suqliq) – yuganning ot og'ziga solinadigan temir qismi.

⁵ Gurru-gurru (gurri-gurri) – to'da-to'da.

⁶ Dasta-dasta – guruh – guruh.

⁷ Taraqqos boylamoq – 1) qush kabi qanot chiqarmoq, qanot boylamoq, uchishga shaylanmoq; 2) o'ziga zeb bermoq, o'ziga zeb berib kerilmoq.

⁸ Suqsur – burgutsimon yirtqich qush; 2) o'rdakning bir turi.

⁹ O'ngarmoq (o'ng'armoq) – qulay qilmoq.

Har joyda bo'lgaysiz xudoyo omon,
Biror fasl¹ saqlang otning jilovin,
Biror fasl to'xtab turing, og'ajon!

Ko'ngil suysa yorning labi bol bo'l sin,
Otlarga yarashgan mayin yol bo'l sin!

Biror fasl saqlang otning jilovin,
Bir suyanchiq Asqar tog'im yo'l bo'l sin?

Jonimni joninga aylayin qurban,
Shuncha odam bo'lib ko'chada sarson,
Yo'l bo'l sin bo'ladi gapning o'rali²,
Kelaringni menga aytgin, akajon!

Yig'laganda yosh yog'ilar yuzima,
Enkaysam oq yuzim tushar tizima³,
Bir suyanchiq akajonim, yo'l bo'l sin?

Borar joying aytib ketgin o'zima⁴,
Santalat⁵li akajonim, yo'l bo'l sin?

Yurak-bag'rim bo'l mag'ay-da to'la qon,
Oydin ko'lga beklar chuyar⁶ bo'z tarlon⁷.
Biror fasl to'xtat otning jilovin,
Borar joying tayinin ayt, akajon!

Ko'rganim yo'q hangomada joyingni,
Aytib ketgin ko'kragingda o'yingni!

¹ Bir(or) fasl – biroz vaqt.

² Gapning o'rali (o'roli) – gap boshi, kezi.

³ Tizzamga.

⁴ O'zimga.

⁵ Santalat – saltanat.

⁶ Chuymoq – qush solmoq, ovlanadigan qush yoki mayda hayvonga ov qushini yo'llamoq.

⁷ Torlon (tarlon) – ovchi qush (ko'chma ma'noda).

Rostin ayt akajon, sizga yo'l bo'lsin?
Menga aytgin boradigan joyingni!
Rostin ayt, akajon, sizga yo'l bo'lsin?

Eson bo'p qilgaysan, aka, hovangni¹,
Topgaysan, izlasang, dardga davongni!
Rostin aytgin, chiroqqinam, yo'l bo'lsin?
Ishqingda yig'latma Chehra ukangni!

Rost gapirgin, akajonim, yo'l bo'lsin?
Olgan o'ljang ozginamas mo'l bo'lsin!
Ko'ngil suysa yorning labi bol bo'lsin!

To'xtating, akajon, otning boshini,
Rostin gapiring, akajonim, yo'l bo'lsin?
Biror fasl saqlang otning boshini!

Ana Hasanxon bu Gulchehra singlisini bevaqt ko'rib,
ko'ngli buzilib, ko'zdan qator-qator yoshtagasi tizilib, bir so'z
aytaverdi, Gulchehra singlisiga qarab:

Men chiqaman Taka tog'ning toshiga,
Har gaping dardima darmon chirog'im,
Rad berma, talabga kirgan kishiga!

Shakaman² otadi ko'lning qushini,
Olloyim o'ngarsin mardning ishini!

Har ganing dardima darmon, chirog'im,
Saqlama, chirog'im, oting boshini!

Jonimni joningga aylayin qurbon,
Qaytayin³ yolg'onchi dunyo bepoyon,

¹ **Hova** (**have**) – g'urur.

² **Shakaman** – qirag'ay, mohir mergan.

³ **Nima qilay**.

Rad berma, talabga kirgan kishiga,
Ot boshini to'xtatmagin, Chehrajon!

Qulog solgin, chiroqqinam, tilima¹,
Bulbullar sayraydi rayhon gulima².

To'xtatma, chirog'im, otning tizginin,
Ixlosman³ duo qing mening holima!
Moy ichganday yuragimni moytarma⁴!

El kishi ham yo'ldan chiqib qaytarma⁵
Daxl berma, menday talabli qulga,
Chiroqqinam, otning boshin qaytarma!

Sarg'aymasin oyimingning yuzlari,
G'ang'irab uchadi ko'lning g'ozlari.
Xushvaqtchilik bo'lsin qish-u yozlari,
Omin denglar, yana qaytib ko'rgancha,
Duo qinglar, Chambilbelning qizlari.

Yuragimning ketsin qayg'u-voyimi,
Oldida qarashar ahli poyimi,
Ot boshini aslo bunda to'xtatmang,
Duo qinglar, Chambilbelning oyimi!

Qoshlaring qoradi⁶ ariq qunduzi⁷,
Ko'zlarining surmali osmon yulduzi.
Duoda bo'ng⁸ yana qaytib ko'rgancha,
Omin denglar, Chambilbelning azizi!

¹ Tilimga.

² Gulimga.

³ Ixlos bilan.

⁴ Moytarmoq, (maytarmoq) – ruhan czmoq, o'rtamoq, dil og'ritmoq.

⁵ Qaytarmi

⁶ Qoradir.

⁷ Qunduz – suvsarsimonlar oilasiga mansub, qimmatbaho mo'ynali sutemizuvchi hayvon.

⁸ Bo'ling.

Aslo to‘xtatmanglar, otning boshini,
Omin deng, Gulchehraning suluv qizi!

Eshiting sof qizlar, o‘zimdan so‘zni,
Chambilda ko‘p yedik oshiman¹ tuzin.
O‘lmasak, bir yilda ko‘rarsiz bizni.

Sarg‘aymasin hech bir odamning yuzi,
Ko‘p bo‘ladi yaxshi odamning nozi.
Gulchehrajon, sen bir yilda ko‘rarsan,
Omin denglar, Gulchehraning kanizi.

Ana endi hamma qo‘sishin to‘xtab, Gulchehrajonning
yig‘laganiga rahmi keldi.

Ana endi Gulchehrajon Hasanxon akasiga qarab bir so‘z
aytaverdi:

Ko‘p chopilsa otdan chiqqan ter bo‘lsin.
Xafa odamning² yuragida cher bo‘lsin!
Borar joying aytgin mening o‘zima,
Safaring, akajon, bexatar bo‘lsin!

Har joyda bo‘lgaysan sog‘-u salomat,
Xudo qilsin senday mardga dalolat.
Ko‘rmagin hech joyda, akajon, mehnat³,
Ketganingdan eson kelsang, xo‘p davlat.

Talab qip, akajon, minibsan otga,
Qoyil bo‘ldim, aka, o‘zim kulfatga.
Sardor bo‘ling kelib Chambilday yurtga!

Talab qipsan o‘zing qaysi elatga?
Eson-omon kelgin Chambilday yurtga!

¹ Osh bilan.

² Qo‘lyozmada: «xapadomdi».

³ Tashvish, zahmat.

Yig'lamay qaytadi, gul rangi so'ldi,
Chiroyi chitilib¹ qaddi bukuldi.

Ro'mollarin boylab olib shoyidan
Sob suluv qiz bitgan girdini oldi.

Hasanxon ingranib o'rtada qoldi,
Kayvoni² sob³ qizlar qurshashib olib,
Xon Hasanjon endi o'rtada qoldi.

Hammasingning bandi-bo'g'ini bo'shadi,
Yoronlar, ko'ngli qaynab toshadi,
Ko'rqlanlarning xayoli aqli shoshadi.

Yigitlarning ko'ngillari jo'shadi.
Jamma qizlar o'rtaqa olib⁴ polvonni
Hammalari omin-omin deyishadi.

Ne savdo ko'tarmas bandaning boshi,
Ill Oblo der machitlarning darveshi.

Ag'darilib uchar ko'klarning qushi,
Omin deyishib gala oyim chuvlaydi,
Chuvlashadi sap xotinning tovushi.

Qiz-kelinchak omin deyishib izlaydi⁵,
Mard yigit dushmanning bag'rin tuzlaydi.

Borarini asli bilmay Gulchehra,
Suluv qizlar omin deyishib bo'zlaydi⁶.

¹ Chitilmoq – so'imoq.

² Kayvon(i) – 1) yoshi ulug', ko'pni ko'rghan, ko'p narsani biladigan; 2) uddaburon.

³ Sob (sop) – eng zo'r, asil.

⁴ Qo'lyozmada: «o'rtga g'olib».

⁵ Izzilaydi.

⁶ Bo'zlamoq – ho'ngrab yo'qlab yig'lamoq.

Tomosha aylang Gulchehraning dodiga,
Hamma qizlar, kelinchaklar chuvlashib.
Omin deb fotiha tortdi betiga.

Gulchehrajon o'pkasini bosolmay,
Jo'natar bo'p Hindistonning yurtiga.

Uka bo'lar akasining qanoti,
O'g'il farzand otasining ulfati.

Xon Hasanxon, Go'ro'g'libek, yoronlar,
Sahmon polvon Hasanxonga sardor bo'p,
Omin deb fotiha [betiga] tortdi.

Go'ro'g'libek sherdai bo'lib,
Qatordagi norday¹ bo'lib,
Yelkalari qirday bo'lib,
Ko'ring turkmanning podshosi,
Hindiston eliga ketdi.

Oldida Hasan farzandi,
Sahmon polvon yo'lbarsday bo'p,
Hindiston eliga ketdi.

Dimog'i chog' bo'lib, Go'ro'g'li, Sahmon,
Hasanxonne sardor qilib lashkarga,
Ahmadbekning qo'llariga tug' berib,
Hindiston eliga Go'ro'g'li ketdi.

So'z chiqadi tilidan,
Kiyik qochar cho'lidan,
Go'ro'g'libek, xon Hasan,
Ahmad sardor, Sahmon polvon bosh bo'lib,
Lashkar chiqib ketdi Chambil elidan.

¹ Nor – bir o'rkachli erkak tuya.

Go‘ro‘g‘libek g‘ayrat bilan Chambildan
Jo‘nayverdi Hindistonning eliga.

Qistab chiqdi, Chambilning cho‘liga,
Chang bilqillab qoldi yurgan dashida.
Tomosha aylang Ahmad sardor ishiga,
Tizilishib ot qo‘yadi sardorlar,
Chaparas¹ chopishib cho‘lning dashiga²,
Cho‘lda o‘lganning jondor qo‘nar go‘shiga³.

Ko‘ngil bo‘lmasin xasta,
Chang chiqib dasta-dasta,
Ot qo‘yadi Go‘ro‘g‘li,
Turkman elning beklari,
Ot qo‘yib⁴ chaparasta.

Qo‘pti yuzi nurlari,
Qistab jo‘nar cho‘llarda
Go‘ro‘g‘lining sherlari.

Yelkasida bor qalqon
Chambil el bo‘ldi shodmon.
O‘n besh kunlik oyday bo‘p,
Ot qo‘yadi cho‘llarda,
Tinjiraydi⁵ Hasanxon.

Xuddi o‘zi boyday bo‘p,
Cho‘pon tortgan nayday bo‘p,
Qo‘shining o‘rtasida,
Xon Hasanxon yarashib,
O‘n besh kunlik oyday bo‘p.

¹ Chaparas(ta) – har xil, tartibsiz.

² Dash – dasht.

³ Go‘sh – go‘sht.

⁴ Ot qo‘ymoq – yovga tashlanmoq, hujum qilmoq.

⁵ Tinjiramoq – shu‘la bermoq, jilolanmoq.

O'tar dunyo bepoyon,
Dushmanlar bo'lsin sarson.

Qirq yigit o'rtasida,
Bu qo'shichga¹ yarashib,
Hamma beklar qarashib,
Tilla jig'a boshida
Ot chopadi Hasanxon.

Yuring, deb qizil tili,
Tushmasin o'lim hili.

Go'ro'g'lining bulbuli,
To'zonlab yurgan cho'li,
Bu qo'shinga yarashib,
Temir podshoning uli².

Dasta-dasta ot qo'yib,
Obod bo'p yurgan cho'li.
Jo'nayverdi Go'ro'g'li
Chambilbelning sardori.

Kechasi tushib yotib,
Kunduz kuni qistaydi,
Turkman elning beklari.

Shirin jonni sotsam, deb,
Necha tog'dan o'tsam, deb,
Go'ro'g'libek xushvaqt bo'p,
Hindistonidan Gulnorni,
Mingashtirib qaytsam, deb.

Hindistonning shahrini
Borib qoyil qilsam, deb.

¹ Guruh.

² O'g'li.

Gulnorjonning o‘ziga
«Qani va’da», –desam, deb.
Chochilgan¹ nasvalarni²
Har shaharda yesam, deb.

Davlatlining xotiri,
Yovda yigit botiri.

Tizilishib ot chopib,
Turkman elning beklari.

Churrik³ lochiq⁴ ko‘lida,
Lochin tog‘ning belida,
Go‘ro‘g‘libek ot chopib,
Jo‘nay berdi sop beklar,
Hindistonning eliga.

Yovdag‘i ko‘p yigitlar,
Hasanxonning bahriga,
Yo‘liqmasin hech dushmanning qahriga.

Ot qo‘yadi sop sherlar,
Hindistonning shahriga.

Satta beklar ot qo‘yadi sherdai bo‘p,
Ot qo‘yadi zanglab yotgan cho‘liga.

So‘na⁵ oydin ko‘lida,
Gohi do‘ngga⁶ chopadi,
Beklar ko‘nglin topadi.

¹ Chochmoq – sochilmoq.

² Nasva – nasiba.

³ Churrik – o‘rdakdan kichikroq, ov qilinadigan yovvoyi qush.

⁴ Lochiq – chayla.

⁵ So‘na – 1) yovvoyi o‘rdakning katta turi; 2) erkak o‘rdak; 3) oq qushning bir turi.

⁶ Do‘ng – tepa.

Gohi tekisda chopib,
Hulkarday bo‘p to‘p bo‘lib,
Gohi tog‘ning beliga.

Tinmay qistab yo‘l yurib,
Gohoda ot qo‘yadi.

Hasanxonni balqitti.
To‘basida¹ kokili,
Ot chopganda shamolga,
Kokilin jilviratdi.

Ildam ekan otlari,
Ustida uzun chopon
O‘ngurni² parillatdi.

Yelkasida qalqonni
Oydayin dirillatdi.

Mard Go‘ro‘g‘li haydang deb,
Hindistonga yo‘l tortdi.

Elni bosibdi savlati
Ham Xoldor, Shodmon qo‘shilib,
Otni chopib har tarafdan,
Odam yig‘ildi har bobdan³.

Go‘ro‘g‘libek xo‘rlik ko‘rsa,
Qo‘shin kelar Ko‘yiqofdan.
Rustamday⁴ beklar jo‘nadi,
Bastamga o‘xhab jo‘nadi.

¹ Te‘ba – boshning eng tepa qismi.

² O‘ngur (o‘ngir) – 1) bar (etak); 2) to‘nning old tomon bo‘yi.

³ Bob – joy, yer.

⁴ Rustam – Firdavsiy «Shohnoma» sidagi qahramon.

Yelkada bordi parangi¹,
Qo‘lida bordi zarangi².
Ot qo‘yadi qulo cho‘lda³
Kelayapti goho elda.

Goho yorug‘, goh qorong‘i,
Rustamday beklar jo‘nadi,
Bastamga o‘xshab jo‘nadi.

Gulnorjonne olsam, deydi,
Op xizmatkor qilsam deydi.

Hindistonni, o‘zim borib,
Qarindosh qip kelsam, deydi.

Chochilgan non-nasibani,
Har shahardan yig‘sam, deydi.

Oq yuzli obro‘li bo‘lib,
Hindistondan kelsam, deydi.

Rustamday beklar jo‘nadi,
Bastamga o‘xshab jo‘nadi.

Yura-yura Go‘ro‘g‘libek,
Keldi Urruqlu cho‘liga.

Lashkar tortib dasta-dasta,
Keldi Beshkapa eliga.

Qulog solib eytgan tiliga,
Oraladi Xitoy eliga.

¹ Parangi – yaxshi quroq. Parang miltiq – eng yaxshi miltiq.

² Zarang – tanasi qattiq daraxt. Zarangi – zarang daraxtidan yasalgan o‘q-yoy.

³ Qulo cho‘l – cheksiz keng sayhon, qumloq.

Hamma yerni to'zon tutdi,
Bor¹ yerlar qimirlab ketdi.
Viloyatni oralashib
Odam narsasiga tegmay,
Rustamday beklar jo'nadi,
Bastamga o'xshab jo'nadi.

Ochilgan bog'ning g'unchasi,
G'am ko'mdi, dardman anchasi,
Cho'g'day bo'lib jaynashadi²,
Turkman elning bekbachchasi.
Rustamday beklar jo'nadi,
Bastamga o'xshab jo'nadi.

Tinmayin tushlikka ketdi,
Yo'lni yurib xon Go'ro'g'li
Taxta Qorachadan o'tdi.

Qora daraxtni oralab,
Anorlar uzdi saralab,
Odamlar qo'rqib, moralab³,
Hech narsaga zarar qilmay
Qishloqni oralab ketdi.

Endi qistab Go'ro'g'libek
Chiniman⁴ endi yo'l tortdi.

Ot, yigit keldi bobga⁵
Chopilmoqqa keldi toqqa.

Ot bitganlar zorillashib,
Choponlari porillashib,

¹ Barcha.

² Jaynamoq – yashnamoq.

³ Moralamoq – bekinmoq, yashirinmoq.

⁴ Chini bilan.

⁵ Bob – marom.

O'zbek-turkman ot qo'yishib,
Sherday bo'lib garillashib,
Yurgan cho'l changib ketdi,
Egnida tugma bandi,
Po'pakdi selpillatdi.

Qarchig'ayday qimtilib¹,
Itilgiday² imtilib³,
Och laylakday yutilib,
Ildam bedov oldinda,
Olib qochib qutulib.

Otlar og'zini ochdi,
Qo'ltiqdan parqin⁴ sochdi,
Nishab-nishab⁵ kelganda,
Beklarni olib qochdi.

Ko'rganning aqli shoshdi.
Tinmay qistab Go'ro'g'li,
Zanglagan cho'lga tushdi.

Bedov otlar parqillab,
Yonda xanjar sharqillab,

Jo'nayverdi xon Hasan
Oyga o'xshab yarqillab.

Ot yolin shamol eshdi,
To'p-to'p bo'p dasta-dasta,
Yurak bo'lmasin xasta!

¹ Qimtilmoq – intilmoq.

² Itilgi (itulgi, italgu, itolg'u) – olg'ir yirtqich qush.

³ Imtilmoq – harakat qilmoq.

⁴ Parqin – 1) o'zbek dostonlarida ot qo'ltig'i, tulpor qo'ltig'i; 2) afsonaviy ot qanoti va qanotining joylashgan yeri.

⁵ Nishab – qiyalik.

Hindistonga Go‘ro‘g‘li
Og‘darilib cho‘llarda,
Hammasi ot qo‘yishdi.
Shiringina so‘zi, deb,
Yarqillagan ko‘zi, deb,
Ot qo‘yadi Go‘ro‘g‘li
Gulnorjonning o‘zi deb,
Tinmayin qistab ketdi,

Qirq yigitning kiyimi,
To‘rt ellik¹ changga botdi.

Hasanxon yosh bachchadi,
Betlari chuykab² ketib,
Andayin ozib ketdi.

Hech kami qolmadi,
Langar tog‘iga yetdi.

Molni tuluplay³ so‘yib,
Suv to‘ldirib cho‘llarda,
Rabbano deb yo‘l tortdi...

Boylar tog‘ni yaylaydi,
Ostida ot o‘ynaydi.
Tanda jonni qiynaydi.

Go‘ro‘g‘libek bir mahal
Odamlarini yig‘ib,
«Qandaysan», – deb so‘ylaydi.

Barakalla, ko‘p lashkar,
Namozgar bo‘lganda

¹ Ellik – enlik – barmoq kengligiga teng o‘lchov birligi.

² Chuykamoq (chuykmoq) – 1) tutamoq; 2) yonmoq; 3) qoraymoq.

³ Tulup – hayvonlarning yomasdan shilib olingan meshsimon terisi. Tuluplay – hayvonlarning yomasdan shilib olish.

Barisi qush tashlaydi.
Vaqtlarini xushlaydi,
Belbog' choponni cheshmaydi,
Bir yonbosh bo'p taylaydi.

Qalqonini to'ntarib,
Sovutlarni bo'ktarib¹,
Borayotir cho'llarda
Hindistonni axtarib.

Yo'l bermaydi baland tog'ning o'rasi²,
Har kimning kuni bor besh kun ko'rasi³.

Uzoq ekan Qora tog'ning darasi,
Ot qo'yib qulo cho'lda jo'naydi;
Borayotir Chambil elning to'rasi.

Olisga yaraydi otning sarasi,
Botirni ingratar miltiq yarasi.
Olis ekan Hindistonning orasi,
Tobga keldi asil tulpor sarasi.

Ko'p kun yo'l yurdi Go'ro'g'li podsho,
Yaltirab ko'rindi daryo qorasি.

Yomon yo'idosh pasod⁴ qilar kishiga,
Ot o'ynatib suvluqlarni chaynatib,
Yaqinlashdi bir daryoning boshiga.

Bular ko'rgan yo'qdi haqning qudrati,
Bir tulupni minib katta daryodan,
Otidan ildam birov nariga o'tdi.

¹ Bo'ktarmoq – chandib bog'lamoq.

² O'rса – 1) chuqur; 2) o'jar, qaysar.

³ Ko'rgisi.

⁴ G'iybat, tuhmat.

Yov keldi deb Afg'oniston shahriga,
Tulup mingan odam Afg'on shohiga,
Afg'on podshosiga xabar qip aytdi.

Endi gapni haligi tulup mingandan eshitmak darkor.
Afg'onning podshosiga borib, uzun soqol, junli bachchag'ar, bir
so'z aytayapti:

Har narsadan har millatning xudoyi
Ketmas bo'ldi qaytay qorinning o'yi.

Qo'rqib ochib keldim pok¹ o'layin deb,
So'zima quloq song², Afg'on podshoyi.

Daryoda shaldirab o'tadi baliq,
Yomon qo'rqib keldim davlatxonaga,
So'zima quloq song, Abdi Otaliq.

Ko'ngilga kelmasin tag'i menmanlik³,
Afg'oniston elga bo'lg'ay shodmonlik.

Bir narsani ko'rib men bejoy qo'rqedim,
So'zimni xo'p tinglang, Abdi Otaliq.

QuLoq soling Junlivoyning so'ziga,
Rahm etmang dushman bo'lsa holiga.
Ko'rganimni aytaversam xo'p kulfat,
Lashkar keldi Afg'oniston eliga.

Oftob so'litmagay bog'da gulingni,
Ko'rganimni aytaversam, taqsirjon,
Lashkar bosdi Afg'oniston elingni!

¹ Pok – sal bo'lmasa.

² Soling.

³ Manmanlik.

Bejoy¹ ko‘p qo‘shindir – daryodan o‘tar,
Shu bugun kechasi bulk etmay² yotar.
Taraddini darrov o‘zing qilmasang,
Elotingning hammasin talab ketar.

Yov oldi desang-chi, endi elingni,
Sel oldi desang-chi, endi shahringni.
Gardon daroz³ josus otni minibdi,
Bildim har jabr-u jafoga ko‘nibdi.
Gohosining⁴ katta telpak boshida,
Haybatli, hashamli bir yov kelibdi.

Men bilmayman sening yo‘lingni to‘sgan,
Qayerda dushmanning ko‘kayin kesgan,
Dabdabali katta lashkar kelibdi;
Qurtday qaynab daryo bo‘yini bosgan.

Burunli sop polvon lashkar kelibdi;
Birovining tilla jig‘a boshida,
Qoyil bo‘ldim ko‘rib o‘zim ishiga.

Oydayin bolqigan⁵ bitta bolasi,
Aning o‘zi ayni o‘n besh yoshida.
Sop xurushli⁶ zo‘r polvonlar kelibdi.

Indamasang to‘s-to‘s qilar elingni,
Haydab ketar yoyilib yurgan molingni,
Xazon qilar bog‘da ochilgan⁷ gulingni,
Qorovul qo‘y, ehtiyyot qil elingni!
Zilzilalik katta taraf⁸ kelibdi.

¹ Bejoy – rosa, juda.

² Bulk etmoq – qimirlamoq.

³ Daroz – uzun, novcha.

⁴ Ayrimlarining.

⁵ Balqigan.

⁶ Xurush – shijoat, matonat.

⁷ Qo‘lyozmada: «bog‘dochilgan».

⁸ Taraf – dushman.



Shopqin¹ urib tag'i elni olmasin,
Bir-biriga maslahat qib demasin.
Ehtiyot bo'ng bu ish[lar]ga, podshohim,
Tag'in-a, elatni vayron qilmasin!
Dabdabali yomon dushman kelibdi.

Bulkillab² cho'llarni qamsab³ olibdi,
Ko'p joy lashkarga to'lib qolibdi.
Ko'rganimni aytsam sizga, podshohim,
Santalatli yomon lashkar kelibdi.

Buni ko'rib yurakni bosdi vahim,
Yovgarchilik bo'p qoldi endi joyim.
Tong otmayin qilgin buning hiylasin,
Lashkar tutdi katta daryo dalasin.
Bu ishning ilojin qilgin, podshohim!

Ana endi Abdi Otaliq podshoning rangining qoni qochdi,
tusi o'chdi, qulog'i tos tepasidan⁴ oshdi. Oldidagi odamlar tura-
tura qochdi. O'zi zangiga⁵ o'xshagan qop-qora, bahaybat odam
ekan.

Ana Abdi Otaliq – Afg'onning xoni, vazirlarga qarab bir
so'z aytayapti:

Qo'shin kelgan bo'lsa, qiling ilojin,
Tinchlik uchun olding elatning bojin.
Dono vazir, otni mingan askarlar,
Dushman kelsa, qiling buning ilojin!

Bitta qolmay ko'rsatmanglar elini,
Yilib oling, so'zlamasin, tilini!

¹ Shovqin.

² Bulkillamoq (bulkullamoq) – gumburlamoq.

³ Qamsamoq – hujum etib o'ramoq.

⁴ Tos tepe – boshning eng tepe qismi, qoq miya.

⁵ Zangi – habash, barzangi.

Dushmandan tap tortmas satta sarbozlar,
O'lia qilib kenglar¹ hamma molini!

Tortib onglar² kissasida pulini,
Qon qilinglar qo'nib yotgan cho'lini!

Bitta qolmay boshin oling hammasin!
Berib kenglar kim bo'lsa ham tonmasin!

Zan³ deb chopib tashlanguning hammasin!
Amaldorlar, qiling buning ilojin!

Qo'shin yig'ib, darrov bosing izini,
Ko'p elansa, qabul qilmang so'zini!

Avval elchi yuboringlar, vazirlar,
Dushman bo'lsa, qirib tashlang o'zini!

Har tarafga xati-xabar qildiring,
Daryo bo'yin o'lik[lar]ga to'ldiring!

Sop vazirlar, sarbozboshi, polvonlar,
Dushman bo'lsa, bitta qo'ymay o'ldiring!

Har tarafga endi dobil tuydiring,
Kechasiman⁴ eldan lashkar yig'diring!

Yaxshi narsasini talab olinglar,
Bitta qo'ymay hammasini o'ldiring!

Ana endi Afg'onistonga, Kobiliston, Zabuliston⁵ – har

¹ Kelinglar.

² Olinglar.

³ Zan – 1) ayol; 2) nomard, xotinchalish (*ko'chma ma'noda*).

⁴ Kechasi bilan.

⁵ Zabuliston – o'rta asrlarda Afg'onistonning janubiy qismi bilan Balujistonning shimoliy qismidan iborat hudud nomi.

tarafga ot qo'yib, xat yuborib, kechasi bilan Afg'onning qo'shini yig'ildi. Pechi¹ kindikdan oshgan, uzun pechli, oq salla, ko'ksalla, kashtali, har rang sallali shu Afg'on qurtday qaynab, tong qulon iyak bo'lganda² daryoning bo'yi Hindistondan laylak kelganday bo'lib, daryoning narigi chekkasi qo'shinga to'lib ketdi.

Go'ro'g'libek ham bu qo'shinni ko'rib, turkman, o'zbekning sardorlari, botirlarining yuragi hishib³ ketdi. Qo'rqaqlarining yuragi pastga tushib ketdi.

Xuddi otgan o'qday qilib, ikkita tulup mingan baliqqa yetkazmay, shirillab daryodan o'tdi. Ana endi ikovi tulupni qo'yib, quyonday chopib, anavi Go'ro'g'lining qo'shiniga oralab ketdi. Sahmon polvonning alangasi yuziga o'rnab⁴, haligi ikovini qo'lidan ushlab, kallasini birov-biroviga urishtiraverdi. [Buni] shu odobsizlik bilan kelayotganiga qildi.

Xoldorbek bilan Shodmon mergan kelib, ayirib oldi. Haligilar ko'zi chang'iroqlab⁵, esi ketib qoldi. Bir soat yotib, o'ziga keldi. Sahmon polvonning achchig'i kelgan ekan, bir tiklab⁶ qaradi:

Haligi ko'zga ilmay, manmanlik qilib kelayotgan, tulup mingan ikki elchining bir buyragi ichidan chopib chiqib ketdi. Bittasi yiqlib qoldi. Undan keyin o'ziga keldi ikovi. Endi salom berib, ko'rgan odamga yalinchon qilib bo'ldi.

Ana shunda Xoldor bilaya Shodmon mergan Go'ro'g'libekning oldiga borib, salom alikni ado qilib, Go'ro'g'libek yo'l barsday vahshat qilib, haligi elchilarga qarab bir so'z aytayapti:

Endi senga do'zax, bihisht mo'l bo'lsin,
Yurganganang daryoboshi, ko'l bo'lsin.
Menmanlik qip qistab o'tding daryodan,
Takabbur mehmonlar, senga yo'l bo'lsin?

¹ Pech – boshga o'ralgan sallaning chekkadan osiltirib qo'yilgan qismi, uchi.

² Qulon – 1) otdan kichikroq, eshakdan kattaroq, otdan ko'ra ko'proq eshakka o'xshab ketadigan yovvoyi hayvon; 2) yovvoyi ot. Tong qulon iyak bo'lganda – qulonning iyagi (pastki jag'i) ko'rindigan payt bo'lmoq.

³ Hishmoq – to'lib toshmoq.

⁴ O'rnamoq – o'tmoq.

⁵ Chang'iramoq – ola-kula bo'lmoq, olaymoq.

⁶ Tiklamoq – tikilmoq, ko'zni yuqori yoki pastki tomon qarab tikilmoq.

Ikovginang tulup minib yelasan,
O'ylab tursam bir baloni bilasan.
Pechingni uzun qo'yib ikoving,
Beadab mehmonlar, senga yo'l bo'lsin?

Oqizaymi ko'zlarindan yoshingni,
Uchiraymi qo'ldan olg'ir qushingni?

Zo'ravor mehmonlar, senga yo'l bo'lsin,
Yilib tashlayinmi tandan boshingni?

Yuragingni Sahmon polvon mayirdi¹,
O'larida ot oyog'in jiyirdi².
Soqoling silkillab, soching chilvirab,
Qanday odam ikovingni buyurdi?
Mazasi yo'q ikki mehmon, yo'l bo'lsin?

Ololmaysan menday marddan o'chingni,
Qayerdan jo'natib kelding ko'chingni³?

Dabdabaman⁴ ik⁵ kun qistab kelasan,
Kindigingdan tushuribsan pechingni,
Qora buzoqday mehmonlar, yo'l bo'lsin?

Qaramayin kelding ikki ko'zlarga,
Yigit ishqivoz bo'ladi qizlarga.
Balo urganday bo'p ikking xezlaysan⁶
Jazo lozim bo'ldi endi sizlarga.
Tuzsiz mehmon, ikovingga yo'l bo'lsin?

¹ **Mayirmoq** (moyirmoq) – parchalamoq, bo'laklarga bo'lmoq.

² **Jiyirmoq** – burishtirmoq.

³ **Ko'ch** – ahli ayol, xotin.

⁴ Dabdaba bilan.

⁵ Ikki.

⁶ **Xezlamoq** – tez harakat bilan oldinga intilmoq, tashlanmoq; hamla qilmoq; sapchimoq, sakramoq.

Keluvingga yo‘lginangni to‘sarman,
Go‘shtlaringni burda-burda o‘sarman!
Fe‘li yomon mehmon senga yo‘l bo‘lsin?
Shoshmasang qulq-burningni kesarman.
Erkak sabzidayin mehmon, yo‘l bo‘lsin?

Podsho o‘qir mirzosining xatini,
Nima deydi kelganingning yurtini?
Beustod mehmonlar, sizga yo‘l bo‘lsin?
Nima deydi podshohingning otini?

Mening o‘zim kattalikka yarayman,
Har tarafga boqib tiklab qarayman.
Podshohingning oti nima, mehmonlar?
Kelgan shaharingni o‘zim so‘rayman.
Ilki menman² mehmon, sizga yo‘l bo‘lsin?

Shu ikovi ko‘zini japalang-japalang³ etib, sichqon uyani
yuz tangaga sotib olganday bo‘lib, ko‘zi pishakning⁴ ko‘ziday
tovlanib, mehmonlar Go‘ro‘g‘libekka qarab bir so‘z ayta berdi:

Eshitgin, podshohim, elchi dodini,
Endi qiling ko‘ngillarning shodini.
Abdi Otaliq deydi shohim otini,
Afg‘oniston der elchining yurtini
Elchi bo‘lib bunda keldik, podshohim.

Namozgarda yov keldi deb eshitdi,
Abdi Otaliq ko‘p qildi g‘ayratni.
Har tarafga otni, xatni jo‘natdi,
Ko‘p tala-to‘p bo‘ldi Afg‘onning yurti.
So‘ragani keldik bizlar, podshohim.

¹ O‘sarmoq – burdalamoq.

² Manman.

³ Alang-jalang.

⁴ Pishak – mushuk.

Yaxshi xizmat menga qilinglar, dedi,
Nima bo'lsang ikking bo'linglar, dedi
Ajal yetsa borib, o'linglar, dedi.
Abdi Otaliq bizlarni buyurdi,
Do'stmi-dushmanmi, bilinglar, dedi.

Afg'on deydi elchilar ning kentini,
Shohimardon der buzrugim otini,
Abdi Otaliq ham ko'p o'tkir podsho,
Dushman dan hamisha olar lotini¹.

So'ragani keldik bizlar, podshohim.
Sovur kirsa, ko'char dehqonlar boqqa,
Suluv qiz silkillab yurar chorvoqda.
Istixona Soqijondan tiladi,
Shohimardon deb buzrugim otini.

Yuraklardan ketgan na qayg'u-g'amsiz
Qiya tog'da sildiragan² bodomsiz,
Elchiga o'lim yo'q hargiz, podshohim.

Do'sti dushmanlikni, mehmonlar, ayting,
Rost gapiring qanday changi³ odamsiz?
Otaliq amriman⁴ keldim, podshohim.

Ko'p qiynamay bizni bevaqt o'ldiring,
Ochilmayin toza gulni so'ldiring!

Podshomiz boringlar dedi, aytdi,
Dushmansizmi yo do'stlikni bildiring!
Sinagani keldim bunda, podshohim.

¹ Lot – qasd.

² Sildiramoq – 1) unib chiqmoq; 2) gullamoq; 3) meva solmoq.

³ Qanaqa.

⁴ Amri bilan.

Mehmonsizmi, tarafsizmi¹ aytinlar,
Savdogar bo'lsang, saroyda yotinglar!
Dushman deb Otaliq anjom choqladi.
Haq hurmati², mehmon, to'g'ri aytinlar!
So'ragani keldim bunda, podshohim.

Shikasta pand berar otning mayibi,
Yaxshi bo'lgay har bandaning zaifi.
Mehmonsizmi, dushmansizmi, bildiring,
So'raganning hech bo'lmaydi ayibi?!

Ana endi mehmonlar aytadigan so'zini aytib qo'ydi. Ana Go'ro'g'libek kelgan uzun pechli mehmonlarga qarab, rost so'zni aytayapti:

Eshitinglar ikki elchi dodimni,
Tiriklikda qilay ko'ngil shodimni.
Chambil deydi o'sgan viloyatimni.

Maza chiqar esli odam tilidan,
O'rdaklar parillab uchar ko'lidan.

Go'ro'g'li yetim der mening otimni,
Meniki elchilar Chambil elidan.

Belima³ men bo'g'sam sholdan po'tamni,
O'lib ketsam Yunus tutar azamni.
Aslim bilsang, men turkmanning urug'i,
Ravshan sinchi⁴ deydi mening otamni,
Zotim so'rsang, asilzoda bo'laman.

Urush bo'lmay qalqonsovut kiymayman,
Ozod qilmay lashkarimni yig'mayman.

¹ Taraf – dushman.

² Qo'lyozmada: «haqurmati».

³ Belimga.

⁴ Sinchi – otlarning zotini, naslini, yoshini, fe'l-atvorini yaxshi biladigan odam.

Men mehmonman, kelib tushdim shu yerga,
Qo‘rmasin podshohing, aslo tegmayman.

Borib aytung men yo‘lovchi, elchilar!
Eson bo‘lsam necha tog‘dan o‘taman.
Men sizlarga rostin aytsam elchilar,
Yo‘lovchiman, Hindistonga ketaman.

Yo‘l yuraman zanglab yotgan cho‘lida,
Chiqib olsam Shanxay elning beliga,
Hali hozircha men mehmon, elchilar,
Borayapman Hindistonning yurtiga.

Gulnor pari Chambil elga keluvdi,
Tegaman, deb qattiq va‘da qiluvdi,
Gaplariga mening ko‘nglim to‘luvdi.

Sherik bo‘lmang bu yurakning cheriga,
Hindistonga Gulnor dedim, otlandim,
Men boraman Gulnorjonday pariga.

Podshong rozi bo‘lsa, uch kun yotaman,
Mehmon deb siylasa mening o‘zimni.

Nima desa Go‘ro‘g‘libek debdi, de,
Sochilgan non-tuzini yebdi, de!

Yolg‘on aytma, rost gapirgin podshongga,
Go‘ro‘g‘libek Chambil eldan kepti, de!

Taqdir kelsa Gulnorjonni olaman.
Qaytarimda kelib mehmon bo‘laman.

Ana endi ikki elchi joyidan turib, qo‘l qovushtirib, pechlari yer sudrab, Go‘ro‘g‘libekka, turgan ahli qora ko‘z qo‘shinga aylanib, ta‘zim qildi. Ana endi Go‘ro‘g‘libek qo‘rqqanini bildi, asta jilmayib kului. Ana endi yaxshi sarpolardan berib, elchilarni;

«Xush kelding», – deb, daryoning boshigacha uzatib jo‘natdi.
Haligi ikovi tulupni minib oldi. Yashin oqqanday bo‘lib daryo-
dan o‘tdi. Shu Sahmondan qutulganiga xushvaqt bo‘lib ketdi.
Abdi Otaliqning oldiga yetdi.

Ana endi ko‘rgan sirlarini Otaliqqa qarab aytaverdi:

Assalom alaykum, Afg‘on podshohi,
O‘lmaygina keldim men oldingizga.

Yaxshi otni o‘zi yeldiray, dedi,
Pok bo‘lmasa meni o‘ldiray, dedi.

Xataplangan¹ bari qizil nor ekan,
Barzi² dehqondayin bari sher ekan.
O‘z ko‘zimman³ ko‘rib keldim podshohim,
Go‘ro‘g‘li degan bir podshoh bor ekan.

Ozor bermasangiz, uch kun yotarmish,
Indasangiz ko‘plar savash etarmish,
Yo‘lbarsday turkmanlar kepti⁴ mehmon bo‘p,
Hindistonga yoppa-yovlik o‘tarmish.

Yovning kuni Rustamcha bor g‘ayrati,
Cho‘lni bosib yotar uning haybati.
Xizmatkori bejoy ko‘pdi g‘ayrati.

Mehmon ekan Hindistonga ketarmish.
Tegmasangiz, uch kun dam ob yotarmish.

Sap odamxo‘r kepti Chambil elidan,
Banda omon qutulmaydi qo‘lidan.
Yo‘l bersangiz Hindistonga ketarmish,
Zap azamat kepti o‘zbek elidan.

¹ Xatap – tuya egarining qoshi. Xataplangan – egarlangan.

² Barzi – barzangi.

³ Ko‘zim bilan.

⁴ Kelibdi.

Otaliq, qulq song aytgan so'zlarga,
O'lmay chiqsak bu yil qishdan yozlarga,
Yo'lbarsdayin satta sherlar kelibdi,
Xudo mehmon berib qopti bizlarga.

Yo'lovchi ekan Hindiston ketarmish,
Go'ro'g'libek Gulnorjonni olarmish.
Qaytarida kelib mehmon bo'larmish.

Mehmon ekan, Hindistonga borarmish
Qaytarida necha tortiqlar bilan
Kelib turib yaxshi mehmon bo'larmish.

«Yaxshi gap bilan ilon indan chiqarmish, yomon gapirsa
musulmon dindan chiqarmish», ana endi toshqinligi kelib, Otaliq
o'ng-u so'lga qarab, donolarga bir so'z aytaverdi Afg'onning
podshosi:

Zap vazirlar eslilaring kelinglar,
Mehmonlarga xizmatkori bo'linglar!
Borib turib u兹-ma'zurlar aytib,
Olib kelib bunda mehmon qilinglar!

Afg'oniston xudotidan¹ oshiring,
Ajlardayin² izlariga bosh uring!
Yaxshi sarpo'y, ovqat tayyor qilinglar,
Olib kelib, mehmonlarni tushiring!
Vazirlar, maslahat qanday bo'ladi?

Olib kelib, ot-otini boylanglar!
Mehmon qilib bejoyin ko'p siylanglar,
Yaxshi gilam, yaxshi ko'rpa taylanglar!
Donolar, maslahat qanday bo'ladi?

¹ Hududidan.

² Azizlarday.

To‘qli, g‘ozni ovlab kenglar ko‘limdan,
Bemaza gap chiqib ketdi tilimdan.
Mehmon qilib, yaxshi sarpolar yopib,
Uzatib kelinglar endi elimdan!

Mehmon qilib, aqllarin shoshiring,
Xizmat qilib ko‘ngillarin jo‘shiring,
Olib keling satta na’ra sherlarin!

Chegara Afg‘on yurtidan oshiring,
Hindistonga o‘z ko‘zingman¹ tushuring!

Qavatida kecha-kunduz turinglar,
Chaqqon bo‘lib Go‘ro‘g‘liga boringlar!

O‘tganini hech bir dushman bilmasin,
Kelgancha qarnashuv² qilib yuringlar!
Xaloyiq, maslahat qanday bo‘ladi.

Uyat bo‘pti darrov olib kelinglar!
Hangoma qip dimog‘larini chog‘lab,
Balki Hindistonga birga boringlar!

Yuz mahramni Abdi Otaliq jo‘natdi,
Ming odam kemaman³ qayiqqa ketdi.
Amri podsho vojib ekan dunyoda,
Daryoning betini sol, kema tutdi.


Yuz mahram tilloga botib, chopishib,
Go‘ro‘g‘li oldiga izzatman yetdi.

Esli mahramlar vaqtini xushladi,
Boshin irg‘ab, lablarini tishladi.

¹ Ko‘zing bilan.

² Qarnashuv – 1) yordamchilik; 2) qarindoshchilik.

³ Kema bilan.



Salom berib, o'ynab-kulib hammasi,
Ot-otidan mehmonim, deb tashladi.

Hammasi otdan tashlab, ko'nglini xushlab, ana
Go'ro'g'libekka qarab, bir so'z aytaverdi:

Olqor o'ynar tog'ning baland-pastida,
Mard kishilar dushmanlarning qasdida.
Assalom alaykum, kelgan mehmonlar,
Har bir kelganingiz bag'rim ustiga.

Usta olar bolta bilan tabarni,
Yomon so'zga gulday yurak qabardi.
Qadringizdan ketay, aziz mehmonlar,
Otaliq bizlarni sizga yubordi.

Bahorda ko'kmakdir tog'ning bodomi,
Xushvaqtlikda ketdi yurakning g'ami.
Bizlarman¹ birga yuring, mehmonlar,
Bizlar keldik, Otaliqning mahrami.

Eshitib, xushvaqt bo'p, ko'p gap so'yladi,
Dushmani ko'p-ko'p gaplarni o'yladi.
Necha taom-ovqat tayyorlar qilib,
Yaxshi gilam, yaxshi to'shaklar to'shab,
Otaliq sizlarni mehmon ayladi.

Bizlar bilan endi yuring, mehmonlar,
Bizlar ham botirmiz ko'mak etamiz.

Mehmon qilib, ziyorat qip sizlarni,
Sizlar bilan Hindistonga ketamiz.

Otaliq sizlarni mehmon ayladi,
Tevarakda dushmani ko'p poyladi.

¹ Bizlar bilan.

Xushvaqt bo‘lib, yuraklari yorilib.
Hammamizni shod-u xurram ayladi.

Bizlar bilan birga yuring, mehmonlar!
Necha kunlar bu elatda turamiz,
Besh-olti kun shodiyonalarni qo‘yib,
Sizi¹ bilan Hindistonga boramiz.

Otaliq sizlarni mehmon ayladi,
Bizlar bilan birga yuring, mehmonlar!

Xudo bersin hammangizga davlatni,
Yaxshi odamning ko‘p bo‘ladi izzati.

Olib kenglar mehmonni deb Otaliq,
Hammamizni mehmon sizga jo‘natdi
Xushvaqtchilik yuring elga, mehmonlar!

Ana Go‘ro‘g‘libek bu so‘zni eshitdi, xushvaqt bo‘lib ketdi. So‘zdan ko‘ngli to‘ldi. Lashkariga qarab bir so‘z aytaverdi:

Davlat bersa, elda ko‘pdi xatarlar,
Podshoning oldida bordi shotirlar².
Otaliqdan xayrli gap kelibdi,
Borasizmi, bormaysizmi, botirlar?

Kam eslarning qilgan ishi chaladi(r),
Qaddingdan ketayin gala sherlarim;
O‘ylanglar maslahat qanday bo‘ladi?
Borasizmi, bormaysizmi, beklarim?

Xoldor mahram, Shodmon mergan, yasovul,
Sahmonjon, maslahat qanday bo‘ladi?

¹ Sizing.

² Shotir – jilovdor, podsho jilovida yuruvechi navkar.

Hangomada qizlar bo‘lar har alvon,
Bizni deb elatdan chiqqan ko‘p polvon,
Xaloyiqlar, keling, qiling maslahat!
Maslahat ber Go‘ro‘g‘liga, tog‘ajon!

Ko‘p o‘ylanglar bu ish firib bo‘ldimi?
Afg‘on yurti ko‘p maslahat qildimi?
Yaxshi in‘om, yaxshi izzat kelibdi,
Maslahat qing¹ bu gap hiyla bo‘ldimi?

Chin sidqidil xizmat qilding begumon,
Qaytayin, o‘zimdan ketdim har zamon.
Ish bo‘lmayin avval qiling maslahat,
Maslahat ber bu qo‘shinga, Sahmonjon!

Katta-kiching el og‘asi² kelinglar,
Yig‘ilishib maslahat qing, Soqijon!

Gapi bitta kelib tegdi, Misqoljon,
Hali uzoq, ketaversak Hindiston.
Oshna degan shirin jonning huzuri,
Maslahat ber bu qo‘shinga, Temirxon!

Ana endi Ahmad sardor, Turkman elining egasi, boshiga
sanchilgan podsholikdan tekkan jig‘asi – Go‘ro‘g‘libekning to-
g‘asi shunda o‘tirgan Go‘ro‘g‘libekka, zap talabli xalqqa, rov-
karlarga, sardorlarga qarab bir so‘z aytaverdi.

Nasva³ haydagan u yoqqa-bu yoqqa yurdimi?
Nasva chochilmagan elda turdimi?
Tuproq tortgan, nasva tortgan ketarmish,
O‘ylang, Otaliqni xudoy urdimi?

¹ Qiling.

² El og‘asi (elbegi, el biyi) – xalqning arz-dodlarini viloyat yoki mamlakat boshlig‘iga yetkazib turuvchi mansabdar.

³ Nasiba.

Yig‘ib kelding sen odamning tozasin,
Aldab borib bizga yomonlik qilsa,
Kechikmasdan tortar biling, jazosin.
O‘ylang, Otaliqni xudoy urdimi?

Musulmondir, xo‘p maslahat qilgandir,
Bechoralar yaxshi gapdan degandir.
Bizga yomonliq qip xudoy urdimi?

Oshno bo‘lamiz deb odam kelgandir.
Qo‘rqmang, xaloyiqlar, bu gap yolg‘ondir!

Eshitinglar Ahmadbekning zorini,
Agar yomonlikni qilea, beklarim,
Qirib ketay Afg‘oniston barini.

Agar yomonlikni qilsa o‘ylanglar,
Qirib sanching ham qarisi-yoshini!

Go‘ro‘g‘libek, aslo qo‘rqma birovdan,
Yakka o‘zim qiray dushmanning borini.
Fe‘li qochib, o‘ylang, xudoy urdimi?
Ko‘ngilni cho‘kirmang¹, yoppa boramiz!

Ana endi hammasi karnay-surnay, nog‘ora urib,
Go‘ro‘g‘libek oshnoliqqa shodiyona urdi. Ana shuytib² anjom-
asboblarning hammasini ortdi. Karnay, nog‘oraning tovushidan
odamlarning qulog‘i bitdi. Daryoning bo‘yiga yetdi.

Shunday qarasa, sol bilan qayiq daryoning betini tutibdi
yulduzday bo‘lib. Ana buni ko‘rib, shod-u xurram bo‘lib, ham-
masini kemaga, solga solib, eson-omon daryodan o‘tdi. Bari ot-
otini minib, afg‘onning shahriga oralab borayapti. Ana xaloyiqli
qarab bir so‘z aytib borayapti Go‘ro‘g‘libek:

¹ Cho‘kirmoq – cho‘ktimoq.

² Shunday qilib.

Shukur qiling, polvonlarim,
Afg'onning shahriga keldik.

Yurakdan ketgiz g'uborni,
Otaliqman¹ oshno bo'ldik!

Qulq song podshong tiliga,
Yursanglar Chambilbeliga,
O'zbeklikni yig'ib qo'ying,
Sipohigarlikni qiling!
Afg'onning eliga keldik.

Baring odamday bo'linglar,
Bo'shashmanglar, qiyshaymanglar,
Lochinday bo'lib yuringlar!

Shukur qiling, birodarlar,
Afg'onning eliga keldik.

Ko'nglingiz to'q bo'lib yuring,
Anjom-asbob choq qip yuring!

Odamday bo'p taltayishib,
Hammang birday taxt bo'p yuring!

Shukur qiling, satta sherlar,
Afg'onning yurtiga keldik.

Mard yigit xanjarin cholar²,
Dushmanga savdo solar,
Kelayapmiz mehmon bo'lib,
Nima ish qilsa, podsho bilar.
Otlarni gerdaytib yuring!

¹ Otaliq bilan.

² Cholmoq – urmoq.

Afg'onlar xo'p qoyil bo'lsin,
Iyqich-o'yqich qamchi uring¹,
Sipohiday bo'lib yuring!

Hangomada o'tirganda,
Hammang birday bo'lib turing!

Och ko'zingni, azamatlar,
Afg'onning eliga keldik.

Bu so'zman² o'zin tuzatdi,
Otlariga qamchi chotdi³.

Satta olmako'z bedovni,
Tog' takasiday o'ynatdi.

Go'ro'g'libekka shotir bo'p,
Katta podsholarga o'xshab,
Zilzilasi yerni yorib,
Santalat shon-u shavkatman,
Afg'onning eliga ketdi.

Hammasi Rustamday bo'lib,
Karrordayin hay'at⁴ qilib,
Gala beklar shavkat qilib,
Hammasi polvonday bo'lib,
Ketdi Afg'onning eliga.

Hay'at katta bo'lib ketdi,
Yer yuzini odam tutdi.
Salom berib hamma odam,
Mehmonni bejoy siylashib,
Afg'onning yurtiga ketdi.

¹ Iyqich-o'yqich qamchi urmoq – o'ng va chap tomonidan birin-ketin qamchilamoq.

² So'z bilan.

³ Chotmoq – zarb bilan urmoq, zarb bilan ketma-ket urmoq.

⁴ Hay'at – guruh.

Oqillar endi shashaga,
Qizil kesakday jo'shaga,
Afg'on eldan qiz-xotin,
Bari chiqdi tomoshaga.

Kelayotir otlar o'ynab,
Turkman-o'zbekning botiri,
Xuddi bari cho'g'day jaynab,
Qizlar chiqdi tomoshaga.

Go'ro'g'li podsho jo'nadi,
Bahodir sherlar jo'nadi.

Turkman-o'zbekning zo'rlari,
Katta arslonday sherlari,
Qip-qizil lo'kcha¹ norlari,
Go'ro'g'lining navkarlari.

Hay'atman podsho jo'nadi,
Shavkatman² podsho jo'nadi.

Elbegilar, oqsoqollar,
Taxassib qib³ bir-biriga,
Satta g'o'chchoqlar⁴ jo'nadi.

Ostida o'ynaydi otlar,
Mullani bitgani xatlar.

Kelayotir yo'lbarsday bo'p,
Satta birday sheramatlar⁵.

¹ Lo'k – 1) yuk tashiydigan tuya; 2) erkak yosh tuya; 3) boshi kichik, bo'yni uzun-uzun
bir o'rakchli tuya.

² Shavkat bilan.

³ Taxassib (taassib) qilmoq – ergashmoq.

⁴ G'o'chchoq – mard, azamat, pahlavon.

⁵ Sheramat – pahlavon.

Barisining ko'ngli ochiq,
Ko'rmagay qayg'u-kulfatlar.
Satta yo'lbarslar jo'nadi.

Tomosha qip qiz-xotinlar,
Og'iz ketgan ang'irayib¹,
Burun ketgan mungirayib²,
Nechov olang-qarang bo'lib,
Qotib qopti qing'irayib³.

Sahmon polvon ko'p zo'r edi,
Qirq yigitning o'rtasida
Kelayotir zing'irayib⁴.

Qiz-xotin o'pkasi pishib,
Ota o'g'lidan adashib,
Qizlar enadan adashib,
Ko'rgan odam hayron qolib,
Kelayapti chopishib.

Yig'lay-yig'lay ko'p bachchaning
Yo'lida, elda o'pkasi pishib,
Go'ro'g'li podsho keladi.
Satta arslonlar jo'nadi.

Chivin tushgan suvday qilib,
Suvdag'i muzdayin qalqib,
O'n besh kunlik oyga o'xshab,
Qirq yigitning o'rtasida,
Hasan kelayotir balqib.

Muqom bilan so'zlar aytib,
Hammaning vaqtin xush etib,

¹ Ang'iraymoq – anqaymoq.

² Mungiraymoq – ming'illamoq.

³ Qing'iraymoq – garangsimoq.

⁴ Zing'iramoq – zing'illamoq.

To‘plarini yarqiratib,
Kokillarin sildiratib,
Ko‘zlarini yiltillatib,
Yuzginasin miltillatib,
Satta shermat mast bo‘lib,
Otaliq bilan do‘sit bo‘lib,
Sardor Hasanxon jo‘nadi;
Go‘ro‘g‘li polvon jo‘nadi.

Otlarda serpoy egari,
Qassobning bolta-tabari.

Go‘ro‘g‘libekni keldi, deb,
Bordi podshoga xabari.

Podsho dimog‘in chog‘ladi,
Anjom-asbobin taxtladi.

Kelayotgan bo‘lsa, dedi,
Darkorlik narsa choqladi.

Tomoshabin tomni tutdi,
Afg‘onistonning savlati,
Ko‘p bo‘ldi elning mehnati.

Tomoshaga chiqib endi,
Otaliqning parizodi.

Yurakdan ketdi vahimlar,
Eshitgan so‘zni fahimlar,
Afg‘on o‘rdasidan chiqdi,
Yaxshi mehmon ekan deyishib.

Hammalari savlat qilib,
Bilqillashib sap oyimlar,
Sochlari tovonga tushar.

Gap ko‘p bo‘ldi haddan osha,
Qora ko‘zli satta oyim,
Yaxshi mehmon ekan deyishib,
Qochmayin qildi tomosha.

Otaliq karnay-surnay tortdi,
Afg‘on elni bulkullatdi.
Karnay-surnay dovushiga,
Afg‘on el bulkillab ketdi.

Sipohi ekan Otaliq,
Izzatini yaxshi qilib,
Podsholik taxtlarga qo‘yib
Go‘ro‘g‘lini, hammasini,
Xo‘p yaxshi o‘rin ko‘rsatdi.

Go‘ro‘g‘libekdi bildirdi,
Ko‘rishib yaxshi kuldirdi.
Abdi Otaliq endi,
Go‘ro‘g‘libekni qoshiga op,
Podsholik taxtga mindirdi.

Otaliq vaqtini xushlab,
Sayislar¹ otlarin ushlab,
Dasturxonlar yozaverdi,
Qo‘l yuvdirib, palov choshlab².

Ana endi Go‘ro‘g‘libekning vaqtini xushlab, hammasiga toza liboslardan tashlab, gurri-gurri oq sallali, ko‘k sallali, kobili sallali afg‘onlar yig‘ilishib, bir ziyyoratlar qildi. Go‘ro‘g‘libekka, borgan odamlarga sarpoj to‘nlardan yopdi. Xuddi yashin oqqanday tovlanib ketdi sarpoylari.

Ana endi Go‘ro‘g‘libek bildi, Otaliq bilan do‘sst bo‘lib goldi. Shu oradan bir kun o‘tdi. «Yaxshi kishi o‘zi bilar ekan», —

¹ Sayis – otboqar.

² Choshlamoq (chochalamoq) – sochmoq, uymoq, to‘ldirmoq.

deb, kishi bilmas o‘zining sardorlari bilan maslahat qilib,
Go‘ro‘g‘li, Afg‘on podshosi Otaliqqa qarab bir so‘z aytaverdi:

Kuyganimdan gapni gapga ulayman,
Yer yuziga podsho bo‘ldi Sulaymon.
Hindistonga men jo‘nayman Gulnorga
Otaliq, taqsirjon, duo tilayman.

Quloq song Otaliq, aytgan tiliga,
Rahm aylangiz mehmonlarshshg holiga.
To ko‘rgancha duoda bo‘ng, podshoyim,
Men jo‘nayman Hindistonning eliga!

Yigitlar yuradi qizning bahrida,
Yo‘liqmayin hindilarning qahriga.
To ko‘rguncha duoda bo‘ng, podshoyim,
Talab qildim Hindistonning shahriga.

Otaliq, eshititing o‘zimdan so‘zni,
Hangomada o‘tirgan suluv qizdi(r),
Bir xudoyim omonatin olmasa,
O‘lmasak bir yilda ko‘rarsiz bizni.

Xolis oshno qildik hammamiz sizni;
Borib olib qaysak Gulnorday qizni.
Javob bering, holis duo tilayman,
Ko‘ngillarga shu hozir havas qildik,
Javob bering, Hindistonga ketaman,
Sizi bilan o‘l-o‘lguncha do‘st bo‘ldik.

Ana shunda Otaliqxon Go‘ro‘g‘libekka qarab, soqolini
tarab, bir so‘z aytaverdi:

Mehmon degan uch oy, oltoy¹ yotadi,
Gapingizga quloqlarim bitadi.
Mehringga to‘ymay qoldim, mehmonim,

¹ Olti oy.

Hech bo‘lmasa bir oy tursang qaytadi¹?
Hamma narsamni men aylayin qurbon,
Ko‘nglingni aylayin kun-kundan shodmon.
Hech bo‘lmasa bir oy yotgin, chirog‘im,
«Ketaman», – deb ko‘ngil bo‘lmay, mehmonjon!

O‘lguncha sizlarga xizmat etaman,
Sizlar bilan bирgalashib ketaman.
Sog‘-salomat sizni olib qaytaman.

Hamma davlat, mehmon, sizdan aylansin,
Sizni yomon degan qo‘li boylansin!
Besh-olti kun yoting, mehrlashaylik,
Qora kallam, mehmon, sizdan aylansin!

Bejoy yaxshi ko‘rdim, mehmon, o‘zingni,
Xo‘p eshitdim, mehmon, to‘g‘ri so‘zingni.
Bir oy, qirq kun hech bo‘lmasa yotib ket!

Hazil bilma Otaliqning so‘zini,
Sarg‘aytiray Toy hindining yuzini.
Va‘da qilib ketgan bo‘lsa bolasi,
Op berayin Gulnorjonday qizini.

Siz mehmon bo‘ldingiz, jonni sotamiz,
Omin deb haqqingga qo‘lni tutamiz.
Besh-olti kun mehringizga to‘yib,
Hindistonga bирgalashib ketamiz.

G‘am yemang, Gulnorni olib qaytamiz,
Hech bo‘lmasa otga dam ber, mehmonjon,
Hindiston shahari bejoy ko‘p uzoq,
Besh-olti kun xalos qilgin, mehmonjon!

Ana endi Go‘ro‘g‘li bu to‘g‘ri gapga o‘zbeklik qilib:

¹ Nima qiladi.

– Mening tinkam qurib yotibdi ekanmi? – dedi.

Bu esa Go'ro'g'lining to'g'ri gapi edi.

Afg'on aytmaydi, aytganidan qaytmaydi. Afg'on bir gapli bo'ladi ekan. Afyunning otasi odam navi ekan. G'ayrat-liligi, badjahlliligi shundan ekan. Go'ro'g'li shu yerda yoshlik qildi. «Xalos ol», – degani andak garang qildi. Ana Otaliqqa qarab Go'ro'g'libek odob bilan bir so'z aytaverdi:

Ajal to'nin bichib minganman otga,
Yomondan hamma odam¹ keladi dodga.
Sizni iyartib² ketsam [u mamlakatga],
«Otaliqxon olib berdi», –deb aytar,
So'z bo'p ketar yer yuzida elatga.
Rozi bo'ng, Otaliq, oshnam, ketaman!

Xushomad qip unda yotgan demaymi³?
Borib Afg'oniston o'tgan demaymi?
Yer yuzida hamma podsho gap qilar,
Otaliqni olib ketgan demaymi?

Necha cho'lidan, necha tog'lardan oshsam,
Ne gaplarni ko'rib damimdan tushsam.

Ko'nglimiz to'la bo'lsa bo'ladi,
Yoshga-qariga o'lim barobar,
Ajal yetgan kuni odam o'ladi.

Chambil elning tevaragida dushman ko'p,
Endi javob bersangiz ham bo'ladi.
Omin deb duo qing endi, podshoyim!

Saraton yulduzday qilsam ko'zini,
Changallasam ko'kragida bezini.

¹ Qo'lyozmada: «Hamodam».

² Qo'lyozmada: «Sizdiyatib». **Iyatmoq** – ergashtirmoq.

³ Demasmi.

Sochin yelpiratib, yuzin oyday qip,
Olib qaytsam Gulrang pari qizini.

Ana endi Otaliqqa bu so'z ma'qul tushib: «Balli mehmonjon», – dedi. Aytgan so'ziga balli. Ana shuytib mehmonidan ko'ngli to'lib, xalq ichida qoyil bo'lib, odamlarga qarab, bir so'z aytaverdi Otaliqxon:

Qaddingdan ketayin, satta vazirlar
Xushvaqt qilib, jo'natinglar mehmonni.

Eson-omon shu mehmonni jo'nating,
Shahardan chiqarib endi uzating!

Mehmon deganing atoyi xudo,
Sira ozor bermang aziz mehmonga;
Xushvaqt qilib Hindistonga jo'nating!

Nima desa aytganida bo'linglar,
Ko'tarmalab xizmatini qilinglar!
«Xush kelding», – deb uzatishib hammangiz,
Yo'lni to'g'rilab, o'nglab kelinglar!

Har o'n kunda, har besh kunda ortidan,
Xat yuborib holin bilib turinglar!

Ostingizda otlar o'ynar har alvon,
Safaring bexatar bo'lsin Go'ro'g'li,
Eson-omon hammang qayting, Hasanjon!

Hangomada so'z chiqadi bu tildan,
Hindistondan eson keling, mehmonjon.

Ana endi Otalih jig'a sanchib Go'ro'g'libekning boshiga, podsholik shohona sarpo kiygizib, undan keyin Hasanxonga, Sahmon polvon, Xoldorxon, Shodmonjon, Ahmadxon, hamma qo'shinga sarpo berdi.

Ana endi Go‘ro‘g‘libekka G‘irotni olib kelib, tartib bilan mindirib, hamma beklar otga minib, ana shunda har maqom no-g‘ora, karnay-surnay qo‘ydirdi. Ana Go‘ro‘g‘libek otning beliga minib, Otaliqxonga qarab, jo‘nagan so‘zini aytaverdi:

Ko‘rmaysizmi G‘irko‘k otning suyuni,
Borib ko‘rsam Gulnorjonning bo‘yini.
[Omadim yurishib] men olib kelsam,
Bunda kelib qirq kun qilsam to‘yini.

Ajal yetmay chiqmas tananing joni,
Talab aylab Hindistonga jo‘nadim,
Omin deb duo qing, Afg‘onning xoni!

Ko‘ngillarim qaynab-qaynab jo‘sh endi,
Hay attang, baloga qolgan bosh endi,
Dono vazir, satta yasovulboshi,
To ko‘rguncha xaloyiqlar, xo‘sh endi!

Bu dunyodan hamma ham qilar safar,
Eson-omon op kelsam Gulnor parini,
To ko‘rguncha yoppa-yovlik, alloyor¹.

Boldan ham shirindir aytsa so‘zlari,
Qarasa kuydirar qizning ko‘zlari.
To ko‘rguncha, omon bo‘nglar², yoronlar,
Omin denglar, Afg‘on elning qizlari!

Nasva Hindiston tortdi,
Karnayni parillatdi.

Afg‘on tiliga tushmayakan³,
Og‘izlar angrayib,

¹ Alloyor (alliyor) –1) Olloh yor bo‘lsin; 2) xo‘sh endi, xo‘sh qol.

² Bo‘linglar.

³ Tushunmas ekan.

Burunlar shangrayib¹,
Omin deyishib afg'onlar,
Fotiha tortdi yuziga.
Asti tushmay so'ziga,
Sahmon polvon, yoronlar,
Tavaraklarga tiklab,
Ishqivoz bo'p²
Otaliqning qiziga.

Hamma odam duo qildi chuvlashib,
Duo qilib bu beklarning o'ziga.

Ishqivozlik yomon ekan dunyoda,
Sahmon polvon shunday-shunday qaradi.
Ixlos qildi yaltillagan ko'ziga.

Hammasi o'ynatib chin bedov otni,
Sinmagay-da hech bandaning qanoti.

O'lmay katta bo'lsin bo'lgan farzandi!
Hamma beklar, dono vazir yig'ilib,
Xotin-xalaj, bola-chaqa qolmayin,
Omin deb fotiha yuziga tortdi.

Duo olib Afg'onning podshosidan
Go'ro'g'libek Hindiston elga ketdi.

Beklar mindi bedovlarning beliga
Ot o'ynatib suvliqlarin chaynatib,
Jo'nayverdi Hindistonning eliga.

Afg'onda ko'p xotiri,
Podsho oldida³ shotiri.

¹ Shangraymoq – burun teshigi kengaymoq.

² Bo'pti.

³ Qo'lyozmada: «podsholdida».

Hech odamni olmadi,
Bilganidan qolmadi.

Gurillashib jo'nadi,
Chambilbelning botiri.

Ot dumin shamol eshdi,
Yurak oshdayin toshdi.

Shahardan olib chiqib,
Hamma beklar jo'nashdi.

Ostida bedov arillab,
Tilla qalqonlar dirillab,
Ot qo'yadi satta beklar,
Dol bedovlarning shamoli,
Mis karnaydayin parillab.

Botir bir-biriga duch bo'lib,
Tog'da buvrangan tosh bo'lib,
Ot qo'yib yo'lga tushdi,
Choshkadan o'tib, tush bo'lib.

Gohi tekis, gohi belga
Ot qo'yadi qirq yigitlar,
Chaparas chopishib cho'lga.

Jo'nayverdi satta beklar,
Jo'nadi Hindiston elga.

Borayapti satta sherlar,
Goho ko'lda, goho cho'lda.

Ko'zdan ketkazib nurin
Satta birday g'o'chchoqlar,
Sherday bo'p yo'lga kirdi.

Hech yurakni moytarmay,
O'r-jar demay chopadi,
Ot boshini qaytarmay.
Oqshom sozin sozlaydi,
Dushman bag'rin tuzlaydi.

Kundan-kunga bedovlar,
Tog'ning boshin ko'zlaydi.

Sahmon polvon haydovchi,
«Tez haydang», – deb so'zlaydi.
Barakalla, polvonlar
Hindistonni izlaydi.

Barin gapi bomaza,
Kiygan kiyimi toza.

Ot qo'yadi cho'llarda
Satta birday bekzoda.

Gapning yo'qdir bekori,
Elda qoldi shunqori.

O'zidan ziyod bo'lib,
Yulduz uchganday bo'lib,
Kiyik qochganday bo'lib,
Ot qo'yadi cho'llarda,
Go'ro'g'lining navkari.

Baland ekan himmati,
Badandagi g'ayrati.

Yarqillashib ot qo'yar,
Go'ro'g'lining askari.

Yaraq-yuruq etadi,
Nayzasining po'lati.

Odam qo'rqrar o'zidan,
Hech toymaydi so'zidan.
O'tib ketib boradi,
Suvsiz qulo tuzidan¹.

Qaragan qo'rqb qolar,
Sahmon polvon ko'zidan.

Ko'zin cho'g'day qaynatib,
Tobora g'ayrat etib,
Namozgar tushib yotib,
Ertan bilan otlanib,
Satta beklar jo'nadi.

Qizil tilni so'zlatib,
Egarining qoshiga
Po'lat dobil boylatib,
Satta botirlar jo'nadi,
Satta shermat jo'nadi.

Kam kuchning aqli shoshdi,
Tog'da qirq kun yo'l yurib,
Mingan tog'iga tushdi.

Yuraklarda dard ekan,
Mirza bitgan xat ekan.

Mingan tog' keng tog' ekan,
Ham suvi ko'p uvut² ekan.

Ot, yigit damdan tushdi;
Bejoyin ko'p charchashdi.
Uvut xayoli qochib,
Go'ro'g'libek shu tog'da

¹ Qulo tuz – cheksiz keng tekislik.

² Olov.

Hammasi otdan tushdi.

Ovqatini pishirib
«Uh-voh, o'ldik», –deyishdi.

Olovlar langlab¹ yotdi.
Olovning yorig'iga,
Bulutga olov o'rnat,
Osmon yop-yoriq bo'p ketdi.

Yaqindagi qishloqlar
Tog'ni uvut oldi, deb,
Ikki ko'zi tog'da bo'p,
Uvut qochib kelar, deb,
Toqqa termilib yotdi.
Erta bilan tong otdi.

Tog'-tog'da ot boqib yurgan ekan,
Xitoy askarlari, amaldorlari.
Qo'shin kelib qopti deb,
Hurkinchilik² bo'p qoldi.

Barisi qochib ketdi,
Bo'lmagay-da qahari³.
Tog'ning ko'pti⁴ bahari⁵.

Hurkinchilik bo'p qoldi,
Hindining chakkasidan,
Tala-to'p bo'lib ketdi,
Xitoyning bir shahari.

Ey, bu gaplar xatlandi,

¹ Lang'illab.

² Hurkunchilik – qo'rqinchilik, vahimagarchilik.

³ Qahar – qahr, g'azab.

⁴ Ko'pdır.

⁵ Bahori.

Xitoy eli dodlandi,
Kun yoyila bo'lganda.
Go'ro'g'lining yo'q o'yi,
Hasanning yaxshi bo'yi,
Hech tinganni bilmayin,
Go'ro'g'li qistab ketdi.

Tomosha aylang dodiga,
Tog' titrab hay'atiga,
Tosh qimirlab savlatiga,
Ketdi Hindiston yurtiga.

Ana endi Go'ro'g'libek beklardan, sardorlardan, Sahmon polvondan dimog'i chog' bo'lib, eson-omon kelayotganiga kayfi to'g'ri bo'lib, otlar o'ynab kelayapti, suvliqni chaynab kelayapti.

Hamma beklar, hech xayoli bo'lak emas, jonini qiy nab kelayapti, G'irotning qizday qiliqsib o'ynab kelayotganiga «suluv qizni suyib, ildam otni chopib o'lganning armoni bo'lmas ekan», – deb, ot-anjomning choqlig'iga bir so'z aytib kelayapti:

Jonvor G'irko'k, g'unoningda¹ uyratdim²,
Har sut berib, o'zginangni o'qitdim.
Ipak arqon oltoylilikda³ suyratdim⁴,
Cho'llarda hamrohim bo'lgan bedovsan.

Xoljuvon ketdi-da qaddimni bukdim,
Elga oralaimay nordayin cho'kdim.
Sen ham yetim, men ham yetim jonivor,
Asvotlab⁵ o'zingni tog'larda boqdim.
Yurganda yo'ldoshim bo'lgan G'irotsan.

¹ G'unon (g'o'onon) – ikki yashar toychoq.

² Uyratmoq – o'rgatmoq.

³ Olti oyligingga.

⁴ Suyratmoq – sudratmoq.

⁵ Asvotlamoq (asvatlamoq, aspatlamoq) – avaylamoq.



Qaytayin jonivor, ko'nglingni topdim,
Kechasi shudring tushib yotganda,
O'zim yalang'och bo'p chophonim yopdim.
Gapga tushib xizmat qilgan bedovsan.

Yalang'och ustingga minib jonivor,
Ko'nglim havo qilib¹ bir kuchuk topdim.
Kuchuk yulib olib sening pochangni,
Menday egang zor yig'latgan G'irotsan.

Yovmitning egasi dunyodan o'tdi,
Bizni podsho qilib katta odamlar,
Gul kesgan tomlarga iyartib yetdi.

Sen podshosan dedi, el ko'p gap aytdi.
O'zingni el Xizir o'g'irlab ketdi.

Araz urib Go'ro'g'libek turkmandan,
Qarindoshim so'yib yeb qo'ydi, dedi.

Ishqingda mendayin egang qon yutdi,
Go'ro'g'lini zor yig'latgan G'irotsan.

Qaytayin, aqlimdan bo'ldim begona,
Ishqingdan bo'p ketdim dardli devona.
Esonlikni berdi, yakka-yagona,
Ishqingda qalandar qilgan G'irotsan.

Qozog'iston, O'zbekiston qolmadi,
Hech bir odam sendan xabar bilmadi.
Qashqar bilan Kashal yurti qolmadi,
Sen dovonda zor yig'latgan bedovsan.

Xo'tan elning ko'chasida so'rashdim,
«Sen jinnisan», – desa tinmay kurashdim.

¹ Havo qilmoq (havolanmoq) – g'ururlanmoq, kekkaymoq.

Undan so'ng Chinmo-chin yo'liga tushdim,
Chinmo-chinda zor yig'latgan G'irotsan.

Yo'liqmadim hech jondorning qahriga,
Izginangni, daragingni eshitmay,
Oraladim Hindistonning shahriga,
Ishqingda bangilar qilgan G'irotsan.

Hindiston elida axtarib yurdim,
Ko'k toyim, deb kimni ko'rsam chinqirdim.
Hindiston elida men ko'plar turdim,
Har yungingcha so'z ayttirgan bedovsan.

O'lguday bo'p Hindiston¹ elga qaytdim,
Tag'i uch oyda Afg'on shahriga yetdim.
Afg'on elda sarson qilgan G'irotsan..

Ustalar uradi bolg'aman² tabar,
Qalandar bo'p, bo'ldim har gapga chevar,
Jonivor, ishqingda bo'ldim suxangar³,
Go'ro'g'lini ingrantirgan G'irotsan.

Borib turib Shohimardonda turdim,
Har shahardan kelgan odamni ko'rdim.
Kim ziyyarat qilsa men so'rab turdim,
Minganni bearmon qilgan bedovsan.

Sahar chog'i men rovzada⁴ yotganda,
Oting qutli bo'lsin dedi, mindirdi.
Uxlab yotib xushvaqt qilgan G'irotsan.

Joyimdan turdim-da, men o'zim ketdim;
Olti oyda men Makkaga yetdim.

¹ Hindistondan.

² Bolg'a bilan.

³ Suxangar (suxanvar) – gapga chechan notiq.

⁴ Rovza (rvaza) – aziz avliyo yoki ulug' kishilarning qabri.

Namoz o‘qimayin ishqida kuyib,
Har shahardan kelg‘an ko‘p hojilardan,
O‘zginangni men so‘rab yotdim.
Seni so‘rab xoji qilgan G‘irotsan.

Shom-sharif Misr eliga yetdim,
Topolmay uloqib tog‘larda yotdim.
Tog‘ning tumshug‘ida charboqqa yetdim.

Garmsel eritar tog‘larning qorin,
Shu rabotda ko‘rdim Oy Yunus parin.
Misqoljonga so‘z ayttirgan G‘irotsan.

Ko‘plar kului, men izza bo‘lib ketdim,
Ovsarning tog‘iga g‘ayrat qip yetdim.
Ovsar tog‘da topdim G‘irko‘k otimni,
Xizir bilan talashtirgan G‘irotsan.

Tuyg‘un¹ qush bosolmay qolar izingni,
Xizirman² sudrashib men g‘org‘a bordim.
Qirq chiltonlar asbob-anjomni berib,
Pirlarim mindirdi sening o‘zingni.
Falakdan yashinday engan G‘irotsan.

Minib chiqdim jonivor, seni Bolqonga,
Xoljuvon deb talab qildim Rayhonga,
Oy Zaydinni silkib soldim orqangga.

Ena, deb yig‘latib qochgan bedovsan.
Jun soqoldan o‘chin olgan G‘irotsan.

Kimga aytay yurakning g‘uborini,
Borib ko‘rding Taka-Yovmit shahrini.

¹ Tuyg‘un – 1) juda olg‘ir va uchqur yirtqich qush (qarchig‘aysimonlar oilasidan);

2) qirg‘iy yoki qarchig‘ayning erkagi.

² Xizi bilan.

Qo‘yiqofdan oy Yunusday parini,
O‘pkaday qalqitib qochgan G‘irotsan..

Pirlar berdi bek Soqini qarar, deb,
Mingan odam qiyin ishga borar, deb,
Seni mingan tinmay cho‘lda yurar, deb,
Olis yo‘lni yaqin qilgan bedovsan.

Seni mingan yigit kirar savashga,
Necha marta g‘azot qilding Bektoshga;
Arabdan o‘chingni olgan bedovsan.

Jonivor, seni toyligingda uyratdim,
Mashq qip nayzalarim toshga tuyratdim¹.
Dushmanimni echkiday qip qiyratdim.

Sen minganga qanot bo‘lgan G‘irotsan.
Urush kuni quvvat bo‘lgan bedovsan.

Uzoq yo‘lda qizday bo‘lib o‘ynaysan,
Ko‘k suv suvlig‘ingni o‘zing chaynaysan.
Urush kuni o‘q tegdirmay o‘ynaysan.

Dardginama davo bo‘lgan G‘irotsan.
Dushmanning ko‘zini o‘ygan bedovsan.

Kiygani gulgun yonadi,
Zafar bergen yagonadi.
O‘zbek, turkman bekzodasi
Hindiston elga jo‘nadi.

Ostida otlar erkalab,
Dushmanlar suvday qalqillab,
Go‘ro‘g‘libekning oq tug‘i,
Ot chopganida so‘lqillab.

¹ Tuyramoq – badanni teshib o‘tmox.

Mehtorada¹ suvlar bulkillab,
Tilla cholma, po'lat sovut,
Oy chiqqanday bo'lib yarqillab,
Xon Hasanxon chuykab ketdi,
Kokil yelkada silkillab.

Zab polvonlar gudrayib²,
Olqorday bo'p idrayib³,
Borayotir gardon tashlab,
Ot chopib, qobog'in uyib.

Bir necha kam kuch odamlar,
O'lay deb joniga tegib,
Sahmon polvon orqasida,
Chochilgan odamni yig'ib,
Sharqillab beklar jo'nadi.
Parqillab otlar jo'nadi.

Yuragida ko'pti o'yi,
Ola cho'bir⁴ charchab qolib,
O'ldim deydi Yartiboyi,
Kulishib beklar jo'nadi.

Otin chopib tizilishib,
Yo'l qiyin aqlidan shoshib.

Uzoq ekan Hindiston el,
Gohosi tog', gohi daryo,
Bir necha joy qip-qizil cho'l,
Satta yo'lbarslar jo'nadi.

Misqol Eramning bog'iga,
Gulnor pari chorvog'iga,

¹ Mehtora (mehtara) – teridan qilingan suv idish.

² Gudraymoq – kerilmoq, g'ururlamoq.

³ Idraymoq – hadiksiramoq, cho'chimoq.

⁴ Cho'bir – oddiy ot, xashaki ot.

Tog‘da ellik kun yo‘l yurib,
Bordi Hindiston tog‘iga.

Kam g‘ayrat damidan tushdi,
Yuraklining go‘shti hishdi.

Hindiston tog‘iga borib,
Xo‘p bir dam olayik deb,
Lashkarlar bulkillab tushdi.

Ana endi Hindistonning tog‘ida Go‘ro‘g‘libek yotaversin, endi qiyomat bozori qurilishini ko‘ring. Ana endi qipqizil mojaro buyog‘i.

Tong otdi. Beklar charchagan ekan, toshday qotdi. Alla-qachon bular kelayotganini bilib qo‘ygan ekan [Hind podshosi]. Ko‘p abjir edi, abjirlikdan uni Toy hindi der edi. Ana tog‘ning o‘tini terib yurgan O‘t hindi degan bir tabib bor edi, Ana endi O‘t hindi, qo‘lginasida o‘tning tomirini kavlaydigan cho‘t¹ hindi, Toy hindiga borib bir so‘z aytaverdi:

Men sigir enamni emmay qaytayin,
Buzoq ukam bilan qochib ketayin.
Bu gapga quloq song ulug‘, podshohim,
Tog‘da ko‘rganimni sizga aytayin.

O‘ylang endi kun qiyomat bo‘libdi,
Tog‘ning o‘ti bari quvrab² qolibdi.
Ko‘rgan siri holim sizga aytayin,
Kamarlarni, do‘ngni lashkar olibdi.

Uvrichilik osha yurtdan³ kelibdi,
Joningning hiylasin qilgin, Toy hindi!
Unla podsho, ne alomat bo‘libdi?

¹ Cho‘t – tesha.

² Qurib.

³ Osha – 1) uzoq, olis; 2) yot. Osha yurt – 1) olis yurt; 2) yot el.

Do'stmi, [yo], dushmanmi o'zim bilmadim,
Ajal yetib qulo tog'da o'l madim;
Butadan ko'p lashkar kelib qolibdi.
Bundan ortiq kulfat bormi podshoga?

O'yla shohim, yovgarchilik bo'libdi.
Bilmayman kimlarning yo'lin to'sibdi,
O'tkir qilich bellariga osibdi.

Ko'rdim-da tanamdan ketdi darmonim,
Qora tog'ni katta dushman bosibdi,
Telpakli, chakmonli lashkar kelibdi.

Eshitayin, podshom, aytgan tilingni,
Qayiq solib loyла dengiz, ko'lingni.
Ilojini o'zing darrov qilmasang,
Hali zamon xarob qilar elingni,
Sop bedovli yomon dushman kelibdi.

Yaxshi ko'rар edim podshom, saxtingni,
Davlating bor, o'ynab-kular vaqtingdi(r).

Beparvo taxtingda yotsang podshohim,
Kelgan taraf boylab qo'yar baxtingni.

Bulkullab yov Qora toqqa kelibdi,
O'ylang podshom kun qiyomat bo'libdi.

O't terib tog'larda qidirib yurdim,
Necha kunlar borib shu tog'da turdim.
Ko'rganimni aytaveray, podshohim,
Jiyron soydan o'zim boshmoqlab ko'rdim.

Katta lashkar Hindistonga kelibdi.
Gohosining junli telpak boshida,
Bari qo'ndi Qora tog'ning toshiga.

Qo‘rqib qochdim uni ko‘rib, Toy hindi,
Dabdabali odam ekan hammasi,
Qo‘rqqanimdan borolmadim qoshiga.

Siyosatli, yomon dushman kelibdi,
Har tarafga beraverigin xabarni.
Shavkatli, himmatli taraf kelibdi.

Yo bilmayman bu manlaying sho‘r ekan,
Olis yo‘lga yuk ko‘targan nor ekan.
Poylab ko‘rdim bir toshning orasidan,
Rustam sifat yigit[lar]ji bor ekan.

Ana endi Toy hindi tushida qo‘rqib edi [kim bo‘lmasin]
podsho bo‘lsa, esli, nazarkarda bo‘lar ekan. O‘zi tushida bilib
o‘tirgan ekan. Bir so‘z aytaverdi Toy hindi:

Yuragimda qayg‘u bilan dog edi,
Anorning yurgani Eram bog‘ edi.

Xitoy podshosi ham oshnam bo‘ladi,
Go‘ro‘g‘lidan boshqa dushman yo‘q edi.

Afg‘on podshosi ham oshnam bo‘ladi,
Shu enag‘ar, shu odamxo‘r kelgandir.
Neni desa Otaliqqa degandir.

Men bilmayman ishni, dono vazirlar,
Nazarkarda Go‘ro‘g‘libek kelgandir.

Bizdan qarindoshlik umid qilgandir,
Maslahat ber Simin bilan Aminjon,
O‘zboshimcha mahmadona kelgandir!

Maslahat ber, satta turgan vazirlar
Shu bachchag‘ar Chambilbeldan kelgandir.

Na'ra tortsa baland tog'lar past edi,
Arablarga shu yetimak qasd edi.
Mahmadona shu Gulnor juvormak,
Oy Yunus-u, Misqol bilan do'st edi.

Yunusni qutluqlab bular boruvdi,
Borib turib Chambil elni ko'ruvdi.

Qizi qurg'ur Chambilda ko'p turuvdi,
Chambil eldan kiyim kiyib keluvdi.

Hech yoqqa yubormayin enasi,
«Sen mordayib¹ qopsan o'la qolgir», – deb,
Hech yoqqa yubormayin qizini.

Undan so'g'in² Gulnor pari yig'luvdi,
Boshqa yoqqa borarini Gulnori,
Undan so'ngra yurmoqlikni qo'yuvdi.

Go'ro'g'libek xom tamalar qilibdi,
Do'st-dushmanligin hozir bilmayman,
Ne umid etar³ shu enag'ar kelibdi.
Simin bilan Amin, bergin maslahat!

Eldan odam yig'ib maslahat qiling,
Har shahardan polvonlarni op keling!
Gurkiratib mening zap mast fillarim,
Xaloyiqlar, darrov maslahat qiling!

O'zi bilan Go'ro'g'libek keladi,
Kelib boshlaringga balo soladi.
Bu ishning ilojin qiling ertaroq,
Xaloyiq, maslahat qanday bo'ladi?!

¹ Mordaymoq – kekkaymoq.

² So'g'in – keyin.

³ Qo'lyozmada: «ne umtetar».

Dam olsa enag'ar ishni ko'rsatar;
Hindiston elini ko'p g'alva etar.
Tinchmiz deb yotsangiz hammangiz,
Hindiston shaharin g'arot qip ketar.

Shu enag'ar ko'p gaplarni bilmasin,
Oralasa ko'p odamlar o'lmasin,
Kelmayin qilinglar buning ilojin,
Hali royi qaytgan yo'qdi, kelmasin!

Oralasa Gulnorjonni op ketar,
Podsholarga bizni yomon ko'rsatar.
«Yolg'iz qizin yetimakka berdi», – deb,
Hamma podsho bizni kalaka tutar.
Darrov maslahatni qiling, yoronlar!

Ana endi, Toy hindining vaziri Simin bilan Amin hindi. Amin Gulnor pariga ishqivoz edi. Bu ham katta vazirning bolasi edi. Gulnor pari ham yaxshi ko'rар edi, buni. Chambilga borib kelgandan keyin, ko'ngli boshqa bo'lib edi; Amin vazirining ko'ngli qashqa bo'lib edi.

Darrov Amin vazir Toy hindiga bir so'z ayta soldi:

To'rt podshoning birovisan san o'zing,
Qaytayin, sarg'aysa oydayin yuzing.
Bolalikni mahmadona qilarmi,
Qidiruvchi chiqqan-u, Gulnor qizing.

Eram bog'-u ham Chambilni ko'rgandi,
Oshno orttirib¹ shu ellarda turgandi.
Bildingmi, la'nati senga kelgandi.
Oshnasi oshnasin izlab yurgandi.

Podsholar xo'p maslahat qilmaymi?
Chin-mochin podshosi bunda kelmaymi?

¹ Qo'lyozmada: «oshnorttirib».

Go‘ro‘g‘liga tegib qo‘ysa qizginang,
Andan keyin o‘yiladi ko‘zginang.

Mahmadona bolang bir ish orttirar,
Yolg‘on bo‘ldi va‘da qilgan so‘zginang.
Voy-voy, dingillab o‘lsin qizginang!

Maslahat qip eldan odam yig‘movdi,
Xitoyi kosaga sharob quymovdi.

Chin-Mochin podshosi sovchi qo‘yganda,
Nega mahmadona unga tegmovdi?

Qiz xalqi kasofat bir ish orttirar,
Xon Go‘ro‘g‘li olsa qiyin bo‘ladi,
Gardonginang mayib bo‘lib qoladi.

Chin-Mochin podshosi lashkarman¹ kelib,
Hindiston elni tep-tekis qiladi.
Vahtida elatdan lashkarni yiqqin,
Urushmasang ishing uyat bo‘ladi!

Simin bildi, asta miyig‘ida kului.
Toy hindi: – Bizlar yig‘lab o‘tirganda, nimaga kulasan,
Simin? – dedi.
Ana Simin: «Shunga kułaman», – deb bir so‘z aytaverdi:

Quloq solmang bu essizning so‘ziga,
Tiklab qaramang yolg‘onchi yuziga!

Qiz bo‘y yetsa ixtiyor o‘zida,
Ota-ena chet bo‘ladi diniga.

Hindiston elida davron surayik,
Yuring endi, maslahat kip turayik.

¹ Lashkar bilan.

Qiz bo'y yetsa ixtiyor o'zida,
Odam qo'yib Gulnorjondan so'rayik.

Ota-ena farzandidan darmonda,
Hech kim qolmasin-da bunda armonda.
Go'ro'g'liga tekkan bo'lsa Gulnorjon,
Men tegaman deb iyarib ketsa,
Ota-enasi¹ bo'lib qolar sharmanda.

Amin, unday dema, ishing uyatdir,
So'z qilgandir, orqasidan kelgandir.
Ne ish bo'lsa borganida bo'lgandir.

Uyat gapni o'zing aytding, Aminjon,
Gulnorjon ham tama qilib kelgandir.
Hazil gapni aytma, ishing uyatdir!

Hali hozirga² chakki gapni aytasan,
Chappa tos qip nega xatni bitasan.
Tegib kelgan bo'lsa Go'ro'g'libekka,
«Men tegaman», – desa o'zing qaytasan?

O'yla bu ishginang uyat emasmi?
Hali-hozirga shayton g'urri qilasan,
Tentaklarga sen maslahat solasan.

O'ylagin, bu ishing bejoy ko'p yomon,
Yovgarchilik bo'lib odamlar o'lsa,
Odamning qoniga zomin bo'lasan.

Qiz xalqi nechovin qilar sharmanda.
Otasi, enasi borib so'rasha,
«Men Go'ro'g'libekka tegaman», desa,
Kuchukdayin voh-voh deb,

¹ Qo'lyozmada: «otenasi».

² Qo'lyozmada: «alozir».

Tulkidayin xap-xap deb,
Ko‘p ichida sen sharmanda bo‘lasan:
Ixtiyor o‘zingda endi, Aminjon,
Bu yog‘ini tag‘in o‘zing bilasan.

Podsho odam yig‘ib urushlar qilsa,
Qora tog‘da odam chalkashib o‘lsa,
Gulnor pari Go‘ro‘g‘li bilan bo‘lsa,
Hindistonni Go‘ro‘g‘li g‘orat qilsa¹,
Undan keyin qanday odam bo‘lasan?

Vazir degan elga g‘amxo‘r bo‘lmaymi²,
Fuqaroning g‘amini ko‘p yemaymi³?
Podsholarning esi, vazir Aminjon,
Mol chiqasi bo‘lsa egasi boshchi.
Xaloyiq o‘zidan dod deb qolmaymi?
Katta odamsan ishing uyat bo‘lmaymi?

Ana endi Simin bilan Amin taraf bo‘ldi ikovi. Simin esli edi, Amin hindilarning bir degan odami edi. O‘zi ayg‘oqtobroq edi. O‘zi zo‘r bahodir polvon edi. Shu Siminni Amin bir shappat urdi.

Ana endi ishning o‘zi mojaro bo‘lib qoldi. Siminning bir polvoni bor edi. Kelib, Aminning tos tepasini olib, shu gurzi bilan soldi. Podsholikda g‘ovg‘a paydo bo‘ldi. Hada-ha, Toy hindi ham o‘z taraddisini qildi. Lekin ishning o‘zi yomon bo‘ldi. Shu hindi bitgan asbob-anjomga yugurib, beadabchiliklar paydo bo‘ldi. Bu xoинning gapi em tutar ekan xalqqa. Gulrang pari chopib, chopqillab, o‘rtaliqqa kelib qoldi, bu g‘avg‘oning ustiga. Endi Gulrang pari oqsoqollik qilib bir so‘z aytayapti:

Har turli ovqatlar bunda chosh bo‘lib,
Har majlisda vaqlarling xush bo‘lib,

¹ G‘orat qilmoq – g‘ayrat qilmoq.

² Bo‘lmasmي.

³ Yemasmi.

Bu kuningdan baring o'lsang bo'lmaymi,
Siman bilan Amin, ikoving g'ash bo'lib?

Nima balo urdi, ikoving kerishib,
Ho'kiz akangdayin bo'lib surishib?
Tala-to'p bo'p elga g'avg'o bo'lganda,
Ne xazon urdi, ikoving urishib?

Nima gapdan ikking janjal qildinglar?
Hindistonga ko'p kulfatni soldinglar.

Amin bilan Simin, ikking o'lib qol,
Ne ish uchun ikking taraf bo'ltinglar,
Bir-biringga dabdabalar qildinglar?
O'lag'ong¹, o'lib qong², dedi.

Ikovginang vag'ir-vug'ir etdingmn,
Juda boy bo'p haddan oshib yotdingmi?

Sen qutursang sigir dumin tishlagin,
Ikovginang o'zginangdan ketdingmi?

Nega aytding chappa tos qip so'zingni?
Bu kuningdan senga o'lim lozimdi.
Toy hindiday katta podsho, sharmanda,
Achchig'lansa o'tga yoqar o'zingni.

Menga aytgin, urishganing ma'nisin,
Nega bo'lting bir-biringdan darmonda?

Urishaver, hech qolmagin armonda!
Bu janjaling katta uyat bo'libdi,
Voy-voy cho'nqayib o'lgin, sharmanda!

¹ O'la qolinq.

² O'lib qolinq.

Sigir-tana ursin sening hammangni!
Shoshmasang, beraman sening tammangni¹.

Kuydirib o'ldiray endi hammangni,
Sigir ena ursin, baring o'lib qol!

Yovgarchilik mehmon elga kelganda,
Vazir bo'lmay ikovginang quvrab o'l!
Podshoni elatga qilding sharmanda.

Shu hindilarning katta gapi ekan, sigirni o'rtalikka solmoqliq. Hamma narsadan sigirni yaxshi ko'rар ekan. «Sigir bo'lmasa bizlar katta bo'lmay o'lar edik. Bizlarni sut berib katta qiladi», – deb yurar ekan.

Ana shunday katta janjali bo'lsa sigirni o'rtaga solar ekan. Shunday janjal paydo bo'lsa, birov-biroviga, birovbirovida haqi bo'lsa: «Sigirning dumini tishla», – desa, «Enamizning dumini qanday etib tishlaymiz», – deb, «Beodobchilik o'tmasin», – deb, birov tuhmatdan da'vo qilsa ham, «ma» deb bera solar ekan. Shundaychang'i², yomon chatoqli janjal bo'lsa, sigimi o'rtaga solar ekan.

Ana endi gapni Simin bilan Aminning xotinidan eshitmak kerak.

Shu Simin bilan Aminning xotini avval-avval kerishdi; undan keyin panjasini yozishdi. Burunni ichi terlashdi, qizishdi. Panjasini yozishdi. Birov-biroviga xez qildi. Xotin to'balashmas³ ekan, bo'g'ishmas ekan. Ana-mana degancha [erlarining] ko'y-lak-ishtonini yilib oldi. Yap-yalang'och toyday bo'ldi.

Gulrang pari darrov fol ko'rdi. Lekin zafar Go'ro'g'liga bo'ldi. Ana Go'ro'g'lining davlati bularga janjal qildirdi. O'z-o'zi toshday taraf bo'ldi qoldi, hindilar: «O'l sharmandalar», – deb, ikki vazirning xotini kiyim berib, ikkovini ham durust qilib oldi.

¹ Adabingni.

² Shunaqangi.

³ To'balashmoq – tayoqlashmoq, janjallahshmoq, mushtlashmoq.

Amin bilan Siminga to'n berib, boshiga jig'a sanchib,
Gulrang pari bazo'r bu g'avg'olarni [bosib] yarash qildi. Shun-
day ham bo'lsa birov-birovining yuragida kek qoldi. Ana, Simin
kechqurun xotinini, xizmatkor kanizlarini joy-joyiga buyurib,
xotiniga qarab bir so'z aytaverdi:

Hangomada maylar ichib mast bo'ldim,
Amin hindi bilan o'zim qasd bo'ldim.
Borib aytgin Gulnorjonga, qaddingdan,
Gaplashmayin Go'ro'g'liman do'st bo'ldim.

Meni vazir deyib aslo qo'rmasin,
Tag'in-a o'zimdan tani hurkmasin.
Yuzin ko'rmay Go'ro'g'liman do'st bo'ldim,
Vazir deb o'zimdan tag'in qo'rmasin!

Rost gapirdim, quloq solsin so'zima,
Sigir haqi, singil bo'lsin o'zima.
G'oyibidan Go'ro'g'liman do'st bo'ldim,
Rost gapini aytsin mening o'zima!

Borib turib yaxshilikka yaragin,
Yaxshi ro'mol santalatga o'ragin!
Tegami, tegmaymi Go'ro'g'libekka,
Borib turib, Gulnorjondan so'ragin!

Qo'rmasin, hurkmasin mening o'zimdan!
Borib turib bir-bir qilib so'ragin,
Podsho bilib, ishlar uyat bo'lmasin!
Uyat o'lim, xayfi senga tegmasin!

Hech kishi bilmasin, borib so'ragin,
Borib turib kattalikka yararin!

Maza chiqsin gapirganda so'zidan.
Ko'p aynalgin qoshi bilan ko'zidan!
Go'ro'g'liman mening o'zim do'st bo'ldim,

Kulib-o'ynab borib so'ra, qaddingdan,
Yaxshi so'ra, Gulnorjonning o'zidan!

Shuncha gapning Simin to'g'risin aytdi,
Bu gaplarni xotini yoqtirmayin,
«Bu sharmanda musulmon ekan», – deb,
Ko'p o'ylar ko'ngliga kelib ketdi.

Har tarafdan ola bo'ldi o'z-o'zi,
Bilsa yomon bo'lar Siminning so'zi.
Enasining ko'nglidagi gapini,
Toza bilib qo'ydi Siminning qizi.

Hech gap bo'lmas, ko'zi qiymas bir-birin,
Xafa bo'lmanq, janjal qilgan o'z-o'zi.

Ana endi enasiga qarab, ko'ngli bo'linganini bilib, bir
so'z aytaverdi Siminning qizi:

Nimaga o'zingdan ketding har zamon,
Ko'nglingiz bo'ldi ena, bo'z torlon,
Otamning gapiga qoboq uyuldi?
Bu xizmating bizdan bo'lsin, enajon!

Yigitlar bandadir qizning so'ziga,
Jon aylanar jovdillagan¹ ko'ziga!
Bu xizmatni qilib kelay enajon,
Ena-ota ishonmaymi qiziga?!

Katta kishi bo'lib turgin enajon,
Borib kelay Gulnorjonning o'ziga.

Enajon men o'zim turib ketayin,
Yaxshi xizmat men sizlarga etayin.
Ena xizmatingni o'zim qilayin.

¹ Jovdillamoq – javdiramoq.

Otamning xayoli shu palla yo'qdi,
Borib turib Gulnorjonga aytayin.

Otamning yuragi bo'lgan to'la qon,
Ko'ngil qoraligi qursin, ko'p yomon.
Шўркала ма hали hоzирча otamdan,
Bu xizmatni o'zim qilay, enajon.

Borib turib evi bilan so'rayin,
Kelib turib sizga javob berayin.
Kechasiman men oldida turayin,
Achchig'in ketkazib o'zim so'rayin.

Qiz bo'y yetsa ena huzur ko'rmaymi,
Kattakon bo'p xizmat buyrib turmaymi?
Qobil qizin xudo bersa enaga,
Ena degan katta odam¹ bo'p qomaymi?

Bu xizmating bizdan bo'lsin, enajon,
Qutqazay elatni qayg'uman², g'amdan!
Otamni tushiring achchig'i damdan!

Kechasiman o'ynab-kuling ikoving,
Esing butun, o'pkalama otamdan!

Oyim[ning] oldiga bugun yetayin,
Erta bilan so'zlarini aytayin;
Qiz kattartgan³ boybichadir, enajon.

Marjon pari balli, yaxshi so'z aytdi,
Otasi, enasi xushvaqt bo'p ketdi.
«Bor esa», – deb endi buyurdi xizmatga,
Qizining so'zidan ginasi ketdi.

¹ Qo'lyozmada: «kattodam».

² Qayg'u bilan g'amdan.

³ Katta qilgan.

Dono ekan bu Siminning farzandi.
Yaxshi gapni o‘ylay-o‘ylay,
Yomonlarin poylay-poylay,
Yaxshi so‘zni so‘ylay-so‘ylay,
Marjon pari maqom bilan,
Gulnorning oldiga ketdi.

Jag‘ida saqich qirsillab,
Oyoqda kafsh dursillab,
Ko‘p bo‘y yetgan qizdi o‘zi,
Ko‘chada chayqalib larsillab,
Firibgar Marjon yo‘l tortdi.

Har alvonda so‘zni o‘ylab,
Gulnorning oldiga yetdi.

Hamma gapni bilib bordi,
Qilgulikni qilib bordi.

Hiylagar ekan juvormak,
Gulnor oyning oldiga,
Har so‘lqillab, maqom qilib,
Yuz tabgirman kulib bordi.

Gulnor pari hayron qoldi;
Ko‘ngillari vayron bo‘ldi.
«Bu kulganin so‘rayin», – deb,
Yuragiga armon bo‘ldi.

Marjon pari oyimini
Aylanib ziyorat qildi.
Gulnor pari o‘tqizdi-da,
Kanizini gapga soldi.

Ana Gulnor pari kaniziga qarab, kulganining [sababini]
so‘rab bir so‘z aytaverdi:

Qizil bo'ldi kulasan, oyday yuzim,
Otam podsho, bilsang katta odam o'zim.
Menga aytgin kulganiningning ma'nisin,
Bu kulganing rostin aytgin, kanizim!

Oq badanga hill a kiyim kiydingmi?
Xitoyi kosaga sharob quydingmi?
Uloqdayin sakrab chopib o'ynaysan,
Sen kiyanki yo birovga tegdingmi?

Esli ena qizin butun saqladi,
Yaxshi boqib suttan qornin to'qladi.
Erga tekkandayin mordayib kelding,
Qanday odam dimog'ingni chog'ladi?

Menday oyim chinachog'in' tishladi,
Qanday yomon batollikni boshladi?
Erga tekkandayin xushvaqt bo'libsan,
Qanday odam sening vaqting xushladi?

O'zginangning dimog'ing chog' etdimi?
Bir nechalar sarson bo'lib ketdimi?
Yuzginang qizarib, o'ynab-kulasan,
Erga tegib, sening ishing bitdimi?

Bo'yningga yaxshi odam² qo'lin soldimi?
Otang sendan gavhar-javhar oldimi?
Har dingillab, sen silkillab o'ynaysan,
Dimoqqinang, do'stim, chog' bo'p qoldimi?

Oy Yunus pari Chambil elga ketdimi?
Misqol pari Eram bog'da yotdimi?
Erga tekkandayin vaqting xush bo'lib,
Bir yigit sen bilan billa yotdimi?

¹ Chinachoq – jimjiloq.

² Qo'lyozmada: «yaxshodam».

Dimog‘ing chog‘ bo‘lib, qorning to‘q bo‘pti,
O‘ynab-kulganingning vajini aytgin!
Ko‘ngling bir yoqli bo‘p ishing bitdimi?

Har til bilan oyimingga so‘ylaysan,
Ko‘kayingda ko‘p gaplarni o‘ylaysan.
Yaxshi odammam topishdingmi, jon do‘stim,
Odamlı bo‘lganday bo‘lib o‘ynaysan?
O‘ynaganing vajin aytgin kanizim!

Ko‘nglimdagı orzu-havasim¹ bo‘lmadi,
Misqol pari Eram bog‘dan kelmadi.
Sening vaqting bejoy xush bo‘p qolibdi,
Ko‘nglimdagn hech aytganim bo‘lmadi.
Menga aytgin kulganingning ma’nisin!

Yaxshi xabar berar joydan bildingmi?
Tuzni haqlab yaxshi xizmat qildingmi?
Menga aytgin ko‘nglingdagi borini,
Biror gapni bir shahardan bildingmi?

Bu gapning rostini aytgin oy Marjon!
Gapginangga ko‘nglim mening bo‘lindi,
O‘ynaganing ma’nisin ayt, do‘stimjon!

Ana endi Marjon pari oyimiga qarab, aytgan so‘zining
javobiga yarab, bir so‘z aytaverdi:

Bilmaganing bildirayin, bilmasang,
Gulnorjon, maqsudga yetgin, o‘lmasang!
Men aytayin ko‘nglimdagı shodligim,
Urishib tag‘in-a, janjal qilmasang.

Misqol pari Chambil elga boribdi,
Chambil elda borib o‘zi turibdi;

¹ Qo‘lyoznada: «orzavosim!»

Go‘ro‘g‘lining xizmatiga kiribdi.
Va‘dasiga vafo qilib oy Misqol,
Go‘ro‘g‘liga xizmatkor bo‘p qolibdi.

Shu gapni eshitdim Chambil elidan,
Oy Yunusga so‘zing yolg‘on bo‘libdi.

Qora toqqa yur, tomosha qilayik,
Ko‘nglingiz do‘stim kir bo‘p qolibdi.

Senday oyim gullar cho‘lga yarasha,
Charchab, horib zulfing betga tarmasha.
Qora toqqa yurgen, tomosha qilib,
Balandlikni oyim qilgin tomosha!

Xon Go‘ro‘g‘li senday oyim qasdida.
Qulq soling so‘zimning payvastiga.
Sayl qip kelayik tog‘ning do‘ngida,
Uch kun tursak Qong‘ar tog‘ning ustida.

Toqqa borib bir-ik-uch kun turayik;
Maslahat ber, endi qachon yurayik?

Kecha tushda baland toqqa chiqibman,
Yuring oyim, Qong‘ar toqqa borayik!
Borib turib, to‘rt kun, besh kun turayik.

O‘ynagan-kulganim mening shul uchun:
Qong‘ar tog‘ ustida bordi ko‘p chinor,
Shamol tursa qimillab shohi sinar.

Ko‘klamda yoyilib yurar turnalar,
Tomoshaga tezroq yurgen, oy Gulnor!

Obod tog‘ning daraxtida bulbullar,
To‘ti, qumri, mayna odamday so‘ylar.
Tomoshaga yoppa yuring, oyimlar!

Tomosha deb, o'zim o'ynab-kulaman,
Shuning uchun o'zim xushvaqt bo'laman.
Tomoshaga tezroq yuringlar, qizlar!

Botirlar dushmanning bag'rini tuzlar.
Bu Qong'ar tog' bejoy tomosha joydi,
Gulnorjonni suyab yuring, kanizlar!

Xafa bo'lgan qabog'ini uyadi,
Sochni buklab, po'paklarin tuyadi.

Har rang-barang yaxshi kiyim kiygizib,
Suluv qizi – satta hurday kanizi,
Ikov-ikov qo'ltig'idan suyadi.

Kambag'allik mardning ko'zin o'yadi,
Yomon bilan aslo birga turmanglar,
Yomon bilan o'tgan umr zoedi(r).

Ko'zları yarqillab xuddi anorday,
Satta qizlar hulkardayin to'p bo'lib,
Oyimining qo'ltig'idan suyadi.

Marjon pari, balli, so'zni uladi,
Eplashtirsa yaxshi bo'lib qoladi.
Firib bilan, necha tabgirlar bilan,
Oyimini toqqa olib jo'nadi.

So'zni boplab aytib, xo'p ishontirib,
Oyimini toqqa olib keladi.

Badan oppoq qorday bo'p,
Tishi kulsa durday bo'p,
So'lqillashib jo'nadi.

Hamma qizlar birday bo'p,
Sarboz tortgan nayday bo'p,

Irkillashib, qo'yday bo'p,
Oyoqni kerib tashlab,
Taltaygani boyday bo'p.

Yuzlari yarqiraydi,
Sochlari tirqiraydi,
Qizlarning yuzi xuddi
Osmondag'i oyday bo'p.

Toza gul so'layozib,
Ko'ngli yomon odamlar,
Ko'rganda o'layozib,
Paymana to'layozib,
Taratib qizlar jo'nadi,
Buralib qizlar jo'nadi.

Munchoqlarni jovdiratib,
Sirg'asi yilt-yilt etib,
Ko'rganlarning esi ketib,
Ro'mollari pir-pir etib,
Ko'kragida bir narsasi,
Yurganida bulk-bulk etib,
Badanlari sulq-sulq etib,
Gulnor pari jo'nadi.

Marjon pari firib bilan,
Sap esli qizlar jo'nadi.

Bu qizning sultanatiga,
Ko'rgan odam angrayib,
Burun ketdi shangrayib.

Ko'zları yumilmay qopti,
Ko'rgan odam qotib qopti
Qing'rayib...
Yondirgan qizlar jo'nadi,
Kuydirgan qizlar jo'nadi.

Yulduzdayin o'ynab ko'zi,
Hindiston elning azizi,
Jo'nayverdi Qong'ar toqqa,
Toy hindining Gulnor qizi.

Kelayotir Oyimjon, deb,
Satta bridayin kanizi,
Noz bilan qizlar jo'nadi.

Birov-birovin qitiqlashib,
Badanlarini turtishib,
Necha alvon hazillashib,
Chaq-chaq qilishib, kulishib,
Kelayotir bari cho'lida,
Xo'p hangomalar qilishib.

Noz bilan qizlar jo'nadi,
So'z bilan qizlar jo'nadi.

Badanlari terlab ketdi;
Bu esonlik alomati.
Gulnor pari xizmatkorga,
Charchadim, deb bir so'z aytdi:

Tor dalasi olis ekan,
Qaytay yuragim kuyadi.

Haqiq'imni yechib tashlang,
Botib, bo'ynimni qiyadi!
Asta yuring, kiyankilar,
Yursam ichlarim kuyadi!

Yelpillatib kanizlari,
Yonboshlaridan suyadi.

Po'pagimni ko'taringlar,
Bo'ksama qattiq tegadi!

Tez yursam o'pkam pishadi,
Charchadim aqlim shoshadi.

Shamolni qo'ying, o'lgirlar,
Terladim, bag'rim pishadi!

Kelayotir semiz qizlar,
Bari «uh-uh» deyishadi.

Go'ro'g'li kelgan Gulnorning qasdiga,
Tomosha aylang so'zning yolg'on-rostiga!
Voy-voy yuraklarim kuyib ketdi, deb,
Gulnor chiqdi Qong'ar tog'ning ustiga.

Endi [qizlar] charchashib, terlashib, pishnashib, terlabgina ko'yylaklari badaniga tarmashib, tog'ning ustiga chiqib oldi. Kunning o'zi por-pora bo'ldi. Lekin turna bilan birga pari bir bu yoqqa o'tar ekan, bir tushlikka ketar ekan. Buning laqabini Tomosha tog' deguvchi edi. Shu yerda osma tog'lar daraxtlarga chalkashib, yulduzga chiqib ketgan... Har turli daraxtlar ko'kmak zilolday bo'lib yotgan. Shu daraxtlarning ostida Marvarid supa, Zumrad supa har joyiga gavhar, javohirdan tosh qilib o'tqazib qo'ygan edi. Yunus pari, Misqol pari sap parilar bilan shu yerga kelib yotar edi. Qong'ar tog'ning boshidan qanot bog'lab uchib ketar edi. Ko'k shishadan hovuz, oq shishadan hovuz, har rang shishadan hovuz qilgan edi. Ko'kmak bo'p ovushibgina yotar edi. Bulbul, to'ti, mayna, qumri odamday so'zlab, hammasi obodlik shan-shavkatidan tinmay g'azal aytar edi.

Gulnor pari, Marjon pari uch yuzcha Hindistonning kichkina podshosining qizlari shu supalarga chiqib yostiqni yon-boshiga qo'yib: «Uh, charchadim», – deyishib, jilmayibgina kulishib, birov-birovining badanlarini ushlashib, «voh-voh» deyishib, mast qizlar qah-qah urib kulishib, bulbul, to'tilar mast bo'p ketdi qizlarning hangomasiga. Jonivor mayna bu qizlarning mast bo'lganiga ko'ngli jo'sh urib, qizlarning shav-shavkatiga qarab bir so'z aytди, mayna. Ana mayna qushning aytayotgan so'zi, har alvon, har alvon so'z aytaverdi jonivor mayna qush:

Ko'nglim jo'sh urib ketdi,
Obod Gulnorning bog'oti¹,
Supaning egasi yetdi.

Qizlarning aytgan so'ziga,
Suyagim o'rtanib ketdi.
Kulishganingga hoy balli.

Jonim jovlon kelgan suluv qizlarga,
Bayit aytdim jovidiragan ko'zlarga.
Dod dedim o'zim oyday yuzlarga,
Yaxshi kuyov bergin suluv qizlarga!

Qoshi ko'ziga hoy balli
Shirin so'ziga hoy balli.

Gulga o'xshatdim charboqni,
Baland qip ketdi dimog'ni;
Kelbati-yu, to'shi, qoshi,
Kulishgani menga yoqdi.

Qorday to'shinga hoy balli
Qora qoshinga hoy balli.

Mosha botsa chiqadi o'q,
Yuragimda hech armon yo'q.
Hindistondagi chorboqday,
Yaxshi joy yer yuzida yo'q.

Kelgan qizlarga hoy balli,
Shirin so'zlarga voy balli.

Qizni ko'rgan baxshi ekan.
Yuzi gulning naqshi ekan.

¹ Bog'ot – tevaragi cho'l bo'lgan bog'li, daraxtzor obod yer.

Hazillashib, qitiqlashib,
Muchchilashib¹ o'tirgani,

Bejoy qiziq, yaxshi ekan.

Muchchilashganiga hoy balli,
Quchoqlashganiga voy balli.

Mast qip ketdi, qaytay, bizni,
Qish emasdi, o'zi yozdi.
Aytgan gapim ko'hna so'zdi,
To'ladan kelgan quchoqli

Qiz bo'lganingga xon balli,
Jonim balli, ko'nglim balli.

Hangomangizga hoy balli,
Kulishganingizga hoy balli,

Birovman ketguday bo'pti,
Olmalar otguday bo'pti.

Ko'ngli to'lgan yigit bo'lsa,
Quchoqlashib tor to'shakda,
O'ynashib yotguday bo'pti.
Ko'nglingga, so'zingga balli.

Mening ko'nglim bo'lsa ekan,
Yaxshi er kelib qolsa ekan.
Yunus bilan Misqol pari,
Shu majlisda bo'lsa ekan...

Gulnor, holingga hoy balli,
Labda bolingga jon balli.

¹ Muchchilashmoq – o'pishmoq.

Qizlar keldi bir-bir bosib,
Ko'rganning yuragi o'sib;
Qalampir munchog'i sasib.

Yaxshi er kelsa, men ko'rsam,
Yetsa o'mganiga¹ bosib.
«Qo'l qo'y», deganiga hoy balli.

Tomoshalar qilsam o'zim,
Yolg'on bo'limg'ay-da so'zim,
Haminasi katta bo'libdi,
Bu qizlarga bir er lozim.

Erli bo'lganingga hoy balli.
O'zing kelganingga jon balli.

Qizlar chopishib keldi; Gulnor oyimga arz bo'ldi:
– Opa, bu mayna qush, har alvonda so'z aytib: «Erli bo'l-ganingga hoy balli», – deb, aytib yotipti, – dedi. Hech qizlarning so'ziga qulq solmadi Gulnor pari.

Mayna aytidi: – Aqlni olmasa bir ish bo'lmaydi, – dedi. Endi kun botdi. Ola-govgumga² yetdi. Gulnor pari chirog'inining shu'lasi osmonga urib ketdi.

Ana Soqibek Go'ro'g'lining qorovuli edi, chopib, chopillab kelib, Go'ro'g'libekka qarab, bek Soqi bir so'z aytaverdi:

Yovda o'lsam bo'lmas mening gunohim,
Og'ir lashkar mana toqqa kelibdi. K
atta yoriq ko'rib keldim, podshohim.

Bildim lashkar bunda kelib yotibdi,
Harosotga qulqqinam bitibdi.
Bu yorug'ni ko'rib darmon qolmadi,
Yargillab osmonni o'rnat ketibdi.

¹ O'mgan – ko'krak.

² Ola-govgum – g'ira-shira, qosh qoraygan payt.

Bilmayman urush yaqinlab qolibdi,
Ajal-margi¹ yoqamizdan olibdi.

Shu'lasi bilqillab bulutga chiqib,
Katta podsho yaqiningga kelibdi.

Xon Go'ro'g'li, darrov endi taxt bo'lgin,
Uxlamagin, o'zing bugun sog' bo'lgin!

Bu yorug'ni ko'rib xayolim qochdi,
Hammang birday otga minib, choq bo'lgin!

Ot yolini birday qilib o'rayik,
Har ish bo'lsa, ittifoq bo'p turayik.
Dovruq qilmay, asta-asta mininglar,
Borib turib, kim ekanin bilayik!

Ko'nayik kim bo'lsa qilgan ishiga,
Otni choping mana tog'ning dashtiga!
Xo'p ittifoq bo'lib asta mininglar,
Yuringlar, borayik yovning qoshiga!

Kechasiman katta shuyxon² etayik,
Ajal yetsa, yer quchoqlab yotayik.

Asta-asta minib oling otlarni,
Tong otguncha xo'p chopishib, yetayik!

Erta bilan toqqa chiqib qaytayik,
Mininglar, beklarim, otning beliga!

Qo'rqqanlarning yuraklari bulk etdi.
O'lgandan qo'rqqan yomon ekandi,
Bir nechasin joni chiqishib ketdi.

¹ Marg – o'lim.

² Shuyxon – qirg'in, urush, jang.

Asta-asta minib oldi otlarni,
Hammasi qayqayib balandga ketdi.

Borayapti asta-asta,
Qo‘r quoqlarning ko‘ngli xasta.
Botirlari: «Ot qo‘y», –deydi,
Yugurishib chaparasta.

Asta haydab Qora tog‘ning toshiga,
Goho o‘rda yetaklashib otlarin,
Tomosha aylang bek Soqining ishiga,
Yarim kecha-yarim kecha bo‘lganda,
Chiqib oldi Qong‘ar tog‘ning boshiga;
Yaqin kepti shu yorug‘ yonboshiga.

Ana endi mayna odamday kulib bir so‘z aytaverdi, qiz-larga qarab:

Aytganginam bo‘lib qoldi,
Qizning ko‘ngli to‘lib qoldi.
Qizlarga er kelib qoldi.

Bo‘yningga qo‘l solar bo‘ldi,
Kulishinglar yaqin qoldi.

Shukur qiling suluv qizlar,
Erlaring girdingni oldi.

Barakalla ko‘ngling to‘ldi,
Eshituvdim men so‘zingni,
Bomoqlab¹ ushlar bezingni.
Erlaring olar o‘zingni;
Erli bo‘lishingga jon balli.

Olib osha yurtga ketar,
Vaqtilaringni xush etar.

¹ Barmoqlari bilan.

Bo'lib olib o'zlarin,.
Shu bugun quchoqlab yotar.

Ering qutli bo'lsin qizlarim,
Bu tog'da mojaro bo'lar.
Erli bo'lganingga hoy balli.
Kuyovlaring kelib qolar.

Qizlar «ey-ey», dedi, Gulnorga aytadi:

— Poshshoyim, bu mayna erlaring qutli bo'lsin deb aytadi. Bu nima gap? — dedi.

Gulnor pari aytadi:

— Har gapni aytaverasizmi?

Ana endi Odob pari har uch kunda bir gapirguvchi edi. Buni shuytib, odobli deb Odob pari deb qo'ydi otini. Ana Odob pari qizlarga qarab bir so'z aytaverdi:

O'zimdan ketib qolmayin har zamon,
Mayna jonvor bmr narsani biladi,
Bu tomosha xatarlidir, oyimjon.

Mayna jonvor tinmay so'zlar aytadi,
Senday oyim bulkillamay yotadi.
Bu qidiruv xatari bor o'xshaydi,
«Ering qutli bo'lsin», — deydi aytadi.

Yer yuzining gapin mayna biladi.
Endi o'ylasam¹ qilgan ishing chaladi,
Podsholarga qorovullar durustdi,
«Kuyov keldi», — deydi, mayna kuladi.

Maynaning gapiga tanam bo'shadi,
Bu so'zlarga xayollarim shoshadi.
Yurt tiliga; mayna jonvor tushadi,
Bir mehmon olisdan kelgan o'xshadi.

¹ Qo'lyozmada: «indo'ylasam».

Piyolaga maylar quysang bo‘lmaymi?
Qovog‘ingni: «Qiy», – deb o‘ysang bo‘lmaymi?
Har alvonda so‘z aytadi mayna qush,
Chindobillar¹ o‘zing qo‘ysang bo‘lmaymi?

Oyimjon qaytamiz, jonne sotamiz,
Uyquli. uyg‘oqli bunda yotamiz.

Ertan bilan turib elga ketamiz.
Har gap bo‘lsa bugun oqshom yotamiz.

Ana endi Go‘ro‘g‘libek bu joylarni, bu osma tog‘-larni, bol hovuzlarni, marmar supalarni, Gulnor parining chaq-chaq qilib o‘tirganini ko‘rib:

– «Yo‘lli bo‘lgan yigitning yangasi oldidan chiqadi» degan gap bor. Bu Gulnor parining o‘zginasi, oldidagi Hindiston podsholarining qizginasi. Birdan borsanglar, yuragi yorilib o‘ladi. Hech nimani ko‘rmagan qizlar qo‘rqib qoladi. Ana endi hammang otni minib, gir aylanib olinglar. Bulk etmay turinglar! – dedi.

Gulnor pari Sayram degan bir kanizini:

– «Sen tog‘ boshiga borib bir chindobililik qilib kelgin! – dedi. Erkakka o‘xshab bir dudamani² qo‘lga olib:
– «Qo‘rqmay yotaveringlar. Yov kelsa, to‘p bilan urib yiqitaman. Axxi, axxi deb jo‘nayverdi [Sayram]. Hech bexabar borayotib edi, chiroqning yorig‘idagi [odam] olisni ko‘rmas ekan. Ana Sayramjon taltayib goh mordayib, tikka qo‘shtining oldiga borib qoldi. Shunday tiklab, ko‘zini ochib qarasa Sayram, po‘lat nayzali, anjom-asbob, qilich, otlari falakni ko‘zlab, yulduzday bo‘lib, aylanib olib qo‘yibdi. Buni ko‘rib, tarssa tura solib qochdi. Dustaman³ uchdi. Bel bo‘g‘oridan pastiga kiyib yurgani tizzasiga tushdi. Ko‘ylagi tos tepasidan oshdi. Hamma qo‘shtining ko‘zi

¹ Chindobil (chindovul) – 1) qorovul; 2) josus; 3) poyloqchi.

² Duduarna – qilich.

³ Dustaman (do‘stomon, dustamon) – mukka, mukkasicha, mukkasi bilan, yuzi bilan yiqlimoq.

badaniga, u yer-bu yeriga tushdi. Bir nechasi kulishdi. Bir nechasi «dam-dam»¹ deyishdi. Qo‘rqib qiz bechoraning dami ichiga tushdi. Go‘ro‘g‘libek borib, rahbarlik qilib, kiyimlarini ustiga tortib, odam shekilli qilib, og‘ziga ikki hovuch suv solib, haligi qizga qarab, kallasini suyab, bir so‘z aytaverdi:

Senga aytay, tingla mening so‘zimni,
Ovladim ko‘ldagi turna-g‘ozimni.

Qo‘rqmagin, men o‘zim senga rahbarman,
Chambilda Go‘ro‘g‘li deydi o‘zimni!

Qo‘rqib qochirgansan esman² hushingni,
Yangi bo‘lding hammamizga duch endi.
Qiyomatlik singlim dedim, Sayramjon,
Singlim, turgin, ko‘tar [endi] boshingni!

Nega qo‘rqib, behush qilding o‘zingni,
Nega aytolmading salom ro‘zingni?
Qiyomatlik singlim dedim, chirog‘im,
Aylanay, sen darrov ochgin ko‘zingni!

Haq salomin kelib bersang bo‘ymidi³,
Qo‘ling ko‘kragingga olsang bo‘ymidi?
Qo‘rqmay-pusmay necha odoblar bilan,
«Omonsizmi, mehmon», – desang bo‘ymidi?

Qo‘rqmay oldimizga yetsang bo‘ymidi?
Elatingga endi bo‘lgan to‘ymidi?
Haq salomin berib rahmatga botsang,
Oldimizda kulib tursang bo‘ymidi?

¹ Jim-jim.

² Es bilan.

³ Bo‘lmasmadi.

Qo‘rqma[gin], mushtipar, ochgin ko‘zingni,
Qiyomatlik ukam dedim o‘zingni!

Yurib keldik bizlar qulo tuzlardan,
Taltayib chiqib keluvding qizlardan.
Ilgarigi damginang sening zo‘r edi,
Nega qo‘rqib qolding, singlim, bizlardan?

O‘zim senga og‘aliqqa yarayman,
Aslo qo‘rqma, holginangni so‘rayman!
Singlim dedim, aslo qo‘rqma bizlardan,
O‘zim seni katta odamga bergayman!

Dimog‘ingni o‘zim xo‘p chog‘ etayin,
Birov so‘ksa, uni dorga tortayin.
Aslo qo‘rqma, sen ukam bo‘l, chirog‘im,
Seni Chambilbelga olib ketayin!

Qaramagin aslo mening o‘zima,
Haq hurmati, ishon aytgan so‘zima!
Hindistonda nima gaplar bor singlim?
Elda bor gaplarni aytgin o‘zima!

Yurakdan ketgay-da qayg‘uman g‘amlar,
Bahorda sildirar tog‘da bodomlar.

Eatingda bor gapdan xabar ber,
Podsholikda nima deydi odamlar?!

Qassob olar bolta bilan tabardi,
Xannon-mannon aytса, so‘zga chevardi.
Hindistonda nima deydi ko‘p odam,
Bergin Hindiston gapidan xabardi!

O‘zim bor, qo‘rqmagin hechbir bandadan,
Og‘a-ining zindonga tushgan bo‘lsa,

Chiqarib olay og‘ayningni kundadan¹.
Hindiston elidan bergen xabarni,
Akang so‘zlay bersa so‘zga chevardi!

Ana eydi [Sayram] Gulnor pari bilan Qo‘yiqofda ham yurar edi, Eramning bog‘ida turar edi. Xitoyda ham yurar edi. Musulmon shaharlarini ham ko‘p ko‘rar edi. Har shahardan mul-la olib qochib kelib, shu mullalardan til o‘rganib olar edi. Lekin hamma tilni bilar edi, bular. Yer yuzining odami bilan zamona-sozlik qilib turar edi. Ana endi yuragini bosib olib, yalang‘och bo‘lganidan bexabar sap beklarni suluv-suluvi oldiga kelib, Sayram parining ko‘ngli to‘lib, «Qizning dushmani bo‘lami, har kim ko‘rsa quchoqlab xizmatingni qilaman deb aytadi-da. Kim bo‘lsa mening bandi farmonim turur», – deb [o‘yladi]. Hindistonda bo‘lgan rost gapdan aytishini ko‘ring Sayramning.

Ana endi Sayramning aytayotgan rost so‘zi:

Akajonim, shirin jonni sotayin,
Borganda Chambilni obod etayin.
Tinglayvering, aka, mening so‘zimni,
Hindistonda bo‘lgan gapni aytayin!

So‘zlaydi bu yerda ukangning tili,
Hech kima tushmasin judolik xili.
Ko‘rganimni aytaveray, akajon,
Tala-to‘p bo‘p qoldi Hindiston eli

Otingda bor qoshi o‘sinq egaring,
Hindiston elini sizga men aytsam,
Borib qoldi Hindistonga xabaring.

Kelganingni bitta odam biladi;
Hali beqarordir Gulnor² paring.

¹ Kunda – bandilarning oyog‘iga uriladigan (solinadigan) maxsus yog‘och asbob, taxta kishan.

² Qo‘lyozmada: «Gulipor».

Hindiston elati ko'rsangiz obod,
Xafa qilmay, ko'nglimni qilgaysiz shod.

Bo'lgan gapni aytaversam ko'p so'zdir,
Toy hindi vazirman¹ qildi maslahat.

Maslahat qip shohning aqli shoshdi.
Simin bilan Amin vazir urushdi;
Borki ikovlari xo'p kaltaklashdi.

Gulrang pari borib, ko'plar urishib,
Nimkalasoz oshni qilib yarashdi.

Simin vazirlarning sizga so'zi bor,
Ovloq topsa, balki pitcha arzi bor.

Ko'ngil qoraliq bo'p Hindiston yurti,
Marjon pari degan suluv qizi bor.

Gulnorjonga kelibsiz, vajingizdan,
Marjon pari kelib gaplarni aytdi.

Tomoshalar qilayik deb suluvar,
Gulnorjonne Qong'ar toqqa op qaytdi.
Marjonning otasi qattiq so'z aytdi.

Siz tan bo'ldi² Hindistonning yarmisi.
Hali hozir buzuqdir Hindiston yurti,
Aytsa sob bo'lmaydi Hindiston so'zi.

Yigitga ko'p bo'lar qizlarning nozi.
Aka, topgan gapim mening shul bo'ldi,
Anov turgan, aka, podshoning qizi.

¹ Vazir bilan.

² Tan bo'imoq – tomon bo'imoq, bir taraf bo'imoq.

Tag‘i topgan tutganimni aytaman,
Podsho zo‘rdir, ishginasin qaytaman?

Javob bering, oyimimning oldiga,
Aka, o‘zim o‘tirishga ketaman!

Ana endi Go‘ro‘g‘libek:

– Ha chirog‘im, seni, o‘lmasam, Chambil olib ketaman. Etalik-og‘alik qilaman. Seni bir qo‘ling xamirga botashgan yaxshi erga beraman. Seni tug‘ishgan singlimdan ziyod ko‘raman, – dedi.

Shuytib [Sayram] ana bularni qarindosh qilib, indamasligini bilib, ko‘ngilni bir yoqlik qilib, asta Gulnorjonning oldiga yetdi. Hangomada hech nimani ko‘rmaganday bo‘lib o‘tirdi. Ana Go‘ro‘g‘li navkarlarini, qo‘shinini shu [yerdan] gir aylantirib, o‘rtaga oldi.

Hovliqib aytsa, tala-to‘p bo‘p qolmasin! Hech qaysing daxl qilmanglar! Hech nimani ko‘rmagan qizlar, ko‘rib, tag‘in yuragi yorilib o‘lmasin, – dedi [Go‘ro‘g‘li].

Ana shuytib gir aylanib yotaverdi qo‘shinlar. Soqibulbul bilan Go‘ro‘g‘libek qizlarning hangomasni qiziqqan pallada: «Salom alaykum», – deb, yetib bordi.

Gulnor pari ham salom berib joyidan tura keldi. Ko‘rma gan qizlarning ko‘zi chappa tos bo‘lib, chang‘aroqlab qoldi.

Go‘ro‘g‘li:

– Sanam qizlar, enam qizlar, qizlar qo‘rqmanglar, – dedi kulib. Ana Gulnor pari uyaganidan Go‘ro‘g‘libekka qarab bir so‘z aytaverdi:

Xush kelibsiz, ana mazgil, ana joy,
Yuragimdan ketdi qayg‘u bilan o‘y.

Har bosgan izingiz ko‘zima dori,
Yoparman men sizga chiroyli sarpoy.

Va‘dalashib Chambil shahridan qaytdim,
Hindiston shahriga Misqolman yetdim.

Misqol[jon]ni Eram boqqa uzatdim,
Bizdan o'tganiga uzur, podshojon.

Gulrang pari kiyim kiyibsan, dedi,
Balki sen bir odam suyibsan, dedi.
Kiyimni ko'rdi-da, ko'plar urushdi,
Sen o'zing birovga teyibsan, dedi.
Xato qildim, afu qiling, podshojon!

Qaytayin, enamning ko'p qahri keldi,
Qobog'i uyulib ko'p zahri keldi.

Sen erga tegibsan, dedi urishib,
Meni bevaqt urib ovoqqa¹ soldi.

Men ayolman, va'dama borolmadim,
So'ramayin hech joyga yurolmadim.
Gunoh qildim, xo'p, kechiring, podshohim!

O'ylang, taraf sizday podsho qasdida,
Mergan olqor ovlar tog'ning ustida.

Bizdan o'tganiga ma'zur, podshohim,
Har bir izlaringiz ko'krak ustiga.
Gunoh qildim, xo'p, kechiring, podshohim!

Hangomalar shoir bilan sozniyi,
Oppoq ko'llar o'rdak bilan g'ozniyi.
O'lmaygina ko'rdim oyday betlarni,
Mendayin qiz, vallamatim, sizniyi.
Gunoh qildim, karam qiling podshohim!

Yurakda vahm yo'q, qayg'i cheringman,
Qabul qilsang, va'dam bitta, yoringman.
Men bormabman, siz kelibsiz so'roqlab,

¹ Uy qamog'i.

Haq hurmati, qiyomatlik cho'ringman.

Nasva tortgan joyga o'zim yetaman,
Yaxshi gapni yomon gapni bitaman.
To o'lguncha o'ynab-kulay podshohim,
Xo'p keldingiz, birga Chambil ketaman.
Aldamchi deb so'ngra aytmang, podshohim!

Ana endi Go'ro'g'libek Gulnor parining bu so'zidan
ko'ngli to'lib, oyimga qarab, sallani o'rab, bir so'z aytaverdi:

Misqol bordi, nega o'zing bormading?
Yo bilmadim, bizni ko'zga ilmading,
Podsholarning qatorida bilmading.
O'zginingga qul bo'p keldim, bo'yingdan.

Ko'plar so'rab turdim sening izingdan,
Tanda jon aylansin oyday yuzingdan.

Ishqingda o'rtanib keldim parizod,
Jon aylansin jovidillagan ko'zingdan.

Bul elatga podsholikka yaradim,
Misqol borgandan so'ng durbin qaradim.
Ko'nglim timmay o'zginangni so'radim,
So'zingga o'rtanib keldim, o'zingdan.

Ishqivoz¹ savdosin boshimga solib,
Men o'zim dardli bir devona bo'lib,
Sening uchun o'zimni sarson qilib,
Boshima necha bir kulfatlar solib,
Ado bo'p, so'roqlab keldim, qaddingdan.

O'lmaygina men eshitdim so'zingni,
Yaxshi odam deb qoluvdim o'zingni.

¹ Ishqivozlik.

Har tunlari yig'lab sening ishqingda,
Bukun kelib ko'rdim, qora ko'zingni.

Eson-omon ko'rdim, bo'lda, o'zingni,
Ko'nglim to'ldi, aytding to'g'ri so'zingni.
O'rta cho'llar uzoq ekan benahat¹,
O'lmaygina ko'rdim oyday betingni.
Ishqingda o'rtanib keldim, parizod.

Suyagim tutashib, o'rtanib ketdim,
Esga tushsang, o'zim xunoba yutdim.

Nima bo'ldi Gulnorjonimga, dedim,
O'lmaygina sening oldingga keldim.
O'rtanib jingak bo'p keldim, xolingdan.

Otang janjal qilsa ertanman² turib,
Qaytibgina op ketarman elingdan?
O'zimni duo qilding parizod,
Elimdan begona qilding, aqlingdan.

Hay attang va'daga vafo qilmading,
Bek Soqining nasihatini olmading.
Misqol bordi, sen bormading Chambilga,
Hiyla gaping, bizni ko'zga ilmading.

Ayroliq bag'rimni tildi, so'zingday.
Elchi-sovchi men otangga yuborib,
Yaxshilikman³ seni olgani keldim,
So'zginang o'rtagan bizni, qoshingdan.

Og'ir lashkar mening bilan keladi,
Kam aqlning ishi hamisha chaladi(r).

¹ Benihoya.

² Ertal bilan.

³ Yaxshilik bilan.

O'rtta qilib so'zlashayik bu so'zni,
Yor bo'lsang maslahat qanday bo'ladi?

Seni ko'rdir kelolmayman o'zima,
Ozroqman, tarafim ko'pdir izima¹.

Ko'ngling bersang bir maslahat ko'rsatgin,
Maslahat ber, bo'yginangdan o'zima!
O'tanib bangilar bo'ldim, ko'zingdan.

Ana endi Go'ro'g'lining aqli shoshdi. Dami ichiga tushdi. Marjon pari joyidan turib, qoshini kerib, podshoga qarab bir so'z aytaverdi:

Simin otamizning mehri toshdi,
Voy attang-a, dardimga dard ularashdi.
Bo'lgan ishni aytaveray, mehmonjon,
Mening otam Amin hindiman g'ashdi.
Nima bo'lsa sizing uchun urushdi.

Xudoyim ko'rsatdi sizni begumon,
Aytaveray men sizga gapning rostin.
Hammangiz bo'lgaysiz dunyoda onom!

Hangomada sharob ichib mast bo'lgan,
Ham podshoga, ham Aminga qasd bo'lgan.
Ayiraman o'zim hamma elatni,
Sizi bilan mening otam do'st bo'lgan.
Simin otam sizning uchun qon yutdi,
Gulnorjonne aldagin deb o'zima,
«Go'ro'g'lini desin», – dedi xon otam,
Sizning uchun necha so'zlarni aytdi.

Otam [o'zi] hamma gapga chevardi,
Bachchalar o'qidi imlo-zabardi.

¹ Izimda.

«Go‘ro‘g‘lini desin, – dedi, – Gulnorjon»,
Sizning uchun o‘zginamni buyurdi.

Sherik bo‘lmang yuraklarda vahmga,
Odam ko‘ngil berar ahli fahmga.
Amin hindi sizman¹ urushay, dedi,
Ishqivoz ekandi Gulnor oyimga.

Ilgaridan sheriklashib o‘qidi,
Bachchalikda Amin gapni to‘qidi.
Gulnorjonne olaman deb shu Amin,
Hali hozirga Hindiston el qo‘qidi.

Ana endi Gulnor pari Soqi bilan Go‘ro‘g‘libekka to‘rdan o‘rin berdi. Misqolning o‘tiradigan taxtini Soqibekka berdi, Yunosning o‘tiradigan taxtini Go‘ro‘g‘libekka berdi. Marjon pari qo‘l yuvdirib, dasturxon yozib, yoqut, gavhar la‘lilarga ovqatni uydi. Gulnor pari yetti marta: «Xush ko‘rdik», – deb ta‘zim qilib o‘tirdi.

Hamma qizlar «Enasining aytgani rost ekan. Chambilga borib tegib kelgan ekan. Balki nikohin qiyib kelgan ekan. Barakkalla, sening el qidirib topgan eringga», – deyishdi. Ana endi oqiqi, ko‘ki-ko‘k toqqa tomoshaga kelgan uch yuzday qiz yashnab, bir o‘tirish qildi. Shu yuzlari anor bilan qizil olmaday yashnab ketdi. To‘ti, mayna, qumri, bulbul balandliklarda chaq-chaq qilib, ana mayna qush Gulnorjonga qarab bir so‘z aytaverdi:

Yuraklardan ketdi qayg‘u-o‘yingiz,
Gavhar, sadaf o‘tirishga joyingiz.
Murodingni Ollo berdi, jon qizlar,
Endi qutli bo‘lsin oyim, to‘yingiz!

Hech qaytmasin bu dunyoda ra‘yingiz,
Asli kelbatlidir² qaddi bo‘yingiz.

¹ Siz bilan.

² Kelbat – kelishgan qaddi-qomat.

Qoshli qizlar, to'shli qizlar,
Qutli bo'lsin endi katta to'yingiz!

Go'ro'g'libek osha yurtga op ketar,
Mehnat qilgan odam murodga yetar.
Erlaringiz qutli bo'lsin oyimlar,
Dam g'animat, o'ynab kulgin, bibijon.

Yurgan yo'ling mushki qalampir sasib,
Amin sheringning ko'kayin kesib.

Bituvchilar bitgan ekan taqdiring,
Hangomada ikovginang o'tirsang,
Kelgan mehmon o'zingizga munosib;
Kelgan mehmon qutli bo'lsin, jon qizlar!

Balli qizlar, jonon qizlar,
O'zi katta g'o'non qizlar.

Ana endi qizlar vahim tortdi. Gulnor Soqibekka bir soz topib kelib berdirdi¹. Ana endi Gulnor parining xohishi hango-maga bo'ldi. Go'ro'g'libek: «Bugun yotib, ertan hangoma qilsa ekan», – deb ko'ngliga keldi. Soqibekni ayttiramiz deb hamma qizlar ittifoq bo'ldi. Podsho ham ko'pning aytganini qilar ekan. Katta ham ko'pning aytganini qilar ekan. Hammaning ra'yini Soqibekni ayttirmoqqa bo'ldi.

Endi qizlarning ittifoq bo'lishini ko'ring. Ana endi Soqibulbulning sozni chalishini ko'ring. Sozni chalib, ana Soqibek aytaverdi so'zni:

Yigitlar ishqivoz sochi sunbulga,
Nasva tortib keldik Hindiston elga.
Eson-omon turgan jonon qizlarni,
Sog'-salomat olib borsak Chambilga.

¹ Berdirdi.

Har joyda qo‘lim tegdi sozlarga,
Sog‘-salomat chiqsak qishdan yozlarga,
Xudo, tovofiq¹ ber, manov qizlarga
Eson-omon ol boraylik Chambilga.

Oqshomiman² bazm chaq-chaq etarmiz,
Har alvonda qoyim³ sozni chertarmiz.

Qo‘rmanglar, hurkmanglar, sap suluv qizlar,
Dushman kelsa, katta shuyxon etarmiz.

Duo qilib turing tog‘ning ustida
Hammamiz turkmanga birga ketarmiz.

Har gaping jonima darmon jononlar,
Elimizda nechov bo‘lgan intizor.

O‘ynab-kulib hangoma qing parilar,
Haq yor bo‘lsa bu safarlar bexatar.
Hamsuhbat bo‘p qoldi, suluv parilar,
Nasihat beradi yoshga qarilar.

Esli odam hamisha ishni to‘g‘rilar,
Salomat Chambilga yetib olayik.

Ov qildik ko‘lda g‘ozlardan,
Ayirma, pari qizlardan.
Yo‘l yurdik qulo tuzlardan;
Bir maslahat bering endi,
Maslahat chiqsin qizlardan!

Qulo tog‘da turing endi,
Sochni tolab⁴ o‘ring endi!

¹ Tovofiq (tavfiq) – uyat, vijdon.

² Oqshomi bilan.

³ Qoyim – qulay, mos.

⁴ Tol-tol.

Tong otgan so'ng podsho kelar,
Ajalli urushda o'lar,
Bir maslahat bering endi!

Tong otguncha Soqi sozni chaladi,
Eshitib qolmaymi Hindiston eli?

Bu gapni Toy hindi otang biladi,
Gurzi olib, filni minib keladi.
Otang bizlar bilan janjal qiladi.
Gulnorjon, maslahat qanday bo'ladi?

Borasanmi, bormaysanmi Chambilga?
Bormasanglar keting Hindiston elga!

Katta-kichik bunda turgan parilar,
O'ylanglar, maslahat qanday bo'ladi?

Otang xuruj qilsa odam o'ladi,
Ko'ngli buzuqlaring bergen maslahat,
O'ylanglar, shu so'zim nima bo'ladi?

Ota-onangga¹ ko'ngling bo'lsa ketinglar,
Tong otguncha uy-uyingga yetinglar!
Zo'rlik bilan bizlar turibmiz demang,
Ko'ngling bo'lsa Hindistonga ketinglar!

Sahar borib joy-joyingda yotinglar!
Enalar, maslahat qanday bo'ladi?
Xayol banda yuzlaringga,
Ota-enang bor izlaringda.
Hiyol-ko'ngling, to'g'ring qolgin,
Ixtiyorin o'zlariningda!
Gulnorjon, maslahat nima bo'ladi?

¹ Qo'lyozmada: «otanang».

Rahm ayladik bizlar sening holingga,
Bulbul maqom qilar bog‘da gulingga.

«Firib bilan ushlab oldi», – demanglar,
Ketavering Hindistonday elingga!
Donolar, maslahat qanday bo‘ladi?

Jonivor to‘ti haqiqat bir so‘zni aytayapti qizlarga qarab:

Qong‘ar toqqa ketgan, deydi,
Ayshi ishrat etgan, deydi,
Ishi tamom bitgan, deydi.

Ketsangiz ham elingizga,
Urushsangiz birov bilan,
Go‘ro‘g‘lining qo‘shiniman,
Tomosha tog‘ning boshida,
Ayqalishib yotgan, deydi.

Qiz emas, hammasi xotin,
Go‘ro‘g‘libekning lashkari,
Hammagini netgan, deydi.

Uyat o‘limdan yomondi,
Teging endi, teging endi!

Elingiz bari so‘zlaydi,
Tog‘da olib yotgan, deydi.

Olmay ketmanglar yurtingga,
Podsho banda savlatingga,
Sizlar qizsiz gapga yovuq,
Bu beklar op qo‘ygan, deydi.

Ta’na qiladi betingga,
Borma Hindiston yurtingga!

Sabab bilan beklar kelgan,
Yov qurshab girdingni olgan.
Hammang ketmasday bo'lgan.

Bu fe'lingni qo'ygin endi,
Katta-kattang yigit saylab,
Qong'ar tog'da teygin endi!

Ket deganman ketolmaysan,
Ko'p qo'shinden o'tolmaysan.
Ming taqdir hiylalar qilsang,
Elginangga yetolmaysan.
Qizlar teg endi, teg endi!

Endi Soqibulbul bir sozni chertib so'z aytdi. Shu qizlar Soqibulbulning yuzidan, hech jirimaydi¹ so'zidan. juda rozi bo'ldi Soqibulbulning o'zidan. Qizlar Soqibulbulning dimog'ini chog'lab tursa, qirq kun aytса ham jangilmaydi Soqibulbul so'zidan. Vaqtini xushlashib, kosani qo'lga ushlashib, boshni chay-qab: «Sop mast qizlar, bejoy qiziq hangoma bo'ldi», – deb labini tishlashib, «Simin sog'», – deb kosani to'ldirib, bir may ichmoq qa teyishdi qizlar. Masti beixtiyor bo'ldi, bari.

Ana endi bular tomosha tog'da, o'z zavqi-shavqida yotaversin, endi so'zni Hindiston podshosidan eshitmak darkor.

Ana odam bor yerda so'z bor. Yaxshi bor yerda yomon bor. El bor yerda elak bor. Tog' bor yerda buloq bor. Podsholikda to'lon bor, Qizda qiliq bor. Ana endi gapni mojarodan, janjaldan eshitmak darkor.

Ana Marjon pari Go'ro'g'libekdan, Gulnor paridan javob so'radi. Tong otdi. Qarasa bir lakshar aylanib turibdi, nayzasi qo'liga olib. Buni ko'rib qizlar: «Yovning xarosati bo'lar», – deb bir aqlini boy berdi. Gulnor pari aytdi:

– Qo'rqmanglar, shu lashkar hammangning xizmat-koring! Xafa bo'lmanglar, oyimingga posboni turur! – dedi.

¹ Jirimoq – ko'ngilga urmoq, bezmoq.

Ana endi diljaxamchilik¹ bo'ldi. Besh yuz suluv qizlar maslahat qildi. «Ming joning bo'lsa bu beklardan omon-eson qu-tulmaysan», — dedi. Bir yaxshi-yaxshisiga tegadigan hisobni maslahat qilaverdi. Ana endi Marjon pari Hindistonga ketdi. Tikka borib, Toy hindining oldiga yetdi. Ana shu Simin bilan Amin vazirning oldida, shu podsholiqda hamma amaldorlar tur-gan yerda, Marjon pari so'zdan aytaverdi:

Odam bitgan nari-beri yurisin,
Suvdan chiqqan baliq yerda chirisin!
Ko'rganimni aytib beray rostini,
Dod-faryod Gulnoring qurisin!

Chambilbeldan shoh Go'ro'g'li kelibdi,
Kelganini uyda turib bilibdi.
Ko'p lashkarman tog'ni bosib qolibdi,
Gulnor Go'ro'g'liman birga bo'libdi.

Hali Gulnor eldan chiqib ketibdi,
Qiz buloqda, qiz tomosha supada,
Qizing Go'ro'g'liman birga yotibdi.

Hindistonda, degan odam qizini,
Gulnoringni iyartib ketibdi.
Ko'rib keldim o'z ko'zimman podshohim.

Chinorming pastida jovhar supada,
Go'ro'g'liman ayqalashib yotibdi.
Hamma qizlar o'rtaliqda g'am tortib,
Tavaragin lashkar bosib yotibdi.
Ena xalqi qiz farzandni yig'maymi?
Ota davlatida kiyim kiymaymi?

Shunday bebosh bo'lib ketdi qizginang,
Ota-ena farzandini tiymaymi?

¹ Xotirjamlik.

Nima bo'lsa qilg'ulikni qip qo'ydi,
Aytadigan so'zning barin deb qo'ydi.
O'l-o'lguncha¹ ta'na bo'ldi yuziga,
Go'ro'g'libek Gulnorjonne op qo'ydi.

Xurush qipti Hindistonday yurtingga,
Ulug' podshom, dushman tushdi ortingga.
Besovchi opqo'ydi Go'ro'g'li podsho,
To o'lguncha isnod bo'ldi betingga.

Ko'plar men eshitib keldim so'zini,
Go'ro'g'lining ko'rdim o'yinbozini.
Bu qandaychang'i² rasvochilikdi,
Go'ro'g'li oldi Gulnorning o'zini?!

Soqibulbul qoyim sozin chertibdi,
Qorovul otin har yoqqa yo'rtibdi.

Dunyo kelar-ketarini bilmayin,
Go'ro'g'libek o'rtaga olib³ qizlarni,
Tog'da sayl qilib, o'ynab yotibdi.

Bo'y yetgan qizlaring o'zi boribdi,
O'rganishganday bo'p qayqayib turibdi.
Men senga rostini aystsam, podshohim,
Gulnor qizing baland tog'da turibdi.

Qurtday qaynab Go'ro'g'lining lashkari;
Qaytay qizlaringning bari boribdi.
Ixtiyor o'zingda endi podshohim.

Ana endi Amin hindi o'zidan ketdi. Simin muddaosiga
yetdi. Rost gapni Toy hindi eshitdi. Darrov Gulnorni so'ratdi.

¹ O'la-o'lguncha.

² Qanaqangi.

³ Qo'lyozmada: «o'rtag'olib».

«Yo‘g‘ ekan, rost ekan», – deb, odam kelib Toy hindiga aytdi.
Toy hindining g‘azabi o‘tday tutashib, dudi osmonga o‘rnab ketdi.

Ana endi Toy hindining kuyganidan dod deb aytayotgan so‘zi:

Simin vazir, Amin vazir kelinglar,
Voy, bu ishning daragida bo‘linglar!
Bu qanday gap, rost bo‘lsa vazirlar,
Go‘ro‘g‘lining ilojini qilinglar!

Har tarafdan askar jamlab kelinglar,
Yo o‘linglar, Go‘ro‘g‘lini olinglar!
Xo‘p qilgulik bachchag‘arga qilinglar!

Afg‘onning elidan qaytib o‘tibdi?
Qayerlarda shu ko‘ppak it yotibdi?
Bu ishning ilojin qiling vazirlar,
Qandaygina bizning elga yetibdi?

Satta nomdor hindilarni yig‘inglar¹,
Kelgan bo‘lsa ko‘kayini qiyinglar!

O‘ligin chosh qip o‘rtaga uyinglar,
Har shaharga bo‘lgan gapni yoyinglar!

Shuncha eldan qaytibgina o‘tibdi?
Malomatga qulqqinam bitibdi.

Amin bilan Simin, bering maslahat,
Shu enag‘ar qaytibgina² yetibdi?

Lashkar olib, atrofini olinglar,
Keskir qilich endi belga cholinglar!

¹ Qo‘lyozmada: «qiyinglar».

² Qanday qilib.

Adabini berib qo‘ying, xaloyiq,
Go‘shtlarini burda-burda qilinglar!

Har tarafga lashkar yig‘ib, xaloyiq,
Ko‘p lashkarni darrov to‘da qilinglar!

Tiriklayin Go‘ro‘g‘lini ushlanglar,
Ustdidan boringlar, kamand tashlanglar!

Bandi qiling katta-katta polvonni,
Uyog‘ining o‘ligini choshlanglar!

Olib kenglar podsholarning qizini,
O‘ngarilmasdayin qilgin o‘zini!

Sap polvonni yig‘ib keling vazirlar,
O‘yib tashlang turkmanlarning ko‘zini!
Fillarga yediring kelsa o‘zini!

Tanga-tilla Toy hindida farovon,
Birga bo‘lib ketgan bo‘lsa Gulnorjon,
Vaqtida lashkar yig‘inglar elatdan,
G‘ayrat qiling Simin bilan Aminjon!

Nog‘ora, surnay, karnaylar tortilsin!
Chin polvonning shirin joni sotilsin!
Girishini¹ sozlab oling sar yoyning²,
Kamon o‘qi dushmanlarga otilsin!
Peshonada har gap bo‘lsa bitilsin!

Nog‘oraman³ karnaylarni qo‘ydirdi,
Har shaharda dobilini tuydirdi!

¹ Girish – qirrasi, cheti. Yoning girishi yoyning tortiladigan qismi.

² Sar yoy (sarg‘ish yoy, sariyoy, saryoy) – pay bilan ishlangan yoy.

³ Nog‘ora bilan.

Achchig‘lanib u Toy hindi, yoronlar,
Milliard-milliard ko‘p hindini yig‘dirdi¹.

Aytaversin yo rost ekan, lof ekan,
Zo‘r hindiman², bejoy fili ko‘p ekan.

Go‘ro‘g‘libekka ot tortdi,
Urushda taniqliq bo‘ng deb,
Peshonasiga qizildan,
«Hindi-hindi» deb xat tortdi.

Og‘ir lashkar Hindistondan,
Qiz buloqqa chiqib ketdi.

G‘o‘ldiratib tillarini,
Tala-to‘p qip ellarini,
Go‘sht qip olib mollarini,

Gurkiratib minib oldi,
Zo‘r hindilar fillarini.

Go‘ro‘g‘li[ning] yo‘lin to‘sib,
Anjomini belga osib,
Birqillab hindi jo‘nadi,
Lashkar ketdi cho‘lni bosib.

Go‘ro‘g‘libekman g‘ash bo‘lib,
Har shahardan lashkar yetdi.

Hindi-hindiga duch bo‘lib,
Tug‘i-alamning³ ostida,
Toy hindi ketdi bosh bo‘lib.

¹ Qo‘lyozmada: «jiydirdi»

² Hindi bilan.

³ Alam – bayroq.

Tumshuqlarini to‘lg‘atdi¹,
Sixcha urib yelkasiga,
Fil bitganni gurkiratdi.

Fili qurg‘ur ildam ekan,
Sazonday bo‘lib hindilar,
Filni cho‘llarda xezlatdi.

Qiyomatdan yomon bo‘ldi,
Hindistonni tuman tutdi.

Yopp-yovlik hindi bitgan,
Qong‘ar tog‘iga yo‘l tortdi.

Urush bo‘lsa nayza sindi,
Soat o‘tgan qorong‘i tundi².
Filni minib, lo‘killatib,
G‘ayrat qildi satta hindi.

Ostida fillari o‘ynab,
Hindistondan chiqaverdi,
Hindi bitgan qurday qaynab.

Zaxchadayin chuldirashib,
Filni qistab haydashib,
Kelayapti hindi bitgan,
Bir-biriga g‘o‘ldirashib.

Yoyni yelkasiga osdi,
Go‘ro‘g‘li yo‘lini to‘sdi.
Tumshuqlarin qimillatib,
Qo‘sish keldi dasta-dasta,
Hindilar toqqa tarmashdi.

¹ To‘lg‘amoq – siltamoq.

² ⁵⁹ Qo‘lyozmada: «qorong‘tundi», qorong‘u tun edi deb o‘qilsin.

Ana endi gapni Sahmondan eshitmak kerak. Asta yerga qulq soldi. Lashkarni bildi. Sahmon polvon:

— Voh-hu... Xudoy urib qolibdi, — dedi.

Hamma hang-u mang bo'ldi. «Nima gap, nima gap?» — dedi.

Ana Sahmon polvon Go'ro'g'libekka, Shodmonbek, Xoldor mahramga, Ahmadbek, Temirxonga qarab, bir so'z ayta-yapti:

Hay attang bizlar qorovul qo'ymabmiz,
Qizib ketib dasturxonni yig'mabmiz.

Urush anjom-asbobini kiymabmiz,
Choh bo'lgin, deb navkarlarni yig'mabmiz.

Temirxon, ishimiz qiyin bo'libdi,
Hay attang, zo'r talab bo'p qolibdi.

Darrov mining bedovlarni Xoldorjon,
Hindi bitgan toqqa kelib qolibdi.
Pak bo'lmasa girdimizni olibdi.
Darrov chaqqon bo'ling jami o'g'lonlar,
Tez-tez bo'nglar, ishlar qiyin bo'libdi.

Har atrofni haybat, hasham tutibdi,
Yer yuzini bildim lashkar tutibdi.

Yer qimirlab, tog' tebranib boradi,
Yaqinlab pak¹ oldimizga yetibdi.

Avliyo Soqibek sozni chalibdi,
Darrov otlan, bu ish qiyin bo'libdi!

Gurkiraydi bir narsaning dovushi,
Darrov choq bo'ng, dushman yaqin kelibdi!

¹ Naq.

Yaratganim judolikni solmasin,
Qaytayin dushmandan bitta qolmasin!

Chin sidqidil otga mining sardorlar,
Bu qizlarni o'rtaga olib¹ kurchalang²,
G'ayrat qinglar, sanam qizlar o'lmasin!

Dushman kepti o'qni, to'pni otadi,
Hech bilmaysiz quloq chippa bitadi.
Minib oling satta to'qol yol otni,
Yer yuzini haybat, hasham tutadi!

Ko'lga borgan otib kelar g'ozlarni,
Lashkar tutib qopti qulo tuzlarni.

Hasanxonni qo'ying majlisga bosh qip,
Yaxshi asrang mana mehmon qizlarni;
G'ayrat qing sardorlar, qizlar o'lmasin!

Qo'rroqlar chaqirdi sap haybatini,
Aytolmaydi yuragida dardini.

Botirlari sherdai bo'lib gurkirab,
Beliga boyladи chin po'latini.

Irg'ib-irg'ib mindi otning beliga,
Po'pakli nayzani oldi qo'liga.

Otam, deb yod etdi hazrat Dovudni,
Ish taraflab, kiydi sovut-movutni.

Tomosha aylang yo'lbarslarning ishiga,
Qalqonni egnidan taqib zab erlar,
Chor oyna dubulg'a ildi boshiga.

¹ Qo'lyozmada: «o'rtag'olib».

² Kurchalamoq – himoya qilmoq, panalamoq.

Botirlarning cho'rtta ko'ngli taxt bo'ldi,
Kunning o'zi ayni choshka vaqt bo'ldi.

Tuyg'unday tolpinib satta eramat¹,
Hamma briday urushmoqqa choq bo'ldi.

Cho'l titrabdi fillarning dovushiga,
Tomosha aylang Toy hindining ishiga.

Go'ro'g'libek, yuringlar oyimlar, deb,
Otlarga mindirib, qo'ltiqdan suyab,
Bir qo'liman² jilovini yetalab,
Olib chiqdi Qizbuloqning ustiga.

Qo'shin to'lib Qong'ar tog'ning toshiga,
Polvon yetar taraflarin boshiga.

Yuringlar, deb satta semiz qizlarni,
Olib chiqdi Qong'ar tog'ning boshiga.

Go'ro'g'libek qizlarni Qong'ar tog'ning boshiga olib
chiqb qo'yib, xo'p ehtiyyot qilib, Gulnorjonga qarab, xo'p nasi-
hatlar qilib, bir so'z aytaverdi:

Urushda qilichlar bo'lar qo'chqil³ qon,
Olis qolib ketdi Chambilday makon.
Sendan boshqa menda oshna bo'lmasa,
Qizlarga ehtiyyot bo'lgin Gulnorjon!

Hindi bitgan kelayapti izimdan,
To o'lguncha jangilmayman⁴ so'zimdan,
Qiziqishib bizlar urushib qolsak,
Xabardor bo'l, ko'zginangdan, o'zimdan!

¹ Eramat – mardlar.

² Qo'li bilan.

³ Qo'chqil – to'q qizil.

⁴ Jangilmoq – qaytmoq, tonmoq.

Meni qilma bundan bu yoqqa intizor,
Musofirman, sen o'zing bo'lgin rahbar!

Oralab sancharman hindi zo'rini,
Gulnorxon, ovqatdan bo'lgin boxabar!

Qaddingdan, beklarning vaqtin xushlagin,
Urushdan kelganda barmoq tishlagin!

Charchab-horib beklar kelsa maydondan,
Hormanglar, deb otlarini ushlagin!

Seni qildik elning, molning egasi,
Kelgancha ovqatni mo'l qip choshlagin!

Qoboq uyib el dimog'in kuydirma,
Xafa qilib ko'kayini qiydirma!

O'zing bo'lding shu beklarning egasi,
Yaxshi-yomon gapni asti dedirma!

Bandi bo'g'ining bo'shlab turgin,
Dasturxonlar tashlab turgin!

O'zbek xalqi ko'tarmadi,
Urushdan kelganda barini,
Juda vaqtin xushlab turgin!

Hoy balli, yo'lbarslar, deb,
Sardorlarning, kattalarning,
Otlarini ushlab turgin!

Hindilardan qo'rqmanglar, de,
Tildan odam sher bo'ladi,
Urushga ketar vaqtida,
Dushmanlardan qo'rqmanglar, de!

Ko‘plar vaqtini xushlagin;
Urushdan beklar kelganda,
Qon to‘kkan yo‘lbarslar, deb,
Salom berib, chopib chiqib,
Bedov otlarin ushlagin!

Katta yarashni qilguncha,
Otni tinmayin jilguncha,
Xizmat qilgin chin sidqidil,
Shu urush tamom bo‘lguncha!

O‘zing bo‘l beklar sohibi,
Sen Go‘ro‘g‘lining zaifi!
Xizmat qilsang, yo‘q ayibi,
Men podshoman, sen vazirsan,
O‘zing podshoning noibi.
Hukumat yurgizib turgin!

Qizlarga nasihat qilib,
Ketib qolmasin barisi,
Yuzcha odam bunda olib,
Ketay desa dabdaba qip,
Hammasin yotqizib turgin!

Asbatlab turgin qizlarni;
Sen noibsan, men podshoman,
Ishingga ehtirot bo‘lgin!

Ana endi Gulnor pari, hamma qizlar qarasa, yigit g‘o‘chchoq, nayzasida gulgun chaq-chaq, barzuday hay’at qip, Sahmon polvon mast tuyaday gurkirab, yer yuzini yugurib, yeladigan choqqa yetibdi. Bularni ko‘rib, Gulnor parining ko‘ziga hindi bitgan chivincha ko‘rinmay qoldi.

Gulnor parining chin sidqidil bir so‘z aytishini ko‘ring:

Sizga qarab, ko‘nglim qaynab, jo‘sh urdim,
Otlaringiz izlariga bosh urdim.

Oq yuzli, obro‘li bo‘ling har joyda,
Tavakkal deng, bugun kiring maydonga,
Hammangizni zo‘r xudoyma topshirdim!

Oqshom bo‘lsa men qorovul, g‘am yemang,
Oqshomliqqa tog‘ boshida turinglar!
Chambildagidayin bo‘lib yuringlar!
Boring beklar, zo‘r xudoyma topshirdim!

Nomozgarda bunda kelib yotinglar,
Ne ovqat pishiray, menga aytninglar?!

Hech kimni yubormay tinmay urushing,
Dobil tuyib kun por-pora qaytinglar!

Bemahalga qolmang asti bir vaqtı,
Kech qolsangız namozshomga yetinglar!

Nima bo‘lsam sizlar bilan bo‘layin,
Namozshomda, namozgarda kelinglar!
Fil yomondir, filga ehtiyyot bo‘linglar!

Tomosha aylang Gulnorning himmatiga,
Erkaklardan ko‘p bo‘lgan g‘ayratiga.

Sap o‘ralib yurgan ko‘p suluv qizlar,
Duo qip fotiha tortdi betiga.

Hamma qoyil bo‘ldi Gulnor so‘ziga,
Amin taraf Go‘ro‘g‘lining o‘ziga.
Suluv qizlar omin deyishib hammasi,
Omin, deb fotiha tortdi yuziga.

Lashkar to‘lgan tog‘ning baland-pastiga,
Hindi kelayotir polvon qasdigiga.
G‘irko‘k otni kiyikday qip o‘ynatib,

Go‘ro‘g‘libek budoq-budoq¹ qo‘shinman,
Chiqib oldi tog‘ning taqtı ustiga..

Ana endi shu Go‘ro‘g‘libek yuz yetmish uch tug‘-alamni yalpillatdi. Yuz yetmish uch tug‘-alamni ko‘rib, Hindiston podshosining ko‘zi manglayiga chiqib ketdi. Toqqa kelayotgan qo‘shinni to‘xtatdi.

Aytdi:

– Hoy, qo‘y, Simin, bir balosi bo‘lmasa shundan shunga keladimi? – dedi.

Ana endi bular shu yerda turaversin. Bir yaxshi gapning Hindistondan kelishini ko‘ring. Marjon pari o‘pkasi pishib, terlab ko‘ylak badaniga tarmashib: «Salom alaykum», – deb, Go‘ro‘g‘libekning oldiga borib ta‘zim qildi. Ana Marjon pari Go‘ro‘g‘libekka qarab bir so‘z aytaverdi:

Katta podshohdir Hindiston,
Bo‘lg‘aysiz hammangiz omon!
Otamizga qaragani –
Ko‘p odam sizlarga tan.

Hammani dushman bilmanglar
Urushga kirganlaringga!
Peshonasida xati bor,
Toy hindi degan oti bor.

Xatlisiga xanjar soling,
Xatsizini o‘ldirmanglar,
Ehtiyyot bo‘ling, akajon!

Xatsizining vaqtin xushlang,
Xatlisini chopib tashlang!
Bizni deganing ayril, deb,
Buguncha urush boshlang.

¹ Baydoq-baydoq – baydoq-baydoq – to‘da-to‘da, to‘p-to‘p.

Pishadi tog‘ning bodomi,
Yaxshining hech yo‘qdi g‘ami.
Xatsizlari fuqarodir,
Xatsizi otam odami.

Hindilarga qasd bo‘lgandi,
Katta daraxt past bo‘lgandi.
Simin otam sizing bilan
G‘oyibona do‘st bo‘lgandi.

Xatsizini tiqsamanglar¹,
Xatlisin chopib tashlanglar!
Botirning mingani piroq²,
O‘lmaslikdan bormi darak?

Simin otam sizga kerak,
Hindistondan op kep berar,
Hammangizga yaxshi yarog‘.

O‘lganning yo‘qdir foydasi,
Otam do‘stdir sizga kerak.

Xatsizini hech o‘ldirmang,
Xatlisiga soling yarog‘.
Tinmay otni jildiringlar!

Fil degan bir zo‘r narsadir,
O‘zi kuchli o‘r³ narsadir,

Aralashib qolsangizlar,
Dudamani qo‘lga olib,
Toq qorindan suqib oling!

¹ Tiqsamoq (tig‘ solmoq) – o‘ldirmoq.

² Piroq – buroq – tulpor.

³ O‘r – qaysar, o‘jar.

Andan kay¹ bo‘lar iloji,
Yetmaydi sizlarga kuchi.

Toy hindining tushib ketar,
Boshidan podsholik toji.
Avval filin o‘ldiringlar!

Xatlisini chopib tashlang,
Xatsizining vaqtin xushlang!

Otam sizni tanib qo‘yar,
Xon otamga duch kelsangiz,
Kulibgina labni tishlang!

Xati borini so‘yinglar,
Xatsizi sizlarning tani,
Hargiz xatsizin qo‘yinglar!

Alami bo‘lsin ziyoda,
Vahim tortmayik dunyoda,

Fil bitganni o‘ldiringlar
Toy hindi bo‘lsin piyoda!

Hindining aqli shoshar,
Botirning yuragi toshar.
Zo‘rlik qilay desa hindi,
Uyat-suyatlarni qo‘yib,
Xon otam sizga bo‘lishar.

Ko‘rarsiz so‘ngra qiziqni,
Hindiston eli buzuqdi.
Oshna-bilish bo‘layin, deb,
Otam sizning bilan, shohim,
Gaplashuvga qiziqdi.

¹ Undan keyin.

Ana endi Go'ro'g'libek:

— Barakallo, eson-omon hindilardan obro' topsam, seni Shodmon menganimga olib bermasam bo'lmas, — dedi. Ana Go'ro'g'libek Marjon pariga qarab bir gap aytayapti, ko'tar-malab:

Ota-enangga sallamno¹,
Qipti otang seni mullo,
Otga-enangga sallamno!

Gaplaringdan ko'nglim to'ldi,
Seni Razzoq yo'lga soldi,
Otang biziman do'st bo'ldi,
Enang qaytib mullo qildi,
O'zginangni tillo qildi?

Aytgan so'zingga sallamno!
Xafa bo'lma, kelin bo'lding
Qoshi ko'zingga sallamno!

O'zingga Shodmonbek banda,
Yaxshi so'z op kelding bunda.

Qilma bizlarni sharmanda,
Aytgan tilingga sallamno!

O'lmay borsam turkman elga,
To'ylar qilayin benahat.
Gapirgan gapingga sallamno!

Shodmon xizmatkor o'zingga,
Roziman aytgan so'zingga.
Joni bandadir ko'zingga,
Sening aqlingga sallamno!

¹ Sallamno — balli, ofarin, tasanno.

Otaman enang o'lmasin,
Qipti o'zginangni mullo,
Bosgan izingga sallamno!

Xo'p tahlik¹ bo'lganingga,
Yaxshi xatni olganingga,
Necha maqom gaplar bilan,
Rahmat, bunda kelganingga,
Bosgan izingga sallamno!

Martabangiz ziyod bo'ldi,
Gapingizdan ko'nglim to'ldi.
Egam sizni yo'lga soldi,
Shodmonbek xizmatkor bo'ldi,
Sening eringga sallamno!

Xo'p yaxshi so'zlarni aytding,
Hamma odamni balqitding.
Har bir xolingga sallamno!
Labda bolingga sallamno!

Ana endi Marjon pari ko'ylagiga sig'may guppayib² ketdi.

Ana Shodmonbekkina o'zi yov yurakkina, soqoli torpoqqina³, urugi barlos, o'zi juda sipoyidan⁴ kelgan, o'zi juda choqqina, Go'ro'g'libekdan rozi bo'lib, urushga yo'lbarsday talpindi. Shu qo'shinni tog'-tog'iga har tarafga to'zitib ot chop-tirdi, tug'i-alamni yaltillatib Hindiston podshosining ko'ziga har qaysisi ming odamday ko'rindi.

Shunda Go'ro'g'libek nazar tutib qaradi. Hamma qo'-shin ham qaradi. Shunday qarasa, shu tog'larning ostida fillarni gurkiratib, yelkalarini qonatib bir hindi yuribdi. Fillar bulutday gurkirab turibdi. Bir, hindi chiqib kelayapti xuddi qumursqaday

¹ Tahlika.

² Guppatoymoq – kekkaymoq.

³ Torpoq – siyrak.

⁴ Sipo, kamtar.

yoyilib.

Bu tog'ning boshidagi tug'i alamni ko'rib, Hindiston podshosi lashkarni to'xtatdi. Bir chaqirim keyin qaytdi. Borib saf tortdi. Ana endi Hindiston podshosining qo'shini saf tortib turaversin, endi Go'ro'g'libekdan eshitmoq kerak gapni.

Ana endi Go'ro'g'libek turdi, tavakkal, deb. Ana Soqibulbul avval Go'ro'g'libekka, turgan hamma ko'ngilli xalqqa bir so'z aytaverdi:

Ketin qaytdi g'am tortmanglar,
Yak dil-a bo'lib ot qo'ying,
O'laman deb g'am tortmanglar!

Ketin qaytib naqd bo'p turdi,
Yarmisi qiyshayib qoldi.

Tug'-baydog'i boshqa bo'ldi,
Bir chekkasi qashqa bo'ldi.

Zafar o'zimizga keldi,
Ko'ngil to'q bo'lib ot qo'ying!

Toy hindidan davron o'tdi,
Yuragi arosot olib,
Qo'rqib o'zi ketin qaytdi,
Zafar Go'ro'g'liga yetdi.

Bosim Go'ro'g'li davlati,
Qiling endi qiyomatni!

Qo'rmanglar davlat bizniki,
Hindistonning poytaxti,
Gulnordayin qizniki.

Yoppa-yovlik aralashing,
Qo'rmanglar, navbat sizniki!

Soqibulbul qarab bildi,
Har joyda ajalli o'ldi.
Ajal yetmasa o'lmaydi.

Hindiston qo'shinining
Yarmini ko'ngli bo'lak bo'ldi,
Xayolini boshqa qildi,
Qo'rwmang, davron bizga bo'ldi!

O'laman deb hech tortmang g'am!
O'lmayin qolmas hech odam.
Ot qo'ying darrov dam-badam!

O'zimizga qarab ketar,
Tug'i qashqa, ko'ngli boshqa,
Ko'mak beradi ko'p odam,
Qo'rwmanglar, davlat bizniki!

Ana endi Go'ro'g'libek:

– Barakallo, Soqibulbul, yigitlarni yo'lbarsday qilishga keltirding, – dedi. Ana endi Go'ro'g'libek qo'shiniga qarab bir so'z aytaverdi:

Buldirab¹ yotgan Hindiston,
Ostingizda bedov hayvon,
Kelding hindining qastiga,
Jonni sotinglar, Sahmonjon!

O'rtanmagay ustixonim,
Tog'da bor Gulnorday jonim.
Tomoshalar ko'rsin qizlar,
Bosh kesinglar, Xoldor jonim!

Ko'zidan ko'zlab otgaysan,
Yoy tortgin, Shodmon merganim!

¹ Buldiramoq – qimirlamoq.

Qiyshaytirmay tug‘ni ushlang,
Tog‘aginam, Ahmad jonim!

Hangoma qip vaqtin xushlang,
Beklar maydonga ketganda,
Har tarafdan dushman tushsa,
Qimirlatmay tug‘ni ushlang!

Qimirlasa beklar bo‘shar,
Qo‘rroqlari o‘ldik, deyishar.

Nomard qochib yo‘lga tushar,
Bir nechalar to‘xta deyishar.

Ketkazmayin ushlang tug‘ni,
Boxabar bo‘ling, tog‘ajon!

Baland tog‘ boshida turgin,
Qizlar bilan tomosha qip,
Rahmat deb turgin, Hasanjon!

Hindi keldi qulo tuzdan,
Ma‘ni chiqar aytgan so‘zdan.

Sherday bo‘lib hindilarning
O‘ligini ortmoq bizdan.

Qo‘rqmang, qo‘rqmang satta beklar,
G‘ayrat tilayman men sizdan.
Hindini qaddini buking,
Bir kam o‘ttiz bo‘lak bo‘lib,
To‘p bo‘lib hindiga teging!

Hech qaytmasin sheramatlar,
Otlarning boshini qo‘ying!
Podshongning ko‘nglini toping!

Bo'ri qo'yga tekkanday bo'p,
Bir kam o'ttizing har joydan,
Tikka hindilarga chopping!

Har tarafga quvib suring,
Fillarning qornini yoring!

Gulnorjon qo'y degunicha,
Hindi bitganlarni qiring!
Eliga qaytarib suring!

Turkman elning sheramati,
Satta birday vallamati,
Ot qo'ying turkman jallodi,
Kelding Hindiston ustiga!

Surib sanching, tinmay qiring,
Ot qo'y Toy hindi qasdiga!
Qistab chopib yo'lin to'sing,
O'stirmay izini bosing!

Kallasini do'ldayin kesing!
Kelding Toy hindi qasdiga!

Ko'zim chiqdi ot qo'yinglar,
Gala hindining ustiga!

Ana endi Go'ro'g'libek lashkarni bir kam o'ttiz qilib bo'ldi¹. Shu otlarning bo'yniga ro'mol boylatdi. Ro'molga Go'ro'g'libekning otini bitdi. Go'ro'g'libek jo'natdi endi qo'-shinni. Bir kam o'ttiz sardorni lashkar[boshi] qilib, Go'ro'g'libek yuragi oshday qaynab, bir so'z aytayapti:

Tomosha qip Gulnor parim,
Yo'qdir mening ixtiyorim,

¹ Taqsimladi ma'nosida.

Mullaning qo‘lida qalam,
Ko‘tarildi tug‘i-alam.

Yuragimdan ketgay cherlar
Qop-qora chuykab hindilar.

Beklarni pastga tushirdim,
Hindi ko‘p, aqlim shoshirdim.

Beklarimni, qo‘shinimni,
Avval haqqa Hazrat odam,
Jam‘i pirlarga topshirdim.

Xon Go‘ro‘g‘li tog‘dan endi,
Pastga qarab beklar do‘ndi.

Zaxchadayin charqillashib
Qora qo‘ng‘izday g‘unqillab,
Shovqin soldi satta hindi.

Endi bular ketaversin. Toy hindidan to‘rt og‘iz so‘z
eshitmak darkor.

Toy hindi, dod deb bir so‘z aytaverdi Amin, Siminga
qarab:

Go‘ro‘g‘li keldi begumon,
O‘rtada qoldi Gulnorjon.
Haqlanglar bergen tuzimni!
Bachchag‘arlar o‘rtaga olib,
Berkitdi Gulnor qizimni.
Simin bilan Amin vazir,
Buytibgina¹ yurganimdan,
O‘lmaklik menga lozimdi.

Hech qaytmasdan urishinglar,

¹ Bunday qilib.

Tuyaday bo‘p surishinglar,
Haqlanglar oshi tuzimni!

Xayollaring buzuq bo‘lsa,
Chopib tashlanglar o‘zimni!

Keldi-keldi, ot qo‘y, deydi,
So‘ylatdi podsho tilini,
Berdi Qizbuloq gulini.

Amin vazir tamligiman,
Gurkiratishib filini,
G‘ubor op hindi elini.

Toy hindi ot qo‘y, deydi,
Usta bo‘pti chappa qiliqqa.
Jildirishib qistayverdi,
Haydadi hindi filini.

Boshdan tug‘ni qilgan qashqa,
Lashkar changib tog‘da, dashtda,
Ot qo‘yishib kelayapti,
Simin vazir bo‘ldi boshqa.

Lashkar qaynab ketdi dashtda,
Yulduz uchgandayin bo‘ldi,
Arvoq ko‘chgandayin bo‘ldi.
Hamma podsho nazarkarda;
Toy hindining xayolida
Lashkari qochgandayin bo‘ldi.

Osmondan ajal yetdi,
Fillarni gurkiratdi.
Amin vazir g‘ayrat qip.
Ot qo‘y, ot qo‘y, deyishib,
Go‘ro‘g‘li lashkariga,
Fillari chopib ketdi.

Simin vazir g‘ayrat qip,
Ot qo‘ygin Aminjon, deb,
Aminning yonboshiga
Bul Simin chopib yetdi.

Katta gurzi garonman,
Aminning bilagiga,
Labin tishlab, kuch tugib,
Bir solib, qistab o‘tdi.

Amin ancha boridi,
Bejoy katta polvondi.
O‘zi bejoy zo‘ridi.

Hindistonday el bo‘ldi,
So‘ylagani til bo‘ldi.
Amin hindi attang deb,
Qo‘lginasi shol bo‘ldi.

Qo‘lidagi anjomni
Shaldirab tushib qoldi.

Bilagi singandan kay,
Behush bo‘lib filidan,
Hamma yer qop-qora bo‘p,
Esankirab yiqildi.

Toy hindi ko‘rdi-da
Og‘zidan ko‘pik ketib,
Bu Siminga g‘ayrat qip,
Qilich havola qildi.

Go‘ro‘g‘libek shu holda
G‘irko‘k otni o‘ynatib,
Yashinday qip jaynatib,
To‘xta-to‘xta hindi deb,
Chopar edi Siminni,

O'z ko'ziman ko'rdi-da,
Podshoh oldiga o'tdi.

Jon degani ko'p shirin,
Hindi o'zin to'xtatdi.
Hamma yerni dud tutdi,
Osmonga chiqib ketdi.

Go'ro'g'lining lashkari,
Bir kam o'ttiz kamardan,
Lo'p-lo'nda bo'p ot qo'yib,
Hindiga oralab¹ ketdi.

Qiyomatdayin bo'ldi,
Isroyil sur² tortganday,
Ayyish-uyqish bo'lishib,
Hindilarman turkmanlar,
Yashin oqqanday bo'lib,
Yomon urushlar bo'ldi.

Ot qo'y, ot qo'y, deyishdi,
Miltiqlar zarqillashdi.
Gurzilar boshga tegib,
Bulutday gurkirashdi.
Toza qizib ketibdi,
Tanimayin bir-birin,
Nayzani uzatibdi.

Bejoyin ko'pdi odam,
To'p-to'p bo'p, to'da bo'lib,
Ushla, ushla, deyishib,
To'balashib yotibdi.

¹ Qo'lyozmada: «Hindigoralab».

² Isrofil (Isroyil) burg'usi (suri) – Isrofil islomda to'rt bosh farishtadan biri (Azroil, Jabroil, Mikoil bilan birga). Qur'onda aytilishicha, qiyomat kuni Isrofil farishta karnay (burg'u, sur) chaladi.

Fil bitgan gurkirashdi,
Qo‘rqlarning qoni qochdi.

O‘lik bitgan chalkashdi,
Oyog‘i dingillashdi.

Joni chiqqan o‘liklar,
O‘lgani uzalishdi.
Turkmanlarman hindilar,
Bir-biriga tegishdi.

O‘z-o‘zini ayril deb,
Gala-gala yetishdi.

Dovruq olib hammasi,
Ro‘baru o‘mganlashdi¹.
Qirilib uyanishdi.

Qo‘yamoq qo‘ltiq bo‘lib²,
Nayzani yig‘ib qo‘yib,
Qirchillatib chopishdi.

Ajal osmondan kelib,
Odamzodga yopishdi.

Tepinishdi otlari,
Odamning ko‘magida,
O‘qib bilib xatlarni,
Endi o‘rganib qolib,
Hindilarman Go‘ro‘g‘li,
Dangal turib chopishdi.

O‘liklar gupday hishdi.

¹ O‘mgan – ko‘krak. O‘mganlatmoq – otmi ko‘kraklatib sakratmoq, balandlikka qarab tik solmoq.

² Qo‘yama qo‘ltiq olmoq – quchoqlashib kurashmoq.

Odamning ko‘pligiga,
Dami ichiga tushdi.

Bo‘riday bo‘p chopinib¹,
Ot qo‘yadi sap o‘g‘lon,
Otam o‘lmasin, deydi.

Qong‘ar tog‘ning boshida,
Tomosha qip Gulnorjon.

Laylak yutag‘onday bo‘p,
O‘lik qoldi chaykashib,
Daraxt butaganday bo‘p
Sap botirlar jon sotdi,
Ot ichiga chang ketdi.

Go‘ro‘g‘libek g‘ayrat qip,
To‘p-to‘piga yo‘lbarsday,
Mast bo‘p ketgan sherdai bo‘p,
Bedov ustida hindini,
Toshday qip to‘lg‘ab otdi.

Temirxonjon, Xoldorjon,
Polvonini ko‘zlaydi.

Hay balli Shodmon mergan,
Ot qo‘yadi to‘p-to‘pga.
Sahmon bilan Xoldorxon,
Toqdi² bir kun urushdi,
Kalla sholg‘omday uchdi,
Namozdigar³ bo‘lganda,
Cho‘rtta tanglay quvrashdi.

¹ Chopinmoq (chobinmoq) – hujum qilmoq.

² Tag‘in-da.

³ Ikkinch namoz vaqtı.

O'lik to'ldi Qong'ar tog'ning dashtiga,
Hayvon kelar o'lganlarning go'shtiga.

Gulnor pari, satta turgan suluvlar,
Qoyil bo'ldi Go'ro'g'lining ishiga.

Ayril karnay tortib endi Toy hindi,
O'liklarni ko'rib behush bo'p ketdi.

Ahmadbek ham «ayril» deb karnay tortdi,
Tuqqa qarab Go'ro'g'libek boshladni,
Go'ro'g'lini ko'rib endi qo'shini,
«Ayriling», deb vaqtlarini xushladi.

Simin vazir qo'shilmay hech qaysiga,
Tog'ning tumshug'ida odamlariman,
Borib bo'lak o'zi bir qo'sh¹ tashladi.

O'lganlarga rahmat, jonini sotdi,
Hammasin mingani dol bedov otdi.
Ot teriga changlar qotib yoronlar,
Toy hindi qo'shiniman ayrilib,
Ham qizidan, ham Simindan ayrilib,
Namozdigar ketiga qarab qaytdi.

Toy hindining dardi dardga ularshdi,
Jingak bo'lib juda ranglari o'chdi.
O'z kuygani o'ziga yetmayin,
Yarim tosh ketinga Toy hindi tushdi.

Go'ro'g'libek bir Olloni yod etdi,
Tug' boshi Ahmadbek tug'in tikka qip,
Qong'ar toqqa qarab Sahmonjon qaytdi.

¹ Qo'sh – safar, sayohat va urush vaqtida vaqtincha qo'nish joyi; qarorgoh.

Jana¹ mayda yomg‘ir yog‘sa toyrildi,
Toy hindining yuraklari moyrildi.
Bir kam o‘ttiz sardor o‘z odamiman²,
Tartib bilan bo‘lak-bo‘lak ayrıldi.

Qizlar tomosha qip beklar ishiga,
Turna-g‘ajir qo‘ndi o‘lik go‘shtiga.

Kelayotir Gulnorjonning qoshiga.
Maslahat chiqadi esli o‘yidan,
Qorni to‘yar sax³ odamning uyidan.
Go‘ro‘g‘libek ot o‘ynatib keladi,
Gulnor pari uchib turdi joyidan.

Ro‘molini pirillatib boshida,
O‘sma qo‘ygan bari qalam qoshiga.
«Assalom alaykum, jami beklar», – deb,
Besh yuz qiz chiqdi beklarning qoshiga.

Barakallo, o‘limagin sanamlar, deb,
Go‘ro‘g‘libek, kuldil sardor, Sahmonjon,
Rozi bo‘ldi bu qizlarning ishiga.

Yetimlik bolaning ko‘zin o‘yadi,
Befarzandning o‘tgan kuni zoyadi.
Gulnor pari Go‘ro‘g‘lini hormang, deb,
Bir qo‘liman⁴ jilovini yetaklab,
Bir qo‘liman qo‘ltig‘idan suyadi.

Marjon pari ishdan vaqtin xushladi,
Ko‘p uyalib, lablarini tishladi.
Nimkalasoz salom berib Oymarjon,
Shodmonjonning otginasin ushladi.

¹ Jana – qiya.

² Odami bilan.

³ Saxyi.

⁴ Qo‘li bilan.

Chiqib edi baland cho'qqi boshiga,
Ko'ngli to'lgan bu beklarning ishiga.
Go'ro'g'liga salom berib bek Hasan,
Chopib bordi Sahmon polvon qoshiga.

Qo'rqlmaydi Sahmon zo'r hech bitta zo'rdan,
Rozi bo'ldi cho'rtta bu Hasanxon dan.
Xizmat qip Gulnor yuragin hishirdi,
Go'ro'g'lini necha tartiblar bilan,
«Polvon», – deb G'irko'k otdan tushirdi.

Go'ro'g'lining juda ko'nglin xushladi,
Yonboshiga yostiq qo'yib oy Gulnor,
Qavat-qavat ko'rpalardan tashladi.

Choponining yengidan muqomman¹ ushlab,
Shunday yechib, past-past shohga tashladi.

Yomonlardan aytmay, sirmi yashirdi,
Xizmat qilib jami turgan qo'shinni,
Barakallo, endi otdan tushirdi.

Ana endi, hamma beklar Gulnorjondan ko'ngli to'ldi.
Changlarini yuvishib, qonlarini yuvishib, otlarningsovugi tu-
shib, terlarini qashlashib, hammasi Gulnor paridan bejoy rozi
bo'ldi. Judagina ko'ngli to'ldi. Shuytib turib edi, ming filda,
ovqat, arpa, besh ming otda nscha turli ovqatdan Simindan tortiq
yetdi. Ana Marjon pari tortiq olib kelgan otasining mahram-
bachchasi bilan Go'ro'g'libekning oldiga borib, qo'lini ko'krat-
giga olib, taltayib, kallasini xam qilib, Go'ro'g'libekka qarab, bir
so'z aytaverdi:

Assalom alaykum, Chambil podshohi,
Sizga ko'mak keldi Hindiston eldan.

¹ Muqom bilan.

Jonimni beklarga qilayin qurban,
Sizga tortiq yetdi Simin otamdan.
Taqsiro, bo'lg'aysiz otamdan xursand!

Hindilarman¹ kecha-kunduz qasd bo'lgan.
Xon otamning baland tog'i past bo'lgan,
Sizga ixlos qilib tortiq beribdi,
Sizi bilan otam cho'rtta do'st bo'lgan.

Yuragidan siz ketkaring motamni,
Xudoyim elatdan ko'tarsin g'amni!
Shuncha tortiq, in'om-ehson kelibdi,
Aytib kelayinmi borib otamni?

Yurtdan yurt ketsa mehnat,
Yurtga el qo'shilsa davlat,
Borib obod qilsam xonadonimni,
Hech narsadan parvo qilmang podshohim,
Aytib kelayinmi otajonimni?

To o'lguncha sizga xizmat qilayin,
Kallangizni etaklarga solayin.

Podshohim, maslahat nima bo'ladi,
Otamizni borib aytib kelayin!?

Hindistondan bo'ldi sizlarga hamdam,
Sizman² yurgan odamda yo'qdi hech g'am.

Otajonginamni aytib kelayin,
Sizga do'stdir, otam ko'p yaxshi odam.

Do'stlik gap chiqadi otamning tilidan,
Hech ish kelmas kam g'ayratning qo'lidan.

¹ Hindilar bilan.

² Siz bilan.

Ham yaxshilik, ham yomonlik keladi,
Ko'p ish kelar Simin otam qo'lidan.

Shunda:

– Oxir seni bir elga hokim qilaman, – dedi Go'ro'g'libek,
– el qurimasa, er qurimaydi. Ot yo'q bo'lmasa tulpor qurimaydi.
Ko'p xizmatlar qilding. Endi sendan rozi bo'ldik. Endi sen bor,
cho'richog'im¹. Sen o'z farog'atingni de! Gulnorjonga dasturxon
yozib, hamma qizlarga bakovul² bo'lgin! Men odam yuborib,
otangni aytib keltirayin, – dedi.

Marjon pari kelib qizlarga:

– Bakovullik amal tegdi [– dedi]. Ana endi Go'ro'g'libek,
Temirxon, Ahmad sardor tog'asiga, Sahmon polvon, Xol-
dorga bir so'z aytaverdi:

Hammang satta shersan, yoldor bo'risan,
Har bittangiz shu yig'inning zo'risan.
Yaxshi in'om, yaxshi anjom kelgandi,
Simin do'stginama³ qaysing borasan?

Urush kuni ot yolini o'rasan,
Satta beklar, azamatlar, qaysarlar,
Do'stginama qaysing borib kelasan?

Bir kun maydon kirib, charchab qolibsan...
Satta sherlar, sap yoldor bo'rilarim,
Qaysiginang bormoqliqqa tolibsan⁴?

Majlis kuni hammaginang balosan,
Yov bo'lsa dushmanman shuyxo qilasan,
Sap qoplon sifatli, sher yurakligim,
Qo'rqlmay, pusmay qaysing borib kelasan?

¹ Cho'richog' – farzand, dilband, erkatoy.

² Bakovul – to'yxonada taom yoxud sarpoylarning taqsimlanishini nazorat qilib turuvchi mas'ul kishi.

³ Do'stginama.

⁴ Talabgorsan.

Ko'zları javxardır, yuzida nurlar,
O'rta yashar, katta mo'ysafid pirlar,
Shu xizmatim, bilsang, katta xizmatdır
Qo'shin boshi, satta turgan sardorlar.
Ko'ngil butlang¹, qaysing borib kelasan?

Kimga davlat bersa ko'p el qaraydi,
Podsho odil bo'lsa arzni so'raydi.

Maslahat ber, barzi sifatlı Sahmon,
Simin do'stim ne kunlarga yaraydi?

Xo'p eshitdim, balli, aytgan tilini,
Kim suykansa, yaxshi qiling holini!
Oshnolig'i endi bizga rost bo'lsa,
Op berayik Hindistonday elini.
Bu xizmatga qaysing borib kelasan?

Yaxshi ekan. Gulnorning charbog'i,
Sarg'aymasin hech birovning siyog'i².
O'lganiga uyulmasin qovog'i!

Yaxshi kunga Simin do'stim yaraydi,
Maslahat ber bizga, turkmanning begi!

Boradiganginang baring choq bo'nglar,
Xafa bo'lmay darrov boring taxt bo'nglar!
Qaysing Siminjonga borib kelasan,
Boradiganing darrov choq bo'nglar!

Ana endi Hasan joyidan turib, Go'ro'g'libekka «qulluq»
deb, otasiga qarab bir so'z aytaverdi:

¹ Ko'ngil butlamoq – to'q qilmoq.

² Siyoq – bichim, tashqi ko'rinish.

Qong'ar tog'ning cho¹li bo²pti qirmiz¹ qon,
Ostimizda otlar o'ynar yuz alvon.
Tag'in-a qiblagoh, malol kelmasa,
Bu xizmating bizdan bo'lsin, otajon!

Topolarman o'zim dardga davomni,
Ko'nglimda qilarman bir kun havomni.
Bu xizmating, ota, bizga loyiqdir,
Borib op kelayin Simin bobomni.

Borib turib, men parvona bo'layin,
Bu boshimni o'nguriga solayin.

Otajon, tag'in-a malol kelmasa,
Simin do'stingizni olib kelayin.

Kokilimni mushki berib o'raman,
Qo'shin bilan hamisha billa turaman.
Bu xizmatlar bizdan bo'lsin, otajon,
Simin do'stingizga o'zim boraman.

Borib turib, bir kun, ik² kun turaman.
Bu xizmatni yaxshi qilib, otajon,
Avval borib do'stingizni ko'raman.
Esa o'zim, kech ham bo'lsa mayliga,
Darrov, ota, odam qo'shing, boraman!

Ana endi borma desa, Hasanxonning ko'ngli qoladi, bor
desa ishonmaydi. Tavakkal qilib, bir so'z aytaverdi, Go'ro'g'li-
bek:

Hasanjonim, kelgin bunda,
Dam g'animat ko'rishayik!

¹ Qirmiz – qizil.

² Ikki.

Iskalashib kel farzandim,
Sening bilan suyushayik!

Davri davron surar bo'lding,
Yaxshi kunga yarar bo'lding.
Kel chirog'im, ko'rishayik,
Qolib, xizmatga borar bo'lding!

Mana tog'dan o'tar bo'lding,
Ko'ngilga tasalli qilding.
Bu xizmatim katta xizmat,
Hindilarga borar bo'lding.

Ul Siminning vatanida,
Bir, ik, uch kun turar bo'lding.
Kel chirog'im, ko'rishayik,
Dam g'animat so'rashayik.

Xon Hasanxon o'zi o'n besh yoshida,
Rozi bo'nglar nima qilsa ishiga!

Katta xizmat, dimog'lari chog' bo'lsin,
Jig'a sanching, farzandimning boshiga!

Nima desa aytganini qilinglar,
Podshohim deb, aytgan amrin qilinglar!
Yur desa yuringlar, yot desa yoting,
Tush desa tushinglar, min desa mining!

Ot qo'y desa dushman ustiga do'ning,
Nima desa aytgan amriga ko'ning!

Egarlab to'g'ri hayvonni,
Sayil qiy bog'i jahonni,
Jig'a sanchib, amaldor qip,
Shayladilar Hasanxonni.

Ketar bo‘p Hindiston yurtga,
Dunyo qo‘ymag‘ay hasratga;
Hasanxonni katta qilib,
Mindirdilar ildam otga.

Kelgancha bular intizor.
Sahmon polvon jilovdor,
Boramiz deb sap sardorlar,
Mindi to‘qmoq yolli otni.

Hasanxonning yuzlariga,
Ko‘rgan qizlar bolqib ketdi.

Balli aytgan so‘zlariga;
Olmadayin yuzlariga,
Qarashib balli aytadi,
Satta turgan g‘o‘non qizlar.

Joni banda, nechovi bo‘lib sharmanda,
Hasanxonning ko‘zlariga.
Xoldor polvon mindi otni,
Tog‘larni bosib savlati.

Soqibulbul, Shodmon mergan,
Iyarishib o‘ttizchasi,
Hasanxonman¹ billa ketdi.

Qulq solmayin tiliga,
Qaraydi tog‘ning guliga.
Yaxshi hangomalar qilib,
Elchilikka xon Hasanjon,
Ketdi Siminning eliga.

Sinmasin mardning qanoti,
Qo‘s sh kokilin sildiratdi.

¹ Hasanxon bilan.

Sahmon jilovdor bo‘p tog‘da,
Borayotir kattazoda.

Elchilikka jo‘nayverdi,
Goho nishab, goho tog‘da.
Hoy balli, beklar jon sotdi.

Tog‘dan pastroqqa tushdi.
Ayni sahar bo‘lganida,
Qong‘arning belidan oshdi.

Bedovni yogurtar qamchi,
Baland tog‘da bordi g‘onchi¹.
Yosh ham bo‘lsa xon Hasanjon,
Bo‘ldi Hindistonga elchi.

Bulbullar bo‘ladi bahor,
Podsholar qilmasin qahar.
Borayapti Hasan elchi,
Kun bo‘p qoldi kecha sahar.

Kokili tirqirab ketdi,
Sahardan keyin tong otdi.

Tong uyqusi Hasanjonni,
Badanginasin balqitdi.

Tog‘larda bo‘lgan uyadi(r),
Mirishkor² dobil tuyadi.
Sahmon polvon Hasanjonni,
Shunday qo‘liqdan suyadi.

Hasan yurib jilib ketdi,
Yozda chashma qurib ketdi.

¹ G‘onch – qor.

² Mirishkor – ovchi.

Uyqu bejoyin zo'r ekan,
Xon Hasanjon erib ketdi.

Tog'i tushsin, ko'p o'r ekan,
Xoldor Sahmondan zo'r ekan.
Yaqini emas, olis ekan;
Bu Siminning yotgan joyi,
O'zi bir ancha bor ekan.

Boqqa kirgan olma otdi,
Hasanxonni oldiga sop,
Siminga odam jo'natdi.

Temirxon Siminga ketdi.
Kun yoyila-kun yoyila,
Simatinga yaqinlab yetdi.

Hindlar tungilib¹ qoldi,
O'zini o'ngilib² qoldi,
Hindi bitgan hayron qoldi?
Barisi choppa-choq bo'ldi.

Bu nimaga keladi, deb,
Ko'zi baqrayib qoldi.
Ayirmayin ik ko'zini,
Manglayi tep-tekis bo'ldi.

Qora tayroqday hindilar,
Herkishib bari turganda,
Temirxon otini yelib,
Bizlar do'st, deb borib qoldi.

Temirxon hurkak hindilarga qarab, bir so'z aytaverdi
Simin vazirga:

¹ Tungilmoq – lol qolmoq.

² O'ngilmoq – hurkib, qo'rqib qolmoq.

Turkmanning bulbuli keldi,
Elchi bo'lib turkman yurtdan,
Podshomizning uli¹ keldi.

Otlarni tunida jildi,
Ko'p qo'shin maslahat qildi.

Qo'rwmang, pusmang bizlar do'stmiz,
Go'ro'g'lidan elchi keldi.

Olis, podshomizning eli,
So'ylar Temirxonning tili,
Elchi bo'lib kelayotir,
Go'ro'g'li podshoning uli.

Yurakda yo'qdi armoni,
Anov Vayangan sirtloni.

Anov o'zbek elidan kelgan,
O'zbek elning Xoldorjoni,

O'zi myxtan, eli barlos,
Hov anovi Shodmonjoni.

Bo'z ot minib kelayotgan;
Oti Ahmad – turkman xoni.

Elchi bo'lib kelayotgan
Go'ro'g'lining Hasanjoni.

Har ish bo'lsa endi bo'ldi,
Marjon pari xizmat qildi.

Qani Siminday zo'ravor,
Podshomizdan elchi keldi.

¹ O'g'li.

Simin hindi, endi oshnaliqqa ko'ndi. Ana Simin hindi-larga qarab, bir so'z aytaverdi:

Darrov joyingizdan turing!
Toy hindini ushlab qiring!
Do'stimdan mehmon kelibdi,
Chopqillashib darrov boring!

Jilovni bo'yinga soling!
Izzat qilib Hasanjonni,
Gavhar toqqa olib keling!
Xizmatini yaxshi qiling!

Qo'rmang, pusmang, dadil bo'ling!
Do'stimdan mehmon kelibdi,
Borasop¹ oldida bo'ling!

Salom berib vaqtin xushlang,
Kulib turib, lablar tishlang!

Odob bilan chopib borib,
Avval Hasanxonning otin,
Undan keyin hammasining,
Ot-otini juda ushlang!
Qo'ltig'idan suyab keling!

Hamma hindilar turib ketdi,
Nima gap bo'ldi, deyishib,
Piyolaga may quyishib,
Xushvaqtchilik hangoma deb,
Simin vazir karnay tortdi.

Mehmonni karnaydan bildi,
Hindi dimog'i chog' bo'ldi.

¹ Bora solib.

Simin vazir o'ynab-kulib,
Go'ro'g'liga oshnalikka
Bir mehri toza yuz bo'ldi.

Hasanxonni, Sahmonjonni,
Xoldorjonnii, Shodmon mernan,
Ahmadjonni, kelgan polvonni,
Necha ta'rif, tavsif bilan,
Simin vazir olib keldi.

Yaxshi tosh sochib boshidan,
Biror fasl ayrlimaydi,
Hasan o'g'lonning qoshidan.

Hindi kattasini yig'di.
Hammasiga to'shak solib,
Hasanxonga nim taxt qo'ydi.

Dasturxonlar yozib Simin,
Ovqatlarni chosh qip qo'ydi.
Chin ko'ngilman xizmat qildi,
Ko'p yaxshi bo'ldi xizmati.

Soqibulbul ham Sahmonga,
Bul Siminning ko'ngli yoqdi.

Ana endi hech bobdan Simindan kamlik topmadi.
«Barakallo, Simin vazir, haqiqat oshno ekansan», – dedi.

Ana endi oqshom bo'ldi. Simin: «Soq¹», – deb, kosalarning gardishiga keltirib hamma kekni ko'kayidan ketkarib, mehmonlarga qarab, Toy hindining vaziri – Simin vazir, bir so'z aytaverdi:

Hindiston der unib o'sgan makonim,
O'lgan so'g'in yonib kul bo'lar tanim.

¹ Soq – soqiy – may soluvchi, kosagul.

Hindistonne qildirayin tomosha,
Hindiston bir obod eldir, mehmonim!

Sizlar kepsiz necha tog'lardan osha,
Charchab, horib hisoblardan adasha.
Hindiston el tomoshali shahardir,
Qiling, mehmon, Hindistonni tomosha!

Qishning kuni ko'klamdaydir Hindiston,
Saratonda do'zaxdan ham ko'p yomon.
Hindiston el doim yozdir, mehmonlar,
Obod shahar tomosha qing, mehmonjon.

Yozning kuni o'ydan-uy qip yotadi,
Devorlar cho'g'dayin qizib ketadi.
Hindiston bir tomoshali obod el,
Xo'p ajoyib, xo'p g'aroyib ishlarni,
Kelgan mehmon tomosha qip ketadi.
Hindistonda tomosha ko'p, mehmonjon.

Hindining ichgani asil choy bo'lar,
Yeganlari toza ovqat, moy bo'lar.
Och emasdир hamma hindi boy bo'lar,
Hindiston el bejoy obod joy bo'lar.
Besh-olti kun tomosha qiling, mehmonlar!

Quloq songlar, mehmonlarim, tilima,
Hindiston shahari tomoshali joy,
Oralagay aziz mehmon elima¹.
Hindiston el obod shahar, mehmonlar.

Bu Siminni Toy hindidan kam demang,
O'zi qo'rkoq, yurak bag'ri qon demang!
Yuravering shahrima², mehmonim,

¹ Elimga.

² Shahrimga.

Toy hindi dushman deb, aslo g'am yemang!

Botirlar tarafning ko'zin o'yadi,
Xumsa¹ bilan o'tgan umr zoyadi(r).
Mehmon kelsa er kishining uyiga,
Mehmonga qanday odam teyadi.
Hindistonne, yurt oralang, mehmonlar!

Soqibulbul ko'p so'zga usta edi. «Endi yovgarchilik qanday bo'ladi, qanday qo'yadi», – deb, odamlarning ko'ngli xasta edi. Bek Soqi hangomada so'z aytmakka yomon usta edi. Ana sozni beldan olib, Soqibulbul necha maqomlar chalib, hindilarning hammasi: «Qiziq mehmonlar ekan», – deb, xo'p tomosha qilibdi. Ana Soqibulbul ham pichagina firib so'z, ozroqqina hiyla so'z, kichkintoygina buzoqi so'z, oz-mozgina ig'vogarlik so'z, har bob so'zdan Siminga aytaverdi. Ahmadbek bu ishni bildi. Hasanxon jilmayibgina kuldi. Hasanxonning jilmayib kulgani hindilarning aqlini oldi. «O'zbeklik qilma, bu yer ajalxonadir», – deb, Sahmon polvon Ahmadbekka Hasanxonning gapini man' qildi. Temir polvon Soqibekka aytинг, dedi:

Toy hindining zo'r vaziri,
Soqibek so'zga chevardi,
O'qidim ig'vo zabardi,
Bizlar podshoning odami,
Bizlarni sizga yubordi.

Yaxshi xizmatlardan qildik.
Marjon pari ko'p maqtadi,
Go'ro'g'lixon boring dedi.
Podshoning amriman keldik.

Har narsani ortu² qildi,
Podshomizning gapi bitta;

¹ Xumsa – xunasa, erkaklik g'ururi yo'q, nomard, razil.

² Ortiq.

Marjondan sizni eshitib,
Bizni sizga Go'ro'g'libek,
Boringlar deb tortuv qildi,
Podshoning amriman keldik,

Sizga xizmatkorlar bo'ldik.
To o'lguncha sizning bilan,
Oshinolik qilgani keldik.

Go'ro'g'libek boring dedi,
Bizlar to'y qilgani keldik.

Hindistonning shaharida,
Xotin olib, sultanat qib,
Bizlar joy qilgani keldik.

Hangoma qip sizning bilan,
Bizlar uy qilgani keldik.

Dushman bordi ko'p qo'rquamiz,
Toy hindidan ko'p qo'rquamiz.
Bizlar bir ozroq eldi,
Podshongizdan xo'p qo'rquamiz.

Bizlar bir ozroq eldi,
O'zimiz sozroq eldi.
Sabab bilan Hindistonga,
Taltayib Gulnor deb keldik.

Sizni bizlar ziyofatga,
Olib ketgani keldik.
Javob bersangiz qaytamiz,
Borib podshoga aytamiz.

Toy hindi lashkar qip borsa,
Gala qizlar, Gulnorjonni,

Undan so'ng, bizlar qaytamiz?¹
O'zginamiz ozgina el,
Toy hindidan ko'p qo'rqamiz.

Hangomada bordi so'zlar,
Filin minib tog'ni ko'zlar,
Toy hindi lashkari chiqsa,
Bandi qilib go'shtni tuzlar...

Maslahat bering Siminjon,
Bizlar o'lsak go'rga edi,
O'taliqda qolgan qizlar!

Go'ro'g'li qo'ygan chindobil,
Kechasi qo'ygan qorovul,
Oymarjonn'i yaxshi ko'rib,
Go'ro'g'libek o'z ko'zman²
Gulnorjonga, besh yuz qizga,
Marjon pari qizingizni,
O'z gapiman, o'z ko'zman,
Oy Marjonni podshoyimiz,
Qildi qizlarga bakovul.

Marjon katta oqsoqoldir.
Qizlarni xizmatkor qilib,
Kechasi uradi dobil.

Toy hindi bejoy zo'r ekan,
Baland yog'i ko'p o'r ekan.

Bizlar oz elmiz, qo'rqamiz.
Biz olib ketgani keldik,
Ziyofat etgani keldik.

¹ Nima qilamiz.

² Ko'zi bilan.

Tomosha so‘g‘in qilarmiz,
Xo‘p ittifoq bo‘lsak bizlar,
Hindiston elin olarmiz.

Toy hindining davlatiga,
Sizni biz podsho qilarmiz.
Mol o‘rtoqdi, jon o‘rtoqdi,
Podsho qilib o‘zingizni,
Andan kay xizmat qilarmiz.

Yuring podshomiz oldiga,
Toy hindidan ko‘p qo‘rqamiz,
Undan keyin naf qilarmiz.

Bizlar bilan yuring podshom,
Bamaslahat o‘rtaliqda,
Duppa-durust gap qilarmiz!

Bizlar Go‘ro‘g‘lining quli,
Hasanjon podshoning uli;
Uzoqdir Chambilning beli.
Yuring tong otmay ketamiz,
Podsho oldiga yetamiz!

Toy hindidan ko‘p qo‘rqamiz,
Hammamiz bejoy hurkamiz.
Tong otmay yetib boramiz,
Shoh Go‘ro‘g‘lini ko‘ramiz.
Maslahat qip so‘g‘in bizlar,
Ittifoq bo‘lib ko‘ramiz.

Shirin jonni soting degan,
Otga qamchi choting degan.
Hayollamay darrov borib,
Otdan tushmay, qayting degan.

Ana endi, kam esga davlat berami. Eslilikdan podsho-

ning vazirligin udda qilib yurib edi. Ana Simin vazirning Soqi-bekka qarab aytgan so'zini eshititing:

Shoir mehmon, aylab aytding,
Sozingni o'xshatib chertding.
Ko'tarmalab o'zginamni,
Qo'rqaman deb yolg'on aytding.

Qabul qilmay so'zlarimni,
Yuboruvdim qizlarimni.

Toy hindidan hech qo'rqmaysan,
Aldab aytding o'zlarimni.

Kecha men qildim tomosha,
Bulutday qip surdingizlar;
Juda turush berdingizlar.

Battoldek bejoy ko'p ekan,
Fil bitganni yordingizlar.
Hindini piyoda qilib,
Yo'lbarsday bo'p qirdingizlar.

Qo'rqaman deb aldab aytding,
Dushman Simin ham bizga deb,
Nishonaga boylab aytding.

Oralab qirib hindini
Kecha to's-to's qilib ketding.
Jo'rttaga, mehmonginam,
Nega chatoqlik gap aytding?

Har qaysing Rustamday bo'lib,
Bo'ri qo'yni quvgandayiy,
Toy hindining zahrasini,
Cho'rtta kecha yorib ketding.

Aziz mehmonginam, nega,
Ig'vo so'zdan aytding?

O'z ko'zimman kecha ko'rdim,
Kallasini do'lday qilib,
O'ldirgani qaroring yo'q,
Qo'ldan ushlab o'ligini,
Fildan har tarafga otting.

Kecha ko'rdim ko'zim bilan,
Qo'rqaman deb hazil aytding.

Rustamdan ziyoddi baring,
Siz katta odam hazillashding,
Men sizlarning xizmatkoring
Tiklasang odam o'ladi,
Yo'lbars ekan baring.

Sizlar podsho men xizmatkor,
O'zim sening xizmatkoring.

Ana endi Toy hindi podsho ota-bobosidan qolgan ko'hna filni olib, minib bir xurushga kirdi o'zi. «Tag'i Siminning qonini to'kmasam, sigir ena ursin; bizning bilan aka-ini bo'linqirab yurgan, tana ursin; ixlos qiladigan olov ursin; qozonda pishgan palov ursin! Avval Siminning qonin to'kaman», – deb, qasamyod etdi. Tong otgandan keyin Toy hindining ishini ko'ring endi.

Ana endi Toy hindi kechasi bilan urushga bet berib, kamanning¹ girishini burab, qilichni qumga solib yotaversin.

Ana endi gapni Simindan eshitmak darkor.

Simin mehmonlar bilan xo'p hangomalashib, hammasiga, o'ziga monand choponlardan yopib, gavhar-javhar toshlar dan berdi. Mehmonlar ko'p xushvaqt bo'ldi.

Ana endi Simin Go'ro'g'liga boraman deb ixtiyor qildi.

¹ Kamon.

«O'z joyingda¹ turmasang, podshodan odam kelsa, uyat bo'lsa...
Uyat degan odam bir ishni qilami?» – dedi. Simin vazir bir so'zni
aytaverdi:

Eshiting Simin dodini,
O'qing do'stimming xatini!

Tong otmay borib kelayin,
Mindiring mehmon otini!

Ko'rmaysizmi savlatini?
Avval op kelib mindiring,
Hasanjonimning otini!

Hindi bitgan chopib ketdi.
Otaning farzand qanoti,
Necha sultanatlар bilan,
Siminning xizmatkorlari,
Otlarga yugurib yetdi.

Hasanxonga op kep mahram,
Azizgina mehmonim deb,
Manakay² deb otni tutdi.

Bilmaganimni bildirdi,
Xush vaqt qildirib kuldirdi.
Ot otiga mehmonlarni,
Chiroylik qilib mindirdi.

Hindi bitgan ta'zim qildi,
Sahmon dimog'i choq bo'ldi.
Rozi bo'p Simin vazirdan,
Beklarning qorni to'q bo'ldi.

¹ «So'zingda» ma'nosida.

² Mana.

Simin vazir bormoqlikka.

Yuzcha katta hindi olib,
Otni minishib choq bo'ldi.

Fili qoldi otliq bo'ldi.
Yuringlar, mehmonlar, dedi,
Hammasi endi choq bo'ldi.

Simin qamchisin tishladi.
Hindilarning ko'ngli to'lib,
Yovdan dimog'i choq bo'ldi.

Simin vazir yuring dedi,
Go'ro'g'liga boring dedi.
Yarim kechadan o'tganda,
Tez-tez borib kelayik deb,
Simin vazir choq bo'ldi.

Xushvaqt bo'p Sahmon jo'nadi,
Uyalib Soqi jo'nadi.

Xoldor bilan Shodmon mergan,
Dushmanlarin ko'zga ilmay,
O'zi bilganidan qolmay,
Ahmadbek yo'lbars jo'nadi.

Katta sardor lashkarboshi,
Sardorlar bari jo'nadi.

Siminning ko'pdi xotiri,
Elchilik ishin bitirib,
Jo'nadi turkman botiri.
Hasanxonni podshomiz deb,
Bo'ldi hindilar shotiri.

Sildirab Hasanning kokili,
Ko'pdi Xoldorning oqili,

Yelkada panja doxili,
Kelayapti qora tunda,
Hindiston elning aqili.
Ot chopganda hilpiraydi,
Hasanxonning ik¹ kokili.
Sap elchi beklar jo'nadi,
Gala sardorlar jo'nadi.

Kiyimlari tozodalar,
Katta birday ozodalar,
Elchilikka kelib edi,
Satta birday xonzodalar.

Ajal mayin ichib kelgan,
Kafan to'nni bichib kelgan,
O'laman deb xafa bo'lmay,
Og'zidan dur sochib kelgan.

Barakallo na'ra sherlar
Shirin jondan kechib kelgan.

Yomon bo'lsa qo chamiz deb,
Ko'kragidan sanchamiz deb,
Sahmon polvon, Xoldor mahram,
Turkman-o'zbekning o'tkiri,
Satta yoldor bo'ri kelgan.

Beliga bo'g'ilgan alvon,
Belida keskir isfihon²,
Har ko'zi cho'g'dayin jaynab,
Ostida tulparlar o'ynab,
Kelayotir Qong'ar tog'da,
Satta zo'rilar, jam'i polvon.

¹ Ikki.

² Isfihon – keskir tig', qilich, xanjar. O'tgan asrlarda Isfihon ustalari ishlagan keskir tig'larga nisbatan ishlataligan isfihoni so'zining qisqarib ot shakliga kelgani.

Yurgan joyi nishab, o'rlar,
Yuragida yo'qdi cherlar;
Ot qo'ysa dushmanni xo'rlar.

Ot qo'yishib chaparasta,
Qistab haydar satta zo'rlar.

Simin vazir g'ayrat etdi,
Ot chopib hindisi bilan.
Aralashib polvonlarman¹,
Dono Siminjon yo'l tortdi.

Hasanxon oydayin yashnab,
Kokilin yelkaga tashlab,
Hangoma qip Hasan sardor,
Beklarning vahtini xushlab,
Qiz buloqqa yaqin yetdi,
Urdan, tog'dan qistab o'tdi.

Go'ro'g'lining qo'shiniga,
Otlarning dubiri yetdi.

Qorovulga chindobilga,
Beklarning g'oviri yetdi.

Xushvaqt bo'lib bek Temirxon,
Go'ro'g'li oldiga ketdi.

Aziz mehmon keladi deb,
Peshvoz chiqing deb Temirxon,
Ko'ringan beklarga aytdi.

Mash'al yoqishib kattalar,
Siminning oldiga ketdi.

¹ Polvonlar bilan.

Ot chopishib tog'ning toshiga,
Hamma beklar g'ayrat qilib,
Necha yaxshi so'zlar bilan,
Salom berib bordi
Siminning qoshiga.

Ko'p bo'ldi beklar izzati;
Qo'lting'idan suyab olib,
Siminjonni olib qaytdi;
Go'ro'g'liga yaqin yotdi.

Salom berib Gulnor pari,
Simin vazirning oldiga,
Aralashib xushvaqt bo'lib,
O'tirish xonaga yetdi.

Go'ro'g'li qo'lin tishladi,
Gulnor pari tilla sochib,
Siminning vaqtin xushladi.

Suyab olib qo'lting'idan,
Qimmatbaho kiyimlardan,
Siminga libos tashladi.

Bejoy ziyoratlar qilib,
Xushvaqt bo'lib Go'ro'g'libek,
Xush ko'rdik mehmonim dedi;
Bejoy vaqtini xushlab.

Ana endi tomosha tog' cho'rtta yop-yorug' bo'lib ketdi.
Kunning o'zi saharga yetdi. Gulnor pari o'rtaliqda dangal turib
xizmat qildi. Marjon pari hammasiga xizmat buyurib turdi. Si-
minning vaqt xush bo'ldi. O'tirishning bir belgisi mayxo'rlik.
Hasanxon yengni tuyib o'rtaga kirib, kosani to'ldirib, «allayor
jo'sh-jo'sh» deb, hamma beklarning vaqtini xushladi. Go'ro'g'li-
bekka qarab, javob so'rab, bir so'z aytaverdi Simin vazir:

Ertan bilan dushman filni jilmasa,
Toy hindi boshima balo bo'lmasa,
Bir so'zim bor, sizga aytay jon do'stim,
«Ming qo'shchiga bir boshchi» degan so'z bor
Toy hindi filini gurkiratib,
Og'aynimni yebir-yesir qilmasa...

Xatarim bor, sizdan javob so'rayman,
Tag'in-a, jon do'stim, malol kelmasa.

Nima desam siz ishoning so'zima,
Toy hindi dushman mening izima¹.
O'zim qolsam, asti ko'nglim tinmaydi,
Javob bering, xon Go'ro'g'li, o'zima!

Toy hindi ertanman² kelib qolmasin,
Odamlarim bizlarni deb o'lmasin.
Ko'nglimni tindirsam so'g'in yuraman,
Ketaman, jo'rajon, malol kelmasin!

Bir ko'rmoqqa mening o'zim intizor,
Bo'lg'aysiz Go'ro'g'li bizlarga rahbar.
Toy hindiman taraf tushdim men o'zim,
Bo'nglar hammang holginamdan xabardor!

Hindi kelar cho'lni bosib,
Piltasi to'qayday sasib;
O'ldirmasin boshim kesib,
Jo'rajon, o'zimdan bo'ling boxabar!

Tong otmayin qo'shnnima borayin,
O'ng-u so'ldan bo'lib turay xabardor.
Tinch bo'lsak, hangoma so'g'in, jo'rajon.

¹ Iziga.

² Ertal bilan.

Toy hindi keladi mening qasdima¹,
Ot chopaman o‘ydan qirga, pastima².
Ertan bilan qon to‘kishib urushar,
Toy hindi quyular mening ustima³.

Tong otmasin, jo‘ra, tezroq ketaman.
Oshnoligm ma‘lum qilay deb keldim,
Xo‘p tanishib, so‘rashib, sizingman⁴.
Kelmadi deb kek qilmasin mendan deb,
Borib turib, salom beray deb keldim.

Ana endi Go‘ro‘g‘libek sipohigarlikning ilmini biladi.
Simmnning so‘zi to‘g‘ri so‘z, hech egrilik yo‘q. Oshnolikning bir
belgisi to‘n yopmoq. Go‘ro‘g‘libek hammasini sarpoysa o‘rab
tashladi.

Ana Siminning ko‘ngli to‘ldi. Hamma sardorlar, beklar:
«Oshnoliq to‘n qutli bo‘lsin!» – dedi. Simin: «Qulluq», – dedi.
Joyidan turib, Go‘ro‘g‘libekka, hamma beklarga ta‘zim qildi.
Ana Go‘ro‘g‘libek bir so‘z aytayapti:

Ko‘nglimda qilarman men havasimni.
Toy hindi hammamizga qasdidi?
Soqibulbul, Xoldor mahram, Shodmonjon,
Iyartib boringlar Simin do‘stimni!

Simin jo‘ra o‘zing joyingga borgin,
Tong otmayin lashkar ichida turgin!
Bir nasihat shuldir senga jon do‘stim,
Urush bo‘lsa otning yolini o‘rgin!

Ot yoli o‘rilganga tihsomang⁵,
Zinhor ishingizga ehtiyyot bo‘ling!

¹ Qasdimga.

² Pastimga.

³ Ustimga.

⁴ Siz bilan.

⁵ Tig‘ solmang.

Siminni uzatib tog‘dan tushirib,
«Xush kelding», – deb, hammangiz qaytib keling!

Siminjon zinhor maydon nchida,
Ot yoliga qarab, nayza-tig‘ soling!

Bizning qo‘s Shinlarning barin oti bor,
Zinhor fil minganga ehtiyot bo‘ling!

Do‘stimni nar yoqqa uzatib keling,
Yaxshi so‘zman yuraklarin hishiring!
Toy hindini ko‘p damidan tushiring!

Siminjondir Hindistonning egasi,
Bu katta podshoni tog‘dan tushiring!

Ko‘rmaysanmi davlati bor saxtini,
Xudo ochgan bu Siminning baxtini.
Toy hindini ertan o‘lja qip olsak,
Simga berarmiz toji taxtini.

Ana endi Go‘ro‘g‘libek, hamma sardorlar, tug‘dorlar,
«Xush keldingiz aziz mehmon» deb, Siminni tog‘dan oshirib
[qo‘ydi]. Simin o‘z qo‘s Shiniga ketdi, tong otmay qo‘s Shiniga
yetdi. Hamma hindilar Siminning to‘nini so‘rab, dimog‘i chog‘
bo‘lib ketdi. Ana bular turaversin, Simin [odamlariga qarab
aytdi]:

– Oti bor, otining yolini o‘raversin!
Fillarga ham otning yolidan qirqib,
Filning yonboshiga o‘rib qo‘ying!

Biz Go‘ro‘g‘li bilan oshno bo‘ldik.
Shu firibni o‘rgatdi.
Har kim o‘z mazhabida,
O‘z millatida yurar, dedi.

Ana shuytib Xoldorbek Go'ro'g'lining oldiga yetdi.
O'zları urushib, yomon charchab edi. Shu kuni mehmon kutib
tong otdi. Bular ham choh bo'lib, Go'ro'g'libek [lashkari] qurt-
day qaynab, tog'dan o'taverdi. Ana endi gapni Toy hindidan
eshitmak darkor.

Ana Toy hindi ham qizining alami, ham Siminning
alami, o'zi bulutday gurkirab, otasidan qolgan ko'hna zo'r filga
mindi. Fili qurg'ur necha urushlarni ko'rgan, urushga hadiskor¹
bo'lib qolgan. Tumshug'idan urib, zer bilan zabar qilgan. Toy
hindi odamlariga qarab bir so'z aytayapti:

Dushman bo'lib, qasd bo'p ketdi,
Simin martabadan qaytdi.
Avval Siminni o'ldiring,
Tarafirman² do'st bo'p ketdi!

Bizga tamnik³ manglayg'a xat tortdi,
Simin xat tortmayin o'zi,
Go'ro'g'liga tan bo'p ketdi.

Siminni darrov o'ldiring!
Har tarafdan o'rtaga oling⁴,
Qayg'u kulfatlarga soling!
Bul Siminni ushlab oling,
Undan keyin gapga soling!

Tikka ot qo'ying hindilar,
Ushlab olib shu Siminni,
Darrov o'zin o'tga soling!

Qovog'ini o'ydiringlar,
Qiyomatga so'ydiringlar!
O'tga yoqib kuydiringlar!

¹ Hadiskor – mohir.

² Dushmanim bilan.

³ Tamnik – belgi, nishon.

⁴ Qo'lyozmada: «o'rtag'oling».

O'rtab yuboring tilini,
Tuyib elanglar kulini!
Qora qilinglar holini!

Taltayib, odam bo'p ketdi,
Elning yarmini ayirib,
Qo'shilmayin o'zi yotdi,
Bizga g'anim bo'lib ketdi.

Darrov ushlab o'ldiringlar!
Har yoqdan to'zib kelinglar,
Siminga savdo solinglar!

Odamlarin o'ldirmayin,
Op kelib tamnik qilinglar!
Bul Siminni taltaytirib,
Op kelib o'tga solinglar!

Toy hindi filni yugurtdi.
Ikki filni bo'shatdi.
Bu Siminning toq ustiga,
Achchig'lanib podsho ketdi.

Fil bitganlar gurkirashdi,
Dovushlari burkirashdi.
Hindi bitgan tirqirashdi,
Yoning o'qi zirqirashdi.

Kuni qandaycha bo'ladi?
Toy hindi janjal qiladi.
Shundayin Simin qarasa,
Qari-qashqa filni minib,
Podsho g'ayratman keladi.

Ana endi Simin qarasa, Toy hindi qashqa filni minib,
ikki filni yonboshiga olib, xuddi osmondan yashin tushganday
bo'lib kelayapti. Shunday qarasa, osmondan yulduz tushganday

bo'lib Siminga hindi yugurib kelayapti. Simin qo'rqli, qo'rqla ham yomon hurkdi. Lekin zo'r odam tasalli bo'lar ekan, oshna Go'ro'g'lidan ko'ngli to'q edi. Ana endi Simin bechora «dod» deb, odamlariga qarab, bir so'z aytayapti:

Ajalga endi ko'ninglar,
Taqdirla xo'p tan beringlar,
Taraflarga g'am beringlar!
Ot qo'ying taraf ustiga!

Toy hindi ot qo'yib keldi,
Menday bebaxtning ustiga.

Kun qiyomat ajal bo'ldi,
Qashqa fillarini jildi.
Toy hindi qahri bilan,
Ikki fil oldiga oldi.

Qiyomatday urush bo'ldi.
Go'ro'g'libek bilsa ekan,

Sahmon polvon kelsa ekan,
Xoldor mahram, Shodmon mengan,
Qoq miyadan ursa ekan.

Qo'rqlagin deb, voy oldimda,
Oshnolarim tursa ekan.

Yakka o'zim nima ish¹ qilay,
Rafiqlarim² bo'lsa ekan.

Toy hindining kelganini,
Birortasi ko'rsa ekan.

¹ Qo'lyozmada: «namash».

² Rafiq – do'st.

Kechagiday otni chopib,
Yoppa ot¹ qo'yib tursa ekan.

Bizni deganing ot qo'y,
– Qo'rqma, qo'rqma, – dedi.

Ana shunda Go'ro'g'libek g'uchchoqlarga qarab, ish
taraflab, bir so'z aytaverdi:

Hindiston el changib qoldi,
Osmonni to'zon oldi.
Ot qo'yinglar, Xoldor mahram,
Sahmon polvon, Ahmad sardor,
Qiyomatdan yomon bo'ldi!

Bu Simin o'rtada qoldi.
Hay attang oshnam o'ldi.
Simin parokanda bo'ldi.

Bu Siminning qo'shiniga,
Qashqa fil yaqinlab qoldi.
Ot qo'ying, Sahmon polvonim!

Yosh bo'lsang ham sen sardorsan,
Urushga kir, Hasanjonim!

Sardorlarim, sap beklarim,
Chappa ot qo'ygin, Xoldorim!

Chuvlashib hindi nechasi,
Yoppa-yovlik ot qo'yinglar,
Turkman-o'zbek bekbachchasi!

Siminjon oshnam o'lmasin,
Yurakka vahim solmasin!

¹ Qo'lyozmada: «joppot».

Ot qo'yinglar tug'ilishib,
Siminga yetmayin, baring,
Toy hindiga qorishtiring!

Toy hindi bir zo'r polvondir.
Har tarafdan baring borib,
Toy hindiga kamon soling!
Lo'p-lo'nda qip bandi qiling,
Hindiston elini oling.
Siminjonne podsho qiling!

Yulduzday to'kilib keldi,
Voh Siminning qo'shinlari,
Qaytayin o'rtada qoldi,
Esizgina oshnam o'ldi.

Jondan kechgan na'ra sherlar,
Toy hindi ushlab olmayin,
Oldiga o'tsang na bo'ldi?

Go'ro'g'libek jonni sotdi,
Sahmon polvon, xon Hasanxon,
Sovut qalqon, anjom kiyib,
Tog'dan chuvlab pastga ketdi.

Sahmop polvon, hay-hay,
Shoshma qashqa filli deb,
Barakallo Sahmon polvon,
Toy hindi oldiga o'tdi.

Urushda zo'rlik ish bermas.
Shu Sahmonni qashqa fili,
Tumshuqdan urib yiqitdi.

Tumshuq tegib gurpak bo'ldi,
Otdan yiqildi-da Sahmon,
Kiyim-kechak turpoq bo'ldi.

Go'ro'g'libek yonboshidan,
Xoldor ayrlimay qoshidan,
Yo pirim deb mard Go'ro'g'li,
Toy hindiga nayza soldi.

Fil bitganning tovushiga
Isroyil sur tortganday bo'ldi.
Ham el, tog' larzaga kirdi.

Toy hindi ko'p zo'r ekan,
Shundayin ushlab nayzani,
Go'ro'g'lidan tortib oldi.

Bejoy katta polvon ekan,
Qashqa fili qurg'ur kelib,
Go'ro'g'liga tumshuq soldi.

G'irko'k bedov parqin sochdi.
Vo, Xoldor polvon yetishdi.

Nazarkarda jonvor G'irko'k,
Rad berib shu qashqa filga,
Oltmis gaz osmonga uchdi.

Hay attang rangi so'ldi,
Filning tumshug'i tegib,
Xon Hasanxon ot-potiman¹,
Chang bo'lib dumalab qoldi.

Sahmon polvon kela solib
Hasanni quchoqlab oldi.
Voh, Xoldorbek, Shodmon mergan,
Bu hollarni ko'rib turib,
Attang deb, shoshib qoldi.

¹ Ot-poti bilan.

Sahmon polvon bir tosh otdi,
Qulqo'zga tegib ketdi.
Miyasini gangiratdi,
Toy hindi qurg'ur zo'r ekan,
Bu Sahmonni quvib ketdi.

Soqibulbul cho'g'day jaynab,
Majnunko'k ostida o'ynab,
Toy hindi oldiga yetdi.

Uzun xodani qo'lga op,
Fil tumshug'i tegmas yerdan,
Burniga yomon turtdi.

Achchig'lanib bek Soqini,
Chirqillatib quvib ketdi.
Toy hindiman chillig'ishdi,
Sizlar uyog'man¹ bo'ng deb,
Toy hindini xodaman turtib,
Soqibulbul aldab qochdi.

Ana endi Soqibulbul aldab, har zamonda burib ketadi. Fili o'mbalaqashadi. Toy hindi yonboshiga tushadi. Shu, piyodalab shoplashadi². Hech kim dosh bermadi. Beklar shu, urush qildi. Qong'ar tog'ning pastida o'lik chalkashib qoldi. Qiyomatdan yomon urush bo'ldi. Bu Toy hindiga hech polvon dosh bermadi. O'zi filidan yomon, fili o'zidan yomon. Uzun xoda bilan [filning] tumshug'iga qattiq turtib, Soqibulbul har zamonda aldab qochibdi. Shu, peshingacha shunday urush bo'ldi [Toy hindi] shunday intilib Sahmon polvonning qo'lidan ushlab, silkib, bir tortdi. Kuchlilik qildi. Qo'lining tomiri yomon cho'zilib ketdi. Fili tumshug'i bilan Sahmonni yomon otdi. Sahmon polvon o'zidan ketdi. Endi Toy hindi Sahmonning qulog'idan ushlab [oldi]. Soqibulbul borib, shu xodaning uchi bilan [filning] burni-

¹ U yog'i bilan.

² Shop - qilich. Shoplashmoq - qilichlashmoq.

ga qattiq turtdi. Burnidan toyib ketdi. O'zi Toy hindining ko'ziga g'irt etib kirib ketdi. Ko'z qanday narsa? Tananing egasi. Toy hindining jopponi chiqib ketdi. Qo'lidan shop, anjom-asbob tu-shib ketdi. Soqibulbul xodani jon hovlida tortdi, ko'zining ichidagi qorachig'larini, go'shtini ilib chiqib ketdi, xoda. Shu [Toy hindi] tura solib Soqibulbulni quvib ketdi. Bora solib Soqibulbulni osmonga qaratib oddi.

Xoldor mahram chopib, chopqillab borib, Sahmonni o'ngarib, tog'iga olib chiqib ketdi. Shodmon mergan yerga tu-shurmey, Soqibulbulni kiyimidan chaqqon ushlab oldi. [Toy hindi] ko'zi cho'ng'irayib, bir urush qilmoqchi bo'ldi. Soqibek bilan Sahmop polvonning esi angrab qoldi.

Ana endi qirlar soya tashlagan pallada Go'ro'g'libek bilan Sahmon polvon urib o'tadi, qilich bilan fillari yitadi¹. Tumshug'ini to'lg'aganda jonvar G'irot o'ttiz gaz, yigirma gaz balandga ko'tarilib ketdi. Shu fillari bulutday gurkurab Toy hindi Go'ro'g'lini quvib ketdi. Turkmandan ham o'ldi, hindidan ham ko'p o'ldi. [Toy hindi] ko'zi ko'r bo'lgandan keyin qizib urushdi. Bosimlik qildi Toy hindining lashkari.

Endi bular urushaversin, gapni Gulnor paridan eshitmak darkor.

Bog' guli ochilganday bo'lib, Qong'ar tog'ning boshida Gulnor pari bu sirri-hollarni ko'rib:

«Dod mehmonlar qirg'in tonadigan, bo'ldi», – deb bir so'z aytaverdi:

Sahmon polvon ko'rinnmadi ko'zima,
Go'ro'g'liga zafar bergin xudoyim!
Omin deng, qizlar, polvonlar o'lmasin!

Chambil bo'lib edi, bil, qoyim joyim,
Hindistonda besohib bo'lsin uyim!
Otam qurg'ur juda zo'rlik qiladi,
Omin deng, qizlar, mehmonlar o'lmasin!

¹ Yiqitadi yoki yo'qotadi.

Mehmonima, qaytay, bo‘ldi qiyomat,
Chambil elga ketsin sog‘-u salomat,
Omin deng, qizlar, mehmonlar o‘lmasin!

Bejoyin ko‘p hindilarman urushdi,
Go‘ro‘g‘lining qaytayin aqli shoshdi.
O‘lik bitgan bu maydonda chalkashdi.
Turkmanlardan ko‘p odam yerni quchdi.

Taxt turib Simin vazir urushdi,
Omin deng, qizlar, Siminjon o‘lmasin!

Katta davlat eson borsa eliga,
Qarab edim polvonlarning qo‘liga.
Ega bo‘lsin Hindistonning eliga,
Omin deng, qizlar, turkmanlar o‘lmasin!

Yo‘liqmasin hindilarning qahriga,
Yigitlar taltayar qizning bahriga.
Zo‘r bo‘p kirsin Hindistonning shahriga,
Tomosha aylang Toy hindining zo‘riga,
Omin deng, qizlar, Shodmonjon o‘lmasin!

Tomosha aylang Gulnorjonning dodiga,
Barakallo qizlarning himmatiga,
Duo qilib besh yuz sanam yig‘ladi,
Omin deb, fotiha tortdi betiga.

Ana endi shu kun por-pora bo‘lay dedi. Toy hindining lashkarboshisi «ayril» karnay tortdi. Toy hindining lashkari urushdan tig‘ni yig‘di. Ahmad sardor ham karnay tortdi. Ana Go‘ro‘g‘lining ham lashkari ayrlidi. Toy hindi behush bo‘lib o‘zidan ketdi.

Go‘ro‘g‘lining qo‘shini toqqa qarab qaytdi. Simin ham aralashiib ketdi. Ana endi bir kam o‘ttiz sardor odamini sanadi. Har qaysisidan ancha-ancha odam yo‘q.

Ana endi Xoldorjonning Sahmonga aytayotgan so‘zi:

Urush kuni ingrangan ermisan,
Chillada mast bo‘lgan qizil normisan,
Qaddingdan ketayin, Sahmon polvonim,
O‘likmisan, bu dunyoda bormisan?

Yovning kuni arillagan shermisan,
Himoyating nechovlarga pirmisan?
Xoldor mahram kelayotir sog‘inib;...
Birodarim Sahmon, polvon bormisan?

Oqizma, Sahmonjon, ko‘zdan yoshingni,
Qochirmagin, dadil bo‘lgan, hushingni!
Xoldor xizmatkoring keldi sog‘inib,
Qadirdon, Sahmonjon, ko‘tar boshingni!

O‘lmaygina bir eshitay so‘zingni,
Nima desang ko‘taraman nozingni.
Xoldorday xizmatkor keldi sog‘inib,
Dadil bo‘lsang, gapir menga so‘zingni!

Shikast ko‘rding Toy hindidan begumon,
Bo‘lgaymiz hammamiz dunyoda omon!
Och ko‘zingni, ko‘tar aziz boshingni,
Har so‘zing dardima darmon, Sahmonjon!

To‘kilgan ko‘zimdan selob yosh bo‘lsin,
Sendayin zo‘r shu lashkarga bosh bo‘lsin!
Bor bo‘lsang, gapirtgin¹ qizil tilingni,
Sen gapirsang, vaqtginam xush bo‘lar!

Ana endi juda qattiq holda edi. Otning dubirini bilib yotib edi. «Lashkar qochdimi ekan», – deb guman qilib yotib edi. Bu Xoldorning tovushini eshitib, Illo siz er emasmi, turaman deb edi, turolmadi. Shunda bechora endi tag‘in yotdi. Shu yerda yotib turib, ana Sahmon polvon Xoldorbekka qarab bir so‘z aytaverdi:

¹ Gapirtirgin.

Otni chopib ichim kuyib ketibdi,
O'lik bitgan ko'p chalkashib yotibdi.
Xafa bo'lma, Xoldor mahram, o'zimdan,
Suvsizlikdan chanqab quvvatim ketibdi.

Burnima, og'zima ko'p chang o'tibdi,
Qulog'im tuproqqa to'lib yotibdi.
G'am yema kirarman ertan maydonga,
Suvsizlikdan juda mazam ketibdi.

Xafa bo'lma ko'zginangdan, Xoldorjon,
Ko'p kuchli ekandi bildim Hindiston.
Bir suv ichsam boynag'iday¹ bo'larman,
Yarador deb, xafa bo'lma, Xoldorjon!

Jonginam aylansin, Xoldor, o'zingdan,
Maydonga kirarman ertan izingdan.
Suvsizlikdan bejoy tashnalab qopman,
Suv ichirgin qomatingdan, o'zingdan!

Fil xarob qip Sahmonjonning holini,
Olib ketsak Hindistonning gulini.
Xafa bo'lma, ichim kuyib yotibman,
Olarmiz Hindiston elini.

Chang asar qilibdi mening o'zima,
Suvsizlikdan yer buldirar ko'zima.
Gapginang jonioqma dori, Xoldorjon,
O'z qo'lingman² suv ber mening o'zima!

Kechasiman o'zim dadil bo'larman,
Qayg'u kulfat Toy hindiga solarman.
Ertan bilan kirib maydon ichida,
Toy hindidan o'zim lotni olarman.

¹ Ilgarigiday.

² Qo'ling bilan.

Suv ichirsang yaxshi bo'lsam, Xoldorjon,
Salqin tushgandan kay odam bo'larman.

Xushvaqt bo'p Xoldorjon ko'zin yoshladi,
Bejoyn ko'p vaqlarni xushladi.

Yuragi yorilib, dimog'i chog' bo'lib,
Xoldorjonning kallasidan ushladi.
Yer buldirab, yuraklari kuyadi,
Olis yo'l bedovning ko'zin o'yadi.

Tura kel deb, Xoldor qulochin yoyib,
Xushomad qip Sahmonjoni suyadi.

Tog'da qo'ygan Toy hindining qizini,
Xushvaqtchilik qilsin qishi-yozini.

Xoldorjondan ko'ngli to'ldi Sahmonning,
Dadil bo'p Sahmonjon ochdi ko'zini.

Ana endi Soqibekni o'ngarib oldi. Suv olib keLIB, Sah-monga ichirdi. Sahmon dadil bo'ldi; o'ziga keldi.

Qarasa Sahmon, Shodmonbek Soqini o'ngarib kelayapti. Sahmonning hushi boshidan uchdi. Xoldorga qarab Sahmon pol-von bir so'z aytaverdi:

Xoldorjonim, kun qiyomat bo'ldimi?
Ochilmayin gulginamiz so'ldimi?

Oydayin yarqillab Soqi ko'rindi,
Hangomachi Soqibulbul o'ldimi?

Oxiratga safar qilib ketdimi?
Yo bilmayman, yolg'onchidan o'tdimi?
So'zchiginam, sozchiginam Soqijon,
Joni chiqib huzurida yotdimi?

Bulbuldayin tilli Soqi shoirim,
Ovji¹ kelsa ko'p gap aytar toirim,
Rostin aytgin, Xoldor mahram, tilingdan,
Ohangdor na'magar Soqi o'ldimi?

Darrov bu gapni Soqibulbul eshitdi. «Sahmon xafa bo'l-masin», – deb Soqibulbul bir so'z aytaverdi:

Bedov otlar shaylanibdi,
Yakka mixga boylanibdi,
Otginadan men yiqilib,
Picha boshim aylanibdi.

Soqibek charchab yotibdi,
Majlisda so'zin aytibdi.

Pichagina bosh aylanib,
Qulog'im chinglab² yotibdi.

Badanim hammasi sog'di,
Kelgan joyim baland tog'di.

Otdan yomonroq yiqilib,
Miyam chayqalib ketibdi.

Davron suramiz begumon,
Xafa bo'l mang, Soqi omon!
Ozroq boshi aylangan,
Xafa bo'l magin, Sahmonjon!

Olis qoldi xoni-monim,
G'am yema tanim sihatdi,
Xafa bo'l ma, Sahmonjonim!

¹ Avji.

² Chinglamoq – 1) shangillamoq; 2) shuvullamoq.

Soqibekning gaplariga,
Dimog‘lari chog‘ bo‘p ketdi.
Esonlik xo‘p g‘animatdir.

Ikovining gaplariga,
Kelayotgan ko‘p qo‘shtinning,
Dimog‘i choq bo‘lib ketdi.

Asta-asta, dasta-dasta,
Sahmonjonning ko‘ngli xasta.
Gulnor pari qarab tursa,
Ayni namozshom bo‘lganda,
Beklar keldi chaparosta.

O‘lmasin, Gulnor o‘lmasin,
Qo‘shtinning hushin xushlamoqqa
Gulnor pari bejoy usta.

Jam‘i bekka Gulnor pari qaddin bukdi, salom berib qizlar
bilan beklarning oldiga chiqdi.

Beklarning vaqtin xushladi,
Hormang deb labni tishladi.
Dimog‘i choq bo‘lib ketib,
Besh yuz qiz shappatday bo‘lib,
Besh yuz bedovni ushladi.

Hamma beklar jo‘shib ketdi,
Juda siyladi beklarni,
Juda ko‘ngli toshib ketdi.
Ot-potini boylab qo‘yib,
Hamasiga joy ko‘rsatdi.

Ana endi hammasi o‘z joyida o‘tirishib, otlarini qashla-
shib, qonlarini, turnoqlarini yuvishib, hammasiga dasturxon yo-
yib, Gulnor pari ovqat tortdi. Qorni to‘q bo‘ldi. Dimog‘lar chog‘
bo‘ldi.

Go‘ro‘g‘libek: «Ming qarg‘aga bir kesak», – deb, zo‘r podsho bilan hazillashgani yo‘q edi yigit bo‘lgandan beri. Ana ertan urushning vahmi tushib: «Bir Rustam sifatli Sahmon polvon edi, bir fribgar Soqi miroxo‘r edi», – dedi. Bu ikovi yarador edi. «Ertan kunim qanday bo‘lsin ekan», – deb, oh tortdi. Ana endi Gulnor pari zulfini tarab, boshini chayqab, Go‘ro‘g‘libekning xafa bo‘lganini so‘rab, bir so‘z aytaverdi:

Hindistonda otning dumি cho‘zildi,
Urush qursin yurak-bag‘ir ezildi.
Shunday polvon turib yonboshingizda,
Nimaga, vallamat, ko‘ngling buzildi?

Hindilardan, to‘ram, olding lotingni,
Har alvonda chopdingiz G‘irotingni.

Xushi-xushvaqt bo‘lib obro‘ topganda,
Menga aytgin, yuragingda dardingni!

Sizday mard, hindidan oldi o‘chini,
Gulnor pari toblab o‘rdi sochini.
Bu majlisda oh tortding, shoh to‘ram,
Menga aytning oh tortganning vajini!

Urush kuni ot yolini silaysiz,
Menga aytning xafalikning ma’nisin,
Shoh to‘ram, nimaga o‘ksib yig‘laysiz!¹

Hindiston qaylig‘ingning shahridi,
Xiznat qilib yig‘di sizga zo‘rini.
Siz xafasiz myonda toqat qolmadи,
Menga aytning, yuraklarning cherini!

Sabab nima qon yutdingiz?
Hindiman savash etdingiz.

¹ Qo‘lyozmada: «jilaysiz».

Menga aytinq xafalikni,
Nimaga vahim tortdingiz?

Ana endi Go'ro'g'libek: «Qaddingdan, o'zimning shahrim uzoqlik qildi. Otang menga zo'rlik qildi», – deb, Gulnorjonga qarab, bir so'z aytaverdi:

Boylar po'lat qirliq qildi,
Qong'ar tog'i o'rlik qildi.
So'rama yurakda dardni,
Otang menga zo'rlik qildi!

Podsholig'in yig'ib qo'yib,
Shu bugun Sahmon polvonga,
Otang cho'rtta erlik qildi.

Ertan holim qanday bo'lar?
Odamimning ko'pi o'lar;
Kunim qorong'u bo'p qolar.
Otang menga zo'rlik qildi.

Sahmon polvon bilan Soqiy,
Ikovi yarador bo'ldi.
Kuniman otang urushib,
Bizlarga bosimlik qildi.

Ertan nima bo'lar holim?
Yarador Soqibulbulim.
Bir suyanchim Sahmon polvon,
Xay attang, arslonlarim,
Hammasi xafa bo'p qoldi.

Sahmon behush bo'p yiqildi,
Otang bizga zo'rlik qildi.
Rustamdayin polvon ekan,
Cho'rtta bizga o'rlik qildi.

Ham Siminga, ham o'zimga,
Yakka o'zi zo'rlik qildi.

Olis qoldi turkman elim,
Behush bo'p Soqibulbulim.
Ertan nima bo'lar holim?
Qaytay, kunim qora bo'ldi.

Men otangdan yomon qo'rqedim,
Qochay desam uyalaman.
Cho'rtta-po'rtta o'zim qo'rqedim
Mening ishim tovba bo'ldi.

Lashkarginam ko'rib qoldi,
Otang menga zo'rlik qildi.

Qaytayin, men bo'ldim sarson,
O'lja bo'lar G'irko'k hayvon.
Qani kay yomon klinikda,
Qani Ko'lbar, Hasan Chopson.
Mening holim badtar bo'ldi,
Hindistondan ketmakligim,
Hay attang, xatar bo'ldi.

Hindilar qo'zg'alib ketdi
Ish yomon bo'p, badtar bo'ldi.

Elim yaqinda bo'lmadi,
Hasan Ko'lvar, Hasan Chopson,
Yetti yashar Samandarim,
Hasan yakdastam bo'lmadi.

Sahmon polvonning holiga,
Qarab bir nazar qilmadi.
Dumalatib tog'ning toshin,
Hasan Chopsonim bo'lganda,
Qilardi Hindining ishin,

Samandarim bo'lgandaydi,
Kesardi Toy hindi boshin.

Podshoning bordi chotiri¹
Tekis Hindiston adiri.
O'tdi polvonning qadri,
Xo'rlik ko'rdi hindilardan,
Go'ro'g'libekning botiri.

Toy hindi ko'p zo'r ekan,
O'tdi Chopsonning qadri.

Tog'ni cholgan tuman bo'ldi,
Hindistondan ketmoqlig'im,
Men qaytayin, gumon bo'ldi.

Ertan hindilar urushsa,
Ham beklarga, qo'shinimga,
Qaytay, oxir zamon bo'ldi.

Toy hindi bejoy zo'r ekan...
Qaddingdan Gulnor pari,
Kunim mening yomon bo'ldi.

Ana endi Gulnor pari Go'ro'g'libekka qarab, yomon kunga yarab, Chambilga bormoqlikni so'rab, kiyim-kechagini kiyib, ro'molini o'xhatib o'rab:

– G'am yemang, Chambilga hash-pash deguncha borib kelaman, dedi. Go'ro'g'li:

– Koshki edi, borib kelsang, – dedi.

Unda Go'ro'g'libekka qarab, Gulnor pari tasalli berib: «G'am yemang», – deb jaranglab kulib, bir so'z aytaverdi:

Xabardor bo'lgaysiz sochi sunbulga,
G'am yemang, shoh to'ram, quloq song tilga!

¹ Chotir – chodir, harbiy qo'nalg'a.

[Bugun o‘zim] qanot boylab ucharman,
Choshkagacha borib kelay Chambilga.

Qanot boylab ko‘kka uchib ketarman,
Qattiq xizmat, jonginamni sotarman.
Yarim kecha Chambil belga yetarman.
Tong otguncha bo‘lgan gapni beklarga,
Bir-bir qilib voqeasin aytarman.

Kun yoyila, o‘zim urush qo‘zg‘olmay,
Kun por-pora chiqayin deganda,
G‘am yemang Chambildan qistab yetarman.

Agar Chambil elda bo‘lsa polvonlar,
Tez boring deb, ish taraflab qaytarman.
Agar polvonlarga zo‘rlik qilsa hindi,
Undan keyin Ko‘yi Qofga ketarman.

Ko‘yi Qof podshosi Rahmat pariga –
Yunusjonning otasiga men borib,
Million-million devni olib qaytarman,
Devni olib Hindistonga kelarman.

Tuproqlarin elab ko‘kka sovurib,
O‘tlar qo‘yib, men qop-qora qilarman.
Kam kuch bo‘ldim deyib ko‘ngil cho‘karmang,
G‘am yemang obro‘ni o‘zim olarman!
Aytgan so‘zim ilojini qilarman.

G‘am yemang, g‘amxo‘ring ollo, podshohim
Hindilardan asti tortmangiz vahim!
Xabar op turayin men o‘zim doim,
Har yoqqa bormoqqa Gulnorjon qoyim.

Qulab ketsa mayli naqqoshli uyim,
Tong otguncha bu xizmatni tindiray,
Asti buning uchun tortmangiz vahim.

Go'ro'g'libek:

– Qaddingdan, ko'nglim to'ldi sendan. Hali nikohingni qiyganim yo'q. Shuytib, chin sidqidil so'zingni aytayapsan. Balli, endi kaming qolmadi. Sendan rozi bo'ldim, – dedi.

Ana endi Gulnor paridan eshitmak darkor gapni. Ana endi Gulnor pari qanot boylab Chambilga jo'nashini ko'ring:

Sir bildirmang, deb qizlarga so'yladi,
Tarat bo'lib, hindilarni poyladi.
Qong'ar tog' boshiga chiqib Gulnorjon,
Yaxshi qanot, yaxshi dum qib boyladni.

Qaynadi Gulnorning ko'ngli, jo'shdi,
Buli ko'rib qizlarning aqli shoshdi.
Choppa-choq bo'p o'zin choqlab Gulnorjon,
Ola-govgum Qong'ar tog'idan uchdi.

Oy Gulnorjon g'ayrat qip,
Uchaverdi falakka.

Har porillab bo'zlatdi,
Har alvonda so'zlatdi.

Kaptar bo'lib Gulnorjon,
Chambil belni izladi.

Sochin yoyib o'radi,
Ixlos urib Gulnorjon,
Necha tog'lardan oshib,
Chambil elga jo'nadi.

Gulnor jonini sotib,
Har paridan ter ketib.

Gulnor pari qistaydi,
Necha tog'lardan o'tib.

Qo‘nmay tog‘ning guliga,
Kelayotir Gulnorjon,
Jo‘nab Chambil eliga.

Har tarafga ko‘zginasi termulib,
Osmonda porillab uchdi Gulnorjon,
Adashmay deb Chambil elga termulib.

Shoir qo‘yar aytgan gapni bobiga,
Qiziqsa qo‘yadi so‘zni juftiga,
Yarim kecha-yarim kecha bo‘lganda,
Gulnor yaqinladi Balo tog‘iga.

Bejoy qistab uchdi, o‘pkasi hishti,
Charchay deb Gulnorning aqli shoshdi.

Balo tog‘dan o‘tib Gulnor parizod,
Chambilning shahriga ko‘zлari tushdi.

Gulnor pari endi vaqtin xushladi,
Chambil elin ko‘rib, bo‘g‘inin bo‘shladi.
Baland uchgan ekan o‘zi davra olib¹,
Yunusjonning peshtoqiga tashladi.
Endi yetdim deb, vaqtini xushladi.

Ana har boli parlardan ter to‘kilib, teri qotib, o‘zini rostlab olib, ana Gulnor pari odam suratli bo‘lib, Yunusjonga qarab bir so‘z aytaverdi:

Hindistondan uchib keldim shu zamon,
Girdimdan ketgay-da hamisha tuman.
Uyingizdan, opa, nega chiqmaysiz,
Hindistondan keldi bir siyli² mehmon.

¹ Qo‘lyozmada: «davrodib». Davra olmoq – aylanib uchmoq.

² Hurmatli, izzatli.

Ketgan ko'shing bo'lsin har joyda eson,
Yunus opa, uyingizda bormisiz?
Hindiston shahridan keldi Gulnorjon.

Bemahalda bo'ldim men o'zim sarson,
Tanam bilan ko'nglim bo'libdi hayron.
Ish ish taraf darrov o'zim ketaman,
Uyingizdan darrov chiqing, opajon!

Ziyod bo'lgan oy Gulnorning xohishi,
Qiz xalqining o'n sakkizda ravishi.
Yunus pari shunday qulog'in solsa,
«Opa», – deydi, bir ayolning dovushi.

Yunus tura solib eshikni ochdi,
Gulnorjonne ko'rib aqli shoshdi.
Tush derga¹ Yunusda toqat qolmadi,

Gulnor pari shundayin pastga tushdi.
Yunus bilan quchoqlashib ko'rishdi.
Qurbon bo'lsang xizmatkorning bo'yiga,
Ko'p gap keldi oy Yunusning o'yiga.

Yur, chirog'im, dedi endi iyartib,
Gulnorni asta op keldi uyiga.

Endi asta, hech kimni uyg'otmay o'tirdi gul tomda. Endi,
Yunus pari Gulnor pariga qarab astagina bir so'z aytaverdi:

Gap chiqadi kuyganlarning tilidan,
Har gaping dardima darmon, Gulnorjon,
Yomon kelding Hindistonning elidan.

Oshib kepsan necha tog'ning belidan,
Qistab o'tib, zanglab yotgan cho'lidan.

¹ Deyishga.

Bosgan izginang ko'zimga surma,
Qattiq kepsan Hindistonning elidan.

El xarobot bo'lar yomon tilidan,
Hech ish kelmas kam g'ayratning qo'lidan.
Yaxshilikmi, yomonlikmi kelganing?
Yakka kelding Hindistonning elidan.

Ketgan beklar yo bir sho'rli bo'ldimi?
Hindi, Xitoy atrofmi oldimi?
O'rtada qop, ketgan beklar o'ldimi?
Senday jonon bildiray deb keldimi?

O'zimdan ketibman qaytay shu zamon,
Tun ichida bo'psan sen o'zing sarson.
Qattiq ishga kelgandayin xo'rsinding,
Kelganiningning ma'nisini, Gulnorjon,
Kelganiningni darrov aytgin, do'stimjon!

Ketgan beklar qo'lli bo'ldimi?
Qiyomat savdoda ular qoldimi?
Qorong'u kunlar boshiga tug'ib,
Senday oyim bildirgani keldimi?

Ana endi Gulnor pari Og'a Yunusga qaradi. Og'a Yunus deb atalishining ma'nisi shu edi. Go'ro'g'li bir shaharga Chambildan yovlab ketganda Chambilni Yunus so'rab turguvchi edi. Og'alig'inining ma'nisi shu edi.

Endi Gulnor pari Yunus pariga qarab bir so'z aytaverdi:

Qo'rqma, hurkma esonchilik, opajon,
Bo'lgan gapning rostisini aytayin!
G'am yemang beklarim Afg'ondan o'tdi,
Hindiston eliga hammasi yetdi.

Qiz buloq tog'ida qo'shining yotdi.
Menday cho'ring sizga rostini aytdi.

Noz qip qaddimizni bukdik,
Gavhar, yoqt marjon taqdik.

Bu qo'shinni bizlar bilmay,
Shisha supa, marjon supa,
Biz Tomosha toqqa yetdik.

Bilmaymizizar qo'shinni,
Besh yuz podshoning qiziman¹,
Qo'rqmay, qo'rqmay Qizbulloqda,
Hangoma chaq-chaq qilishib,
Kichkina podsho qiziman,
Hangoma qip tog'da yotdik.

Bizar² bilmadik qo'shinni,
Yana kunduz kuni yotdik.
Chiroqdan soqi bilibdi,
Chaq-chaq qip bilmayin qopmiz;
Go'ro'g'libekning qo'shini,
Bizni aylanib qolibdi.

Shu gaplarim rosti bo'ldi;
Aylanishib ko'p lashkar,
Bizarni qamsashib qopti,
Shu ishimiz uyat bo'pti.

Marjon pari chindobilim;
Marjonman³ va'da qilibdi.

Biz bilmaymiz shuncha gapni,
Soqibulbul, Go'ro'g'libek,
O'rtaga kelib qolibdi.

¹ Qizi bilan.

² Bizlar.

³ Marjon bilan.

Bir necha qiz yotib qoldi,
Qo'rqib ichi qotib qoldi.

Go'ro'g'liman Soqibulbul,
Salom berib yetib qoldi.
Soqibek shoirlik qilib,
Qiz bitganga aytib qoldi.

Uyranishdi qizlar endi,
Bo'yin qo'ydi taqdiriga.
Kanizlar xizmatkor bo'ldi.

Erta bilan tong otganda,
Hindistondan qurtday qaynab,
Hindi bitgan yetib keldi.

Simin bizarga tan bo'ldi,
Otamning ichi g'am bo'ldi.

Otam bejoy zo'r polvondi,
O'zi kirib ko'p urushdi.
Bizlarga bosimlik qildi.

Sahmon bilan Soqibulbul,
Ozroq yarador bo'ldi.
Xufton chog'i Go'ro'g'libek,
Hasan Ko'lbar, Hasan Chopson,
Essiz polvonlarim dedi.
Attang deb xo'rsinib qoldi.

Aytib kelay esa dedi
Gulnor, polvonlarga keldi.
Otamning o'zi urushgan,
Juda yomon urush bo'ldi.

Qancha o'lganin bilmayman,
O'lik soy-soy to'lib qoldi.

Qonlar yutib xizmatkoring,
Bildirgani bunda keldi.

Ko'rgan boqqanim shu bo'ldi;
Hasan Chopsonni aytgani,
Yetalab ketmoqqa keldim.

Olib ketmoqqa keldim.
Qaysi birovni aytayin,
Ko'rgan boqqanim shu bo'ldi.

Uch yuz botmondan¹ podsholikdan un berar edi, to'rt polvon bo'lib olishib, tog'larning chashmasini hovuz qilib, atala qilib ichar edi. Qorni to'y may cho'llarda govvosni², ayiqni, sherni, karkni, filni ushlab olib, yeyar edi.

Ana bularning junini tutatsa kelar edi. Darrov Yunus pari birovining soqolini tutatsa, [uning] qulog'i govlab ketar edi. Junini tutatsa yetar edi. Junini tutatdi. Xez qilib to'rtovi ham Yunusning oldiga yetdi. Yunusman³ Gulnor pari kulib akalarining oldiga chiqdi. Hasan Ko'lbar oy Yunus bilan Gulnor pariga qarab bir so'z aytaverdi:

Joningdan bo'layin qurban,
Uyginangga kepti mehmon.
Kelgan mehmon qutli bo'lsin,
Bo'g'oz bo'lib, sutli bo'lsin!

Yomg'ir yog'ib, Chambil tog'i,
Ko'kalam bo'p, o'tli bo'lsin.
Nega qiyナding jonimni,
Katta mehmon kepti bunda,
Gulnor do'stim qutli bo'lsin!

¹ Botmon – taxminan 148-150 kilogramga teng o'ichov.

² Govvos – katta sigir.

³ Yunus bilan.

O'lay deb keldim men bunda,
Ko'zli mehmon qutli bo'lsin!

Yuzginang yorug' bo'pti,
Tog'dan oqqan ariq bo'pti.
Suluvidi mehmonginam,
Bu mehmoning oriq bo'pti.

Badanlari chuykab ketib,
Yuzginasi sarig' bo'pti.

Semiz qo'yday bo'p yurardi,
Qutli bo'lsin mehmonjoning,
Nega buytib oriq bo'pti?
Qutli bo'lsin siy mehmoning!

Ana endi Gulnor pari polvonlarga qarab bir so'z aytayapti:

Oriqladim, yuraklarim qavardi.
Gulnor so'zga chevardi.
Olib keldim men sizlarga,
Hindiston eldan xabardi.

Fil minib hindilar keldi,
Isroyil sur tortganday bo'ldi.
Shuytibgina ozib Gulnor,
Yomon xabar olib keldi.

Tog'ning guli xazon bo'ldi,
Mulla aytgan azon bo'ldi.

Filni minib hindi keldi,
Sahmon bilan Soqibulbul,
O'lik tirigin bilmadim,
Ikovi yarador bo'ldi.

Kattasi deb Gulnor pari,
Sizlarga aytgani keldi.

Ana endi shunda, shu, bechora Yunus pari yetti yashar Samandar bilan Hasan Chopsonga (bular G'irotdan ildam edi, Hasan Ko'lbar bilan Hasan yakdasta ko'p og'ir edi) qarab bir so'z aytayapti:

Hasan aka jonni soting,
Kaltakni osmonga oting!
Borgancha o'zing Sovuting,
Kelgan mehmonman iyarib,
Hindistonga billa keting!

Be taraddi bo'l manglar,
Nasihatni hech ol manglar!
Mehmon bilan billa keting,
Mehmon dan asti qol manglar!

Yunus pari bor deb aytdi,
Gulnor pari qanot qilib,
Hindistonga jo'nab ketdi.

Hasan Chopson, Samandari,
Qanotli qushning ostida,
Yulduzdayin og'ib ketdi.
Gulnor qanot qoqib ketdi.

Yer ko'chgandayin bo'lib,
Semurg' uchgandayin bo'lib,
Baland tog' ko'chganday bo'lib,
Ajal may ichganday bo'lib,
Zo'rga har kim qoyil bo'lsin,
Hasan Chopsonman Samandar,
Baland tog'dan irg'ib o'tdi;
Daryo kelsa kechib ketdi.

Har irg‘iydi juftak tuzab,
Tong qulan iyak bo‘lganda,
O‘lmasin Gulnor o‘lmasin,
Qong‘arga yaqinlab yetdi.

Gulnor pari oldida yo‘l boshladi
Qo‘shinlarga palov, go‘shtni choshladi.

Xayr, bir yigirma tosh¹ qolib edi Qizbuloq bilan Hasan Chopsonning o‘rtaligi.

Ana endi bular ham uzoq yo‘l yurib, Gulnorning ham qanoti tolib kelayapti. Hasan Chopsondan yetti yashar Samandar yarim tosh ketin qolib kelayapti. Barakallo, Hindiston bilan Chambilning o‘rtaligini, shu sahardan buyog‘iga yo‘Ining tanobini tortib, sahardan berli olib kelayapti. Kun yoyilib qoldi.

Kechasi bilan endi, Toy hindidan eshitmak darkor gapni.

Hindistonda tabib ko‘p bo‘lar ekan. Toy hindini necha ilmi-hikmat bilan ko‘zini, go‘sht solib, qoracho‘g‘ qo‘yib, ko‘radigan qildi. Shu miyasi andak gangirab qoldi. Soqibulbulga xundor bo‘ldi. Ot tortib, shu filni minib: «Sirni bilmisin taraflar», – deb, vaqtli taraddi qildi. Har shahardan lashkar baydoq-baydoq kelib Toy hindiga qo‘shilaverdi. Toy hindi kuchayib ketdi. Qop-qora tutab hindi jo‘nayverdi.

Toy hindi odamlarga:

– Tikka, Simin bilan bitta besoqol bor, ikovini tirik ushlab olib kelamizlar, – dedi.

Ana endi bular jo‘nayversin, gapni Simin bilan Go‘ro‘g‘libekdan eshitmak darkor.

Ana endi Sahmon bilan Soqi miroxo‘r urushga yaramay qoldi. Go‘ro‘g‘libek tavakkal qilib, otga minib ketdi.

Toy hindi qistab otdi;
Fil bitganni bo‘zlatdi.
Otday qilib bachchag‘ar,
Fil bitganni xezlatdi.

¹ Tosh – sakkiz chaqirimga yaqin (taxminan 6 kilometr) uzunlik o‘lchov birligi.

Yoppa-yovlik ur-ha qip,
Hindilarga yur-ha qip,
Go‘ro‘g‘lini qo‘shinini,
Bitta qolmay qir-ha qip.

Kelayapti sop hindi.
Chop-ha, chop-ha o‘rga deb,
Ot qo‘yinglar lashkar deb,
Go‘ro‘g‘liday zo‘rga deb,
Juda yomon bo‘p ketdi,
Hindi burqillab ketdi.

Hamma yerni chang tutdi.
Bulut gurkuraganday,
Fillarning dovushiga,
Tog‘lar burkillab ketdi.

Lashkarning ko‘pligiga,
Yerlar so‘lqillab ketdi.
Tug‘larni yalpillatdi,
Hindi bitgan tutashib,
Hech qaytmaydi bachchag‘ar.

Toy hindi zo‘r yov ekan;
Qong‘ar katta tog‘ ekan.
Toqqa yaqinlab yetdi.

Go‘ro‘g‘li G‘irni yeldi,
Qo‘shinini qirq bo‘ldi.
Qizib ketdi Go‘ro‘g‘li,
Hasanxonni yosh demay,
Qistab urushga soldi.

Bangi baxaybat tortib,
Bulut cho‘kkanday bo‘lib,
Go‘ro‘g‘libek ilgari,

O'zin o'rtaga urdi.

Toy hindining oldiga,
Borib ro'baro' bo'ldi.

Go'ro'g'lining ko'zidan,
Oti bilan o'zidan,
Toy hindining zo'r fili,
Qo'rqib taysallab qoldi.

Og'zin ochib G'irko'k ot,
Toy hindining filini,
Tumshug'idan jonivor,
Jonivor G'irko'k tulpor,
Ot qo'yib tishlab oldi.
Tumshug'ining uchini,
Anchasin yulib oldi.

Toy hindi shopiman,
Osmondan yarqiratib,
Go'ro'g'lining boshidan
Tos tepasini ko'zlab,
Go'ro'g'liday polvonga,
Toy hindi xanjar soldi.

G'irot chappa bo'p qaytdi;
Go'ro'g'li o'lmay qoldi.

Nazarkarda G'irko'k ot,
Bo'ynida bor edi xat,
Tepada bor bir suvrat;
Yer yuz¹ lashkarga to'ldi.

Go'ro'g'lining qo'shini,
Daryoda muz ko'chganday bo'p,

¹ Yer yuzi.

Nayza qilich yarqirab,
Yulduz ko'chganday bo'ldi.

Bir-birini tanimay,
Hindilarman Go'ro'g'li,
Aralashib hammasi,
Sarma qilich bo'lishib,
Ajallisi o'lishib,
Ha-ha deb chopishib,
Gurzi bilan urgani,
Qoldi yerga yopishib.

Barakalla ko'p lashkar,
To'p-to'p bo'p dasta-dasta,
Mast bo'lgan sherdai bo'lib,
Ot qo'yib chaparasta,
Turkman-o'zbek qo'shini,
Hindilarman chinnig'ib.

Jondan kechgan moy oshar,
Urushmoqqa bo'p usta,
Goh balandda, goh pastda.

Urush ko'p qiziq ekan,
G'ubor yurakdan ketib,
Gohi tog'da, goh pastda,
Ko'p katta urush bo'ldi.
Bo'ri qo'yga chopganday,
Ot qo'yishib hammasi,
Dapan qip chaparasta,
O'lik dumalab qoldi.

Xon Hasanxon yosh edi,
Yosh ham bo'lsa bosh edi.
Barakallo Hasanjon,
Bejoyin urush qildi.

Balli Hasanga deyishib,
Hasanxondi sardori,
Bir kun bo'lmoq-o'lmoq deb,
Xuddi ho'kizga o'xshab,
Jam'i kelgan hindiman,
Tinmay surishib qoldi.

Gulnor pari jon sotdi,
Qizlar tog'da turuvdi,
Hamma ishni ko'ruvdi,
Hindilar zo'rlik qilsa,
Bizar o'lamiz, deyishib,
Qo'rqib yig'lab turuvdi.

Bu urushni ko'rди-da,
Gulnor pari attang deb,
Tog'ning boshiga tushdi.

Endi pari qanotini tashladi. Har tukidan munchoq-munchoq ter ketdi. Charchab, Hasan ko'lbar bilan yetti ishar Samandar horib yetdi. Gulnor pari Marjon pariga aytди.

— Go'ro'g'lining tarbiyat kunandasining oldiga chiqib, salom berib. Qiz buloqning boshidagi ovqatga o'zini o'ngarib qo'ygin, — dedi.

Marjon pari qanday dono qiz, Go'ro'g'lini aldagani qiz, yashinday oqib, Hasan Chopson bilan Samandarning oldiga peshvoz chiqib, bir so'z aytib, tog'da to'xtatdi. Ikki polvonga qarab Marjon parining aytayotgan so'zi:

Assalom alaykum ikki o'r qaynim,
Talab qilib bunda kelgan zo'r qaynim.

Hindiston shahari oshmang, dushmani,
To'xtang-to'xtang vatan shu yer zo'r qaynim!

Ko'p chopishib, tortib kepsiz ohi-voy,
Sarg'ayibdi, yo'l uzoqdi rangi-ro'y.

Eson-omon bunda kelgan bachchajon,
To'xtang-to'xtang sizga vatandir shu joy!

Dushman ko'pdır yurak bo'lgan to'la qon,
Hormang qaynim, bo'p kelibsiz ko'p sarson.
Menday chechang bo'yingizdan sadag'a,
Biror fasl damni oling bachchajon!

Biror fasl qaynim shu yerda yoting,
Ish xatarli, o'zingizni sovuting.
Qorningizni to'qlab oling qayinlar,
Chechangga shu bugun ishni ko'rsating!

Menday chechang sarg'ayibdi siyog'i,
Hindilardan uyilibdi qovog'i.
Bachchajonim dam olinglar shu yerda!
Mening o'zim Shodmon mergan qallig'i.

Haq eshitgay menday sanam dodini,
Buzib keling Hindistonday yurtini.
Menday chechang bo'yginangdan aylansin!

Mening o'zim Shodmon mergan xotini,
Tog'dan oshmang, vatan shu yer bachchajon!

Qorin to'qlab, dampingizni olishing,
Ko'ngillaring qaynab daryoday jo'shing,
Xo'p dam olib, mana tog'lardan oshing!
Qorinlarni to'qlab, dimog'in choqlab,
Andan keyin Toy hindiman urushing!

Ana endi, bu Hasan Chopsoni qurg'ur ham besoqolboz
edi, ham xotinboz edi.

Hasan Chopson aytdi:

– U bachchag'arlar ... Qay shaharga borsa, darrov shu
qizning suluvini oladi. Bizlarga hech qursa yesir-pesir bir katta
bo'p qolgan xotinni ham bermaydilar, – dedi.

Aka shuytib, Hasan Chopsoni qurg‘ur ko‘nglidan o‘p-kalabgina bir xotin umid qildi. Buni Marjon bildi, kuldii.

– Qaynim, siz qiz xotin olsangiz, o‘lib qoladi-da. Katta semiz xolam bor, shuni sizga olib beraman. Xolamning singlisi bor, uni ukangizga olib beraman. Ikovginangizni jezna qilaman, – dedi.

Hasan Chopsonning qulog‘i lik-lik etdi, tos tepadan oshib ketdi. Bu xotin yaxshi narsa bo‘lar ekan, Hasan Chopsoni qurg‘urning charchagani ham esidan chiqib ketdi. Samandar ham quturib ketdi. Ana endi shu yerda ikovi maslahat qilib:

– Emasa siz qaynisingil bo‘ldingiz, – dedi.

– Men, ham yangalaringman, ham qalliqqa soladiganman, – dedi Marjon pari.

Ana ikovini aldab, aqlin urib oldi. [Mehmonlar] haligi kuyovsinib, ovqatni ham chala-chulpi yeyishib oldi. Ana endi asta-asta Gulnor parining oldiga chiqdi. Shunday qarasa pastga osmondan yashin tushganday bo‘lib beklar urushib yuribdi.

Ana Gulnor pari Hasan Chopsonga qarab bir so‘z aytayapti:

Polvonlar ko‘p odam o‘ldi,
O‘liklar chalkashib qoldi.
Toy hindi zo‘rlik qildi.
Menday kelining bordi-da,
Sizlarni iyartib keldi.

Ko‘rmaysanmi beklaringni,
Yerni bosib hindi keldi.
Go‘ro‘g‘liga, beklaringga,
Toy hindi bosimlik qildi.

Ish ko‘rsatgin azamatlar,
Juda katta urush bo‘ldi.
G‘ayrating bo‘lsa ko‘rsatgin,
Hindilarni quvib ketgin!
Bizarga ishni ko‘rsatgin!

Olsang Hindiston elini,
Qiz tob bermas, o'lib qolar,
Semizdan kelgan xotinni,
To'rtta beshta tuqqanini,
Xohlagancha olib qaytgin!

Ko'rmaysanmi bu urushni,
Toy hindi qilgan xurushni?
Chambil beklari zo'r ekan?
Simin bularga bo'lishdi.

Hech kami asti qolmadi,
Dimgina turmay hurushdi.
Ko'p savdoni solib qaytgin,
Toy hindini sen o'ldirib,
Yaxshi xotin olib qaytgin!

Go'ro'g'lini xushvaqt qilib,
Ajab kepsan, balli polvon,
Hindistonning shahariga,
Zilzilani solib qaytgin!

Qo'lingdan kelsa ayama,
Qilgulikni qilib qaytgin!
Ajal yetsa o'lib qaytgin!

Xotin yigitning chirog'i,
O'lsa iching achimasa,
Yesir xotinga ko'nmasang,
Tumso¹ qizdan olib qaytgin!
Nima bo'lsang, bo'lib qaytgin!

Dushmanidan qayg'u-alamni,
Polvonlarim, olib qaytgin!

¹ Tumso (tumsa) – hali tug'magan xotin; majozan tug'maydigan xotin.

Eshitdingizmi so'zлarni?
Ko'rgaymiz o'lmay yozlarni!
Toy hindini quvib ketib,
Xushvaqt qilgaysiz qizlarni!

Otamman¹ barobar bo'lgin,
O'ldirmay tirik op kelgin!
Dovushdan dushman qo'rqadi,
Qattiq shovqin sop chinqirgin!
Qo'lingdan kelsa ko'p qirgin!

O'zing bir katta bo'kirgin!
Beklarga bo'lzin tasallii,
Polvonlarim hormanglar deb,
Shu yerdan o'zing chaqirgin!

Tomoshalar biz qilayik,
Kechqurun xotin op kelsang,
Sizni qalliqqa solayik;
Xo'p yaxshi xizmat qilayik.

Bir shu yerda na'ra tortgin!
Muddao murodga yetgin!

Aka, lotni olib qaytgin
Boshga savdo solib qaytgin!
Qaytaringda quruq kelmay,
Yaxshi xotin olib qaytgin!

Hasan Chopson:

– Bo'ldi, bo'ldi Gulnor! U yoqdan ko'ngil to'ladigan xotin topilmasa, shuncha xotin bor ekan bu yerda; birovini olarmiz, dedi. Gulnor pari aytdi:

- Bularning hammasi shudring tushmagan qiz, – dedi.
- Gulnorjon, sening ajab ishing bor, Bularni olib keta-

¹ Otam bilan.

miz. Balo toqqa yetamiz. Olqorning semizini, govvosning semi-zini ushlab olib kelamiz. Tuz qoqi, qarta go'sht qilamiz. Murch-labgina kulchatoya¹ solamiz. Semirtibgina yaxshi xotin qilib olamiz, – dedi [Hasan Chopson].

Qizlar qah-qah urib kului.

Hasan Chopson xez qilib borib, Qiz buloqning boshidagi chinorni tomiri bilan sug'urib oldi. Uloqday o'ynab tog'ning boshiga chikib, «Voh bolangning kafshini kiygir, Toy hind... Otangning yonboshiga kaltagim. Hay-hay men keldim deb» shu, bir bo'kirdi... Osmon yerga tushganday bo'lib qoldi. Go'ro'g'libek bildi, Chambildan polvonlar kelibdi bir-ikovi – Hasan Chopson bilan yetti yashar Samandar.

Shu bo'kirganiga fillar hurkdi. Samandar xez qilib ketdi.

Hasan Chopson jon sotdi,
Jilmayib Hasan Chopson,
Chinorni qo'lga olib,
Xulushday harba qilib,
Kelayotir ikovi,
Xuddi baloday bo'lib.

Bul Samandar shovqin sop,
Qizil loladay bo'lib,
Ot qo'yadi⁷⁸ ikovi,
Go'dak boladay bo'lib.

Hindilar qo'rqib qoldi.
Hasan Chopson xez qilib,
Toy hindining filining,
Dumin sug'urib oldi.

Chinor bilan shu Chopson,
Toy hindini bir soldi.
Yerda noxush bo'lib qoldi.

¹ Kulchatey – xamirni shapaloq-shapaloq qilib kesib, go'sht qaynatilgan sho'rvada pishirilgan taom.

Hindi bitgan charqillab;
O'q keladi zarqillab,
Qilich qalqonga tegsa,
O't chiqadi yarqillab.

Xoldor mahram ot qo'ydi,
Shunqor qushday charqillab
Hasan Chopson, Samandar,
Ot qo'yadi ikovi,
Olqorday bo'p dirkillab;
Qulqlari silkillab.

Juda ko'p g'ayrat etdi.
Chinorini to'lg'aydi...

Chinor tekkan odamlar,
Go'shti titilib ketdi.
Xuddi ko'chalay qilib.

Qo'shining har yog'iga,
Yo'l qilib surib o'tdi.
Yangi qizib ikovi
Dushmanni qirib ketdi.

Fillarini Samandar
Osmonga to'lg'ab, otdi.
Karrak uchganday bo'lib,
Osmonga chiqib ketdi.

Xon Hasanjon qoshida,
Tilla qalpoq boshida.
Ot qo'y, polvonim, dedi,
Shu Chopsonning qoshida.

Tomosha aylang Gulnorjon,
Polvonlarning ishiga!

Ot qo'yib chaparasta,
Yetdi dushman boshiga.
O'zlarini jildirdi,
Ichin g'amga to'ldirdi.

Omon bermay dushmanaga,
Hasan Chopson borgan so'ng,
Dushmanlarni o'ldirdi.

Ko'ring Chopson zo'rini,
Baland tog'ning o'rini,
Tumshug'iga bir chertib,
O'ldiradi Samandar.
Govhar toshli pirini.

Oshday qaynatib qo'ydi,
Dushmanlarning sho'rini.
Hasan Chopson ayirdi,
Chambilning odamini.

Kam kuchlarning barini,
Charchagan odamlarni,
Qizbuloqqa jo'natdi.

Samandarman shu Chopson,
Goho tekisni depsab,
Yoshi oqqanday bo'lib,
Bulut cho'kkanday bo'lib,
Chinorni to'lg'alaydi,
G'ayrat qilib shu Chopson;
Dushman oxir zamon.

Chopsonning yurgan yeri,
Bo'lib qoldi qirmiz qon.

Go'ro'g'libek sher bo'ldi,
Xoldor mahram er bo'ldi.

Pisand qilmay hindini,
Go'ro'g'lining lashkari
Bari birday zo'r bo'ldi.

Jopilqaday chuvlashdi,
Tog'da qizlar kulishdi.

Hasan Chopsonga ermak,
Ajallisini qirmak.

Tomoshani balandda,
Sop suluv qizlar ko'rmak¹,
Bu Samandar qon kechdi,
Hindi bitgan chuvashdi.

Toy hindi o'ldi deyishdi.
Hindi bitgan xez qilib,
Hindiston qarab qochdi.

Bir chekkasi tog' bo'ldi,
Hasan Chopson ko'p ildam,
Hindining oldin olib,
Qochirmayin g'uv bo'ldi.

G'uv bachchag'ar qora deb,
O'ldiraman seni deb,
Oq sallani o'ra deb,
Hindilarni qo'rqtidi.

Jon deganing ko'p shirin.
Hindistonning shahrida,
Botir urush bahrida,
Hindi bitgan yo'liqdi,
Hasan Chopson qahriga.

¹ Ko'rmoqda.

Qo'rqan bejoy yomondi,
O'zi, boshi tuproq bo'p,
Ot chopgan yer gurpak bo'p,
Qochaverdi elatga.

Yomon qo'yar uyatga.
Go'ro'g'lining qo'shini,
Toy hindi o'lgandan kay,
Hindilarni xun tugib,
Quvdi Hindiston yurtga.

Dushmanlarni bo'zlatdi,
Go'ro'g'lining qo'shini,
Xanjarni yarqillatdi.
Obro'ni polvon olar,
Dushmanga savdo solar.

Buzoq qochganday bo'lib,
Ziyon ko'chganday bo'lib,
Tuman uchganday bo'lib.

Ot qo'yib o'ldiradi,
Chopon bichganday bo'lib.

Chin murodi topildi;
Urush ko'p qiziq ekan,
Ot qo'yadi sap sherlar,
Qizni quchganday bo'lib.

Barakallo jon sotdi.
O'lmasin Samandar o'lmasin!
Yomonlardan hech bir kishi qolmasin!

Hasan Chopson ermak qip,
To's-to's qilib hindini,
Bo'kirtib quvib ketdi.

Qira-qira Samandar,
Shaharga yaqin yetdi.
Qilich bo'lgan qora qon,
Ot qo'yib Hasan Chopson,
Lashkar qirilib qoldi deb,
Qizi juvon dod dedi.

Chuvlay berdi Hindiston.
Odam tuxmi¹ quriymi?
O'lganga oxir-a zamon.

Yaxshining yurgan joyi,
Hamisha bog'i-bo'ston.
Yomonning turgan joyi,
Yurak bo'lar to'la qon.

Soqolin sildiratdi,
Yunglarin jilviratdi,
Hasan Chopson xez qilib,
Hindiston shahriga,
Ot qo'yib kirib ketdi.

Qizil gulmiz so'ldik deb,
Endi judo bo'ldik deb,
Bola-chaqadan deydi,
Cho'rtta-po'rtta o'ldik deb.

Shaharlarni oralab,
O'ldiradi Samandar,
Dushmanlarni saralab,
Shaharni to's-to's qildi,
Elga ketdi oralab.

Qo'rkoqlar pusinadi,
Chuqrur yerni mo'ralab.

¹ Odam tuxmi – odam nasli.

Hasan Chopson tiklaydi,
Dimog‘larin chog‘laydi,
Endi o‘ldirmayman deb,
Gohisini bir chertar,
Oz-mozgina yaralab.

Odam bejoy ko‘p o‘ldi,
Cho‘llar qon jo‘shab qoldi.
Shahar ichiga kirib,
Xotinlarga ko‘z soldi.

Bu Chopsoni qurg‘ur,
Bilganidan qolmaydi.
Barisi qora xotin deb,
Aslo ko‘ngli to‘lmaydi.

O‘zi go‘shtli, oq deydi,
Semiz xotin olsam deydi.
Dimoqqinam chog‘ deydi.

Hindi bitgan shahariga,
Qo‘rqib qochib kirib ketdi.

Shahariga kirmanglar deb,
Go‘ro‘g‘libek darvozadan,
Turkman-o‘zbek botirini,
Kirgizmayin olib ketdi.

Hasanjonga G‘irni berib,
Hasan Chopson Samandarni,
Borib olib qaytgin dedi.

Xon Hasanjon oyday bo‘lib,
Mindi G‘irotning beliga.
Qaydasiz Samandar deb,
Ketdi Hindiston eliga.

G'irni minib qamchi chotdi,
Samandarni izlab ketdi.
Samandar bilan shu Chopson,
Toy hindining taxt-baxtiga,
Qo'nayishib qistab ketdi.

Darvozasini bir tepib,
Bo'laklab sindirib ketdi.
Xotin-qizning bo'lig'iga
Yangigina shu Chopson yetdi.

Yoshdi – qizlarni olmadi,
Chopsonning ko'ngli to'lmadi;
Ko'nglidagisi bo'lmadi.

Tishi tushgan, yoshi ketgan,
To'qson yashar sakson yashar,
Shunday xotin topilmadi.

Soqollarni tarayotir,
Tushni yaxshi yo'rayotir,
Qo'rquamnglar o'lmarysan deb,
Semiz kampir qarayotir.

Hasan Chopson jafo qildi,
Go'ro'g'liga vafo qildi.
O'zi semiz, bo'ksasi keng,
To'ladan kelgan kampirni,
O'h-o'h deb topib oldi.

Gulnorning aytgani bo'ldi,
Yetti yashar Samandar ham,
Qoranamo, saranamo,
Bir qizni Samandar oldi.

Qo'liga shunday o'tqiziib,
Ikovi tomosha qildi.

Xon Hasanjon qaytinglar deb,
Orqasidan borib qoldi.

Go‘ro‘g‘li opkelgin dedi,
Yuringlar polvonlar dedi.
Ikovic oldiga soldi;
Ko‘rgan hindi hayron qoldi.
Hasanxonga duo qildi.

Qo‘lga olibdi ikki xotin,
Hasan Chopson muchchilaydi.

Hasan sardor oqildi,
Hindistondan haydab chiqib,
Odamlardan qoqos qildi.

Go‘ro‘g‘lining odamlari,
Esizgina jonlarim deb,
O‘liklarni topib oldi.

Qo‘y qo‘zidayin bo‘zlashib,
Yovda o‘lgan xollarim deb,
Qonni to‘kkan jonlarim deb,
Yuvmay janozalar o‘qib,
Hammasini dafn qildi;
Kiyimlarin kafan qildi.

Tog‘dan toshni opkep qo‘ydi,
Zor yig‘lashib dod ayladi;
Hammasi faryod ayladi.
Qur‘on o‘qib o‘lganlarning,
Arvohlarin shod ayladi.

Hindilarning, Go‘ro‘g‘libek,
Barini ozod ayladi.
Hasan Chopson oldi sovg‘a,
Hamma lashkar, Go‘ro‘g‘libek,

O'lgan o'lди, qolgan qoldи,
Do'lonishib chiqdi toqqa.

Ketsin yurakning g'ubori,
O'lganning g'arib mozori.
Hasan Chopsonga qoyil bo'p,
Hormang, hormang jeznajon deb,
Peshvoz chiqdi Gulnor pari.

Yarqillashib qora ko'zlar,
Sap esli sohib tamizlar.
Hormang satta na'ra sher deb,
Oldiga kirishib chiqdi,
Kaptar bo'yin suluv qizlar.

Toqat qilolmay ko'p lashkar,
Dod deyishib ko'zin yoshladi.
Qizlar o'ynab-kulib chiqib,
Jami otlarni ushladi.

To'shak to'shab changin yuvib,
Oy Marjon dasturxon yozib,
Beklarga ovqat choshladi.

Mol so'yib, xudoyi qilib,
Yovda o'lgan odamlarning,
Arvohlarini xushladi.

Tala-to'p Hindiston joyi,
Hindilarning ko'pdır o'yi.
Aza o'tdi. Endi majlis,
Shodmon mengan, Hasan Chopson,
Yetti yashar Samandarning,
Bo'lar Qizbuloqda to'yi.

Bu yog'i urushning payti edi. Ana endi navbat azadan
o'tdi, to'yga yetdi. O'lgan o'lди, qolgan qoldи. Endi Gulnor pari

Hasan Chopsonga, yetti yashar Samandarga qarab: «Ana qallig'ing qutli bo'lsin», – deb bir so'z aytaverdi:

Mana tog'ning osti bo'ldi to'la qon,
Fil bitganni qilding yer bilan yakson,
Bir bo'y yetgan yaxshi qizdan yo'qmidi?
Kampirginang qutli bo'lsin, jeznajon!

O'ynab-kulib ketar endi cheringiz,
Bir shaharga yetadakan¹ zo'ringiz.
Tishi tushgan qizdan topib olibsiz,
Qutli bo'lsin sochi oppoq paringiz!

Ko'p ekandi peshanada sho'ringiz,
Uyda bormi yo qiz olgan yoringiz?
Hindistondan mo'ysafidni op kepsiz,
Qutli bo'lsin torlon ochgan² cho'ringiz!

Kallalari xuddi gov savatday,
Tishi so'yloq, xo'p qopgir boytevatday³.

Olgan yoring o'zi xuddi ko'k itday,
Qutli bo'lsin, jezna, suluv boybichcha!
Huzur qilib, xo'p quchoqlab yotasan.
Janatsangiz xo'psovqotib ketasan.

Yog'ochdan qattiq parini op kepsiz,
Oqshomiga huzur qilib ketasan.
Qutli bo'lsin ko'zi o'tday yoringiz!

Chakkalari qorinday bo'p tirishgan,
O'zi ko'r kam iyaklari burushgan,
Sizni ko'rsa qoshin qoqib kerishgan,

¹ Yetadi ekan.

² **Torlon** – ola, oq ola targ'il, oqish qarchig'ay. **Torlon ochmoq** – badanda parcha-parcha oq dog'lar paydo bo'imloq, pes bo'imloq.

³ Semiz tuyu.

Qutli bo'lsin, to'shli, go'shtli paringiz!
Ko'p ekandi manglayingda sho'ringiz.

Qizlar o'ynagani baland tog' ekan,
Yuraklarda satta qayg'u-g'am ekan.
Bu Samandar picha esli, shum ekan,
Samandarjon, qutli bo'lsin xotining!

Hasan polvon Gulnor pariga; [Bekor aytibsan], – dedi.

Samandarjon qizil ekan yuzingiz,
O'tkir ekan o'ylab tursam ko'zingiz.
Yaxshi ekan sizning olgan qizingiz,
Qutli bo'lsin, jezna, bo'ta ko'zingiz!

Boldan ham shirindi so'zlar,
Gulnorjonda ko'pdi nozlar.
Xotining qutli bo'lsin deb,
Qiqirlashib kulishadi,
Satta birday do'non qizlar.

Hangama o'yinlar qilib,
Kulishadi g'o'non qizlar,
Bola tug'sa sutli bo'lsin,
Ko'klam tog'lar o'tli bo'lsin.

Samandarjon Kashli¹ qizing,
Xotinginang qutli bo'lsin!

Oqshomiga billa yotarsan,
Chambilbeliga ketarsan,
Hangama chaq-chaqlar qilib,
To'ylarda qo'shiq aytarsan.
Qutli bo'lsin kelinchaging!

¹ Kashmirlik.

Maydonga qiyg'os qip kirgan,
Filning zo'rclarini yorgan,
Marjon pari qutli bo'lzin,
Qaddingizdan, Shodmon mengan!

Sarg'aymasin siyoqqinang,
Uyulmasin qovoqqinang,
Marjon pari xizmat qilgan,
Go'ro'g'lining ko'ngli to'lgan,
Marjon pari qutli bo'lzin,
Qo'lingizdan, Shodmon mengan!

Urush uchun jonni bergan,
Hindilarga dangal turgan,
Och bo'riday qirg'in solgan,
Marjon yoring qutli bo'lzin,
Qaddingizdan, Shodmon mengan!

Go'ro'g'liga xizmat qilgan,
Qizlarga bakovul qilgan,
Jilovni bo'yniga solgan,
Jonga zarar aytgan yolg'on,
Oy Marjonining xizmatiga,
Hamma bekning ko'ngli to'lgan,
Yaxshi yoring qutli bo'lzin,
Vo tilingizdan, Shodmon mengan!

Suyganning qolmas g'ubori,
Qishda gurtik¹ tog'ning qori.
Shodmon mengan, qutli bo'lzin,
Sizdan ziyod Marjon pari!

Ana endi o'lganlarga oshi-ob, duoyi fotiha qilib, ana
Shodmon mengan, yetti yashar Samandar, Hasan Chopson xotin-
larining to'yi bo'laversin, Hasan Chopson aytdi:

¹ Qattiq.

– Tirraymay o‘lgur, Gulnor esa mening xotinim hammasidan suluv. O‘zining sochi oqqina, dimoqqinasi choqqina. O‘zi sergo‘shtgina, bo‘ksali, quymuchligina «iyagi burushgan, chakkasi tirishgan», – deb aytadi.

Ana yetti yashar Samandarga buyitib aytadi, Shodmon merganga uytib aytadi. Yo shu to‘yini azaga qaytarib qo‘ysammi? Men arazlab ketaman. Borib bu gaplarni Yunusjonga aytaman, dedi. Haligi kampir xotiniga aytdi:

«Kel, beybichcha, bo‘ynima mingin! Qo‘rqma, qo‘rqma! Bir tovuq olgan ham kunda bir changal don beradi. Biz seni asvallab boqamiz», – dedi.

Bo‘yniga mindirib oldi. Go‘ro‘g‘libekka ham Gulnor pariga [qarab] aytdi:

– O‘zingning tirishganiningni mening xotinimning bo‘yniga qo‘ydingmi? Oyna olib qaraganingda mening xotinim sergo‘sht sendan, – dedi. Hayt deb Chambilga qarab, qo‘nishib, yashinday oqib soldi-da, ketti bachchag‘ar.

Hasanxon G‘irotni minib, quva-quva qoldi. Shu, qorasini ham ko‘rolmay qoldi. Qutulib ketdi. Hasanxonning dimog‘i kuyib qaytdi. Endi qo‘shinning, Go‘ro‘g‘libekning oldiga yetdi. Endi bu dushmanning elida dimog‘i kuyib ketdi. Hay attang-ay, dyodi. Gulnor pari mahmadanalik qilib qo‘yaniga uyaldi. Bular to‘y qilaverdi. Ana endi so‘zni Hindistondan eshitmak darkor.

Hindi bitgan yig‘ilib, ana endi Amin elni yig‘ib, hindilar bilan maslahat qilib, Go‘ro‘g‘libekka necha qul xat tortiqlar qilib, qilichni bo‘yniga solib, mahramini yubordi, bor, dedi. Aminning mahrami kelib, Go‘ro‘g‘libekka salom berdi. Xat chiqarib berdi. Ana xatni o‘qib ko‘rib, Aminning oldiga, Go‘ro‘g‘libek Temirxonni chiqordi. Temirxon borib, Amin hindining picha tortiq torolg‘isini, otlarni olib kelib Go‘ro‘g‘libekka to‘g‘ri bo‘ldi. Go‘r« o‘g‘libek:

«Endi Simin podsho bilan gaplash», – dedi. Go‘ro‘g‘libekka Simin turib ta‘zim qildi.

– Biz podshomi? – dedi.

– Hindiston sizga qutli bo‘lsin! Sizni podsho qilib, shu yerdan biz ketamiz Chambilga, – dedi.

– Qulluq, – dedi Simin. Ana endi Amin, Siminga qarab

bir so'z aytaverdi:

Vazir eding Toy hindiga shu zamon,
Bo'lgaysiz yolg'onchi dunyoda omon!
Uzur-ma'zur aytib keldim men sizga,
Tovba qildim, keching mening gunohim!
To o'lguncha xizmatkorman Siminjon.

Qilgan ishga uvvo¹ qildim,
Bir ozroq gunoh qildim.
Shuytib oldingizga keldim,
O't gunohim, tovba qildim!

Ko'tar Siminjon voyimni,
Urushda mindim toyimni,
Tovba qilib, yig'ib keldim,
O'ting mening gunoyimni!

Men sizga xizmatkor bo'ldim.
Sening davlating kattadi,
Gunohimni tilab keldim,
O'ting, podsho, gunohimni!

O'lgan bilan hech yer to'ymas,
Ajal yetsa, odam qolmas.
Tirikdan odamlar ko'rар,
O'likdan zarar bo'p qolar.

Amin sizga xizmat qilar,
Ko'nglingiz o'zimdan to'lar.
Gunoh qilsam ado qiling,
So'ngman² ish o'mniga kelar.
O't, podshohim, gunohimdan!

¹ Tavba.

² So'ngi bilan.

Qon bo'p qoldi tog'ning cho'li,
Qirqilgan Aminning tili.
Qirg'ingarchilik bo'lmasin,
Obod Hindistonning eli.
O't gunohim gilab keldim,
Men oldingga yig'lab keldim!

Ishlarga pushmon yeb qoldim,
Kallam etagingga soldim.
Zo'rлиgingni endi bildim.
Davlatingga bo'zlab keldim;
So'zginangga quloq soldim.
Men sizga xizmatkor bo'ldim,
O'ting shohim, gunohimni!

Men o'lganda hech yer to'ymas,
Yer hammani yemay qo'ymas.
Odam bu dunyoga to'ymas.
Men o'lganda hech kim kuymas.

Mardligingni sinab keldim;
Go'ro'g'lini tunab keldim.
Tanamdag'i garttak jonne,
Go'ro'g'lidan, sardorlardan,
Sizdayin katta podshodan,
Hindiston shaharining,
O'tsin podshom qaharini,
Hindistonning odamlarin,
Mana turgan sap qizlarning,
Gunohini tilab keldim.

Ana endi hammaning Amindan ko'ngli to'lib,
Go'ro'g'libek yaxshi ko'rib qoldi Aminni ham. Hamma sardorlar
ham Amindan xushvaqt bo'lib endi: «Simin podshohim, o'ting
gunohini», – dedi. Simin qovog'i uyulib, ha deb bir so'z ayta-
verdi:

Go'ro'g'libek, Ollohungning hurmati,
Sutin emgan Sigir enam hurmati,
Mana turgan sardorlarning ziynati,
Sizday chang'i katta polvon hurmati,
Bor o'tdim, Aminning gunohini!

Mazhabima Hindistonni joyladim,
O'zima tamnikka yaxshi so'yladim.
Sizdeychang'i Go'ro'g'libek hurmati,
Do'stchilik qiyin ishdi dunyoda,
Siminning gunohin izzat ayladim.

Endi qildik hamma gapning adosin,
Har odam yod etsin o'zin xudosin.
Nima qilay do'stligingning hurmati,
Endi o'tdim bu Aminning gunohin.

Nog'ora, surnay, karnayni qo'yinglar,
Urush anjom-asbobini yig'inglar!
Omonlik deb Hindistonga qichqirting,
Urush sop bo'ldi deb, xabar qo'yinglar!
Bor o'tdim fuqaroning gunohin.

Har shaharga yaxshi-yaxshi xat yozing,
Har tarafga ildam-ildam ot qo'ying!
Go'ro'g'li der necha podsholar yig'ing.

Toy hindi taxtiga bizni mindirib,
Hammagini xizmatkorga ko'ndirib,
Dushman bo'lsa Samandarni do'ndirib,
Zo'rlik bilan xizmatkorga ko'ndirib,
Bor o'tdim hammaning gunohini.

Hindistonga yuring, ko'pdi havasim,
Chiqmasin o'zima bir eldan qasdim.
Yoppa-yuring Hindistonning shahriga,
Tomoshalar qilib keting, jon do'stim!

To'y qilib, obod qing bu shaharlarni,
Tuyalarga orting gavhar zarlarni.
Ziyofatdan o'zim qarz, jon do'stim,
Olib keting endi harna birlarni.

Fuqaro ketkarsin keki, o'yini,
Yaxshi ko'rdim Shodmon mergan bo'yini.
Hindistonga yoppa yuring mehmonlar,
Qirq kun qilay Marjonjonning to'yini!
Podsholiqqa ham to'yga qo'shib aytay,
Toy hindining yiqqanini talatay.

Avval bo'ldi qirg'ingarlik, yovgarlik,
Odamlarga sarpo yopib, vaqtin xush qilib,
Palov, go'shtni toqlarga chosh qilib,
Fuqaroning ko'nglin ovlab, men o'zim,
Oy Marjoni Shodmon bilan uzatay.

Bu gaplarni eldan pisanda qilib,
Hammangizni buzuq joydan o'tkarib,
Chambil belga xurshp-xushvaqt jo'natai.
Hasan Chopson ketib qoldi arazlab,
Mehmonlarning vaqtin xushlab jo'natai!

Ko'zingizcha to'nlar berib, talatib,
Hamma odamning¹ birday ko'nglini ovlab,
Yomon elchi kelsa qahrini to'kib,
O'zim sizga arzachini jo'natai.
Xo'p elatning manglaylarini siypab,
Hammangizni elingizga uzatay!

Xabar olib turing mening o'zimdan,
Men o'lguncha jangilmayin so'zimdan!

Ana endi «qulluq» dedi Amin. Ana Go'ro'g'libek Simin

¹ Qo'lyozmada: «hommodam».

do'stiga qarab, bir so'z aytaverdi:

Ko'nglim to'ldi Simin sendan shu zamон,
Hamma beklar bo'ldi o'zingdan shodmon.
Eson-omon Chambil borsak bo'ladi,
Rayhon podsho qursin, rangim so'ladi,
Men bir yoqqa chiqsam yovlab keladi.
Ko'nglim to'ldi gaplaringga, hoy balli,
Eson-omon Chambil borsak bo'ladi.

Rayhon qursin aqlarim shoshirdim,
Ko'nglimni oshday qilib jo'shirdim.
Eson borsam bo'lar Chambil eliga,
Siminjon davlatni senga topshirdim.

Podsholiging qutli bo'lsin, jon do'stim,
O'zim o'lmay bo'lmaydi hech kim qasim!¹
Hindiston el qutli bo'lsin, jon do'stim!
Fuqaroni birday ko'rsang, barini,
Davlatginang ziyod bo'lar, jon do'stim.

Bir podsho yovlasa, Hasan keladi,
Senga qasd qilgan odam o'ladi.
Sen podsholigingga birov ko'nmasa.
Hasan Ko'lbar, shu yakdastam keladi.

Shodmon mergan qartnov² qilib turadi.
Har narsaga ko'ngling bo'lma, jon do'stim,
Ko'nglimiz bir joydan chiqsa bo'ladi!

Podsho qilib jig'a sanchdim boshingga,
G'am yema, hammasi salomga keladi.
Chambilbelda dushmanim ko'p, jon do'stim,
Uzab ketsam elni qamsab qoladi.

¹ Qasd.

² Qarindosh.

Ko'nglim to'ldi, endi o'zim ketaman,
Hindistonman bu yer bir kunlik yo'ldi¹,
Men Hasan Chopsonni o'zim yuborib,
Haftada ikki xabar op ketaman.

Xudo bor, g'am yema, esli Siminjon,
Ol desang ham hech narsani olmayman,
O'zing do'stsan, hech xavotir qilmayman,
G'am yemagin, o'zim xabar olarman,
Sendan boshqa odamni podsho qilmayman.

Toy hindi taxtini senga topshirdim,
Tojini, bojini senga topshirdim.

Fuqaroni birday ko'rGIN, jon do'stim,
Ikovimiz soz bo'p tursak bo'ladi.
Bo'lmaydi senga hech birov xasim².

Tojni, bojni do'stim senga topshirdim,
G'am yema, rahbaring o'zim, Siminjon!

Tomosha aylang ishiga,
Qong'ar tog'ning dashtiga,
Hindistonga podsho qip,
Go'ro'g'libekday do'sti.

Ko'nglidagi havasi,
Vazir qildi Amindi,
Xizmat qildi Shodmonjon,
Ham sardori Temirxon.

Toy hindining tojini,
Jig'a sanchib Temirxon,
Qo'ysi Simin boshiga.

¹ Hasan Chopson uchun bir kunlik yo'l.

² Xasim (xasm) – dushman.

Ko'ring haqning ishiga,
Salom berib Go'ro'g'li,
Siminning yonboshida;
Hamma odam ta'zim qildi.

Hindistonday shaharga,
Go'ro'g'li sababidan,
Siminjon podsho bo'ldi.
Jarchi qichqirib ketdi.

Zamon Siminning zamoni deb,
Hamma shaharga aytdi.

Ana endi bu yoqda: «Toy hindi o'libdi, Simin Hindistonga podsho bo'libdi», – deb, odamlar eshitaverdi. «Simin o'zi asli podsholikka lozim edi», – deb hindilar aytaverdi.

Ana Simin Marjon parining nikohini Shodmonga qiyindi. Hasan Chopson bo'lsa olib qochib ketdi. Yetti yashar Samandering xotinini ham nikoh qiyib, Gulnor parini Go'ro'g'libekka nikoh qiyib, ana Simin uzr-ma'zur aytib, Gulnor pariga bir so'z aytaverdi:

Belingdagi yaxshi po'tang bo'layin,
Yuragingda qayg'u-xatong bo'layin.
Otang o'lib ketdi katta urushda,
Sigirning hurmati otang bo'layin.

O'zim senga soyabonlik qilayin,
Holingdan men o'zim xabar olayin.
Otangdan ham ziyod ko'rGIN o'zimni,
Otangdan ziyoda xizmat qilayin!

Har joyda o'zingga ega bo'larman,
Olis yo'lni o'zim youvuq qilarman.
Otam o'ldi deyib, xafa bo'limagin,
O'zim senga ne kuningga yararman!

Har oyda holingdan xabar olarman,
Otalik-og‘alik senga qilarman.

Anjom-asbob olib borib o‘zingga,
Shu mollar darkordi ikki ko‘zingga,
Borgin, seni Go‘ro‘g‘liga topshirdim,
Ehtiyot bo‘l, chiroqqinam, o‘zingga!

Bilmaganin Gulnorjonning bildirdi,
Xushvaqt qilib, miyig‘indan kuldirdi,
Chambilbelga ketar bo‘ldi sop qizlar,
Gulnorjonni Majdin ko‘kka mindirdi;
Marjonjonni Qorachaga mindirdi.

Samandar mindirib oldi xotinin,
Qizlar yig‘layverdi endi keyinda.

To‘xtatolmay Simin podsho o‘zini,
G‘am sarg‘aytdi otasining yuzini.
Qiz uzatgan bejoy yomon ekandi,
Uzatib Chambilga Marjon qizini,
Dod deydi, to‘xtatolmay o‘zini.

Ana endi Gulnor pari, Marjon pari otning ustiga minib,
ana shunda besh yuz do‘srlariga qarab, shu bechora, bo‘yin sola-
riga bila yurgan kanizlariga qarab, ko‘zidan yomg‘urday yoshlar
to‘kilib, bir so‘z aytaverdi Gulnor pari:

Bo‘lib ketma yana mendan begona,
Hammangni qo‘llasin yaratgan dono.
Chambilbelga o‘zim talab ayladim,
Omin denglar, billa yurgan dugona!

Duo qinglar oyimingning holiga,
Ko‘p yurarmiz elda suvsiz cho‘lida!
Duo qinglar, tag‘i qaytib ko‘rguncha,
Men jo‘nadim Turkmanlarning eliga!

Charchab sarg‘ayadi cho‘ldla oy yuzim,
Sog‘insam to‘rt bo‘lar sizlarga ko‘zim,
Omin denglar, yana qaytib ko‘rguncha,
Duoda bo‘ng, o‘ynab o‘sgan kanizim!

Rahm aylab turinglar oyimlar holga,
Duo qilib turing, mening do‘stlarim,
Borib, borib-kelib turing Chambilga!
El yo‘liqdi Samandarning qahriga,
Qoyil bo‘ldim Hasan Chopson zo‘riga.

Omon bo‘nglar ham tengquri do‘stlarim,
Talab qilib ketdim Chambil shahriga!
G‘ulg‘ula sop Hindistonning yurtiga,
Tomosha aylangbeklarning hay‘atiga,
Qip-qizil cho‘g‘dayin jaynab ko‘p qo‘shin,
Go‘ro‘g‘li podsho ham mindi otiga.

Simin podsho o‘pkasini bosolmas,
Qiz uzatdi Chambil mamlakatiga.
Hamma qizlar eson-omon boring deb,
Chuvlashib fotiha tortdi betiga.

Endi Simin Hindistonga borib podsho bo‘ldi.

Oq yuzli, obro‘li bo‘lib,
Sahmonni oldiga solib,
Shodmon mergan xizmat qilib,
Yetti yashar Samandari,
Lashkar haydovchisi bo‘ldi.

Qo‘shin anjom asbobini,
Samandar ko‘tarib olib,
Ko‘ngillari shodmon bo‘lib,
Hammasi minib otiga,
Balli tandi g‘ayratiga,
Jo‘nadi Chambil kentiga.

Simin vazir karnay tortdi,
Ega bo'p katta davlatga;
Podsho bo'p Hindiston yurtga.
Tomosha aylanglar saxtini,
Bir ollo ochdi baxtini.

Simin vazir podsho bo'lib,
So'rar Toy hindi Shahrini,
Hindilar salomga keldi.
Hindi bitgan yig'ilishib,
Siminga xizmatkor bo'ldi.

Minib op podsho taxtiga,
Esi ko'plar elni joylar,
Doim tarafini poylar,
Yengadigan yerni o'ylar,
Esi ko'plikdan shu vazir,
Hindistonga podsho bo'ldi.

Tala-to'p, to'p qip barini,
Bu yil xiroj bermanglar deb,
Gunohkorni, bandilarni,
Hammasini ozod qildi.

Barakallo Simin vazir,
Yomon gapni quvgan to'zar.
Ig'vogar shaharni buzar,
Nasva tortgan elni kezar.

Har kim fe'lidan tinmasa,
Shu odam podshoga yozar.
Kambag'al bo'p bolalari,
Har kim fe'li badbaxt bo'lsa,
Shu odam vatani to'zar.

Egri ozar, to'g'ri o'zar,
Odillikdan, to'g'rilikdan,

Ko'ring endi Simin vazir,
Har kim qilsin yaxshilikni,
Simin vazir xizmatidan,
Erlik qilgan xizmatidan,
Hindistonga podsho bo'ldi.

Har kim bo'lsa to'g'ri bo'lsin,
Arzni durust so'ragandan
Beva bechoralarning
Kunlariga yaragandan,
Haqiqat qip so'ragandan,
O'lmasin, Simin o'lmasin!
Yomondan bitta qolmasin!
Shunday Toy hindi yurtiga,
Ko'p katta mamlakatiga,
Adolatli podsho bo'ldi.

Har shahardan hindi kelib,
Bul Siminga tobe' bo'ldi.
Ahdi-omon qip hammasi,
Simindan in'omlar oldi.

Xizmatkoring o'zimiz deb,
Bu Siminga duo qildi.
Podsho odil bo'lsa baraka ko'pdi,
Hamma dono bo'lib qoldi.

Elatning vaqtı xush bo'lib,
Bola-chaqa, xotin-xalaj,
Bu Siminga duo qildi.

O'z millati, mazhabiga,
Go'ro'g'liman Simin vazir,
Birin diniga kirgani yo'q.

Ko'ngli bir joydan chiqib,
Er kishi xizmatdan topgan,

Be sabab hech ish bo'lmaydi,
Go'ro'g'lining ko'ngli to'lib,
Go'ro'g'lidan qo'rqqanidan,
Samandardan hurkkanidan,
Amin vazir tarbiyat qip,

Simingga xizmatlar qildi.
O'lmasin Simin o'lmasin,
Xaloyiqdan duo oldi!
Juda katta podsho bo'ldi.
Elda yomon qolmadi,
Hammasi ittifoq bo'lib,
Simingga duogo'y bo'ldi.

Simin podsho bo'lib yotdi,
Yomonni to'pga sop otdi.
Podsho bo'lib yotaversin,
Hindistonning shahariga.

Go'ro'g'libek qiz uzatib,
Tongning otganini bilmay,
Kunning botganini bilmay,
Gulnorjonne sildiratib,
Ko'zchasini mildiratib,
Munchoqlari yilt-yilt etib,
Yuzginasi gulga o'xshab,
Har yuzlari milt-milt etib,
Oqshom bo'lsa ovqat qilib,
Qorinchasini to'mpaytib,
Qorovullarni qo'nqaytib,
Go'ro'g'libek xush vaqt bo'lib,
Beklar Chambilga jo'nadi.
Zo'rlar Chambilga jo'nadi.

Ovozasi yurtni tutdi,
Gulnorjonne silkillatdi.
Majdin ko'k otning ustida,

Badanlari bulk-bulk etdi;
Semiz joyi so'lq-so'lq eti.

Marjon pari, Gulnor pari,
Appa-aratashib beklarga,
Kecha demay, kunduz demay,
Chambilbeliga yo'l tortdi.

Obro' topib Go'ro'g'libek,
Turkman eliga yo'l tortdi.

Xitoy – Xo'tonning shahriga,
Mard Go'ro'g'li kepti dedi,
Hindistonni opti dedi.

Simin podsho bo'pti dedi.
Xitoy – Xo'ton podshosiga,
Go'ro'g'li yomon o'tkir deb,
Nobopgina xabar yetdi.

Chegaraga – Hududiga,
Ko'ring Xo'tonning podshosi,
Askar-sarbozdan jo'natdi.

Hududdan o'tmang dedi,
Nari-beri ketmang dedi.
To o'zi yovlab kelmasa,
Go'ro'g'libek yaqinlasa,
Bittang miltiq otmang dedi.

Tayinlab sarboz jo'natdi
Podsho nasihatin olib,
Hududiga – chegaraga,
Sarboz kelib, poylab yotdi.

Go'ro'g'lining ne ishi bor?
Birov tegmasa tegmaydi.

Shavqi-zavqi beklar bilan,
Go'ro'g'li podsho yo'l tortdi.

O'ynab-kulib Gulnor pari,
Kanizidi Marjon pari,
Yarashib beklar ichiga,
Hindin sochi yaxshi ekan,
Hamma beklar tomosha qip,
Sochi buning yuz qiz deyishib,
Tomosha qilib sochiga,
Muldirab Gulnor yo'l tortdi.
Sildirab Marjon yo'l tortdi.

Samandari haydovchi bo'p,
Gurkirab cho'lda yo'l tortdi.
Ketkazibdi dardlarini,
Ko'rsam deydi yurtlarini.

Ko'ring endi Gulnor pari,
Uyranib qoldi bular ham,
Qistab haydab otlarini,
Mulla bo'layin deb qoldi,
O'qiyin deb xatlarini.

Tomosha aylang savlatiga,
Minib Majdin ko'k otiga,
Marjon minib Qorachani,
Qistab haydaydi cho'llarda,
Kalta biqin yo'rg'achani.

Go'ro'g'li Chambil jo'nadi.
Gulnor bilan Marjon pari,
Taranib Chambil jo'nadi;
Buralib Chambil jo'nadi.

Beklar bir-biriman dast bo'lib,
Dushmanga doim qasd bo'lib,

Marjon bilan Gulnorjonni,
Yuzi bilan ko'zlariga,
Maqom bilan gapirgan so'zlariga,
Kelayotgan sap sardorlar,
Sap navkarlar, sap arslonlar,
Barisi birday mast bo'lib,
Kelayotir sher yigitlar,
Hindistondan obro'yin olgan
Jo'nayverdi nor yigitlar
Yelkalari qir yigitlar.

Go'ro'g'li podsho jo'nadi,
Daryo kechib, tog'dan oshib.
Chang chiqadi bilqillashib.

Beklar jo'nab dasta-dasta,
Qizil norday chilqillashib.
Gulnorjonning ko'zlariga,
Qaraydi beklar kulishib.
Charchaganini bilmayin,
Jo'nayverdi mast bo'lishib.

Fayzli beklar jo'nadi,
Obro'li sardor jo'nadi.
Kulib, o'ynab Gulnor pari,
Ko'rganning ketadi cheri,
Ko'krakda qo'shsha anori,
Kundan-kunga qotayadi¹.

Hech tolmay Gulnor pari,
Uch oycha cho'lida yo'l tortdi.
Tog'da, suvda qinlashib,
Charchab horib,
Afg'onning mulkiga o'tdi.

¹ Kattalashadi.

Afg'oniston shahariga,
Go'ro'g'li oralab ketdi.
Toqtı¹ bir kunduz yo'l tortdi.
Chotirning tanobin tortib,
O'z elatga keldik deyishib,
Qorovul-porovulni qo'y may,
Juda charchagan ekandi,
Ovqat-povqatni pishirmay,
Toqtı uch kun uxlab yotdi.

Uch yarim kun toq o'tganda,
Qushday bo'lib hamma beklar,
Uyqudan yoppa uyg'ondi.

Ana Go'ro'g'libek qornin to'qlab, dimog'ini choqlab,
Temirxonga qarab, bir so'z aytaverdi:

So'zima quloq sol, kelgin Temirxon,
Qon bo'p qoldi, urush qilib
Hindiston Otaliqqa Go'ro'g'libek keldi de.
Yaxshi gapni olib borgin Temirxon!

Hindistonda borib, savash qildi de.
O'zi o'lmay Gulnorjonni oldi de!
Yaxshi xabar olib bor Otaliqqa,
Gulnor pari o'ynab-kulib keldi de!

O'lgan o'ldi, qolgan qoldi deb aytgin,
Sahmon bilan Soqibulbul keldi de;
Shodmon mergan yaxshi xotin oldi de,
Oq yuzli obro'li bo'p Hindistondan!

Yaxshi so'z olib borgin Otaliqqa,
Sog'-salomat Go'ro'g'libek keldi de!
Hindistonga do'stin podsho qildi de!

¹ Tag'in.

Zafar topib Hindistonning shahridan,
Go‘ro‘g‘libek eson-omon keldi de!

Go‘ro‘g‘libek Temirxonni jo‘natdi,
Temirxon Afg‘onning shohiga ketdi.
Qo‘na-qo‘na Go‘ro‘g‘libek jo‘nadi,
Uch kam o‘ttiz kun yo‘l yurib,
Afg‘on podshosiga yaqinlab yetdi.

Tomoshо aylang Temirxonning ishiga,
Ot o‘ynatgan Qizil buloqning dashtiga,
Yasovulboshiman, esli odamman,
Yaxshi so‘zni olib keldim o‘zim deb,
Otaliqqa Temirxon kulib yetdi.

Salom berib, kulib-o‘ynab, Temirxon,
Afg‘on podshosiga yaxshi so‘z aytdi:

Assalom alaykum, shohim,
O‘lmayin ko‘rdim yuzingni.
Endi o‘lsam yo‘q armonim,
Tag‘i eshitdim so‘zingni.
Tanadan ketdi darmonim,
Kuyib ketdi ustixonim.

Qo‘shin keldi dasta-dasta,
Endi o‘lsam yo‘q armonim.
Podshohim bering suyunchi,
Keldi Go‘ro‘g‘li polvonim!

Gap chiqar chechan tilidan,
Xabar ong saxiy holidan.
Obro‘ topib Go‘ro‘g‘libek,
Keldi Hindiston elidan.

To‘kilsin mening gunohim,
Yurakda yo‘q asli vahim.

Hindistonning shahridan,
Keldik biz eson-omon-a,
Suyunchi bering, podshohim!

Go‘ro‘g‘li qoldi izima¹,
Dunyo ko‘rinmay ko‘zima,
Qirg‘in qilib obro‘ oldik,
Suyunchi bering o‘zima!

Ana endi Otaliq xon, ko‘ngli jo‘sh urib, bir so‘z ay-
ta verdi odamlarga qarab:

Go‘ro‘g‘libek kelgan bo‘lsa,
Borib obro‘ olgan bo‘lsa,
Yoppa-yovlik chiqing beklar,
Gulnorni op kelgan bo‘lsa!

Shirin jonni sotgan bo‘lsa,
Bog‘da olma otgan bo‘lsa,
Satta yasovulboshlarin,
Xon Go‘ro‘g‘li yetgan bo‘lsa,
Gulnorjoni mingash tirib,
Bunda o‘zi yetgan bo‘lsa,
Chekib kepti bunda mehnat,
Eson kelgani xo‘p davlat,
Chiqing podshoning oldiga!
Kelibdi Gulnor parizod.

Kimga davlat, kimga mehnat,
Peshvoz chiqib qiling izzat!
Turgan Afg‘on xizmatkori,
Borib qilinglar ziyorat!

Beklar bari kelgan bo‘lsa,
Nima desa degan bo‘lsa,

¹ Izirnda.

Gulnorjonne olib kelib,
Chin sidqidil qiling izzat!

Gulnoriyim kelgan bo'lsa,
Ko'ngli uning to'lgan bo'lsa,
Hindistonning shahariga,
Podsho qo'yib kelgan bo'lsa,
Chiqib qilinglar ziyorat!

Dushmandan kek olgan bo'lsa,
Qilgulikni qilgan bo'lsa,
Olib kenglar darrov bunda,
Zo'r Go'ro'g'li kelgan bo'lsa!

Otaliqxon bu gapni aytdi,
Oq dastorli satta Afg'on,
Go'ro'g'libekning oldiga,
Yakka-yovlik chiqib ketdi.

Uzun pechli chaqqon Afg'on,
Bir nechasi cho'rtta joyg'on,
Qumursqaday ko'p odam,
Gulnoroyimning oldiga,
Sallasi katta Afg'onlar,
Yoppa-yovlik chiqib ketdi.

Hamma yerni odam tutdi,
Yer yorilib odam ketdi.
Odamlarning shovqiniga,
Ik' quloqlar jiqqa bitdi.

Otaliqxon shotir bilan,
Satta o'tkir botir bilan,
Elda yuzi xotir bilan,
Tomoshaga podsho ketdi.

Yurgan yo‘lni to‘zon tutdi,
Dastorlar tuproq bo‘p ketdi.
Gardi o‘rnab yuzlariga,
Hamma yer gurpak bo‘p ketdi.

Mazgil maroyi toy qilib,
Go‘ro‘g‘li oldiga ketdi.
Xon Go‘ro‘g‘li qarasa,
Necha shon-u shavkat bilan,
Otaliq yaqinlab yetdi.

Go‘ro‘g‘li ko‘zin yoshladi,
O‘rta qo‘lini tishladi.
Abdi Otaliquni ko‘rib,
Odob bilan Go‘ro‘g‘libek,
G‘irko‘k otidan tashladi.

Oq dastori afg‘on yetdi,
Necha izzat tartib bilan,
Otaliq oldiga yetdi.

Ko‘rganlar yuragi toshdi,
Ko‘ngil daryo qaynab jo‘shdi.
Go‘ro‘g‘libek polvoniman,
Otdan tushmang Otaliq deb,
Xo‘p tartib bilan ko‘rishdi.

Gulnor pari uvba qildi,
Marjon pari tavba qildi.
Ot yoliga tiklab turdi.
Bizarga navbat kelsa deb,
So‘zlarini choqlab turdi.

Qiyshaytmayin xayolini,
Gulnor pari labin tishlab,
Aql-yesin axtlab turdi.

Sap Afg'onlar, Go'ro'g'libek,
Hammasi yaxshi ko'rishib,
Otaliqxon duo qildi.

Gulnor pari bilan Marjon pari hech qochmay shunday ot
yoliga tikilib, sinini¹ buzmay, har tarafga qarab [turdi].

Abdi Otaliq:

– Xotinni xotin siylaydi. Boringlar, oyimlarni olib ke-
linglar! Mehmonlarni tushirib, xo'p dimog'larini chog' qilinglar,
– dedi. Karnay, surnay tortilgan. Otaliqning mahrami borib,
oyimga bir so'z deyapti:

Taraddini qilsin dedi,
Qiz-xotinni iyartirib,
Abdi Otaliq yubordi,
Darrov bunda kelsin dedi.

Paridan suluvdır o'zi,
Saraton yulduzday ko'zi;
Kepti Toy hindining qizi.

Otaliqxon kelsin dedi,
Yaxshi gapdan aytsin dedi,
Shirin jonni sotsin dedi.

Gulnorjonne, oyim kelib,
Iyatirib ketsin dedi.
Darrov sizni kelsin dedi.

Toy hindining qizlariga
Yaxshi xizmat qilsin dedi.

Har elga qo'ydi xabarni
Bek Soqi so'zga chevardi.

¹ Sin – 1) xulq, fazilat; 2) ichki xislat; 3) qad-qomat.

Qiz-juvonman¹ chiqsin dedi,
Ish taraf qilib yubordi.

Ana endi Abdi Otaliqning xotini haligi mahramga bir
so‘z aytayapti:

Hazil qilib tillamagin,
Qiyin gapni mo‘llamagin!

Firib bilan kelib o‘zing,
Tag‘i bizni aldamagin!

Gap ko‘paytib mo‘llamagin!
Yolg‘ondan aytib sen o‘zing,
Ayol aqli past bo‘lar deb,
Hiyla bilan gellamagin!

Otaliq xon shunday depmi?
Sochilgan nasvani yebmi?
Toy hindi bir katta podsho,
Gulnorjoni kelibmi?

Yaxshi libosdan kiyibdi,
Go‘ro‘g‘li dasturi odam,
Gulnor pari kelgan bo‘lsa,
Go‘ro‘g‘libek tengi emas,
Qanday podshoga tegibdi?
Qandayin odam olibdi
Nimaga bunda kelibdi?

Ana endi haligi mahram:

— Unday demang, unday demang! Kimga xudo davlat
bersa baxti, tolei chopsa yer yuziga podsho bo‘lib ketaveradi, —
dedi. Tez yuring deb, bir so‘z aytayapti:

¹ Juvon bilan.

Hindistonni olib kepti.
O'z qo'lidan podsho qo'yib,
Qilgulikni qilib kepti.

Tezroq yuring oyimjon,
Gulnor pari qoyil bo'lib,
Go'ro'g'libek xotin qilib,
Tez yuring, tez yuring,
Xizmatiga solib kepti!

Ot boshini qayir dedi,
Pichagina jiyir dedi,
Op kenglar yo'rg'alardan deb.
Katta oyim, xayr dedi.

Katta bo'ldi sultanati,
Ketay deb picha uyati,
Semiz, oriq xotin-qizlar,
Hammasi yo'rg'ani minib,
Lola guldaiyin yashnashib,
Gulnorning oldiga ketdi.

Ot tortuvda Otaliqxon,
Go'ro'g'lining yonboshida,
Otni haydab, xo'p o'xshatib,
Kelayotir Gulnorjon.

Bo'lib ketdi bog'i-bo'ston,
Xush vaqtchilik, joy guliston.
Oyim keldi sultanatman,
Necha shoni-shavkat bilan.
Afg'onistondan yig'ib op,
Necha suluv tal'at bilan.

Marjon pari kulib turdi,
Belginasi tolib turdi;
Hamma gapni bilib turdi.

Otaliqning oyimi kep,
Gulnorjonning qo'lin oldi.

Gulnor pari otdan tushmay,
Kattalik dag'dag'a qildi.
Otaliqxon buni ko'rib,
Izzatni teng ko'rmadi deb,
O'zi hindining qizi deb,
Yuragi chuykanib qoldi.

Otaliqning oyimi,
Yurakkinasi yorilib,
Gulnorjondan tilla sochib,
Necha xayr-ehson qildi.
Otdan tushmaganiga,
Gulnor pari pushmon qildi.

Shundayin kattalikman¹,
Gulnorga jilovdor bo'ldi.
Bejoy yaxshi xizmat qildi.
Karnay-surnaylarni tortdi;
Xushvaqtchilik g'animatdi.
Karnay-surnay tovushiga,
Hamma simobday bo'p ketdi.

Xotin, erkak ap-aratash,
Dovush ko'kka chiqib ketdi.
Necha ta'rif, tavsif bilan,
Otaliqxonning oyimi,
Gulnorjoni olib ketdi.

Bejoyin ko'p bo'ldi, toza xizmati. «Azizgina mehmonim», – deb podsholikka yetdi. Ana endi Gulnor parini, Marjon parini o'rdaga kirgizib: «Xush ko'rdik», – deb, odamning belidan ko'rpa to'shab, har jon boshiga to'rtta-to'rtta yostiq qo'ydi.

¹ Kattalik bilan.

Ana Go'ro'g'libekni Otaliqxon tushirib, o'rin ko'rsatib, hamma beklar dasturxon yozib, ovqatdan qorni to'qlanib, dimoq-qinasi choqlanib, hammasi omin qilib, mehmon qilaverdi, Otaliqxon.

Ana endi bular o'z shavqi-zavqida yotaversin. Endi bu yerda Otaliqxon: «Go'ro'g'libekning eson-omon obro' topib, Gulnor parini olib kelganiga qirq kun to'y», – deb har tarafga xat jo'natdi; yaqin joylarga ot jo'natdi. Kechasi mash'alni yoqib, molni so'yib, o'choqni o'yib, Gulnor bilan Marjon pariga pechi kindikka tushgan afg'onlar, oq sallali, ko'k sallali, qizil sallali xizmat qilib, tomosha qip yotaversin.

Ana endi so'zni Shirvonning elidan, junli, soqolli arab-lardan eshitmak darkor.

Endi gapni Jolman qizil o'g'lidan eshitaylik. Shu ko'rgilikda o'n olti oy o'tib ketdi. Ana endi Chambildagi odamlar yomon gaplarni eshitdi. «Toy hindi qashqa fillarni olib chiqib Go'ro'g'libekni ushlab olib, Soqibulbulni, polvonlarni filga yedirgan emish. Bitta qolmay barisini o't yoqib kuydirgan emish», – degan gapni eshitdi. Do'st odamning dimog'i kuyib ketdi. Dushmanlarning dimog'i chog' bo'lib ketdi.

Jalman qizilning o'g'li Alman qizil: «Tunovda otam o'lib ketib edi. Ana Go'ro'g'li bo'lsa o'libdi. Tag'i borib, Shirvondan arablarni olib kelib, otamning xunini olmasam, Alman qizil degan otim qurib ketsin. Yomonning bolasi yomon, yaxshining bolasi yaxshi», – dedi.

Ana endi buning Shirvonga ketishini ko'ring. Arablarni yig'ib, Chambilga yetishini ko'ring. Tag'i ish mojaro bo'ldi. Voy-bo'y yomonning tuyog'i qurib ketsin. Ana endi Shirvonga Alman qizil kechani kecha, kunduzni kunduz demay kelayapti yo'l yurib. Ko'p kun yo'l yurib, tikka Shirvonga yetib bordi.

Bayanagi¹ urushib yurganlarda Bektosh arab xonai ka'ba ketgan ekan. Uzoq shaharlarda yotgan ekan. Bu gaplarni eshitib, kelgandan keyin, o'g'lini podsholikdan tushirib, o'zi podsho bo'-lib yotgan ekan. Ana endi Alman Qizil podshoga to'g'ri bo'lib, Bektosh podshoga qarab, bir so'z aytayapti:

¹ Boyagi.

Eshiting Almandan dodni,
Beega Chambilning yurti.
Go'ro'g'lining ketganiga,
Oradan ikki yil o'tdi.

Cho'rtta bedarak bo'p ketdi.
Yaxshi yomon gap eshitdik,
O'lgani cho'rtta rost bo'ldi.

Boymat karvon kelib aytdi,
Bu gap rostga chiqib ketdi.

Hindistonga borgan emish,
Ketginasiga boqmayin,
Borib urush qilgan emish,
Ushlab olib hammasini,
Senmisan Go'ro'g'li zo'r deb,
O'ldiribdi hammasini.

Xo'p firibning tammasini,
Eshitgan karvonlar aytdi.
Har noma'qul dediribdi,
Borgan turkmanni bandi qip,
O'limga ko'ndiribdi,
Qvshqa filga yediribdi.

Tuxumga qo'y may borganni,
Hindistonda o'ldiribdi,
Xo'p bo'pti, xo'p bo'pti,
O'liklari juft bo'pti.

Borgandan bitta qolmayin,
Filga yedirib sob bo'pti.

Ko'p fillarni jildiribdi,
Ochilmay guli so'ldiribdi.

Hindilar shahardan chiqib,
Bitta qo'y may o'ldiribdi.
Yetimdan odam bo'libdi.

Tog'ini tuman cholibdi,
Qiyomat cho'rtta bo'libdi.
Men sizga rostini aytsam,
Hammasi o'lsa go'rga,
Hasanxon nobud bo'libdi.

Gulchehra sochini yoyib,
«Akam», – der yuragi kuyib.
O'lGANI cho'rtta rost bo'lib,
Qora ko'yaklar kiyibdi.

Asli xundor sizga turkman,
Tunovida otam o'lGAN.
Vaqt shu vaqt deb Alman qizil,
Sizni op ketgani kelgan.

Fillar barin yeb qo'yibdi,
Borganlarning bari o'lGAN.
Qiyomatdan yomon bo'lGAN.

Borganlarning qarindoshi,
Zor yig'lashib sochin yoygan.
Otam¹ Go'ro'g'li o'ldirgan,
Yurak bag'rim mening kuygan.

Ishoningiz gapginama,
Bitta qolmay bari o'lGAN.
Fillar kavshab, yeb barini,
Chambilning zo'r yigitlarin,
Bitta qo'y may ado qilgan.

¹ Otamni.

Ana endi Bektosh podsho fuqarolariga, amaldorlariga
qarab bir so'z aytayapti:

Yuringlar, kulli arablar,
Chambil borib azon qiling!
Go'ro'g'lini fillar yebdi,
Er yetgan so'ng tarab bo'lar,
O'ynab yurgan bachchalarin,
Hammaasini xazon qiling!

Satta bedovni jildiring,
Qormin g'ussaga to'ldiring.
O'ynab yurgan bachchalarin,
Erkak bolasin o'ldiring!

Qon chiqadi bosib so'y mang,
Ayol bolasiga tegmang!
Haq cho'poni, podachisi,
Shol kaltakni miyin op song!
Erkagidan bitta qo'y mang!

Xotin-qizini yig'diring,
Kosaga maylar quydiring!
Erkagin urib o'ldiring!
O'ynab yurgan bachchalarin,
Bitta qo'y mayin o'ldiring!

Xazon qiling g'unchasini,
O'ldiringlar nechasini!
Olov yoqib kuydiringlar,
Satta go'dak bachchasini!

Yig'latib yoshlarin tizing,
Nomi turkman elni kezing!

Chambilbelni borib buzing!
Ilgargiday bo'sh bo'l manglar,

Arablar chiniman qizing!
Ayoli qing'irlilik qilsa,
Gardonkashin bo'ynin uzing!

Endi gapni yovgarlikdan eshititing. Ana bu so'zni Bektoshdan eshitib, arab ittifoq bo'lar ekan, birqillab har tarafdan yig'ilaverdi. Endi Xoljuvonning achchig'i kep ketdi. Bektosh podshoga qarab, Xoljuvon bir so'z aytaverdi:

Nima qilding hozir Shirvon yurtingda?
Bila bilsang dushman ko'pdi ortingda,
Qarri sovliqdayin bo'lmay o'lib qol!
Yomon gap shalvirab turar betingda.

Qariganda ne ishlarni qilarsan?
Nima bo'lsang borgan so'g'in bo'larsan.
Iyaging qayqaymay baring olib qol!
Al sorida baring, g'arib o'larsan.

Xudoning tig'iga uchrab hammangiz,
Bir kasofat ishni baring qilasiz.
Hech ishonmang beimonning gapiga,
Shu safar borib hammangiz o'lasiz!

Qari kishi namoz o'qib yotmaymi,
Qariganda endi nima ish qilasiz?

Bemazadan shunday gaplar chiqadi,
Ishonmanglar Alman qizil gapiga,
Borsangizlar bitta qolmay o'lasiz!

Ot, kiyimni hammang berib Chambilga,
Chambil borib xokam go'jo bo'lasiz.
Burningiz tompaymay o'ling arablar!

Qilsang bir ish ilgarida qilarding...
Endi borib, guppa-guppa o'lasan,

Junlaringni ayilpurush op borib,
Ot, eshakka arqon-tushov bo'lasan.

Yoshlaring nima ish qilib edi,
Sen qari it, Shirvonning kattakoni,
Endi borib sen nima ish qilasan?

Qutirgan podaday baring burkirab,
O'ldim deb qocharsan baring tirqirab.
Qariganda sen nima ish qilarsan?

Meni desang, o'ldiringlar Almanni,
Bormanglar hammangiz yakson bo'larsan!
Qartayganda imon tila Ollodan,
Qutirgan echkiday bo'lib o'larsan!

Bormanglar xaloyiq baxtli Chambilga,
Imoni yo'q, bitta qolmay o'larsan!

Shu yerda arablar aytdi. «Har safar olashaqshaqday sha-qillaydi. Borib, qirg'in topib kelamiz. Shu bir gapni biladi. Endi bormasak ham bo'ladi. Shu Chambilni orqa qiladi. Kunda, ikki kunda xabar kelib to'xtaydi», – dedi. Ana Bektosh podsho bir so'z aytaverdi:

Ajalsiz odam o'lami?
Ko'p chopsa otlar tolami?

Bir gapni bilmagan kishi,
Chambilbeldan kelami?

Arab bitgan mining otni,
Shu odam aytgani rostdi.

¹ O'larmi.

² Tolarmi.

³ Kelarmi.

Otasi bizarman do'stdi,
Go'ro'g'li bizarga qastdi.

Kun tegmay gullar so'lami¹?
Qazosiz odam o'lami?
Arab bitgan mining otni,
Chambil yurtdi zarobotdi(r)!

Hindistonga borgan bo'lsa,
Toy hindi katta podshodi,
Bitta qolmay o'lgan bo'lsa,
Almanning aytgan gapi rost.
Fillar ta'til qilgani² rost.

Yuringlar Turkman eliga,
Yuringlar Chambil shahriga!
Bir jodugar ishlar qiling!
Otlarni cho'ldarda jiling!

Bu safar navbat bizniki,
Yunus bilan Oymisqolni,
O'lja qilib olib kelng!
Toy hindi o'ldirgani rost.
Bo'ldi Turkmanlar bizdan past.

Yuringlar Turkman eliga,
Yuring Asqarning beliga!

Tag'in-a tushdilar savdo,
Kamis podshosi qurisin,
Yomon so'zga iyarib,
Yana qilar bo'ldi g'avg'o;
Boshga solar bo'ldi savdo.

¹ So'larmi.

² Ta'til qilmoq – yemoq.

Ajal kep yoqadan oldi.
Bihishtda attahiyat degan daraxt bor ekan.
Har kimning ko'kargan bargi,
O'larida to'kilarmish.

Andan kay odam o'larmish.
Arablarining endi bargi,
Ajal yetib xazon bo'ldi.

Bektosh poshsho Chambilbelga,
Jo'namoqqa ko'shish qildi.
Ko'p ajalga sabab bo'ldi.
Alman Qizili qurg'ur,
Arablarga bosh bo'lib,
Juda mehri tosh bo'lib,
Junlarini yaltillatib,
Soqollarin silkillatib,
Yosh bolalar dilkillashib,
Semizlari irqillashib,
G'azabman¹ arab keladi.

Arablarining qahri kelgan,
Hamma yer arabga to'lgan;
Dala-dashtni qurshab olgan.
Arab kelar haddan oshib,
Yo'lga sig'ishmay talashib,
Ota-boladan adashib,
Sig'ishmay arab keladi.

Arab kelar lashkar tortib,
Yo'llarni chang qib, g'ubortib.
Quloqlarin tikraytib,
Ko'zlarini baqraytib;
Manglayin taqiraytib.

¹ G'azab bilan.

Sap qoshi o'siq arablar,
Turkmanga bari taraflar...
Ajalli arab jo'nadi.
Yomon odam shunday qildi.

Falokatga hiyla bormi?
Ko'p ajalga sabab bo'ldi,
Kecha-kunduz demay arab,
Chambilbelga xurush qildi,
Vaqt ni g'animat bilib,
Tinmay qistab yurish qildi.

Qoshin juni selp-selp etdi.
Hamma cho'lni to'zon tutdi.

Yiqilgan kurashga to'ymas,
Olsam Turkmandan lotni deb,
Chambil shahriga yo'l tortdi.

Kecha-kunduz qistab yurib,
Ertaman Asqar tog'iga,
Bektosh podsho qistab yetdi,
Xotin-xalajga g'am berdi.

Kelayotgan bedovlarga,
Arablarga dam berdi.
Shu kunduz oradan o'tdi.

Tirip etib¹ hech kim bilmadi,
Ertan bilan bo'lganida,
Misqol durbinni qarasa,
Asqar tog'i changib qoldi.

Endi Chinimon qarasa,
Qoshi o'siq satta serjun,

¹ Tirip (tirp) – qimirlamoq.

Odam naviga o'xshagan,
Yalpillashib lashkar o'tdi.

Misqol pari Yunusjonga,
Tiklab qarab ongi ketdi.

Shunda: «Dod», – deb, Oy Misqol Yunusjonga qarab, bir
so'z aytaverdi:

Tutumi odam naviday,
Qo'rqib ketdim men gapidan.
Qoshi o'siq sap juyqonsiz¹,
Oshdi Asqarning tog'idan.

Yunus opa, aqlim shoshdi,
Ko'rib turib tusim qochdi.
Soqoli o'sib ko'p odam,
Qurtday qaynab pastga tushdi.

Ot chopib cho'lni changitdi,
O'ngurlari yalp-yalp etdi.
Otning chopgan shamoliga,
Soqollari jilvirashib,
Voy-voy eyinidan o'tib ketdi,

Do'sti-dushmanin bilmayman,
Og'ir lashkar cho'lni tutdi.
Qiyomatdan yomon bo'ldi;
Kunimiz qora bo'p qoldi.

Cho'pon-cho'liqni o'ldirib,
Birqillab ko'p lashkar keldi.
Uq-voh, uh-voh, voy-voy-ey,
Qandayin alomat bo'ldi?

¹ Juyqonsiz – tayini yo'qlar, begonalar.

Yunusjon chopqillab keldi.
Ana endi Yunusjon qaradi.
Qarab turib, ha deb ichin tortdi.

Ana endi Yunus pari odamlarga qarab bir so'z aytdi:

Odam yo'g'in yer tortkurlar bilibdi,
Qanday odam borib xabar qilibdi?
Urushmoqqa, qaytay, polvon bo'lmasa,
Yerga kirgur Rayhon podsho kelibdi.

Ko'p ekan arablar cho'lni tutibdi,
Yuragimni g'ubor bosib ketibdi.
Voy-voy, ayrildim Chambil elimdan,
Qirilgur junlilar bunda yetibdi.

So'ndirar bo'ldi bog'da gulimni,
Arab bosib El sorining cho'lini.
Hasan Chopson, Samandarim bo'lmasa,
Qallobi arablar qistab yetishib,
Voy xarobot qildi Chambil elini.

Voy-voy choq bo'nglar,
Gala xotin shohli miltiqni olib,
Urushmoqqa hammang birday taxt bo'nglar!

Dushman desam suyakkinam shovshadi,
Arab kelib, qo'rg'onimdan oshadi,
Qaytayin polvonlar menda bo'lmasa,
Jun bosgan arablar kelgan o'xshadi.

Hech bo'lmasa Hasan ko'lbar bo'lindi,
Arablarga bir ko'rinish bermadi.

Nima kelar xotinlarning qo'lidan,
Biror xabar Hindistonдан kelmadı.

Qallobi arablar kelgan o‘xshaydi,
Men tanidim Rayhon podsho otini.

Kimga aytay arablarning dardini?
Kelib oldi endi Turkman yurtini.
Shirvondan arablar kelgan o‘xshaydi.

Shovqin urib Chambil shahriga yetar,
Miltiq dovushiga ik¹ qulq bitar,
Arablar holimni ayladi battar.
Qaytayin, kunginam bo‘libdi xatar?

Xotin-qizning barini haydab ketar.
Chambil belning kungirasin² qulatar.
Shirvondan arablar kelgan o‘xshaydi.

Xotinlarni Yunus pari yig‘dirdi,
Barisiga sarboz libos kiydirdi.

Telpak kiygizdi-da, sochin yig‘dirdi.
Qolganlarning yelkasidan to‘ntartib,
Bog‘ginasini bo‘sh-bo‘shgina bog‘latib,
Kark teri qolgan egniga qo‘ydirdi.
Chor oynani boshlariga kiydirdi.

Kampir qolmay, xotin qolmay hammasin
Yig‘ib keldi ham momosi, ammasin
Yig‘ib kelib, mulla libos kiydirdi.

Arab bitgan jonni sotdi,
Birqillab chang ko‘kni tutdi.
Du bora qo‘yib juyqonsiz,
Chambil yaqiniga yetdi.
Ko‘zini yumib xotinlar,

¹ Ikki.

² Kungira – ustun, to‘sin.

Choqlamay miltiq otdi.
Arablar harkishib qoldi.

Buxturmasi ko'p ekan deb,
Qoshining juni silkillab,
Arab bitgan qo'rqib qoldi.

Bo'ldi katta yovgarchilik,
Balo tog'da Hasan Chopson,
Bu g'ovurni ko'rib qoldi.
Ancha tosh qo'yniga soldi.

Bolangning biqiniga kaltakkinam deb,
Zing'iratib yetib keldi.
Yolg'iz o'zi nima qilsin,
Arab bitgan to'p bo'lishib,
Zing'iratib shu Chopsonni,
Qayqaytirib quvib soldi.

G'irotdan shu Chopson ildam,
Kampir¹ egniga mindirib,
Go'ro'g'lini op kelay deb,
Hindiston shahriga soldi.

Dari qochib, qoshlar kuyib,
Yunus xotin-qizni yig'ib,
Arablarni yonashtirmay
Kecha-kunduz g'ayrat qilib,
Arablarman urush qildi.

Olardi Chambil elini,
Go'ro'g'li podsho kelguncha...
Xotinning yaxshisi yaxshi,
G'ayrat qilib urush qildi.

¹ Kampirini.

Yunus bilan Misqol pari miltiqni otaverdi. Hasan Chopson Go'ro'g'libekning ortidan Hindistonga ketaverdi. Ana endi arazlab Hasan Chopson yotib edi. Ana qarindoshlikda chidab turolmadi. Bir o'zi, arablar yovlab kelgandan keyin, ot qo'yib edi. Arablar o'rta ga olib zo'rlik qildi. Endi bu yomon ish. Kekim bo'lsa ko'nglimda turadi. Har gap bo'lsa borib Go'ro'g'lini aytib kelay deb, shu jumulib Hindiston qarab, yashinday oqib, yarim kecha-yarim kecha Qong'ar toqqa yetdi. Hech qo'shindan darak topolmay Hindistonga oralab ketdi. Tikka turib, podsholikka yetdi. Simin salom berib: «Xush kelibsiz, aziz mehmonim», – deb, joy ko'rsatdi.

– Joyingni, moyingni joy kelsak yeypveramiz, – dedi, [Hasan Chopson].

Simin:

- Go'ro'g'li ketdi, – dedi.
- Qayoqqa ketdi? – dedi.

Chambilga ketdi, – dedi.

– Voy o'lgurlar, – deb Chambilga qarab soldi tag'ina. «Kel, shu, har gap bo'lsa Afg'onning podshosini bir ko'rib o'tay, – dedi.

Bechora har tukidan ter chiqib, kampirini bo'yniga minadirib, yulduz uchganday bo'lib kelayapti. Afg'onning yurti huringarchilik bo'ldi, «bir uzun odam kelayapti» deb, Afg'onning yurti tengsarib¹ qoldi.

Otaliqxondan Go'ro'g'libek:

- Nima gap, nima gap? – deb so'radi.
- Bir uzun odam kelayapti, hech toqat qolmadi, – dedi.

Go'ro'g'libek toqat qilmay bechora Hasanxon bilan ikkovi chopib chiqdi. Hasan Chopson engiz-tengiz chiqib yig'layverdi.

Ana Go'ro'g'libek: «Nimaga yig'laysan», – deb Hasan Chopsonga qarab bir so'z aytaverdi:

Yurakni qip to'la qon,
Minganing G'irko'k hayvon,

¹ Tengsarmoq – chayqalmoq, qimirlamoq.

Yig'lading yo'q toqatim,
Nimaga yig'laysan, polvon Hasanjon?
Yig'lab kelding, Hasanjon qaysi eldan?

Qistab kepsan bildim sen suvsiz cho'ldan.
Sen yig'lading menda toqat qolmadi,
yig'laganing ma'nisin ayt ko'zingdan!

Nasvaginang Eram boqqa tortdimi?
Bu dunyoga kelgan qonlar yutdimi?
Sen yig'lading menda darmon qolmadi,
Chopsonginam bir bidahat¹ o'tdimi?

Yo bir bemaza nobop gapni aytdimi?
Yunus pari Qo'yiqofga ketdimi?
Og'ir lashkar Chambil girdini tutdimi?
Xotin-xalajlarni talab ketdimi?

Ana endi Hasan Chopson bechora Go'ro'g'libekka qarab
bir so'z aytaverdi:

Aytgan so'zing o'zginama porisin²,
Yomon kishi kuni to'lmay chirisin!
Ko'rganimni sizga aytay Go'ro'g'li,
Dod, bedod, Alman qizil qurisin!

Alman qizil Shirvon elga boribdi,
Borib arablarni olib kelibdi.
Hasan ko'lbar, yakdastangiz yo'q elda,
Shu urushda bechoralar o'libdi.

Bektosh podsho kelib Chambil eliga,
Yupus pari janjallahib turibdi.

¹ Bidahat – bid'at, yomon ish.

² Porimoq – ta'sir etmoq.

Miltiqning dovushin o'zim eshitdim,
Xez qilib Chambilning shahriga yetdim.

Arab Chambil elni qamsab olganda,
Lo'p-lo'nda bo'p o'zim oralab ketdim.
Hamma arab meni o'rtaga oldi,
Qaytayin, kunginam qop-qora bo'ldi.

Ajalim yetmadi mening podshohim,
Hasan Chopsonning qoqasqa oldi.
Ushla deyishib arab bitgan shovqin sop,
Hammasi orqamda yetolmay qoldi.

O'lik tirigini o'zim bilmayman,
Arablar Chambilni qo'rg'alab qoldi.
Nima bo'lganini o'zim bilmadim,
Arablarman¹ bir urushib o'lmadim.

Xotinlarning kuni bo'ldi qorong'i,
Chambil elga qaytay qiyomat bo'ldi.
Ish ish taraf bo'ldi, Hindiston ketdim,
Yarim kecha Qiz bulog'iga yetdim.

Ilojimni topolmayin men o'zim,
Hindiston shahriga oralab ketdim.

Siminning oldiga men dod deb, yetdim,
Simin yaxshi gaplar menga gapirdi.
Borib turib soqolchamni taradim,
Qani kay deb, o'zim sizni so'radim.

Besh-olti kun yotdi dedi,
Ishginasi bitdi dedi,
Chambil qarab ketdi dedi.

¹ Arablar bilan.

Simindan eshitdim so‘zni,
Ovqatiga qaramayin,
Axtarib jo‘nadim sizni.
O‘lmayin ko‘rdingiz bizni.
Oldingizmi Gulnor qizni?

Endi yuringlar shaharga,
Bektosh olibdi qaharga.
Totin-xalaj bolalarni,
Ishi tushib qolgan zo‘rga!

Tez yuring Chambil ketamiz,
Kun yoyila-kun yoyila,
Arab ustiga yetamiz;
Arabman savash etamiz!

O‘ligini sulatamiz,
Boshin do‘ngalatamiz,
Yuringlar elga qaytamiz,
Turkman shahriga yetamiz.

Belni mahkam bo‘g‘ing endi,
Oyoq qo‘lni yuvung endi!
Qistab borib arablarni,
Vvlab kelgan taraflarni,
Shirvon elga quving endi!

Chopib, chopqillab qaytdi Go‘ro‘g‘li bilan Hasanxon.
Lashkarga, Otaliqxonga qarab Go‘ro‘g‘libek bir so‘z aytayapti:

Yuragimda bo‘libdi cher,
Rayhon degan tarafim bor.
Otaliqxon, hech to‘xtatma,
Aytarga sizga arzim bor.

Arablar Chambil kelibdi,
Ikki dev polvon o‘libdi;

Qiyomat qoyim bo‘libdi,
Hech to‘xtatmang, Otaliqxon,
Yomon hodisa bo‘libdi.

Bektosh podsho, Rayhon podsho,
Chambil shahriga kelibdi.
Xotin-xalaj miltiqlashib,
Elda janjal qip qolibdi.

Uzun odam yugurdagim,
Hasan Chopsonim kelibdi.
Otaliq ishim ko‘p qiyin,
Orqamdan kishi kelibdi.

Qanday bo‘lganin bilmayman,
Yunus pari arab bilan
Miltiq otishib qolibdi.

To‘xtatmang mening o‘zimni,
G‘am sarg‘aytgandi yuzimni.
Orqamdan so‘rab boringiz,
Yersiz, suv bilan o‘zimni...

Xayallamay men ketaman,
Endi ketmagim lozimdi(r).

Endi Otaliqxon xalqqa qarab, shig‘ovul¹, yasavul, vazir-larga qarab bir so‘z aytdi;

Egarlang ildam hayvонни!
Yoppa boringlar Chambilga,
To‘xtatmang asti mehmonni!

¹ **Shig‘ovul** – O‘rtta Osiyo xonliklarida elchilarni kutib olish, ularni xon huzuriga olib kirish, saroydagи qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug‘ullangan mansabdor shaxs.

Chambil qarab yo'l tortinglar,
Oyoq qo'lingni yuvmayin,
Chambilga qarab ketinglar!
Ot betiga qaramanglar!

Hammang birday jon sotinglar,
Otlarga qamchi chotinglar!

Hammang birday ittifoq bo'p,
Chambil shahriga yetinglar!

Quvib keting arablarni,
Poylab sanching taraflarni!
Oting o'lsa, sotib onqlar,
Tinmay qistab g'ayrat qinglar!

Chambilni ochib olinglar,
Xo'p qilgulikni qilinglar!
Ajal yetganing o'linglar!

Ko'p yomon ishlar bo'libdi.
Qulqoq song Abdi dodiga,
Yaxshi odamning himmatiga,
Oting o'lsa ot sotib ol,
Fuqaroga jabr qilma,
Qaramang otning betiga,
Qamchilar uring etiga;
Tushing arabning ketiga!

Kecha-kunduz qo'y may qistang,
Yeting Chambilning yurtiga!

G'ayratling ilgari yurgin!
Borib yetib boshin yulgin!
Arablarni quvib sanchib,
Xotin-xalaj, bolalarni,
Ayollarni ozod qilgin!

Arablarni quvgin, so‘g‘in,
Undan ketin dampingni olgin!

Bedobchilik qilibdi,
Hayfi la’nat arablarga,
Xotinman janjal qilibdi.

Soqoli o‘sinqning esi oz,
Shundayin xumsa bo‘larmi?
O‘zi xumsa bo‘lmasaydi,
Xotinman janjal qilarmi?

Avval o‘yinglar ko‘zini!
Ushlab olib o‘tga yoqing,
Kattakonining o‘zini!

Juyqonsiz darrov ketinglar,
Chambilga qistab yetinglar!
Kemachiga xabar bering,
Daryodan darrov o‘tinglar!
Anjom-asbob choqlab olib,
Ha deb Chambilga yetinglar!

Ana endi juda tala-to‘p bo‘ldi. «Shu arablar ham zo‘r.
Chambilni kelib olgan. Xo‘p qilgulikni qilgan. Ish yomon bo‘pti,
yomon bo‘ptn», – dedi.

Shu bir chopib, chopqillab, otni egarlashayapti sop
ko‘ngilli, g‘ayratli yigitlar. Lekin kam g‘ayrati bir narsani bahona
qilib, ketin-ketin qolayapti. Buni Otaliqxon bilan Go‘ro‘g‘li bila-
yapti. Ana endi Go‘ro‘g‘libek Hasan Chopsonga qarab bir so‘z
aytaverdi:

Tuzim haqlab jonni sotgin,
Balo tog‘dan toshlar otgin!
Javob berdim Hasan Chopson,
Hayallamay darrov ketgin!

Chambilning shahriga yetgin!
Andarman qip sen kirishgin;
Qochdim deb, nomuslar qilma,
Sen qochib, quvib urushgin!

Quvib ketsa qochib qutul!
Umring uzoq bag'ring butun.

Sen o'zing ildam polvonsan,
Sen o't bo'lsang, arab o'tin,
Barakalla himmatiga,
Urushibdi jam'i xotin.

Hasanjonim shovqin solib,
Turkmanning eliga borgen!
Asqar tog' boshiga chiqib,
O'lding-o'lding arablar deb,
Borguncha andarman qilgin!

Qaddingdan ketayin Chopson,
Juda katta janjal qilgin!
Arablarga savdo solgin!
Olsam Shirvonning elini,
Shirvonga dog' boshi bo'lgin!

Qildim men seni sipohi...
Arablarning ko'zin o'yib,
Shirvon elga katta bo'lgin!

Arab kattaligin qilgin!
Qallig'ingni tashlab ketgin,
O'zing picha yengil bo'lgin!
Dushmanni andarmon qilgin!

Ana endi Hasan chopsop Go'ro'g'libekka bir so'z aytdi:
– O'zbekchilikning ota-bobosidan qolgan bir xil taomili, qoidasi,
rasmi odamning cho'rtta ko'ngliga urib qoldi. Men xotinimni

tashlab ketsam, hali o'zi to'qson oltiga kirgan tumsagina qiz bo'lsa... Chechani bir puti halol deb o'zbeklaring, bo'z bolalaring tegishib qoladi.

Xotinni esi bormi? Ko'ngli qiyshaysa birovga andarmon bo'ladi. Andan keyin eriga ko'ngilsiz bo'p qoladi. Ro'zg'orda sovuqchilik paydo bo'ladi. Boyana begonani ko'rgandan keyin: «Boshqa odam, qashqa odam», – deydi, o'zining eridan boshqa odam ko'p xushomad qiladi. Tentaknamo xotin, ko'ngilsiz bo'lib qoladi.

Go'ro'g'li, men o'lsam xotin bilan bila o'laman. Pishgan osh xotin ikovi bir bo'ladi. O'zim dimog'im chog' pallada sabzar chashmalarning boshiga borganda, semiz govvoslarning go'shtidan pishirib, kulchatoy qilib, yeb ermak qilaman. Xotindan yaxshi narsa bo'lami, odamga? Xotinni op qosang¹, men bo'shab qolaman. Xotinni mindiribgina yursam, o'zim sherdai g'arqirab, ko'ngilginam birday bo'p yuraman. Ko'zing ko'karganda Gulnorjon bir xotin olib berdi. Buni ham ko'p ko'rdingmi? Barakallo aqlingga, Go'ro'g'li. Sening dim² o'zbekliging qolmaydi. «Xotinka siringni aytma, sipohidan do'st qilma», – degan ota-bobodan qolgan so'zni eshitganing yo'qmi? «Eshakning go'shtini yeb bo'lmaydi», – degan gaplarni eshitganing yo'qmi? – dedi, Hamma odam qaq-qah urib kului.

Go'ro'g'libek aytidi:

– Ha emasa, o'zingiz bilasiz. Tez boring, – dedi. Qirq qo'yning terisidan bo'lgan po'stakchasi bor edi, egniga qatlab soldi da, asta enkayib turdi, bo'ynini past qip:

– Kel xotin, bo'ynimga minib ol, – dedi.

Kampirni mindirib olib, hayt deb Chambilga soldi. Qirq botmon, ellik botmon yerni bir odim qilib, quniyib soldi, ketdi. Ana endi bu ketaversin. Ana-mana deguncha, Bolqonning tog'i-ga chiqib, shu, shovqin solib arablarga qarab, bir so'z aytaverdi:

Men keldim, men keldim arablar,
Ko'p lashkar keldi ustingga.

¹ Qolsang.

² Dim – sira, mutlaqo, aslo.

Go'shting dumalar taraflar,
Bu tanangdan kallang boshqa.
Sen o'larsan ertang choshka,
Bolaginangning go'shtin yegur arablar!

Qoch, ket deyman ket keldi-ho, keldi-ho,
O'lding, o'lding!
Podaday bo'kirib o'lding;
Almanni chaqirib o'lding!
Jalman qizil chaqiradi,
Bitta qolmay baring o'lding!
O'lding-ho, keldi-yo...

Qo'shin keladi ulashib,
O'liging qolar chalkashib,
Murdangiz qolar uyqashib.

Qoshi o'siq kelgan arab,
Sen bachchag'ar bizman taraf.
Holing bo'lar endi xarob.

Qirilding, kelib qoldi...
Hay bolang yig'lab qolgur,
Qirilib o'lgurlar...

U yog'idan kel, bu yogidan kel,
Uy-o'y, Bektosh podshosini ushla!

Voy-bo'y, ishning o'zi chatoq bo'lib qolgan ekan. Qo'r-g'onga kelguncha uch darvoza bor edi. Jami arablar kelib, darvozani qulatmoqchi bo'lgan ekan. Yunus, Misqol miltiqni ota-ota, miltiq qip-qizil cho'g' bo'lib, ana miltiqlarning dovushi chiqmay qolgan ekan. Shuni sovitib otarini bilmay, hey attang deb, Yunus, Misqol pari: «Qanot bog'lab, dovra olib uchsam, xotin bechoralarning holi qanday bo'ladi? Har gap bo'lsa ko'p bilan bo'lay», – deb [o'yladi]. Xotinlar to'da-to'da bo'lib, miltiqni tashlab qo'ygan ekan. Xonang kuygur, Hasan yakdasta bilan Hasan qo'lbar

Qo‘yiqofga ketib qolgan ekan: «Qarindoshlab kelamiz», – deb. Ana endi shu Hasan Chopsonning dovushini eshitib, hamma harakatlanib qoldi. Hasan Chopson:

– Endi boybichcha, sen shu tog‘ning boshida siy-g‘alabgina¹ turasan dedi, po‘stakkinasini tashlab, kampirining vaqtiginasini xushlab: «Biz endi taraflar bilan urushamiz», – dedi.

Arablar shoshib qoldi. Birdan Bolqon tog‘iga qarab, arablar chopishib ketdi. Hamma yerni to‘zon tutdi. Hasan Chopson shu changda arablarga aralashib ketdi. Bektosh podshoni, belidan mahkam changallab [olib], qo‘niyib – qutuldi, ketdi, bachchag‘ar [Hasan Chopson]. Bektosh podshoni boybichcha-sining oldiga olib borib, lo‘p-lo‘nda qilib boylab, bir so‘z aytayapti Oyjon hindiga qarab:

Ziyon urgan bachchag‘arni,
Chag‘ir toshman² urib boqqin!

Ziyoni-qochsin o‘zidan,
Kaltakman³ to‘balab qoqqin!

Mo‘ysafidning soddasini,
Xo‘p o‘xhatib ushlab keldim,

Arablarning kattasini.
Qoqib turgin zinhor Oyjon!

Hali zamon kelar Marjon,
Buning vaqtin xushlab turgin!

Men ketgan so‘ng dingillasa,
Poychasidan tishlab turgin!

¹ Siyg‘alamoq – ko‘z qiri bilan qaramoq, panadagiga to‘sinqing biror teshigi yoki yorig‘idan ko‘z tashlamoq.

² Tosh bilan.

³ Kaltak bilan.

Ziyoni qochsin o'zining,
Tumshug'iga mushtlab turgin!

Arablarga xasim bo'ldim,
Hindistonga borib keldim.
Qari, mo'ysafid podshosin,
Qulay qilib boplab keldim.

Omon ekan Chambil shahri,
Bo'lar Otaliqning qahri,
Qistab yetar Afg'on eldan,
Yetib qolar Sahmon zo'ri,
Tumshug'iga chertib turgin!

Ushlab kelganim, qaddingdan,
O'zi arablarning piri.
Shirvon elning juda zo'ri.

Hasan Chopsoningga yoqqin;
Go'shtli joyga pichoq suqqin!
Ziyoni qochar tanadan,
Xo'p o'xshatib boqqin!

Tumshug'i qimirlab ketsa,
Tog'dan op kep bodomchani,
Tikan bilan urib qoqqin!
Ketar¹ buning maddasini²,

Qobili yo'q arablarning,
Ushlab keldim kattasini.
Sen Hasan Chopsonga yoqqin!

Men ketgan so'ng elanadi...
Go'ro'g'li xo'p narsa berar,

¹ Ketkiz.

² Madda - yiring.

Xo'p o'xshatib urib boqqin!

Bu qizig'ar ko'zin ochsin,
Tikan bilan ko'plar urgin,
Tomiridan ziyon qochsin!

Ziyon urmasa kelami?
Esi bo'lsa bachchag'arlar,
Xotinman janjal qilami?
Xudoy buni urmasaydi,
O'zimga duch bo'p qolami?

O'zi Shirvonning podshosi,
Rayhon arabning otasi,
Bu gapning yo'qdir xatosi.
Oyog'ini uzatib tur,

Men kelguncha tishlab, qoqib,
Ziyonni quv tomiridan,
Men kelguncha tuzatib tur!

Endi Bektosh poshshoni Oyjon Bolqon tog'ning boshida
tikan bilan urib, boqaverdi. Bu shuytib endi boqib yotaversin.
Hasan Chopson arablarni andarman qildi, goh qochib, goh quvib.

Ana endi gapni Otaliqxon bilan Go'ro'g'libekdan eshit-
mak darkor.

Ana endi bir tala-to'p bo'p otni egarladi. Go'ro'g'libek
Otaliqxonga qarab bir so'z aytaverdi:

Assalom-alaykum Afg'onning shohi,
To ko'rguncha omon bo'ling, xo'sh endi!

Kim o'larin, kim qolarin bilmayman,
El sorida o'lik bitgan chosh endi.

Omon bo'nglar, Afg'oniston odami,
To ko'rguncha hammangizga xush endi!

Qaytayin, orqamdan odam kep qoldi,
Rozi bo'ling, to ko'rguncha, xo'sh endi!

Qaytayin, arablar xumsalik qildi,
Yunusjonning holi qanday bo'ldakan¹?
Necha marta ahdi omon qiluvdik,
Qovilini² buzib zolimlar keldi.

Kim qovilni buzsa zolim shu bo'lar,
Qiz-xotinning ahvoli qanday bo'ldi?
To ko'rguncha yoppa-yovliq, xo'sh endi!

Borib arablarman savash qilaman,
Men bandaman, ajal yetsa o'laman.

Katta podsholar ham qo'shilib kelsa,
Men Hasan o'zindan xabar qilaman.

Arablarning o'zi bo'lsa, Otaliq,
Zo'rlik qilsa o'zim sizga kelaman.
Avval borib katta yulma qilaman,
To ko'rguncha yoppa-yovliq, xo'sh endi.

Ana endi Otaliqxon Go'ro'g'libekka bir so'z aytayapti:

Toqqa borgan o'tin qilar bodomni,
Olloyim ketkarsin yurakdan g'amni!

Yurgin, desang mening o'zim borayin,
Darkor bo'lsa, olib ketgin odamni!

Darkor bo'lsa Afg'oniston shahridan
Ko'makka yuboray jam'i sarbozni.

¹ Bo'ldi ekan.

² Qovil (qavl) – va'da, qasam.

Borib urushingda o'zim turayin,
Lozim ko'rsang o'zginangman borayin.

Agar darkor bo'lsa anjom-asbobdan,
Nima darkor desang, mehmon, berayin.

Zinhor o'pkalamay ketgin Go'ro'g'li,
To'y buzildi, xayollarim shoshirding;
Otni chopib, o'pkalarim pishirding.

Tala-to'p bo'p qoldi Afg'on yurtiga,
Tomosha aylang Otaliq himmatiga,
Arabdan o'chingni olgin, mehmon deb,
Xotin-qizi, bola-chaqa chuvlashib,
Omin deb fotiha tortdi betiga.

Nog'ora, surnaylar, karnaylar tortib,
Go'ro'g'li, Gulnorjon mindi otiga.

Tez haydang deb necha so'zni bildirdi,
Otaliqning yasovul, shig'ovuli,
Go'ro'g'liman Gulnordayin parini,
Majdinko'kman¹, Go'rko'k otga mindirdi.

Polvonlar chirpinib qildi g'ayratni,
Bejoy bo'ldi arabning bidahati.

Sahmon polvon, Xoldor mahram,
Shodmonjon, Ahmad sardor,
Temirxon mindi otni.

Tala-to'plar qilib endi polvonlar,
Sherdayin g'arqirab
Chambil yo'l tortdi.

¹ Majdinko'k bilan.

Xabar kelgan elidan,
Yurar bo'ldi cho'lidan.

Gulnor pari oyday bo'p,
Marjon pari moyday bo'p,
Jo'nayverdi botirlar,
Afg'oniston elidan.

Yunus qanday bo'ldi deb,
Arab nima ish qildi deb,
Ko'ngil bitgan buzilib,
Go'ro'g'lining lashkari,
Ot qo'yadi chirpinib.

Jo'naverdi tizilib,
Otning dumি cho'zilib,
Kengish¹ yerda yozilib.

Yolg'iz oyoq yo'llarda,
Dasta-dasta tizilib.

Ot qo'yadi Go'ro'g'li,
Taloq-bag'ri ezilib.

Egnida tugma bandi,
Po'pakni silpillatdi.
Satta po'lat nayzani,
Oydayin yarqillatdi.

Go'ro'g'libek xoq-qolab,
Arablarining ustiga,
Jo'nayverdi qasdiga;
Qarab bo'lmas basdiga².

¹ Keng.

² Basd (bast) – qiyofa.

Ot qo'yadi G'o'ro'g'li,
Chambilbelning ustiga.

Sahmon qovog'in uyib,
Otning boshini qo'yib,
Xoldor mahram hayda deb,
Ahmad dobilni tuyib.

Samandari haydovchi,
Tez haydang deb ishirib,
Chachov¹ bo'lganin yig'ib.

Tanda jonin qiyndi;
Yurgan turpoq maydadi.

Barakallo sap beklar,
Dushman yomon ekandi,
Chambilbelga haydadi.

Ot qo'yib chaparasta
O'z jonini qiyndi.

Katta daryodan o'tdi,
Doim yo'l to'g'risida,
Yo'l bor yeri el ekan,
Yo'l siz yerlar cho'l ekan.

Doim qistab Go'ro'g'li,
Katta-katta bellardan,
Odami yo'q cho'llardan,
Qistab yurdi Go'ro'g'li.

Choqlamay qip yo'llardan,
Kecha kunduz yo'l tortdi.

¹ Chachov – sochilgan, sochiq.

Ot teriga chang qotdi.
Necha otning chachasi¹,
Cho'lda cho'zilib ketdi.

Boqoyi yerga yetdi;
Tuyoq qayqayib ketdi,
Qamchi ursa yurmayin,
Burilib tappa yotdi.

Yem kesib bedovlarga,
Suvliqqa quyruq boylab,
Og'zi-burnin qotirmay,
Jabr qilib joniga,
Qamchi uradi cho'llarda,
Otlarning badaniga.

Uxlay desa ko'nmaydi,
Yem yeguncha to'xtaydi.
Chambil qanday bo'ldi deb,
Sira ko'ngli timmaydi.

Tag'in tuman choldi deb,
Oxir zamon bo'ldi deb,
Mard Go'ro'g'li qistaydi,
Fuqaroning ahvoli,
Qandaygina bo'ldi deb.

Ajal yetsa nechovlar,
Mening uchun o'ldi deb,
Doim bir yoqqa ketsam,
Juyqonsizlar keldi deb.

Go'ro'g'libek bir so'z aytib Siydan degan toqqa yetdi.
Ana shunda bechora o'z ahvoliga qarab, o'zining esonligini tila-

¹ Chacha (chocha) – 1) hayvonlar pochasining orqa tomoni; 2) poycha, to'biq, oyoqning tizzadan pastki qismi.

may, fuqaroning esonligini tilab, ketib borayapti:

Yovgarchilik bo'lib Chambil buzuldi,
Fuqaromni qilma o'zing xor-zor!

Ik¹ ko'zi to'rt bo'lib, bo'lgan intizor,
Bola-chaqa oyoq osti bo'ldimi?
Fuqaromni saqla, yaratgan jabbor!

Urushtirmay qo'yma meni armonda,
Bola-chaqalarni arab op ketib,
Qilmagin, Olloyim bizni sharmanda!

G'o'ladandi² bedov otning to'qasi³,
Bektosh podsho xotinlarni op ketsa,
Sira yo'qdir bu gaplarning davosi.

Urushda to'kilgay mening gunohim,
Yuragimdan ketsin qayg'uman⁴ vohim.

Beklar qoldi unda-bunda,
Oti charchab piyoda.
Nima ko'rdim kelib mana dunyoda?
Arablar alamni qildi ziyoda.
Kelayapman mana tog'da, qiyoda.

Suyagim o'rtanib ketdi,
Dushman qursin, quloq bitdi.
Qulamasin Chambil yurti!
O'zim turkman vallamat!

Qulo cho'lda charchab o'ldi,
Beklarimning mingan oti.

¹ Ikki.

² G'o'la – 1) bronza; 2) g'o'la shaklidagi quyilgan oltin, mis, jez; 3) eritilgan yaxlit metall.

³ To'qa (to'g'a) – ot pochasiga taqiladigan enlik uzuksimon narsa.

⁴ Qayg'u bilan.

Hay attang, yetsam ekan,
Elatima o'tsam ekan...

Bolalarni bandi qilmay,
Tajan daryosidan o'tmay,
Arablarga yetsam ekan.

Ajali yetmaganini,
Ayirib olib qaytsam ekan.
Shu pallada Chambil elga
Borib uyda tursam ekan.
Arablarni qirsam ekan.

Bola-chaqa xaloyiqni,
O'lmaygina ko'rsam ekan.

Hamishagiday bo'lib elda,
Qushlar chuyib, dobil tutib,
Ko'lman-ko'lga lochin chuyib,
[Ovni ovlab]yursam ekan.

Bola-chaqa oy Yunusni,
Eson-omon ko'rsam ekan.

Mard Go'ro'g'li fido bo'ldi,
Qorg'alig'a yetganida,
Qirq yigit ketinda qoldi.

Chin bedov ekan Majdinko'k,
Gulnor paridan olib,
Sahmon polvon minib oldi.

Hasanning to'rig¹ otini,
Xoldor mahram minib oldi.

¹ To'rig (to'riq) – qoramitir qizg'ish rangli ot.

Minmoqqa oti bo‘lmasa...
Ko‘p otlar yo‘lda o‘ldi;
Ko‘p ot mayib bo‘p qoldi.
Qolganlari sotib oldi.

Qarg‘aliga borganida,
Xoldor mahram, Sahmon polvon,
Go‘ro‘g‘libek uchovi [birga ot] soldi.

Juda bu yo‘l qistov bo‘ldi,
Uchovi qistab yo‘l yurib,
Qo‘shinidan qaqas bo‘ldi.

Dushman uchun tortmaydi g‘am,
Odamzoddan hech tortmaydi dam.
Sahmon polvon, Go‘ro‘g‘libek,
Ot qo‘yadi Xoldor mahram.

Kechasi qaroqchi yo‘li
(Qaroqchini¹ ko‘zlab yo‘l tortadi)
Kunduz kuni qistab beklar,
Elga qarab, jon sotadi,
Ko‘ringlar arg‘imog‘iga²,
Tog‘dan baland dimog‘iga!

G‘ayrat qilib Go‘ro‘g‘li polvon,
Ertan bilan bo‘lganida,
Bordi Bolqonning tog‘iga.

Ana endi beklar yetdi. Tong otib yorug‘ bo‘ldi, namoz-dan forug‘ bo‘ldi. Ana beklar uchovi qarasa, Chambil omon-eson turibdi. Buzulgani yo‘q. Bildi, Rayhon podsho Chambilni olgani yo‘q. Ko‘ngli joy bo‘ldi. Bir palla qarasa, goh Yulduzning tog‘i changidi, goh Asqarning tog‘i changidi. «Ana tuxumginang qu-

¹ Yetti qaroqchi yulduzi nazarda tutiladi.

² Arg‘imog‘, (arg‘umoq) – uchqur, chopqir ot.

rib ketkur», – deb, Hasan Chopsonning vag‘irlagan dovushi chiqadi. «Bolangning yonboshiga kaltagim. Sen qoshi o‘sinq soqoltoyalarni», – deb. «Bo‘ldi-bo‘ldi. Hali hech gap bo‘lgan yo‘q ekan. Eson-omon Chambilga bir tuproq o‘rnabdi. Hech tinka qilgani yo‘q», – deb, xushvaqt bo‘ldi Go‘ro‘g‘libek. «Endi qo‘sish kelguncha, bir tinchlik qilib olaylik. Omonlik-esonlik ekan», – dedi. Sahmon polvon shuytib, qulog‘in yerga qo‘yib, dubir oldi. Ana, «Hali Asqarning tog‘ida Hasan Chopson qochib, quvib, arablarning ichini kuydirib yuribdi», – dedi.

Ana endi gapni Hasan Chopson xotini Oyjondan eshitmak darkor. Ana endi Oyjon Bektosh podshoni cho‘p bilan, bir g‘aram bodomchani tog‘dan chopib olib kelib: «Buni qoqaver ziyon qochsin deb ketib edi», – deb [uraverdi].

Bu uch polvon o‘tirib edi. «El omonlik ekan», – deyishib.

Endi Oyjonning aytgan so‘ziga tomosha qilmoq darkor:

Ziyon qoch, zahmat qoch, ollo-yoy,
Shuytibgina turgin dedi,
Bolqon tog‘da yurgin dedi,
Hasan Chopsonday kuyovim,
Tikan bilan urgin dedi.

Qimirlasa tishlab tortib,
Qorovul bo‘p turgin dedi.
Ziyon ket ko‘ch, ko‘ch!

Tarbiyat qip boqqin dedi,
Qo‘chqil qonin to‘kkin dedi.
Sen ursang ziyon qochar deb,
Shu urushga ketarida,
Badanlarini qonatib,
Xo‘p asvatlab boqqin dedi.
Shuytib menga yoqqin dedi.

Qorni katta boyga bor,
Burum-burum soyga bor!

Issiqlasang qirga bor,
Panalasang jarga kir!

Meni ko'rar deb aytsang,
Sen chup-chuqur g'orga kir!
Tinch qutulay deb aytsang,
Qop-qorong'i go'rga kir!
Ko'ch-ko'ch, ko'ch-ko'ch, olloyim!

Podsho ranging o'chdimi,
Aqlginang shoshdimi,
Ziyonginang ko'chdimi,
Yurak bagring pishdimi?

Badaningdan falokat,
Shirvon eldan otlanib,
Gala xotin-qizlarga,
Qilib kelding halokat.

O'zing podsho do'ngmisan?
Xotinlarni quvmoqqa,
Vo, ishginang o'ngmisan?

Xotin-qizni men haydab ketam¹ degan,
Bektosh arab senmisan?

Qiynab turay jonginangni,
Qon qilayin tanginangni,
Ura-ura sen tentakni,
Bu tanangdan quvib chiqay,
Tomiringda jonginangni.

Zyon ko'ch, zahmat ko'ch,
Hay-hay, ko'ch-ko'ch!

¹ Ketaman.

Har savdoga ko‘nar bandaning boshi,
Dod deydi bir narsaning nolishi.
Shundayin Xoldorxon tiklab qarasa,
Ko‘ch-ko‘ch, deydi bir xotinning dovushi.

Xoldor mahram imlab xez qilib ketdi,
Yo arabdan bu yerga keldimi deb,
Sahmon bilan Go‘ro‘g‘libek,
Qilichin yalang‘ochlab, ot qo‘yib,
Xoldorning ketidan zo‘r berib ketdi.

Oyjonning oldiga du bora qo‘yib,
Uchovi xez qilib boshiga yetdi.

Tizdan¹ ketmagay madori,
Yuragining yo‘qdi cheri.
Shundayin tiklab qarasa,
Ko‘ch-ko‘ch, deb ziyonni quvg‘ich,
Hasan uzunining yori.

Kasalni boqqich ekan deb,
Hangoma qilib kulishdi,
Chambil shahrining beklari.
Go‘ro‘g‘li, Sahmon kulishib,
Turdilar hayron qolishib,
Ko‘rsa uyaladi deyishib.

Ura-ura Oyjon hindi,
Qoldi damidan tushib.
Ro‘moli bo‘shalgan ekandi,
Chorsisin² boshga o‘radi.

Sochin besh qo‘lman taradi.
Hasan Chopsonning qallig‘i,

¹ Tizzadan.

² Chorsi – gulli, to‘rt ko‘zli ro‘mol.

Kuyovin aytganin qilib,
Uh deb balandga qaradi.

Boshida bordi jig‘asi,
Yaxshi otlarning to‘qasi,
Oyjon hindi qarasa,
Teskari qarab turibdi,
Chambil shahrining egasi.

Ana endi ko‘rmasin deb turdi hammasi. Undan keyin ah-ha, ah-ha deb, dovush qildi. Shunda [Oyjon]: «Shu katta odamlar mening qo‘sish aytganimni ko‘rsa uyat bo‘libdi. Hay attang-a bu qanday bo‘ldi?» – dedi bechora. Shuytib turib edi, Go‘ro‘g‘libek: «Kim bo‘lasiz?» – deb so‘radi. Uyalib chorsisini yopindi.

Shunda aytdi Go‘ro‘g‘li:

– Uyalmaydigan ishni qilinglar, – dedi.

Xoldor mahram aytdi:

– Bu o‘zimizning Hasan Chopson akamizning xotini-ku.

Bu chechamiz ekan, – dedi.

Ana endi Xoldor mahram chechasiga qarab, uyalmasin deb bir so‘z aytaverdi:

Iloyo dunyosi tushsin bepoyon,
Qaytayik, dunyoda bo‘lmadik xursand.
Chambilning elidan bering xabarni,
Omonsizmi, esonsizmi, chechajon?

Yomon gapi qursin, ko‘ngil qabardi.
Akamiz beruvdi yomon xabarni.
Omonsizmi, esonsizmi, chechajon?
Chambilning shahridan bering xabarni!

Qistab keldik olis yo‘ldan begumon,
Necha odam piyoda bo‘ldi sarson.
Kim o‘lik, kim tirik bizlar bilmadik,
Chambil eldan xabar bering, chechajon!

Asqar tog‘i changib yotgan tumanmi?
Arablarning fe‘li qursin yomonmi?

Biz so‘raymiz bir-bir qilib Chambilni,
Yunus bilan Misqol pari omonmi?

Ana endi Hasan Chopsonning qallig‘i: «Ko‘rgan yo‘q ekan», – dedi. Ana endi kulimsirabgina bir so‘z aytaverdi qayinlariga.

Ana bu Oyjonning aytayotgan so‘zi Go‘ro‘g‘libekka:

Qishning kuni tog‘da tuman,
Ko‘rganimni sizga aysam,
Chambil shahri hozir omon.
Chiqqan kuni choshka yetdik,
Qo‘rqmang qaynim, bachchajon,
Hali elat bari omon.

Nima bo‘lganin bilmayman,
Har zamonda dovush berib,
Vog‘irlashib, aralashib,
Dovushini eshitaman,
Arablarman bo‘kirishib,
Urushdadir Hasan Chopson.
Qo‘rqmang qaynim, elat omon,
Arabdan hech qilmang gumon.

Goh bu toqqa o‘tadi,
Arablar to‘zib yitadi.
Arablar toqqa tarmashsa,
Hatto tosh hangalatadi¹.
Baland bilan kelib qolsa,
Chambilga qarab ketadi.

Arab bitgan, ushla, deyishib,

¹ Hangaltmoq – dumalatmoq.

Soqollari jilvirashib,
Xezlatib quvib ketadi.

Qo‘rqmagin Yunus singlim deb,
Tasalli berib bechora,
Bejoy ko‘p g‘ayrat etadi.

Barakalla ildam ekan,
O‘rtaga olib qamsab qolsa,
Ustidan irg‘ib o‘tadi.

Shol kaltaklarin otadi.
Gohosining iyagiga,
Xez qilib, tepib ketadi.

Andarmon qilib yuribdi.
Har zamonda bo‘kiradi;
Tag‘i ketib qolmagin deb,
Kunda uch kelib turadi;

Manav Shirvon soddasimish...
Bektosh arab emish oti;
O‘zi podsho kattasimish.

Go‘shtidan mahkam ushladi,
Ermak qip vaqtin xushladi.
Tikan bilan urib turdim,
Op kelib boylab tashladi.

Ozroq qonin to‘kaman,
Aytganginasini qilib,
Kunim uchun xun tashayman.
Eri-xotin qo‘sh ho‘kizdi(r)
Hasan Chopsonga yoqaman.

Tog‘ni oralab yuraman,
Tikanli o‘tni teraman.

Aytganginasini qilib,
Badanginasin yoraman.

Shu tikanlar sinib ketar,
Sendan ziyoning ochsin deb,
Cho'gir¹ bo'lgancha uraman.

Chopsonning aytganin qilib,
Bulkullasa qattiq tishlab,
Qorovul bo'lib turibman,
Miyasiga choqlab mushtlab.

Baland tog'ning o'ri emish,
Suv ko'p oqqan jari emish,
Bu boylog'li yotgan kishi,
Ham arabning kattakoni,
Qo'llovchisi – piri emish.

Go'ro'g'libek:

– Ko'nglim to'ldi Hasan Chopsondan. Agar shu Shirvonning elini olsam, cho'rtta Hasan Chopsonni katta qilaman Arabistonga. Beadabchiliklaridan ham rozi bo'ldim. Shu ho'qqa odamdan har ish kelar ekan. Yomon odam kulib-kulibgina ishingni qilar ekan, dedi. Shuytishib turib edi, Shodmon bilan Gulnor yetdi. Marjon pari orqasidan Ahmadbek, Temirxon yetdi. Shu, dasta-dasta orqasidan lashkar yetaverdi. Bir kecha-kunduzda Samandar haydovchisi bitta qo'y may barisini quvib keldi. Oti o'lganining egarini ko'taribdi; charchagan beklarning choponini ko'taribdi. Afg'onning yurtidan kelgancha o'n bir yuz o'n uch ot o'libdi, qistab yurganidan, ming otga loyiq puli bor ekan. Mingi otli bo'p, bir yuz o'n uch odam piyoda yetdi. Ana endi hammasi Bektosh podshoni ko'rib, Oyjon hindi, bodomchani olib kelib urib yotganiga hamma xushvaqt bo'lib, arablarni olgancha bo'lidi. Lekin ularning kelganini hech kim bilgani yo'q. Tong otdi. Ana endi Go'ro'g'libek bir kam o'ttiz sardorga lashkarni topshi-

¹ Cho'gir – 1) qo'tir; 2) mo'mataloq.

rib, bir kam o'ttiz bo'lak qilib, bir so'z aytayapti. Ana Go'ro'g'li podshoning har ko'zi yulduzday qaynab, lashkarga qarab, xon Go'ro'g'lining aytayotgan so'zi:

Xoldorbilan Sahmonjonim,
Do'ning arabning ustiga!

Nayza suqing qon to'kilsin,
Asqar tog'ning pastiga!

Juda ham g'ayrat qilinglar,
Har yoqdan qurshab olinglar!

Bir kam o'ttiz yerdan kelib,
Rayhonni bandi qilinglar!

Bektoshni bandi qilibdi,
Hasan Chopsonning bir o'zi.
Arabning qurbi yo'q ekan,
Shuncha janjalni qilibdi,
Dushmanga savdo solibdi,
Barakalla Chopsonima,
Pirini boylab olibdi.

Momomiz qorovul bo'lib,
Tikan bilan ko'plar urib,
Shuytib tarbiyat qilibdi.

Do'ning arabning ustiga,
Ot choping g'anim qasdiga!
Kalla do'lday dumalasin,
Asqar tog'inining ostiga!

Poylab sanching arablarni!
Necha marta qasam ichdi,
O'ldiringlar arablarni,
Podshosin bandi qilinglar!

Har yog'idan bo'lak-bo'lak
Kelib o'rtaga olinglar!
Hech qaytmayin ot qo'yishib,
Avval boshlab kattasini,
Podshosin ushlab olinglar!

Bejoy xo'rliklar ko'rsatib,
Dim indamasday qilinglar!

Turkman-o'zbek navkarlari,
Do'ning junlining ustiga!
Qilich choping o'lik to'lsin,
Asqar tog'ning pastiga!

O'rtaga onglar, uchirmanglar,
Arabga omon bermanglar!

Hulkarday to'p bo'p ot qo'ying,
Hech bittasin qochirmanglar!

Do'ning arabning qasdiga!
To'qol yol otlarni choping,
Qoshi o'siqning ustiga!

Har yog'idan do'nib keling,
Po'lat nayza qo'lga oling!
Hech omon bermang, arabga
Qorong'u kunlarni soling!

Turkman deb asti aytmasin;
Menmanlik qip kelgan arab,
O'lmayin tirik qaytmasin!

Ot qo'y dushmanning ustiga!
Kalla kesing, qoplar oqsin,
Asqar tog'inining pastiga!

Ot qo'yib tuyg'unday uching,
Kafanday to'nini biching,
Tinmay arablarni sanching!
Arablarni bandi qiling,
Shopman¹ chopib mayda qiling!

O'liklarki dumalatib,
Kallalarin qangalatib,
Gavdalarin yumalatib,
Kelding arabning qasdiga
Ot qo'y arabning ustiga!

Yaxshining ko'pdi xayiri,
Chakkasida non patiri,
Och bo'riday ot qo'yinglar,
Turkman-o'zbekning botiri!

Kelding g'animning qasdiga,
Chirpinishib ot qo'yinglar,
Cho'qli g'animning ustiga,
Bir kam o'ttiz bo'lak bo'lib!

Ana shuytib Go'ro'g'libek bir so'z aytaverdi:

Arab Chambilga kelganda,
Oy Yunus janjal qilganda,
Dushman manmanlik qilganda,
Arab kep yo'lim to'sganda,
O'tkir xanjarni osganda,
Qilich sermab bosh kesganda,
Tuting girdimni, yo Ali.

Xon Go'ro'g'li mingandi G'irotiga
Alman qizil shuncha ishga sabab bo'p,
Arablarni boshlab Chambil op keldi.

¹ Shop – qilich. Shopman – qilich bilan.

Qoraytibdi ko‘zini;
Bosib kelgan ko‘p lashkarning izini,
Samandar bilgan yo‘q ekan,
Rayhon kelganin bilib,
Samandar dev to‘xtotolmay o‘zini,
Samandar shovqin soldi.
Tog‘ ko‘chgandayin bo‘ldi.

Endi bilib Samandar,
Qizib ketdi bachchag‘ar.
Turgan joyi jo‘nag‘ar¹.

Nega kelding dinsiz deb,
Samandar dev yugurdi.
O‘zi bejoy zo‘ravor.

Bir xil gapni bilmaydi,
Bilganidan qolmaydi.

Agar yuz kun urushsa,
Charchabgina qolmaydi.

Go‘ro‘g‘libek jon sotdi.
Samandar dev xez qilib,
G‘irotdan oldin o‘tdi.
Samandarning dovushini,
Hasan Chopson eshitdi.

Chambil girdi o‘r bo‘ldi,
Samandarning dovushini eshitib,
Hasan Chopson sher bo‘ldi.

Go‘ro‘g‘libek bangi bahaybat tortib,
Samandarman ikovi,

¹ Jo‘nag‘ar (jo‘nagar) – tog‘da bir yog‘i balandlik, bir yog‘i pastlik bo‘lgan yolg‘izoyoq mashaqqatli yo‘l.

Rayhon arab oldiga,
Qistab yaqinlab qoldi.

Arabning esi shoshdi,
Ko'rib turib qon¹ qochdi.
Go'ro'g'lini tanidi.

Go'ro'g'li bor ekan deb,
Ranglaridan qon qochdi.
G'irotni jildi dedi,
Qiyomat bo'ldi dedi.

Jonning hiylasin qilib,
Arab bitgan podshoga,
Go'ro'g'li keldi dedi.
Bir kam o'ttiz sardori,
Bari chappa-choq bo'ldi,

Och bo'riday chirpinib,
Birqillab to'g'on tutib,
Sherday bo'lib g'arqirab.
Rayhon podsho qarasa,
Sahmon polvon keladi,
Bulutday bo'p gurkirab.

O'ldim deydi arablar,
Qo'lidan anjom tushib,
Har tarafga tirqirab.

Bir kam o'ttizi keldi,
Qiyomat endi bo'ldi.
Yashin oqqanday bo'lib,
Xanjarni yarqillatib,
Turkman-o'zbek botiri,
Qistab o'rtaga oldi.

¹ Qoni.

Hasan Chopson bechora,
Ichlari kuygan ekan,
Yurt egasi keldi deb,
O'zin qoqosga oldi.

Endi ko'ngli joy bo'ldi.
Bir kulchatoy qilay deb,
Bir govvosni quvalab,
Dumidan qo'l sop qoldi.

Qutulsinmi qoramol yovvoysi,
Qozonga o't yoqqin deb,
Oyjon pari oldiga,
Qo'niyib sudrab keldi.

Oyjon och qop yotuvdi...
Qozon osib shu Oyjon,
Suvni solib, o't yoqib,
Shu govvosni tezroq,
Bo'lak-bo'lak nimta qip,
Darrov qozonga soldi.

Hasan Chopson un oldi;
Qallig'imam ikovi,
Tog'da kulchatoy qildi.

Hech tortmaydi oh-u voy,
Shu urushning boshida,
Soqi tortdi nuqra¹ nay.

Toqda² uch kun urushgan,
Arablarman kerishgan,
Hech parvoyiga kelmay,
Hasan Chopson xamir qip,

¹ Nuqra – kumush.

² Tog'da.

Boybichchasi ikovi,
Qilaverdi kulchatoy.

Chambil beli yaxshi joy.
O'zbekka mehmon borsa,
Quydiradi sari moy.
Turkmanga mehmon borsa,
Qilib berar kulchatoy.

Go'ro'g'libek urushdi.
Shu urushdan hech qo'rqlmay,
Bolqon tog'ning boshida,
Hasan Chopson qoshida,
Oyjon qildi kulchatoy.

Tog'larni to'zon choldi,
Oy Yunus shukur qildi.
Turkman-o'zbek botiri,
Qilich oyday yarqillab,
Dubulg'aga tegadi.

Toshday bo'lib sharqillab,
Maydonda terkab ketib,
Satta tulpor pirqillab.

O'q keladi zirqillab,
Ag'darilib ot qo'yib,
Sahmon bilan Xoldorjon,
Qizil norday chirqillab,
Arablar o'ldik dedi,
Ho'kizday bo'p burkirab.

Samandar ot qo'yadi,
Karkday bo'lib g'arqirab.
Jon degan shirin ekan,
Arab bitgan kochadi,
Chumchuqday bo'p tirqirab.

Yetti yashar Samandar,
Qayt-ho, qayt-ho deb,
Qochganini ushlaydi;
Juda vaqtin xushlaydi.

Oyoq qo‘lin changallab,
Mayib qilib tashlaydi.

Go‘ro‘g‘li g‘ayrat etdi,
Asqar tog‘ning pastida,
Bir-birining qasdida,
Bejoyin savash etdi.

Otlar dumini cho‘zdi,
Arab xudoya yozdi.
Vo o‘ldik deb arablar,
Jondan umidin uzdi.

Ot boshini yig‘maydi,
Qochganini Samandar,
Nari-beri qo‘ymaydi.
Go‘ro‘g‘libek xez qilib,
Hech urushga to‘ymaydi.
Uytib-buytib qochganin,
Bu Samandar qo‘ymaydi.

Alman qizil qaysing deb,
Go‘ro‘g‘li ushlab oldi.
O‘ldirmay bandi qildi.
Qulay keldi bir yoqdan.

Shu Rayhon arab xez qilib,
O‘zin chekkaga oldi.
Ajali yetmab edi,
Samandar ko‘rmay qoldi.

Yomon qursin yoronlar,

Tirik odamni o'ldi deb,
Bejoy ko'p odam o'ldi.

O'lik sulayib qoldi.
Ikovidan ajalli,
Ajali yetgan o'ldi.

Chambil el xoli qoldi.
Arabdan ancha o'ldi,
Ochilmayin gul so'ldi.

O'liklarning ostida,
Hamma yerin qon qilib,
Nechov panalab qoldi.

Sap botirlar jon sotdi,
Hamma yerni gap tutdi.
Asqar tog'i qon bo'lib,
Tandan chiqqan jon bo'lib,
Arablar qirg'in topib,
Satta bedovni chopib,
Ot qo'yadi Go'ro'g'li.

Xoldorjon ol-ha deyishdi,
Xanjarni sol-ha deyishdi.
Soqol ketdi tirqirab,
Arab bitgan ko'p bo'lib,
Qochaverdi tirqirab.

Go'ro'g'lining polvoni,
Balli xo'p ish ko'rsatdi.

Arablarni to'zitib,
So'na chaqqan tuyaday qip,
Guvalak chaqqan biyaday qip,
Qotoloq bo'lgan podaday qip,
Uchgan yapoloqday qip.

Kiyimlarin tashlab qochdi,
Xuddi ko'rshapalakday bo'lib,
Qochaverdi arablar.

Menmandi, holi xaroblar,
Endi kelmaguday bo'lib,
Cho'rtta qo'rqibdi taraflar.

Go'ro'g'li quvib ketadi,
Dasta-dasta chang tutdi.
Yetganin hangallatdi,
O'likni yonboshlatdi.

Quva-quva sardorlar,
Cho'llarni o'lik tutdi.
Qistab Tajanga yetdi.

O'lmaygina yetgani,
Gumpillatib daryoga,
Otlarini tashlatdi.

Tajan daryo ichini,
O'rdakday odam tutdi.

Qochgan yovda qoruv yo'q,
Baraka qochsa shundan,
Nechovin baliq yutdi.

Menmanlik bir ko'p yomon,
Ajali yetmagani,
Tajan daryodan o'tdi.

Go'ro'g'libek kelganday,
Xar qochadi bo'yin juni jilvirab,
Bitta qolmay o'lganday.

Cho'llarni o'lik tutdi.

Bir yomonning so'ziga,
Ko'p odam o'lib ketdi.

Quvgani uyalib,
G'o'ro'g'libek yuring deb,
Lashkarini qaytarib,
O'lja o'zingniki dedi.

Pulning qadri o'tgani,
O'ljani olib ketdi.
Eson-omon Go'ro'g'li,
Hasan Chopson oldiga,
Chechasin yonboshiga,
O'lgan o'lib, qolgan qolib,
Charchab, xorishib yetdi.

Otlarni toqqa haydab,
Belbog' choponni yechib,
Endi tinch bo'lib yotdi.

Arablarning qo'rqqani
Qoramolday hurkkani,
Shirvonga Turkman kelar deb,
Faringgaqochib ketdi.

Tala-to'p bo'p qoldi
Shirvonning yurti,
Go'ro'g'libek Bolqon tog'da yotibdi.

Shirvon eli darvozani ko'mishib,
Go'ro'g'libek ana keldi deyishib.

O'lgandan qo'rqqan yomon,
Pok o'lay deb qaltirashib yotibdi.

Arablarning ik qulog'i bitibdi,
Bir nechasi chuqur qazib uyida,

Xon Go‘ro‘g‘li kelsa meni aytma deb,
Xotiniga nasihat qip yotibdi.

Ana endi Go‘ro‘g‘libek Bektosh podshoni o‘ziga to‘g‘ri qilib, Bektosh podsho bu dunyodan umid uzib, jon qanday shirin, qaltirabgina turdi, tog‘dan hangalatib yuboradi deb.

Go‘ro‘g‘libek Bektosh podshoga qarab bir so‘z ayta-verdi:

Shayton fe’lli bachchag‘ar,
Namoz o‘qib yotmadingmi?
Bola-chaqa ko‘tarilsa,
Senday xumsa yoshi ketgan,
Bormanglar Chambil elga deb,
Nasihat qip aytmadingmi?

Shu chatoq sendan lozimmi?
Bola-chaqangning oldida,
Huzuringda yotmadingmi?

Go‘ro‘g‘libek qarindosh deb,
Bilmagan arablarga,
Oy Zaydijon Chambilda deb,
Bo‘kirib o‘lgur mo‘ysafid,
Sen nasihat aytmadingmi?

Ahvolginang qanday bo‘ldi?
Hasan Chopson ushlab oldi.
Menmanlik ko‘p yomon ishdi,
Menmanlik boshingga yetib,
Oyjon seni bandi qildi.

Elingni yig‘ib olmading,
Menmanligingdan qolmading;
Zaydinni xotir qilmading.
Soql tirqiramay o‘lgin,
Uyat ekanin bilmading!

Endi bilgin aytgan so'zim,
Menga checha Zaydin qizing.
Mo'ysafid bo'p yov qilgandan,
Ustiga bo'z tuproq lozim.

Bektosh podsho:
«Endi men xam senga rost gapni aytay», – dedi.
Ana endi Bektosh podshodan rost gapni eshitmak darkor:

Vallamat Go'ro'g'li eshitgin dodni,
Podsholik navbatdi xo'rlik navbatdi.

Qariligim asar qildi boshima,
Alman qizil borib qoldi qoshima.

Chambil sabil bo'ldi dedi,
Egasiz bo'p qoldi dedi.

Men senga rostin aytsam,
Go'ro'g'libek o'ldi dedi.

Necha tog'dan o'tdi dedi,
Hindistonga yetdi dedi.

Alman qiznl qasam ichib,
Toy hindining qashqa fili,
Go'ro'g'lini yeb ketdi dedi.

Go'ro'g'libek ishondi gapiga. «Nima ko'rsang aytal
bor elingga! Bor yovlab kelaver endi!» – dedi.

Bektosh podsho balodan qutulganday bo'lib ketdi.
Endi gapni uzaytib yurayikmi? Arabiarning kattasi Shirvon-
ga yetdi. Endi «Go'ro'g'lining choponini cho'mmoq» de-
maysan. Bektosh podsho Go'ro'g'libekning tarafini olib yo-
taverdi. Ana endi Go'ro'g'libek suyunchiga yubordi.
Go'ro'g'lining Alman qizildan ko'ngli to'ldi. Ana Temir-
xon Yunusjonga, Misqolga borib bir so'z aytayapti:

So'zima qulq song og'a Yunusjon,
Obro' topib keldi Hindiston eldan!

Maza chiqar qizil tildan,
O'ynab oshdik necha beldan.
Oy Yunus, bering suyunchi,
Biz keldik Hindiston eldan!

Bosdik dushmanning izini,
Eshit Temirxon so'zini,
G'am sarg'aytdi oy yuzini.
Yunusjon, bering suyunchi,
Op keldik Gulnor qizini.

Dushmanlarga qiron soldik,
Xudo berdi obro' oldik.
Misqoljon, bering suyunchi!

Hindilarning deganidan,
To'rt xotinni olib keldik.
Oy Zaydin, bering suyunchi,
Gulchehra bering suyunchi!

Boldan totlidi so'zlari,
Bahordi, ko'klam yozlari.
Gulnor pari bunda keldi,
Oy Marjon xizmatkor bo'ldi.
Suyunchi ber, el qizlari!

Etagiga boshni songlar,
Nima bo'lsa endi qinglar!
Kelinchaklar, kayvonilar,
Gulnorjonn olib kenglar!

Otasi katta podshodi,
Chini bilan xizmat qinglar!
O'zi katta podsho qizi,

Tag‘in-a ko‘ngli qolmasin,
Ko‘ngil to‘lgan ishni qinglar!

Temirxon Misqolga aytdi.
Kiyim-kechakni yechib,
Podsholiq kiyimlar kiyib,
Yunus bilan Misqol pari,
Nog‘ora-surnaylar qo‘yib,
Gulnorning oldiga ketdi.

Qiz-u juvon, kelinchaklar,
Xuddi guldaiyin yashnashib,
Bolqon tog‘ning cho‘llarini,
Qizil guldai xotin tutdi.

Chambildan chiqib ko‘p odam,
Ko‘p odam bulkullab ketdi.
Cho‘pon-cho‘liq, fuqarolar,
El sorini odam tutdi.

Oyman¹ yulduz uchraganday bo‘p,
Satta pari ko‘chganday bo‘p,
Bolqon toqqa odam yetdi.

Yo‘q ekan tog‘larning qori,
Qolmadi yurak zanglari,
Yunus ko‘rib, olib kelib,
Chambilbelning qizlari,
Kulib joyidan turib,
Marjon bilan Gulnor pari,
Qo‘y-qo‘zidayin jomrashdi².
Marjon pari, Gulnor pari,
Yunus, Misqolman³ ko‘rishdi,

¹ Oyman.

² Jomrashmoq (жомрашмоқ) – tartibsiz vag‘irlamoq.

³ Misqol bilan.

Hamma qizlar gulday bo'lib.

Bosh-boshiga hamma ko'z ko'rgan akobir, beklar sog'i-nishib ko'rishdi. Misqol pari «uch kun to'y» deb, qichqirtib yubordi. To'yga deb har shaharga xat qilib jo'natdi.

Yomonning jazosi shu deb Alman qizilni toshga tutdi. Tosh qirday bo'p uyulib qoldi. Alman qizil o'ldi.

Hasan Chopson: «Biz ko'p odam bilan qulayimiz kelmaydi», – deb, «hayt» deb ovloq joyga solib ketdi.

Shunday Go'ro'g'libekni, Marjon parini, Misqol parini, Samandar xotinini Chambilga qarab olib ketaverdi. Bir tangatilla sochib borayapti Gulnor parining boshidan. Necha sultanat bilan Chambilga kirgizdi. Har rang naqshlagan uyg'a Gulnor parini kirgizib, shu el yorilib, to'yga kelib, shunday in'om, xayrlar qilib, do'stlar quvonib ketdi.

Tevarakda g'ayrilar: «Mana bachchag'ar, Go'ro'g'li yetimak, o'zini tutib olib ketdi. Shu bachchag'ar Go'ro'g'li kelmasa, o'zligingizdan bilib, tegmang», – deb yotaverdi.

Sop yigining o'tkuri, sap bir bilagi kep har urug'dan kelib, xizmatkor bo'laverdi. Yunus pari, Misqol pari, Gulnor pari Go'ro'g'lining xizmatini qilib, mast bo'p yotaverdi.

To'y sob bo'p tarqab ketdi.

O'lganlarga mol so'yib, xudoyi qildi Go'ro'g'libek.

Ana endi Kobiliston, Farangiston, Chin-Mochin, Xitoy-Xo'tan, Oltoy, Qirg'iz, Farg'ona, Toshkent, Turkiston Go'ro'g'lining ovozasiga tebranib qoldi. Yangi taxti to'rini choqlab, Go'ro'g'libek polvonlarni taxtlab podshoga o'xshab qoldi. Toy hindining qizini Hindistondan, Gulnor parining o'zini olib kelgan dostoni sob bo'ldi.

Izohlarni kiritishda To'ra Mirzayev, Jabbor Eshonqulov va Selami Fidokor tahriri ostida 2007-yil nashr etilgan "Alpomish" dostonining izohli tug'atidan va To'ra Mirzayevning "Hodi Zarif suhbatlari" kitobidan ham ijodiy foydalanildi.

XALQ OG'ZAKI IJODI

O'ZBEK XALQ DOSTONLARI

GULNOR PARI

(“Go‘ro‘g‘li” dostonlari turkumi)

Aytuvchi:

MUHAMMAD JOMUROT O‘G‘LI PO‘LKAN SHOIR

Nashrga tayyorlovchilar:

Muhammadnadir **SAIDOV**

Zubayda **HUSAINOVA**

Qayta nashrga tayyorlovchi, iqtibos va izohlarni kirituvchi:

Ergashboy **MATYOQUBOV**

Mas’ul muharrir:

Lolaxon **QO‘ZIBOYEVA**

Kompyuterda sahifalovchi:

Ergashboy **MATYOQUBOV**



Litsenziya raqami № 100634. 10.07.2023 yilda berilgan.

Bosishga 31.10.2023 yilda ruxsat etildi.

ofset qog‘oz. Qog‘oz bichimi 84/108 1/32.

Times New Roman garniturası. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot tabog‘i 20. Shartli b.t. 23.

Adadi 3000 (1-zavod 1000 nusxa). Buyurtma № 29.


Bahosi kelishilgan narxda.

“BOOK MEDIA PLUS” MCHJ bosmaxonasida tayyorlandi.

Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani, Cho‘pon ota ko‘chasi, 28 A.



ISBN 978-9910-750-01-4



9 789910 750014